

028.2  
53  
T-85

M.A. TURSUNOV

# LAZERLAR ASOSLARI

Darslik



026.2

53

74-85

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

M.A.TURSUNOV

# LAZERLAR ASOSLARI

*Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 5312900- Lazer  
yorug'lik texnologiyalari va optoelektronika yo'nalishida tahlisil olayotgan  
ta'labalar uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

Toshkent  
“Shafoat nur fayz”  
2023

**UO'K 621.373.8(075)**

**KBK 32.86-5ya7**

**T 87**

Tursunov M.A. Lazerlar asoslari [Matn] : darslik / M.A. Tursunov. - Toshkent: Shafoat nur fayz, 2023.- 216 b.

Ushbu darslik qattiq jismli impulsli, uzlusiz gazli optik kvant generatorlarining konstruktiv tuzilishi va asosiy elementlari, ishslash tamoyillari, lazer qurilmalarining ishlatalishi va ularning optik parametrlarini o'lhash usullariga qaratilgan. Darslikda asosan katta e'tibor, lazerlarning optika – mexanik, radioelektron qismlarining o'ziga xos hususiyatlari va texnik parametrlarini o'lhash masalalariga qaratilgan. Shu bilan birgalikda o'quv materiallarini o'zlashtirish uchun maxsus sinov savollari keltirilgan.

Bundan tashqari olingan nazariy bilimlarni yanada mustahkamlash uchun optik kvant generatorlarining parametrlarini o'lhash metodikasi va o'lchov qurilmalardan foydalanish hamda ular yordamida lazer qurilmasining optik parametrlarini o'lhash masalalari keltirilgan.

Darslik, asosan keng kitobxonalarga mo'ljallangan bo'lib, asosan shu soxa mutaxassislari, bakalavrilar, magistrlar, injener, ilmiy xodim hamda lazer texnikasidan turli sohalarda foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan.

**UO'K 621.373.8(075)**

**KBK 32.86-5ya7**

***Taqrizshilar:***

**B. Egamberdiyev** – fizika-matematika fanlari doktori, TDTU professori;

**M.S. Yakubov** – t.f.d. fanlari doktori, TATU professori;

**ISBN 978-9910-9723-5-5**

© M.A. Tursunov – 2023

© “Shafoat nur fayz” nashriyoti – 2023

## KIRISH

Ushbu darslikda lazerlarning – optik kvant generatorlarining tuzilishi, ularning turlari, ishlash prinsiplari, lazer nurlanishining optik parametrlarini o'chash kabi masalalar ko'rildigan.

Darslikda asosiy e'tibor: Lazer qurilmasining texnik asoslariga va ularning turlari, tuzilishi, ishlash prinsiplari, uning elementlari va optik sxemalariga, lazer nurlanishining hususiyatlari va optik xarakteristikalarini o'chash masalasiga qaratilgan. Darslik, asosan lazer texnikasidan foydalanuvchi metrologiya mutaxassislari, ilmiy hodimlar hamda lazer texnikasi bilan ishlovchi va ulardan turli sohalarda foydalanuvchilar, ilmiy tadqiqot ishlarini olib boruvchi tadqiqotchi mutaxassislar va shu sohada ta'lim oluvchi talabalar (bakalavr, magistrlar) va doktorantlar uchun mo'ljallangan.

Darslikda, lazer nurlanishining energetik parametrlarini o'chashning kalorimetrik va ponderomotor usullari o'rganilgan bo'lib, bu metodlar, hozirgi kunda tarqalgan birdan-bir lazer generatorlarining energiyasi va elektromagnit to'lqin nurlanishining quvvatini o'chovchi absolut usullardan, bundan tashqari lazer elektromagnit nurlanishini impulsining quvvatini o'chashda, fotoelektrik qabul qilgichlar inkoniyatidan foydalanish o'rganilgan.

Shu bilan birga, lazerning kogerent nurlanishining to'lqin uzunliklarini, chastotasi, stabilliyligi, monoxromativlikligini, hamda impulsli rejimda ishlovchi qattiq jismli lazerlarning vaqt parametrlarini va ularning kogerentligini, fazoda tarqalishi va polaryizatsiyasini aniqlash va o'chash metodlari keltirilgan.

## **Shartli belgilar:**

$S$  – kondensator sig‘imi

$d$  – solishtirma issiqlik sig‘imi

$E$  – elektr maydoni kuchlanganligi

$F$  – yuza birligidan o‘tgan bir impulsdagи fotonlar soni

$H$  – magnit maydoni kuchlanganligi

$L$  – rezonator uzunligi

$M$  – optik sistemaning kengayishi (o‘sishi)

$n_r$  – muxitning sindirish ko‘rsatkichi

$n_0, n_c$  – oddiy, doimiy va oddiy bo‘lqagan to‘lqinlarning sinish ko‘rsatgichi

$N_1, N_2$  – 1 chi va 2 chi satidagi joylashish zichligi

$N_f$  – aktiv markazlarning zichligi

$N_f$  – Frenel soni

$R_h$  – polyarizatsiya vektorining komponentlari

$P$  – bosim, yorug‘lik nuri quvvati

$r$  – qaytarish koeffitsienti

$R_i$  – lampalarning qarshiligi

$T$  – harorat, optik sistemaning o‘tkazuvchanligi

$t_u$  – impulsning davomiylik vaqtি

$t_\delta$  – ushlab turish vaqtি

$t_p$  – fotonlarning rezonatorda yashash vaqtি

$t_f$  – fotonlarning rezonatordan o‘tish vaqtি

$V$  – xajm

$\alpha_r$  – issiqlik almashuv koeffitsienti

$\alpha_{rr}$  – lyuminessensiya maksimumi chizig‘idagi yutish koeffisenti

$\beta$  – fazaning siljishi

$\varepsilon$  – dielektrik o‘tkazuvchanlik

$\eta$  – f.i.k.

$\Theta_m$  – sinxronizatsiya burchagi

$\Theta$  – o‘lchamsiz temperatura

$A$  – yoritgichlar soni

$\lambda$  – to‘lqin uzunligi

$v$  – chastota

$\Pi$  – polyarizatsiya darajasi

$\rho$  – aktiv bo‘lqagan yo‘qotishlar koeffitsienti, moddaning zichligi

$\tau$  – relaksasiya vaqtি (tebranishlar vaqtি)

$\varphi$  – fotonlarning nisbiy zichligi

- $P$  – quvvat  
 $P(t)$  – bir soniyadagi quvvat  
 $P_{ov}$  – o'ttacha quvvat  
 $P_m$  – maksimal quvvat  
 $P_u$  – impulsdagi o'ttacha quvvat  
 $T_n$  – qaytarilish vaqtı  
 $\Theta_m, \Omega$  – nurning fazodagi tarqalishi  
 $V$  – polyarizatsiya darajasi  
 $c$  – yutish koeffitsienti  
 $R$  – qaytish koeffitsienti  
 $f_l$  – linzaning fokus masofasi  
 $F$  – energiyaning yuzadagi zichligi yoki quvvati  
 $I$  – elektr toki  
 $R$  – qarshilik  
 $U$  – kuchlanish  
 $e$  – zaryad  
 $K_l$  – termopara doimiyligi  
 $I$  – inersiya momenti  
 $M$  – kuchning aylanma momenti  
 $M_x$  – tormozlovchi kuch momenti  
 $\chi$  – sokinlashtiruvchi koeffisient  
 $\beta$  – sokinlashish darajasi  
 $F$  – kuch  
 $\alpha$  – o'tkazuvcharlik koeffisienti  
 $k$  – issiqlik o'tkazish koeffisienti  
 $T_k$  – kritik temperatura (qaynash temperaturasi)

## I. BO'LIM

### 1. LAZER TEXNIKASI ASOSLARI

#### 1.1. Lazer texnikasining fizik asoslari

Lazerning yoki optik kvant generatorlarining (OKG) fizikaviy asosi – faol muxitdagи atomning majburiy nurlanishini musbat, teskari bog'lanish yodramida kuchaytirish va uning natijasida yorug'lik nurlanishining generatsiyasini (kogerent nurlanishni) olish hisoblanadi.

Termodinamik muvozanatdagи turg'un sistemalarda (tizimlarda), majburiy yutish holati ustun bo'ladi. Majburiy nurlanish holatini yuzaga keltirish uchun esa, termodinamik muvozanatni buzish, ya'ni (yuqori) energetik holatga ega bo'lgan atomlar sonini, past energetik holatga ega bo'lgan atomlar sonidan ko'proq bo'lismashni ta'minlashga to'g'ri keladi.

Buning uchun tashqi elektromagnit maydon ta'sirida, muxitdagи aktiv markazlar (atomlar, ionlar, molekulalar, eksitoplar va boshqalar) past energetik holatdan, yuqori energetik holatga o'tishini ta'minlaydi. Bu ta'sir, ya'ni, elektromagnit to'lqin nurlanishlarining atomlar sistemalari bilan o'zaro ta'siri natijasida, atomlarni energetik uyg'onish jarayoni, ularning energiyani yutish jarayonidan sainaraliroq (effektivliroq) bo'lgandagina yuzaga keladi.

Uyg'otilgan energetik sathdagi atomlarning zichligi ( $N_2$  – atomlar soni) asosiy uyg'atilayotgan sathdagi atomlarning zichligidan ( $N_1$  – atomlar soni) katta bo'lishi asosiy faktor bo'lib, nurlanishni kuchayishini yoki majburiy nurlanish jarayonini amalga oshiradi (boshqacha qilib aytganda, muxitda invers holatni sodir etish uchun  $N_2 > N_1$  - shart bajarilishi lozim) [1,2].

#### 1.2. Invers muhit

Qattiq jismli lazerlarda muxitni, ya'ni aktiv elementni invers holatga keltirish, gazorazryadli impulsli lampalar yordamida, ya'ni optik nurlanish yordamida amalga oshiriladi. Impulsli yoritgich lampalaridan chiqqan nurlanishlar, yoritgich devorlaridan qaytib, aktiv element tomon yo'naltiriladi. Yoritgich lampalar o'z navbatida o'zgaruvchan tok manbai, tekislagich va kuchaytiruvchi elementlar va yuqori sig'imli kondensatorlar orqali ta'minlanadi. Impulsli lampalar yoqilishi yoki optik damlash, maxsus yoquvchi qurilma yordamida amalga oshiriladi. Impulsli yoritgich lampalarni ta'minlovchi elektr sxemasining tuzilishi, zaxirada elektr

manbasini ushlab turuvchi sig'im kondensatorlarining hajmiga va ish siklining qanchalik tez qaytarilish chastotasiga qarab aniqlanadi

Impulslı yoritgich lampalarini, elektr manbai bilan ta'minlovchi sxemasining o'ziga xosligi shundan iboratki, bu lampalarни elektr ta'minoti yuqori kuchlanishli, hamda katta impulsli tok, yuqori sig'imli kondensatorlar va boshqa yarim o'tkazgichli qurilma va retelelardan foydalanish bilan bog'liqidir [3].

Lazer qurilmalari, elektr energiyasini, uyg'otilgan atomlarning energiyasiga aylantiruvchi jarayoni bo'lib, bu jarayon aktiv element tomonidan amalga oshiriladi. Ko'pgina qattiq jismlar ichida, o'zida invers holat hosil qila oluvchi elementlarga yoqut (rubin) va neodim atomlari qo'shilgan shisha kristall, ittriy-alyuminiyli granat hamda flyuoritga disproziy atomlari qo'shilgan kristallar kiradi. Boshqa element kristallari, o'zlarining kam effektiv bo'lganliklari uchun, qattiq jismli lazer elementlarida, aktiv element sifatida ishlatalmaydilar. Aktiv elementlarda optik damlash yordamida, invers holatni yuzaga keltirish, aktiv elementdan ko'pgina issiqlik energiyasi ajralib chiqishini yuzaga keltiradi, aktiv muhitning fizik harakteristikalar esa issiqlikka bog'liq bo'ladi. Shuni hisobga olib, aktiv element turli yo'llar bilan, har xil tizimlar yordamida sovutib turiladi. Biz o'rganayotgan lazer tizimlarida asosan aktiv element, suyuqlik -suvi yordamida sovutiladi.

Invers holatni hosil qilishning turli yo'llari mavjud. Qattiq jismli lazerlarda, aktiv element atomlarni uyg'otish, yuqori intensivli yoritgich lampalar yordamida amalga oshiriladi. Buning natijasida, ya'ni yorug'lik nurlanishi ta'sirida, atom sistemasi uyg'otilgan energetik holatga o'tadi va rasiasion nur chiqarmaydigan yuqori energetik sathga (pog'onaga) o'tishi tufayli, invers holat yuzaga keladi.

Tashqi elektromagnit to'lqin energiyasini yutib, yuqori energetik sathda, invers holatini yuzaga keltira oladigan moddalarga, aktiv element yoki aktiv muhit deb yuritiladi.

Lazerdagи generatsiya holati, elektromagnit maydonda ossillya torlarning, avtomatik ravishda tebranishi kabitdir. Ossillyator deb, elektromagnit maydonining tebranishi natijasida sodir bo'lgan va optik rezonator qaytargich ko'zgulari orasida joylashgan, uch o'chovli fazoviy tuzilishga ega bo'lgan, turg'un to'lqin holatiga (rezonator modalariiga) aytildi. Qattiq jismli lazerlarda, avtotebranishlarni energiya bilan ta'minlovchi modalar maydoni, fazoda taqsimlangan bo'ladi. Shu tebranish modalariiga qarab, lazer nurlanishining ko'p modaligi va uning kogerentligi hamda uning yo'naltirilganligi aniqlandi. Lazer nur lanish-

larining yuqori kogerentligi va kichik burchak ostida yo'naltirilganligi, generatsiya jaryonida asosan, bir tipdag'i elektromagnit to'lqinlarini ajratib olishga bog'liq.

Lazer nurlanishining ko'pgina asosiy harakteristikaları (yorug'lik impulsining davomiyligi va quvvati, fazoviy taqsimoti va boshqalar) rezonatorda generatsiyaning sodir bo'lishi va uning rivojlanishining kinetikasiga bog'liq. Bu esa o'z navbatida, elektromagnit tebranishlarining ma'lum bir turlarining intensivligini oshishi va o'zaro ta'siriga bog'liq bo'lib, optik rezonatorning yo'qotishlarini o'zgartirish yordamida, generatsiya rivojlanishi kinetikasini boshqarish imkonini beradi.

Yorug'lik nurlanishining impulsini, fazoviy va vaqt bo'yicha taqsimlanishi harakteristikasiga qarab, rezonatorning yo'qotishlari turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, rezonatori tebranishlarni modulyasiyalash yordamida, ishslash sifatini yaxshilash, aslligini oshirish natijasida, nanosekundli yorug'lik impulslarini olish uchun sharoit yaratiladi, bu sharoitda, optik nurlanishining ta'siri jarayonida rezonatorda, generatsiyaga erishib bo'lmaydi (rezonatorning aslligini juda kam bo'lganligi uchun), buning uchun aktiv muhitda, yuqori zichlikka ega bo'lgan, invers holatni vujudga keltiriladi va maksimal invers holatiga erishilgandan so'ng, rezonatorning asliyligi yuqori darajaga, modulyator yordamida ko'tariladi va yuqori quvvatga ega bo'lgan, davomiyligi  $10 \sim 30$  ns bo'lgan, yorug'lik impulsining generatsiyasi hosil bo'ladi.

Lazerning yana bir harakterli misoli sifatida, nurlanishining asosiy spektriga yaqin joylashgan (modalar) chastotalar bo'lib, ular lazer generatsiyasi impulsining o'zgarishi, modalar tebranishlarning amplitudasi va fazasiga bog'liq bo'ladi [6, 7, 8]. Agar, ushbu kattaliklar o'zgaruvchan bo'lsa, bu xol tasodifiy o'zgarishlar va nochiziq jarayonlar, har turli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bu o'z navbatida, generatsiya natijasida sodir bo'lgan, yorug'lik nurlanishining vaqt bo'yicha parametrlerining taqsimotini o'zgarishiga olib keladi. Agar, qo'shni tebranishlar bilan bo'lgan chastota oraliq'ini, o'zgarmas holatda ushlab turilmasa va generatsiyada qatnashayotgan bir guruh modalar fazasini o'zgarmas qilinmasa, u holda nurlanishining xarakteristikaları, vaqt bo'yicha ma'lum shaklda o'zgaradi. Bunday rejimda ishslash, modalarni sinxronizatsiyalash yoki fazalarni sinxronlash deb yuritiladi.

Lazer qurilmasining chiqish signali formasi, umumiyl holda olganda qaysi modalar ishtirokida, generatsiya amalga oshirilayotganiga bog'liq, bu modalarning fazalari, fazalar nisbiyligiga bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, optik kvant generatorlarining texnik tomonidan yaratilishi – aktiv muhitda, invers holatini yaratish, ishtirok etuvchi to'lqinlar turini shakllantirish va rezonatorning elektromagnit nurlatgichi va aktiv element o'rtasidagi rezonatorning taqsimotini boshqarish jarayoniga bog'liq bo'ladi [2,13].

Yuqori energiyali impulslarni, lazer nurlanishini olish uchun, maxsus optik kvant kuchaytirgichlaridan foydalaniлади. Optik kvant kuchaytirgichlari, oddiy invers muhittan foydalanishga asoslangan bo'ladi.

Lazer nurlanishining chastotasini o'zgartirish uchun, nochiqsiz optikaning turli jarayonlaridan foydalanishga to'g'ri keladi. Bularga parametrik xususiyatlar, garmonikalarning generatsiyasi hamda majburiy kombinatsion (sochilish) tarqalish kiradi [8, 9].

Lazer generatorlarini yaratishning texnik imkoniyatlari hamda lazer nurlanishini kuchaytirish va uning generatsiya nurlanishining chastotasini o'zgartirish orqali, lazer nurlanishining parametrлari va harakteristikasi aniqlanadi. Lazer nurlanishini olish bilan bog'liq bo'lgan muammolar, bir xil bo'lmasdan, biz quyida ko'rib, o'rganib chiqayotgan masalalar, qattiq jismli lazer generatorlari bilan chegaralangan bo'lib, bu qurilmalar laboratoriyalarda o'tkaziladigan ilmiy izlanishlarga mo'ljallangan [8,9].

Aktiv elementlarda, optik damlash yordamida, invers holatni yuzaga keltirish. aktiv elementdan ko'pgina issiqlik energiyasi ajralib chiqishini yuzaga keltiradi, aktiv muhitning fizik harakteristikalari esa, issiqlikka bog'liq bo'ladi. Shuni hisobga olib, aktiv element turli yo'llar bilan, har xil tizimlar yordamida sovutib turiladi. Biz o'rganayotgan lazer tizimlarda asosan, aktiv element suyuqlik - suv yordamida sovutiladi [10, 11].

### 1.3. Tebranishlar turlarini shakllanishi

Lazer nurlanishini shakllantirishida, har turdag'i ochiq rezona torlardan foydalaniлади. Har bir turdag'i rezonator, o'z xususiyatiga ega bo'lib, kvant generatorining asosi bo'lib hisoblanadi. Optik sxemadagi lazer rezonatorining ikki chetki qaytargichlaridan tashqari, optik sxemaga har xil saralovchi, qutblovchi va yorug'lik nurlanishini boshqaruvchi elementlar kiritiladi. Lazer nurlanishining to'lqin frontining o'zgarishi va to'lqinlarning modalari tuzilisaini o'zgarishi hamda optik elementlar tayyorlangan materiallarning bir jinsliligiga, uning yuzasiga to'la va etarli ishlov berilganligiga va elementlarning o'zaro yustirovkasiga (optik sozlanganligiga) bog'liq bo'ladi. Optik rezonator elementlarining sozlanganligiga, lazerlarining chiqish parametrлari, qattiq bog'liq bo'ladi.

Lazerlarining issiqlik rejimiga, optik elementlarda paydo bo'ladigan termik kuchlanishlar va ularning bir jinslik emasliklari hamda nurning ikkilanib sinish hususiyatlarini kelib chiqishi va boshqalar ta'sir ko'rsatadi [12, 13].

Lazer nurlanishining, to'lqin frontini o'zgarishiga asosiy ta'sir qiluvchi sabablardan biri, optik oberasiya holati bo'lib, bu holat aktiv elementni bir tekis qizimasligidan kelib chiqadi. Bu va boshqa keraksiz holatlardan qutilishning birdan-bir yo'li, optik sxema elementlari va aktiv elementni sovutish bo'lib, generatsiyadan so'ng yoki generatsiyalar orasida elementlar, avvalgi temperatura holatiga qaytishini ta'minlovchi sovutish sistemasidan foydalaniadi. Bu ancha murakkab masala bo'lib, optik generator elementlarini ma'lum chegarada, ishchi temperatura rejimida, saqlab turish imkoniyatiga erishishni talab qiladi.

#### 1.4. O'z-o'zidan nurlanish

Biror atomdagi ikki energetik 1 va 2 sathni ko'rib chiqamiz, ularning energiyalari  $E_1$  va  $E_2$  ( $E_1 < E_2$ ) ga teng. Bu ikki energetik sath, shu muxitga xos bo'lgan, ixtiyoriy chegaraga ega bo'lmasagan, ikki sathdan iborat bo'lishi mumkin. Qulaylik uchun, birinchi sathni, asosiy sath deb qabul qilamiz. Faraz qilamiz, moddaning atom (yoki molekulasi) boshlang'ich holatda 2-inchi holat sathida joylashgan bo'lsin, u xolda  $E_2 > E_1$ , bo'lib, atom 1-sathga o'tishga intiladi. Buning uchun atom o'zidan  $E_2 - E_1$  energetik farqni chiqarishga majbur bo'лади. Bu energiya, elektromagnit to'lqinlari bo'lsa, bu jarayon o'z-o'zidan nurlanish deb yuritiladi [21]. U xolda, elektromagnit to'lqini chastotasi –  $v$ , bo'lib, Borning 2- postulatiga asosan, quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$v = (E_2 - E_1) / \hbar \quad (1.1)$$


bu yerda,  $\hbar$ -Plank doimiysi. Shunday qilib, o'z-o'zidan nurlanish jarayoni, o'zidan energiyasi  $hv = E_2 - E_1$  teng bo'lgan foton chiqarishi bilan xarakterlanadi (1.1-rasm). Shuni aytib o'tishimiz kerakki, o'z-o'zidan nurlanish jarayoni, atomning bir holatdan, ikkinchi holatga o'tish jarayonining, ikki yo'lidan biri hisoblanadi [11, 14, 15].

Atomning bir energetik holatdan, ikkinchi energetik holatga o'tishi, o'zidan nur chiqarmasdan ham bo'lishi mumkin. Bu xolda, ortiqcha energiya boshqa bir shakilda (energiya farqi), uni o'rab turgan molekulalarning kinetik energiyasiga aylanishi mumkin [17]. O'z-o'zidan nurlanish jarayonining ehtimoliyligini quyidagicha aniqlash mumkin. Faraz

qilamiz, biron bir  $t$ -vaqtida, ikkinchi sathda  $N_2$  atomlar joylashgan (hajm birligida). O'z-o'zidan nurlanish jarayoni uchun, bu atomlarning pastki sathga o'tish tezligi ( $dN_2/dt$ ) -  $N_2$  ga proporsional bo'ladi, bundan kelib chiqib, shunday ifodalash mumkin:

$$(dN_2/dt) = -AN_2 \quad (1.2)$$

Ko'paytuvchi  $A$ , o'z-o'zidan nurlanish jarayonining, sodir bo'lishining ehtimolliyligi bo'lib, Eynshteyn koeffitsienti deb yuritiladi, bu koeffitsient  $A$ , birinchi bo'lib Eynshteyn tomonidan termodinamik muloxazalar jarayonida kiritilgan. Kattalik  $\tau = 1/A$  ni, o'z-o'zidan nurlanish jarayonining yuzaga kelish vaqt deb aytildi.  $A$  ning qiymati, nurlanish jarayonida ishtirok etuvchilarining bir sathdan, ikkinchi sathga o'tishi bilan bog'liq [ 15, 17,18].



1.1. - rasm. Uch jarayonning sxematičko'rinishi:

- a) - o'z-o'zidan nurlanish, b) - majburiy nurlanish,
- v) - nurlanishning yutilishi.

### 1.5. Majburiy nurlanish

Faraz qilaylik, atom boshlang'ich holatda, yuqori enegiyali 2 - sathda joylashgan bo'lsin va atomga, chastotasi formula (1.1) yordamida aniqlanuvchi, elektromagnit to'lqinlari ta'sir etsin. Bunday holatda, tushuvchi to'lqin chastotasi, atomlarning bir-biriga teng bo'lmasan energetik sathdan-sathga o'tishiga bog'liq bo'ladi va tushuvchi nur, atomlarni (2-1) energetik sathga o'tishini ta'minlaydi. Bu xolda ( $E_2-E_1$ ) energiyalar farqi, elektromagnit to'lqinlarining nurlanishi energiyasi shaklida namoyon bo'ladi hamda tushuvchi to'lqinga qo'shiladi. Bu jarayon esa majburiy nurlanish deb yuritiladi. Majburiy nurlanish va o'z-o'zidan

nurlanish jarayonlari o'rtasida keskin farq bor [18,19]. O'z-o'zidan nurlanish jarayonida atom, elektromagnit to'lqinini o'zidan chiqaradi, uning fazasini boshqa atom tomonidan chiqqan yorug'lik to'lqin fazasi bilan, hech qanday aniq bog'likligi bo'lmaydi, bundan tashqari chiqqan to'lqin, turli tarqalish yo'nalishga ega bo'ladi. Majburiy nurlanish jarayoni, tushuvchi to'lqin asosida amalga oshirilsa, har bir atom tomonidan chiqarilgan nurlanish, bu nurlanish to'lqiniga, bir xil faza bilan qo'shiladi. Tushuvchi to'lqin, chiquvchi to'lqinning tarqalish yo'nalishini ham belgilaydi. Majburiy nurlanish jarayonini, quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi

$$(dN_2/dT)_{maj} = -W_{21}N_2 \quad (1.3)$$

Bu yerda,  $(dN_2/dT)_{maj}$  – majburiy nurlanish natijasida yuzaga kelgan sathdan-sathga o'tish tezligi,  $\alpha W_{21}$  - majburiy o'tish jarayonining ehtimolliyligi. Formula (1.3) yordamida aniqlanuvchi koefitsient  $A$  ning qiymati kabi,  $W_{21}$  ning qiymati ham vaqt birligiga teskari birlik bilan aniqlanadi s<sup>-1</sup>. Ammo  $A$  ning qiymatidan farqi o'laroq  $W_{21}$ , na faqat aniq sathdan-sathga o'tish, balki tushuvchi to'lqinning intensivligiga xam bog'liq bo'ladi. Yuza bo'yicha tarqaluvchi to'lqinlar uchun jarayonning ehtimolliyligi, quyidagicha aniqlanadi:

$$W_{21}=d_{21}F \quad (1.4)$$

Bu yerda  $F$  - tushuvchi to'lqin fotonlarining oqimi zichligi,  $d_{21}$  kattalik yuza birligiga ega bo'lib, shu o'tishning xarakteristikasiga bog'liq bo'ladi (hamda majburiy nurlanish jarayonning yuzasi deb yuritiladi) [19,20].

## 1.6. Nurning yutilishi

Faraz qilaylik, atom birinchi energetik sathda joylashgan bo'lsin. Agar, bu asosiy sath deb hisoblansa, u xolda atom, unga biron bir tashqi kuch ta'sir etmaguncha, shu sathda qoladi [20.21]. Agar, jismiga chastotasi  $v$  ga teng va (1.1) formula bilan aniqlanuvchi elektromagnit to'lqini ta'sir etsa, atomning bu ta'sir natijasida, yuqori 2 sathga o'tish ehtimoli yuzaga keladi. Atomning bir energetik sathdan, ikkinchi energetik sathga o'tishi uchun, atomga ta'sir etuvchi tashqi elektromagnit maydon energiyasi ( $E_2 - E_1$ ) energetik sathlarning energiyalari farqiga teng bo'lishi kerak.

(1.3) formulaga o'xshash, nurlanishning yutilishi ehtimolliyligi -  $W_{12}$ , quyidagi tenglama bilan aniqlanadi.

$$dN_1/dt = -W_{12}N_1, \quad (1.5)$$

bu yerda,  $N_1$ - xajm birligidagi 1- energetik sathda joylashgan atomlar soni, bundan tashqari (1.4) formula kabi,  $W_{12}$  uchun quyidagini yozish mumkin

$$W_{12} \sim \sigma_{12} F_{12} \quad (1.6)$$

bu yerda,  $\sigma_{12}$  qandaydir qiymatga ega bo'lgan yuza (yutilish yuzasi), uning qiymati aniq sathdan-sathga o'tishga bog'liq [21, 22].

Oldingi bo'limlarda, o'z-o'zidan nurlanish va majburiy nurlanish hamda nurni yutilishi jarayonlariga asosiy tushunchalar berib o'tilgan. Bu jarayonlarga, fotonlar tilida quyidagicha izox beriladi (1.1.-rasm):

1. O'z-o'zidan nurlanish jarayonida atom, o'zidan foton chiqarib, 2-sathdan, 1-sathga o'tadi.

2. Majburiy nurlanish jarayonida, tushuvchi foton ( $2 \rightarrow 1$ ) sathga o'tishni yuzaga keltiradi.

3. Nurni yutilishi jarayonida, foton yutiladi va 1-dan 2- ga, ya'ni sathdan-sathga o'tishni ta'mirlaydi.

Shuni ham qayd qilib aytib o'tish lozimki, XX-asr boshlarida Eynshteyn ko'rsatishicha, majburiy nurlanish jarayonining va nurni yutilish jarayonini sodir bo'lishi ehtimolliyligi bir-biriga teng, ya'ni  $\sigma_{21} = \sigma_{12}$ . Bir xajm birligidagi, ushbu energetik sathdagi atomlar sonini, atomlami joylashishi deyiladi [23,24].

## 1.7. Lazer generatorini ishlash tamoyillari

Faraz qilamiz, biron bir muhitda mayjud bo'lgan ikki  $N_1$  va  $N_2$  atomlar joylashuviga ega bo'lgan energetik sathlani ni ko'rib chiqamiz. Bunday muhitda  $z$  o'qi bo'yicha tarqalayotgan fotonlar oqimi  $F$ , zichliyligiga mos, intensivlikka ega bo'lgan, yassi to'lqin tarqalayotgan bo'lsin. U xolda (1.3) va (1.6)ga munovsif, yorug'lik oqimining zichligini  $dF$  ning o'zgarishi, majburiy nurlanish va nurni yutilishi jarayonlari natijasida dz sathda (Rasm 1.2.dagi shtrixlangan xudud) quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi [25,26]

$$dF = SF(N_2 - N_1)dz. \quad (1.7)$$


(1.7) tenglama ga ko'ra, agar  $N_2 > N_1$  bo'lsa, muhit o'zini kuchaytiruvchi holatdagidek ( $dF/dz > 0$ ), aksincha bo'lsa muxit  $N_2 < N_1$  yorug'likni yutuvchi holatda bo'ladi.

Termodinamik mutanosiblik holatida, energetik sathlarda atomlarning joylashuvi Bol'smanning statik qonuniyati asosida aniqlanadi. U xolda ikki sathda atomlarning joylashuvi quyidagicha aniqlanadi [19, 21].

$$\frac{N_2^e}{N_1^e} = \exp[-(E_2 - E_1)/kT] \quad (1.8)$$

Bu yerda k-Bolsman doimiyligi,  $T$ -muhitning absolyut harorati.

Shunday qilib, termodinamik mutanosiblik holatida  $N_2 < N_1$  bo'ladi. (1.7) ga ko'ra muxit v chastotali nurni yutadi.



1.2 -rasm.  $dz$  qalinlikka ega bo'lgan moddadan, yassi elektromagnit to'lqini o'tganda, fotonlar oqimi  $F$  ning zichligini o'zgarishi.

Agar nomutanosiblik (tengsizlik) holatda bo'lsa, u xolda ( $N_2 > N_1 > 0$ ) bo'ladi va muxit kuchaytirgich sifatida ishlaydi. Bunday holatda muxitda invers holat yuzaga keladi va muxit aktiv muxit deb yuritiladi [33].


Agar o'tish chastotasi  $v = (E_2 - E_1)/\hbar$  O'YUCH- (SVCH) diapozoniga to'g'ri kelsa, u xolda bunday kuchaytirgich mazer deb ataladi. "MAZER" so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, (*microwave amplification by stimulated emission of radiation*) so'zlarining bosh xariflaridan tuzilgan va ma'nosi mikroto'lqlarning majburiy nurlanish yordamida kuchaytirishni anglatadi. Agar o'tish chastotasi  $v$  optik diapozonga to'g'ri kelsa, u xolda kuchaytirgich "LAZER" deb ataladi. Bu ham ingliz tilidan olingan so'zlarining bosh xariflaridan tuzilgan. Nur kuchaytirgichni, generatorga aylantirish uchun, unga teskari bog'lanish tizimini kiritish kerak. Lazerlarda bunday teskari bog'lanish uchun, aktiv muhitni yuqori qaytarish hususiyatiga ega bo'lgan, ikki ko'zgu orasiga joylashtirish kerak bo'ladi. (xuddi Rasm 1.3. dagi kabi, tekis o'zaro parallel ko'zgular orasiga). Bu xolda, yuza bo'ylab tarqaluvchi elektromagnit to'lqini, ko'zgularga

perpendikulyar yo'nalishda, yo'nalgan bo'ladi va ular navbatma-navbat ulardan qaytib, aktiv muhitdan o'tishda kuchayib boradi [26,27,28].


Agar ikki ko'zgudan biri, nurni to'liq qaytarmasa, u xolda qurilmaning chiqishida, kerakli lazer nurlanishini olish mumkin. Lazer qurilmalarida, generatsiya jarayonida, shunday vaqt momenti yuzaga keladiki, shunday vaqt momentida, aktiv elementning kuchaytirish imkoniyati, undagi energetik yo'qotishlarni o'rnini qoplaydi, (masalan, nurning rezonatoridan qaytargich ko'zgular yordamida aktiv elementdan chetga chiqib ketishi bilan bog'liq yo'qotishlar va xokazo). (1.7) formula ga asosan, nurning aktiv elementdan bir martta o'tishida kuchayishi, chiqish va kirishdag'i fotonlar oqimi zichligi nisbatiga teng [29, 30]

$$\exp[d(N_2 - N_1)L] \quad (1.9)$$

Bu yerda.  $L$  - aktiv muxitning uzunligi. Agar, rezonatorning yo'qotishlari, faqat ko'zgularning nurlanishni o'tkazib yuborishi bilan aniqlansa, u xolda generatsiyaning boshlanishi, quyidagi shartning bajarilishiga bog'liq bo'ladi [38].



1.3 -rasm. Lazer qurilmasining sxemasi.



1.4-rasm. Yoqut (Rubin) kristalidan iborat bo'lgan lazer

$$R_1 R_2 \exp[-(N_2 - N_1)L] = 1.$$

(1.10)

Bu yerda  $R_1$  i va  $R_2$  yorug'lik nurining intensivligi bo'yicha, ko'zgularning nurlanishni qaytarish koeffitsienti .Bu shartdan ko'riniib turibdi ki, generatsiyaning boshlanishi, sathdagi invers holat darajasi qiymati, kri tik qiymatga yaqinlashganda  $(N_2 - N_1)_{kr}$  ya'ni sathning kritik inversiyasi, quyidagi tenglik bilan aniqlanadi:

$$(N_2 - N_1) = -L \ln(R_1 R_2)$$

(1.11)

(1.11) shartdan shuni aytish muunkinki, generatsiyaning boshlanishi, invers holatni  $(N_2 - N_1)$  ning, biror kritik qiymatga yaqinlashganida sodir bo'ladi [40]. Kritik inversiya holati yuzaga kelishi bilan, fotonlarning kuchayish jarayoni sodir bo'ladi va generatsiya yuzaga keladi .

Nur kuchaytirgichni generatorga aylantirish uchun, unga teskari bog'lanish tizimini kiritish kerak. Lazerlarda bunday teskari bog'lanish, aktiv muhitniyuqori qaytarish xususiyatiga ega bo'lgan, ikki ko'zgu orasiga joylashtirish orqali analga oshiriladi[32,34]. Bu xolda, yuza bo'ylab tarqaluvchi elektromagnit to'lqini, ko'zgularga perpendikulyar yo'nalishda, yo'nalgan bo'ladi va ular navbatma - navbat ulardan qaytib, aktiv muhitdan o'tishda, kuchayib boradi .

### 1.7.1 Damlash (atomlarni qo‘zg‘algan holatga keltirish) sxemalari


Termodinamik mutanosiblik holatida, energetik sathlarda atomlarning joylashuvi, Bolsmanning statik qonuniyati asosida aniqlanadi. U xolda ikki sathda atomlarning joylashuvi quyidagicha aniqlanadi [19, 21].

$$\frac{N_2^e}{N_1^e} = \exp[-(E_2 - E_1)/kT] \quad (1.12)$$

Bu yerda  $k$ -Bolsman doimiyligi,  $T$ -muhitning absolyut temperaturasi.

SHunday qilib, termodinamik mutanosiblik holatida  $N_2 < N_1$  bo‘ladi. (1.7) ga ko‘ra, muxit  $v$  chastotali nurni yutadi. Agar nomutanosiblik (tengsizlik) holatda bo‘lsa, u xolda ( $N_2 - N_1 > 0$ ) bo‘ladi va muxit kuchaytirgich sifatida ishlaydi. Boshqacha qilib aytganda, qo‘zg‘atuvchi nurni yutish natijasida, yuqori energetik sathga chiqib joydashgan atomlar invers muxit hosil qilishi uchun, ularning soni quyi energetik sathda joylashgan, qo‘zg‘almagan atomlar sonidan ko‘p bo‘lishi kerak. Bunday holatda, muxitda invers holat yuzaga keladi va muxit aktiv muxit deb yuritiladi [33].

Aktiv muhitda, invers holatni yuzaga keltirish masalasini ko‘rib chiqamiz. Issiqlikning turg‘inlik holatida, 1-sathdagи atomlar soni, ikkinchi sathdagи atomlar soniga qaraganda, ko‘proq bo‘ladi. Bu xolda, tashqi nurni yutish jarayoni, o‘z-o‘zidan nurlanish jarayoniga qaraganda ko‘proq bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, tashqaridan ta’sir etuvchi nur yordamida,  $1 \rightarrow 2$  sathdan-sathga o‘tish,  $2 \rightarrow 1$  ga o‘tishga qaraganda ko‘proq bo‘ladи va shunday qilib, invers holat yaratishga imkon tug‘iladi [34]. Ammo, bunday mexanizm ishlanmaydi, chunki sathlarda atomlarni joylashishi bir-biriga teng bo‘lsa, ( $N_2 = N_1$ ) o‘z-o‘zidan nurlanish va nurni yutish jarayoni bir birini kompensasiya qiladi. Ko‘pincha bunday holatni, ikki sathli, to‘la qoniqish holati deyiladi [55]. Shunday qilib, ikki sathli tizimda, invers holatni yuzaga keltirib bo‘lmaydi. O‘z-o‘zidan ko‘p sathli atomlar tizimidan foydalaniyganda, bu masalani echish mumkinmi degan savol tug‘iladi. Bu masalani echimini, uch yoki to‘rt sathli aktiv elementlardan foydalanganimizda ko‘ramiz [46]. Uch sathli lazer tizimida, a) atomlar 1-sathdan, 3-sathga o‘tadilar va tezda 3-satzdan 2-sathga o‘tadilar hamda 2- va 3-sathlar o‘rtasida invers holat yuzaga kelishini ta’mintaydilar. Agar biz, 4 sathli lazer tizimidan foydalansak,, b) atomlar tashqi nurni yutishi natijasida, asosiy sathdan (qulaylik uchun nulinchi sath deb qabul qilamiz) uchinchi sathga o‘taboshlaydi [35,37].



1.5-rasm. Uch sathli (a) va to'rt sathli (b) lazer sxemalari

So'ngra, uchinchi sathdan tezda, ikkinchi sathga o'tadilar va natijada 2-va 3-sathlar o'rtasida invers holat yuzaga kelishini ta'minlaydilar. Bunday ko'p sathli tizimlarda, generatsiya jarayoni vujudga kelsa, atomlar majburiy nurlanish jarayoni natijasida 2-sathdan 1-sathga so'ngra, nulinchi sathga o'tadilar. Atomlarning uch sathli tizimda 1-sathdan 3-sathga o'tishlari, to'ri sathli tizimda 0-chi sathdan, 3-sathga o'tishlarini damlash jarayoni deb ataymiz. Amalda, damlash jarayonini sodir etishning bir necha yo'li mavjud, (masalan, o'ta yuqori intensivlikka ega bo'lgan nur to'lqini yordamida) [37,38].

## 1.8. Lazerlarning klassifikasiyasi

### 1.8.1 Rubin (yoqut) kristalli

Hozirgi kunda, sanoatda rubin kristalidan tayyorlangan aktiv elementlar sun'iy ravishda olinadi. Ularga texnik talablar va o'chchamlar, o'matilgan standart bo'yicha qo'yildi: OST 3-24-70 va OST 3-25-70.

Keltirilgan standartga qarab, rubin elementlari Jadvat 1.1. ko'rsatilgan shaklda tayyorlanadi. Sanoatda Rubin kristallari diametri 3,5 mm dan/6mm gacha, uzunligi 45 dan 240 mm gacha optik o'qining orientatsiyasi (yo'naliishi)  $60^{\circ}$  dan  $90^{\circ}$  gacha bo'ladi.

Turining belgisi	Aktiv element
R	---
RL	---
RL1B	---
RL2B	---
RLS	---
RLO	---
RLOL	---
RLOL1B	---
RLOL2B	---

Ko'ndalang kesimi yuzasiga, quyidagicha ishlov beriladi: tozaligi 5-10 klassda ishlov berilib, so'ngra mexanik tarzda sayqallanadi, yuza tozaligi 12 klassdan kam bo'lishi kerak emas, ustki qismi kimyoviy yoki g'adir-budir qilib tayyorlanadi. Yuza kesimlarining o'zaro parallel emasligi R; RL; RL2B turdag'i Rubin kristallarida  $10^{11}$  dan oshmaydi. Qo'shilgan Xr atomlari konsentrasiyasiga qarab, Rubin kristallari uch kategoriyaiga taqsimlanadi. Bu taqsimot Jadval 1.2da keltirilgan [31, 33, 34]

Aktivatorning energetik qatlamlari diagrammasining, metostabil qatlamdagi yashash vaqtiga bog'liqligi, to'lqin uzunligi va nurlanish chizig'inинг kengligini, temperaturaga bog'liqligi, Rubin kristallining yutish spektri va asosiy fizik konstantalar [2,33] ishlarda keltirilgan.

Aktiv kristallardan Rubinning, lazer texnikasida keng qo'llanilishining asosiy sababalaridan biri, kristallning ko'z ko'radigan spektr oblastida generatsiya qilishida, uning o'y temperaturasida ham ishlay olishida, mexanik jixatdan mustahkamligi va yuqori darajadagi energetik chidamliyligidadir. Ammo, Rubin kristalli optik jixatdan, tuzilish tomondan, bir jinsli emas, buning sababi, kristallik panjarasidagi defektlar tufayli (dislokasiya, tekislikning sirpanishi va xrom ionlarining bir tekis taqsimlanmaganligi va xokazolar) bo'lishi mumkin. Kristallda defektlarning borligi, unda ichki kuchlanishlarni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Uch valentli xrom ionlarining, kristall bo'yicha tekis taqsimlanmaganligi, sinish ko'rsatgichini turliliqi, kristallik panjarasida deformatsiya va anomal ikkilamchi nur sinishiga olib keladi.

1.2-jadval

		Kategoriya			
		Elementining diametri			
		Xrom atomlarining o'rtacha konsentrasiyasi og'irligi % da			
1	1	8	0,013-0,017	0,6	Havo pufakchalari soni va kattaligi
	2	8	0,018-0,025	0,9	
2	3	8	0,026-0,036	2,7	0,2 mm dan katta emas
	1	-	-	-	
3	1	-	-	-	0,3mm dan katta emas
	2	10	0,20-0,028	0,7	
3	3	10	0,29-0,040	1,1	Yuza kesimining umumiy tekis mosligi (interesen siya polosalari soni)
	1	-	-	4,0	
4	1	-	-	25	0,3
	2	16	0,024-0,037	1,2	
5	3	-	-	9,0	0,5
	2	-	-	-	
6	3	-	-	30	0,3
	1	-	-	-	

Aktiv elementlarining optik jihatidan bir jinsli emasligi va uning lazer nurlanishi parametrlariga ta'siri, quyidagi ishlarda ko'rib chiqilgan.

Lazer nurlanishining tarqalishiga va to'lqin frontining deformatsiyalishiga, mexanik kuchlanishlar va xrom ionlarining koncentrasiyasining bir tekis taqsimlanmaganligi ta'sir ko'rsatadi [30, 34].

Hozirgi, zamonaviy texnologiya, xrom ionlarini, rubin kristalli yuzasi bo'yicha tekis taqsimlanishini taminlaydi. Rubin kristallini o'stirish jarayonida, kristallda ichki deformatsiya paydo bo'ladi, bu esa kristallning ikki parallel chetki yuzasi, optik jihatdan qaraganda, tarqatuvchi linzaga ekvivalent bo'ladi.

Tekshirishlar natijasida shu aniqlandiki, aktiv elementda ichki mexanik deformatsiya, lazer nurining burchak ostida tarqalishiga, intensivlikning yuza bo'yicha taqsimatiga va modalarning saralanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Kristalldagi ichki kuchlanishning taqsimlanishi, kristallda interferensiyon polosani (yo'lak) o'mini o'zgarganligi, ikkilamchi nur sinishi hususiyatini yuzaga keltiradi, bu esa, o'z navbatida oddiy va nooddiiy nurlanishning optik yo'li uzunligini, o'zgarishga olib keladi. Bu quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta(n_0 - n_e) \cdot \ell_a = m_n \cdot \lambda \quad (1.13)$$

Bunda  $n_0$  va  $n_e$  - sinish ko'rsatkichi oddiy va nooddiiy nur uchun,  $\ell_a$  - aktiv elementning uzunligi,  $m_n$  - interferensiya tartibi, kristall ichida paydo bo'lgan ikki kuchlanish  $\xi$  quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta(n_0 - n_e) = B_\phi \cdot \xi \quad (1.14)$$

$B_\phi$  - fotoelastiklik doimiyligi

Fotoelastiklikning o'rtacha qiymati  $B_\phi = 0.9 \cdot 10^{-7}$  sm/kg [44, 45] bo'lganda  $\xi = 100$  kt/sm<sup>2</sup> - ga teng bo'ladi.

Rubin kristallari uchun, ichki kuchlanishlar qoniqarli darajada bo'lib, namunaviy kristallda, bir modali ( $TEM_{00}$ ) generatsiyani ta'minlaydi. Yuqori sisatlari, namunalari kristallarda ( $\xi < 30$  kg/sm<sup>2</sup>) teng bo'lib, bitta ko'ndialang modanining generatsiyasini, damlashning katta diapazonida (ostonadan 25% yuqori) olishni imkoniyatini beradi [44, 46]. Mexanik kuchlanishning kattaligi, Rubin kristallida, dislokasiyaning zichligidan va uning butun hajm bo'yicha, taqsimlanishiga bog'liq.


Dislokasiya, Rubin kristallini o'stirish vaqtidagina emas, balki kristallga ishlov berish vaqtida, mexanik ta'sir natijasida ham paydo bo'lishi

mumkin. Mexanik kuchlanish ta'sirida, kristall ikki o'qli bo'lib qoladi, bu esa o'z navbatida ikkilamchi nur sinishiga olib keladi.

Defektlarning sifat jihatidan va miqdoriy harakteri, har bir ishlangan kristall uchun alohida bo'lib, boshqa kristallarda ular bir-biridan farq qiladi.

Rubin kristalli parametrlarini ko'pgina yo'llar bilan, har-bir kristallning o'ziga qarab, ma'lum tekshirishdan so'ng to'g'irlash mumkin. Buning uchun, kristallning uchiga sharsimon shaklda ishlov berish, rezonator ichiga musbat linza o'rnatish, sferik qaytargich ko'zgularidan foydalanish kerak va xokazo. Rubin kristallining energetik parametrlarini chegaralovchi yana bir faktor, uning katta quvvatli nurlanish ta'siriga nisbatan chidamlili emasligi bo'lib, ma'lum katta quvvatli generatsiya paytida, kristallning buzilishiga sabab bo'ladi. Bunday buzilish, asosan birinchi navbatda, kristallning ikkala kesik yuzasidan boshlanadi. Kristall tomonidan yutilgan, katta zichlikdagi yorug'lik nuri, undagi mikro yoriqlarda, defektlarda temperaturaning o'sishiga olib keladi va natijada kristall buziladi.

Mexanik ishlov vaqtida, kristallning ikki ko'ndalang kesim yuzasiga yaxshi ishlov berib, yuqori ko'rsatgichda silliqlansa, bu uning chidamliligini oshiradi. Qisqa impulslar diapazonida, kristall yuzasining buzilaboshlanishi  $R_{ost}$  quvvatiga proporsional,  $1/t_{imp}$  bunda  $t_{imp}$ -impulsning davomiyligi vaqt.  $R_{ost}$  (buzilish boshlanishining ostona quvvati) yuza buzilishi boshlanishining quvvatining qiymati.



1.6-rasm. Kristall yuzasining buzilishi quvvatini ( $R_{ost}$ ) impuls davomiyligi vaqtiga ( $t_{imp}$ ) bog'ligligi.

Keltirilgan 1.6 - rasmdagi grafikda ko'rsatilishicha, impuls davomiyligi vaqt, uzun bo'lган impulslar uchun, buzilish ostonasi quvvati o'zgarmaydi va  $t_{imp}$  ga bog'liq bo'lmaydi.

Davomiylik vaqtı uzun impulslarda, buzilish quvvati  $R_{\text{eff}}$  taxminan  $10^6$   $\text{Vt/sm}^2$  bo‘ladi. Qisqa impulsli lazer nurlari uchun  $t_{\text{imp}} = 50\text{ns}$  bo‘lsa,  $R_{\text{eff}} = 280 \text{ MVt/sm}^2$  bo‘ladi. Asosan, Rubin kristallarining chidamliyligi yuqori bo‘lib, uning qiymati  $3 \cdot 10^{10} \text{ Vt/sm}^2$  [31,35] bo‘ladi.

### 1.8.2. Neodim ionlari bilan aktivlashtirilgan shisha

Neodim ionlari bilan aktivlashtirilgan, shishali aktiv elementlarning turi va ularning o‘lchamlari hamda ularning texnik harakteristikalari, standartlar tomonidan belgilangan: OST 3-31-70 va OST 3-30-70.

Aktiv elementlarning turi, ularning ko‘ndalang kesimi yuzasiga va ikki uch tomonining kesim burchagiga qarab ajratiladi.

Aktiv elementning turi va uning to‘lqin uzunligi  $\lambda=586 \text{ nm}$ , yorug‘likni yutish ko‘rsatgichi  $n_\lambda$  ga bog‘liq.

Standart holatdagi neodimli aktiv elementning diametri 5-60 mm uzunligi 1200mm gacha bo‘ladi. Aktiv elementning sifati, kristallda mavjud bo‘lgan pufakchalar va ularning soni, o‘lchamlariga qarab, kategoriya bo‘linadi.

Neodim ionlarning har-xil shishilar tarkibiga qarab, hususiyatlari va ularning nurni yutish spektrlari, lyuminessensiya intensivligining Nd konsentrasiyasiga qarab, vaqtga nisbatan bog‘liqligi, [25,27] ishlarda ko‘rib chiqilgan.

Shishaning matrisa sifatida, aktiv element materiallarida qo‘llanilishi, ularni optik bir jinsli va katta o‘lchamlarga ega bo‘lgan namunalarini yaratishga imkon beradi. Shishaning bu hususiyatlari, shisha tarkibini aktiv elementlarning, boshqa aktiv elementlarga nisbatan ustunligini va katta chiqish energiyalik lazer generatorlarini yaratishda va optik kuchaytirichchlarni ishlab chiqishda ham qulay ekanligini ko‘rsatadi. Ammo, shishali aktiv elementlarning kamchiligi bo‘lib, ular yuqori temperaturaga chidamsizligi va issiqlikni o‘zidan yaxshi o‘tkazmasligidir [18].

Bu hususiyat, hamma qattiq jismli lazerlar uchun xos bo‘lib, shisha materialidan yasalgan aktiv elementlarda, yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Neodim ionlari bilan aktivlashtirilgan, aktiv shisha elementlarda yorug‘likning damlashi va aktiv elementning o‘zining nurlanishi ta’sirida, chetki yuzalarining kuyishi, ko‘ndalang kesim yuzasining buzilishi, ultrafiolet nurlarini yaxshi yutishi, lampalar effektivligini kamaytiradi [30,36].

Neodimli shishadan yasalgan aktiv elementlarning yana bir kamchiligi, ularning fotokimyoiy turg‘unsizligidir. Ultrafiolet nurlar ta’siri ostida,

neodimli aktiv elementlarda, uch valentlik neodim, qayta ikki valentlikka aylanadi va to'lqin uzunligi  $\lambda=1.06$  mkm bo'lgan nurni yutadi, buning natijasida materiall o'z hususiyatini yo'qotaboshlaydi (qariydi). Bu esa, o'z-o'zidan aktiv elementning generatsiya hususiyatini yo'qotishga olib keladi. Bu muammoni hal qilish uchun maxsus filtrlovchi aralashmalar va filtlardan foydalilanadi [21]. Buning natijasida ularfiolet nurlarining ta'siri kamayadi.

**Flyuorit.** Ikki valentli disproziy bilan aktivlashtirilgan flyuorit kristalli, lazer materiallari uchun xos materiallardan bo'lib, generatsiya boshlanish ostonasining kichikligi, issiqlikka chidamliligi hamda uzlusiz va yuqori chastotada ishlay olishligi bilan ajralib turadi .

### Ittriy-alyuminli granat

Kristallning spektroskopik hususiyatlari va uning asosiy fizika-kimyoiy ko'rsatgichlari [ 26,30, 35,] da ko'rsatilgan.

Bu kristall, nisbatan kichik energiyada, uy temperaturasida ishlaydi. Issiqlikni o'zidan yaxshi o'tkazadi, mexanik jihatidan mustahkam bo'lib, uning bu hususiyatlari, uni yuqori chastotali va uzlusiz generatsiya rejimida ishlatish uchun qulay hisoblanadi. Granatli, aktiv elementlardan foydalilanigan generatorlarda, uzlusiz ish rejimida, chiqish quvvati 220 Vt va FI.K.ti ~2% teng, chastotasi 5 kGs lik rejimida ishlanganda, o'rtacha quvvati 1 Vt ga teng bo'ladi.

### 1.8.3. Yarim o'tkazgichli lazer


YArim o'tkazgichli lazer 1958 yil sovet olimi N.G.Basov va uning xodimlari, yarim o'tkazgichli materiallarni aktiv muhit sifatida ishlatish imkoniyatlari mayjudligini ko'rsatib berdi. Ular tononidan, yarim o'tkazgichli materiallardan foydalaniyganda, elektor toki energiyasini to'g'ridan-to'g'ri kogerent nur energiyasiga aylantirish mumkinligi, ko'rsatib berildi. Yarim o'tkazgichli lazer qurilmasining ishlash prinsipi, quyidagicha bo'ladi. Kvant teoriyasiga binoan, yarim o'tkazlarda elektronlar, ikki keng energetik yo'lakchalarni egallaydi (Rasm 1.19).

Pastki energetik yo'lak, valentlik zonasini anglatса, yuqori energetik yo'lak, o'tkazuchan zonani anglatadi. Normal toza yarim o'tkazgichda, past temperaturada hamma elektronlar bog'langan bo'lib, valent zonasi chegarasidagi energetik sathda joylashgan bo'ladi. Agar yarim o'tkazgichga elektor toki yoki yorug'lik impulsi ta'sirini ko'rsatsak, u xolda bir qisim elektronlar o'tkazuvchan zonaga o'tadi .Bunday o'tish natijasida, valent

zonasida bo'sh o'rinxlar yuzaga keladi, bunday bo'sh o'rinxlarni fizikada teshikdar (kovaklar) deb yuritiladi. Bu teshiklar, musbat zaryadlar rolini o'ynaydi. Shunday qilib, yarim o'tkazgich valet zonasiga va o'tkazuvchan zonalar o'rtasida elektronlarning taqsimlanishi yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, yuqorida joylashgan energetik zonada, elektronlarni taqsimlanishi yuz beradi.


Ba'zi bir arsenid galliyga o'xshash yarim o'tkazgichlarda, elektronlarning o'tkazish zonasidan, qayta valent zonasiga o'tishi va teshiklar bilan birlashishi natijasida yoki turli xil zaryad olib yuruvchilar orasida, rekombinasiya jarayoni yuzaga keladi hamda fotonlarning nurlanishi jarayoni sodir bo'ladi.

Taqiqlangan zona kengligini, yarim o'tkazgichda kamaytirish uchun, yarim o'tkazgichga maxsus aralashima qo'shiladi, ular yarim o'tkazgichda maxsus energetik zonalar yuzaga keltiradilar.



1.7 - rasm. Yarim o'tkazgichli lazerning energetik sxemasi

Invers holatni yuzaga keltirish uchun, turli usullardan foydalilanildi. optik nur yordamida qayta qo'zg'atish yoki elektor toki impulsleri yordamidan foydalilanildi [35.].



1.8-rasm. Yarim o'tkazgichli lazer sxemasi  
(a) va uning spektral xarakteristikasi (b)

Bu yerda, aktiv element sifvtida n-tipdagи arsenid galliy moddasidan foydalanilgan bo'lib, uning konsentrasiyasi  $10^{17} - 10^{18} \text{ sm}^{-3}$  ga teng. Shu materialdan parallelepiped yoki kub shaklidagi material tayyorlanadi, unga yarim o'tkazgichli diod deb aytildi. Diodning o'chovlari juda kichkina bo'lib, millimetrnинг kichik qismini tashkil etadi. Diод, oltin bilan qoplangan molibden asosga kavsharlanadi va natijada n zona xududi bilan kontakt xosil qiladi, r zona xududi yuzasiga, kumush va oltin qoplama aralashmasi qoplanadi.

Diodning ko'ndalang kesim yuzasi, ko'zgu rolini o'ynaydi, shuning uchun ham ikki yon tomoni juda yaxshi silliqlanadi va ular o'zaro parallel qilib tayyorlanadi. Bunday tayyorlangan yarim o'tkazgich, o'z navbatida rezonator rolini ham o'ynaydi. Hosil bo'lgan nurlanish, diodning xuddi shu ishlov berilgan tomonlaridan chiqadi. Yuqori va pastki tomonlar kontakt bo'lib, ular orqali diodga elektor kuchlanishi beriladi. Boshlang'ich vaqida, dioddan oquvchi tok kuchi katta emas, nuring spektral yo'lak kengligi, etarli darajada keng bo'ladi (1.7.b - rasm), tok o'zining dastlabki qiyomatidan yuqori qiyamatga etishi bilan, spektral yo'lak kengligi tezda torayadi. Lazer diodi nurlanishining fazoviy ko'rinishi, barg shaklidagi bo'ladi. Lazer diodi uzlusiz rejimda hamda impulsli rejimda ishlaydi. Bunday lazerning asosiy avzalliklaridan biri, uning chiqishdagi nurni, juda oson modullasiyalanganlidir.

Buning uchun, uni ta'minlovchi tokni modullasiyalash kerak, shunda chiqishdagi nurlanish, o'sha chastota bilan modullasiyalgan bo'ladi.

Aktiv element sifatida, fosfid galiydan, surmali indiy, surmali galliy, arsenid-fosfid-galliya va boshqalardan ham foydalaniлади.

Yarim o'tkazgichli lazerning na'munaviy turi Luch-3 1965 yilda Leypsig yarmarkasida namoyon etilgan. Arsenid galliy kristalli o'lchamlari 0,03 mm<sup>3</sup> bo'lib, u termostat ichida, suyuq azot temperaturasi -196°C da. impulsli ish rejimida, to'lqin uzunligi 0,844 mkm, impuls davomiyligi 2mks bo'lib, nurning impuls qvvati 10 Vt bo'lgan [11,30,3].


#### 1.8.4. Gazli lazerlar

Gaz bilan ishllovchi lazerlar uchun, aktiv element sifatida gaz aralashmalari yoki par holatidagi modddadan foydalaniлади. Gazli muhit uzlusiz stimullashgan nurlanish olish jarayonini engillatiradi chunki, modda atomlarini qo'zg'algan holatga keltirish uchun, kam miqdorda energiya talab etiladi. Aktiv muhit sifatida birinchi bo'lib, geliy va neon gazlari aralashinalardan foydalaniган. Geliy atomi, gazli razryad jarayonida, elektronlar yordamida, qo'zg'algan xolga keladi va asosiy 1 chi sathdan yuqoridagi, 2 chi satnga o'tadi. Geliy atomi, neon atomlari bilan to'qnashganda, yuqorida joylashgan to'rti sathdan biriga o'tadi (Rasm 1.8).


Amaliyotda, ko'pgina texnik sabablar bunday aralashma bosimi. He-Ne lazerining spektral oraliqda ishlashga xalaqit berishi to'g'risida ma'lumot beradi. Shuning uchun, lazer qurilmasining hamma parametrlarini to'liq stabillashtirish natijasida, nisbiy -  $\Delta v/v$  spektral kenglikka, taxminan  $10^{-14}$ - $10^{-15}$  erishiladi [ 24,25, 31, 32] bu, nazariy o'lchov qiymatidan 3-4 karra past.

He-Ne lazerining monoxromativligi, bu qurilmaning ko'pgina ilmiy va texnik masalalarini echishda, asosiy qurilma bo'lib ishlashiga asos bo'ladi. Birinchi He-Ne lazeri 1961 yilda yaratilgan. 1.9-rasmida geliy- neon lazerining soddalashtirilgan sxemasi va invers holatni yuzaga keltirish mexanizmi keltirilgan.  $E_4 \rightarrow E_3$  satnga o'tish jarayoni, neon atomida damlash natijasida, quydagicha amalgaga oshiriladi.

Yuqori kuchlanishli elektor razryadida, elektronlar bilan to'qnashish sababli, geliy atomlarining bir qismi, yuqorida joylashgan metostabil holatga  $E_2$  ga o'tadi. Qo'zg'atilgan geliy atomlari, asosiy holatda turgan neon atomlari bilan noelastik to'qnashadi va unga o'z energiyasini beradi. Neonning  $E_4$  sathi, geliyning metostabil  $E_2$  sathidan, 0,05eV yuqorida joylashgan.



1.9- rasm. Gelyi-neon gaz aralashmasining energetik satlari sxemasi.




1.10 –rasm. He – Ne lazerining naqachka mexanizmi.  
To'g'ri strelka bilan neon atomidagi o'z-o'zieluv  
o'tish jarayonlari ko'rsatilgan.

Energiyaning etmagan qismi, to'qnashayotgan atomlarning kinetik energiyasi hisobidan, kompensasiya qilinadi [10]. Neonning E<sub>4</sub> sathida, E<sub>3</sub> sathga nisbatan, invers holat yuzaga keladi va u quyida joylashgan sathlardagi, o'z-o'zidan nurlanish jarayoni sababli kamayadi. Yuqori darajadagi damlash holatida, geliy-neon gazlari aralashmasida, kogerent fotonlarning lavinasifat ko'payishi jarayoni yuzaga keladi. Agar, gazlar aralashmasi joylashtirilgan maxsus kyuveta, nurni qaytaraolish xususiyatiga ega bo'lgan ko'zgular orasiga joylashtirilsa, lazer generatsiyasi yuzaga keladi. Shu sabab, ikki zarrachaning o'zaro to'qnashishi natijasida energiyaning taçsimlanishi, umumiy ichki energiyaning, kichik miqdorda o'zgarishiha olib keladi va neon atomlari 3- yoki 4- sathga emas, asosan 2- sathga o'tib joylashadi. Natijada, 2-sathning yuqori qismida joylashgan atomlar soni qiymati oshib boradi. Neon atomlarining 2- sathdan ,3 sathning quyi qismiga o'tishi va 3- sathdan 4- sathga o'tishida, nurlanish vujudga keladi. Nazariy tomonidan olib qaralganda, 30dan ortiq o'tish jarayoni mavjuddir. Masalan, 2-sathning o'zi to'rtta sath osti, 3-sath esa 10 sath osti, sathlaridan iborat. Ammo, shu aytilg'an sathlardan faqat 5 tasida, o'tish jarayonida, stimulashgan nurlanish yuzaga keladi, bu nurlanishlar, asosan quyidagi to'lqin uzunliklariga to'g'ri keladi: 1,118; 1,153; 1,160; 1,199; 1,207 mkm.

1.10- rasmida, geliy-neon lazerining sxemasi keltirilgan. U, gaz razryadli trubkadan iborat bo'lib, elektrodlariga yuqori chastotali elektor maydoni beriladi, trubkaning ikki uch tomoniga, trubkadan tashqariga, sfera shaklidagi qaytaruvchi ko'zgu joylashtiriladi. Trubkaning chiqish oynalarini, qurilmaning optik o'qiga nisbatan, Bryuster burchagi ostida o'rnatiladi. Bunday joylashtirish, yorug'lik nuri oqimini, optik rezanatorda, ko'p marotaba qayta'gichi ko'zgulari orasida harakatlanganida, yo'qotishlar qiyamatini kamaytirishga olib keladi [21, 26, 31 ]. Gazli lazer generatsiyasi nurlanishi, yoqutli lazer generatsiyasi nurlanishidan generatsiya rejimi bilan (uzluksiz), yuqori darajadagi monoxromativligi, kogerentligi va kichik burchak ostida tarqalishi bilan farq qiladi. Uning kichik burchak ostida tarqalish, bir burchak minutidan oshmaydi. Bunday lazerning quvvati 0,5-10 mVt bo'lib, ishslash quvvati esa 40-90 Vt bo'ladi.

Zamonaviy, yuqori stabilliylikka ega bo'lgan geliy-neon lazerlari, monoblok tarzda ishlab chiqariladi. Buning uchun kengayish temperaturasi koeffisieti nulga yaqin bo'lgan, shisha materialidan foydalilanadi.



1.11-rasm. Gelyi-neon lazerining sxemasi.

1-gelyi-neon aralashmasi solingen shishali kyuveta, elektor manbai ulanganda yuqori kuchlanishli razryad yuzaga keladi, 2-kutod, 3-anod, 4-sfera shaklidagi nurni qaytaruvechi ko'zgu 0,1% tushgan nurni o'tkazadi. 5-sfera shaklidagi ikkinchi ko'zgu tushgan nurni 1- 2 % ni o'sizdan o'tkazadi.

Shisha bo'lagida to'g'ri burchakli, parallelepiped shaklidagi kanal ochiladi va uning yon tomoniga, optik kontakt usulida, lazer qurilmasining ko'zgusi yopishtiriladi. Kanal yordamida kyuveta, gelyi-neon gaz aralashmasi bilan to'ldiriladi [13, 26, 34]. Shunday monoblok konstruksiya, yuqori mexanik va issiqlik stabilliyligiga ega bo'ladi. Aktiv element sifatida, amaliyotda barcha inert gazlardan foydalanish mumkin. Xozirda, toza neondan, kriptondan, ksenondan, argondan, gelyi-ksenonli aralashmadan, argon va kislorodli aralashmadan, seziy paridan, suvdan, siinobdan, S<sub>2</sub>-dan va boshqalardan, lazer nurlanishi olirgan.

Zamonaviy gazli-gazodinamik, elektrodinamik va elektronizasiyalı lazerlar, qattiq jismli lazerlarga qaraganda, yuqori quvvatga ega bo'lgan lazer nurlanishini generatsiya qiladi (2000 Dj gacha). Ularning F.I.K. yuqori (50%) gacha etadi. Azot va SO gazlari aralashmasi bilan ishlovchi lazerlarning to'ljin uzunligi 10,6 mkm bo'lib, ular uzlusiz rejimda ishlaydilar va yuqori (75%) F.I.K.ga ega.

1970-yillarning ortasiga kelib, SSSR va AQSh da, yuqori bosimda (bir necha o'n atmosferada ishlaydigan) S<sub>2</sub>-lazeri ishlab chiqarildi va ular elektroionizasion lazerlar deb yuritilaboshlandi [34]. Aktiv muhitni yuqori bosimda ishlashi, damlash tizimiining principial, murakkab tizimini yaratishni talab qiladi. Bunday lazer tizimida, molekulalarni qo'zg'atish, ikki etapda amalga oshirildi. Birinchi etapda aktiv muxit, yuqori quvvatlari elektronlar bilan, maxsus elektron kuchaytirgich yordamida, aktiv holatga keltirildi. Bunda, yuqori energiyali elektronlar, aktiv muhitga ta'sir etib, o'z yo'lida uchragan, gaz molekulalari bilan to'qnashadi va ularni ionlashtiradi, natijada muhit xajimi bo'yicha, ikkilamchi elektronlar hosil bo'ladi. Bunday,

oldindan ionlashtirish, keyinchalik aktiv muhitda sodir bo'ladigan, bir tekis razryad yonishini ta'minlashga sharoit yaratib beradi. Shunday qilib, elektroionizasior lazerlarni yaratilishi, yuqori quvvatli energiyaga ega bo'lgan lazerlar yaratishda yangi yo'l ochib berdi [25.26 35].

### 1.8.5. Suyuqlikli lazerlar

Bunday lazerlarning ishchi muhiti bo'lib, ishchi qo'shiluvchi atomlar qo'shilgan, suyuq dielektriklar xizmat qiladi. Ba'zi bir suyuqliklarda, er ishqorig elementlarni suyultirib, energetik sathlar strukturasini, xuddi qattiq dielektriklardagi kabi, xos strukturaga aylantirish mumkin. Shuning uchun, suyuqlik bilan ishlovchi lazerlarning ishlash prinsipi, qattiq jismli lazerlarning ishlash prinsiga o'xshash bo'ldi. Suyuqlik bilan ishlovchi lazerlar, qator avzallikkarga ega; brinchidan ularni ishlab chiqarishga hech qanday kristallarni o'stirish kerak emas. ikkinchidan aktiv muhit bilan har qanday xajimni to'ldirish mumkin, bu esa o'z navbatida aktiv muhitni sirkulyasiya natijasida sovutish imkonini beradi va boshqalar. Suyuq aktiv muhitni gadoliniy, neodim, samariy aralashmalari bilan olish usuli yaratilgan. Tajribada, stimullahgan lazer nurlanishini olish uchun, aktiv muhit, sfera shaklidagi ko'zguli rezonator ichiga joylashtiriladi [26]. Agar, lazer apparati uzluksiz rejimda ishlaydigan bo'lsa, aktiv muhit maxsus sovutish tizimi yordamida sovutiladi. Suyuqlik bilan ishlovchi, aktiv muhitli lazer qurilmalari ko'plab yaratilgan va ular o'r ganilgan. Bu lazer yorug'likning 0.5 - 0.58 mkm (spektorning bayrang nur diapazonida) ishlaydi. Bu nurlanish, suvdan yaxshi o'tadi va suvning chuqur joylarini o'r ganishda hamda suv osti lokatorlarda ishlatishga mo'ljallangan. Keyingi payitorda, suyuqlik bilan ishlaydigan lazer qurilmalarini qo'zg'algan xolga keltirishda, qattiq jismli lazer apparatlari nurlanishidan ham foydalani-moqda. Bunday holatda, aktiv muhitni qo'zg'atish amalga oshirilganda, maxsus kyuvetaga solingan suyuqlik, rezonator ichiga yonma-yon joylashtiriladi, rezonator ichiga optik zatvor - Kerr yacheykasi ham joylashtiriladi. Bunday qurilma yordamida, lazer nurlanishining impulsli generatsiyasi olingan, nurning quvvati bir necha o'n megavatt bo'lib, generatsiya davomiyligi 3-30ns ga teng [ 35, 36]. Bu nurlanishning to'lqin uzunligi 0,69mkm ga teng bo'lib, u ma'lum miqdordagi aktiv suyuqlik joylashgan kyuvetaga yo'naltiriladi va natijada kyuvetaning chiqishida, bir necha to'lqin uzunligidagi lazer nurlanishi chiqadi. Bu nurlanishlar chastotasi, kirib kelgan nurlanish chastitasi yig'indisiga yoki ayirmasiga hamda infraqizil diapazonda tebranayotgan molekulalar chastotasiga teng.


Taqqoslash uchun, nurlarning to'lqin uzunliklarini keltiramiz: 0,74 mkm, nitrobenzol – 0,76; 0,85; 0,96 mkm, brom-naftalin – 0,76 mkm, siklogeksan – 0,86 mkm, benzol – 0,74; 0,88; 0,80 mkm. Bu turdag'i lazerlarning avzalliklari, ularning to'lqin uzunliklarini kyuvetadagi aktiv muhit-suyuqlik aralashmasini, almashtirish orqali o'zgartirish bo'lsa, ularning, ikkita kamchiliklari bor: birinchisi, suyuq aktiv muhitning yuqori lazer intevsivligiga nisbatan, turg'un emasligidadir va ikkinchisi, suyuq aktiv muhitning sinish koefisientini, generatsiya jarayonida, issiqlikdan o'zgarishidir. Bunday o'zgarish o'z navbatida, generatsiya nurlanishini, rezonator ko'ndalak kesimi bo'yicha, nurlanishni turish o'rni holatini o'zgarishiga olib keladi [36, 37].

Suyuqlik bilan ishlovchi lazerlarga bo'lgan qiziqish, ularda aktiv muhitni oson damlash va tiziindagi aktiv muhitni sovutish ishlarini oson analga oshirish hamda lazer nurlanishi chastotasini tekis o'zgartirish imkonini borligidadir.

Quyida keltirilgan 1.11-rasmda suyuqlik bilan ishlovchi lazerlarning turlari va ularning parametrlari keltirilgan.

Amaliyotda, organik bo'yogli lazerlar (Dye, Lasers), turli soxalardarda keng qo'llanilib kelinmoqda. Turli organik bo'yoglar yordamida, yuqori monoxromativlikka ega bo'lgan, lazer generatsiyasi to'lqin uzunligi diapozonini, bir necha o'n nanometrغا o'zgartirish imkoniyatini beradi.

Bunday lazerlar, uzlusiz, impulsli rejimda va impulsli davomiy rejimda ishlay oladi. Lazerning bir impulsdag'i energiyasi, yuzlab djoulga, quvvati esa, uzlusiz rejimda, o'nlab Watt qiymatiga teng bo'ladi.




1.12 - rasm. Suyuqlik bilan ishlovchi lazerlarning turlari va ularning parametrlari

Modalar sinxronizasiyasi rejimida ishlaganda, lazer nurlanishi impulsi davomiyligi, bir necha o'n pikosekund bo'lishi mumkin.


Suyuqlik bilan ishlaydigan lazer qurilmasining sxemasi 1.12 - rasmda keltirilgan. Organik bo'yoqli lazerlarda ishlatalib kelinayotgan organik eritmalar, maxsus organik erituvchilar yordamida tayyorlanadi. Organik bo'yoqlar murakkab birikmalar bo'lib, ular turli kimyoviy bog'lanishlarga ega bo'lib, ko'rish diapozonida, yorug'likni kuchli yutish polosasiga (yo'lagiga) ega.

Quyida, organik bo'yoqlardan rodamin 6G ning strukturaviy formulasi ko'rsatilgan. Bo'yoqlarning molekulaviy strukturasini murakkab bo'lib, u o'zida benzolliy ( $S_6N_6$ ), azotliy ( $S_4N_4N_2$ ) birikmalarga ega. Asosan lazer texnikasida, rodamin 6G, organik bo'yog'idan keng foydalaniлади. Rodamin 6G organik bo'yog'ining strukturaviy formulasi, 1.13- rasmda keltirilgan.

Bunday molekula, elektronlarning tebranuvchi, aylanma holatlar uchun ruxsat etilgan energetik qiymatlarga ega. Bu holatlar o'rtasidagi energetik masofa  $1\dots3$ ,  $0,1\dots0,01$  va  $10^{-3}\dots10^{-4}$  eV ga teng. Tebranma va aylanma holatlar sathining o'zaro kesishishi natijasida, aniqlangan energetik holatlar uchun, ruxsat etilgan energetik yo'laklar seriyasi vujudga keladi.




1.13 – rasm. Suyuqlik bilan ishlaydigan lazer qurilmasining sxemasi



1.14 rasm. Rodamin 6G organik bo'yog'ining strukturaviy formulası

Bu holatlarni, ikki gruppaga bo'lish mumkin: Singlet holatlar ( $S$ ) va triplet holatlar ( $T$ ). Birinchi gruppaga, spinlari orientatsiyasi holati ( $S = 0$ ) antiparallel bo'lgan holatlar, ikkinchi gruppaga esa, parallel orientatsiyaga ega bo'lgan holat ( $S = 1$ ) kiradi. Har bir elektron holatida, tebranuvchi sathlar seriyasi, (1.14 - rasmda bu sathlar, qora, yorqin rang bilan belgilangan) va aylanma sathlar seriyasi kuzatiladi.) Spinlar bo'yicha tanlov qoidasiga binoan, holatlar orasidagi ruxsat etilgan optik o'tishlar bir xil ( $S = 0$ ), singlet-singlet  $S-S$  o'tishlar va  $T-T$  triplet- triplet o'tishlarni canalga oshishi mumkin. Bu o'tishlarning katta ehtiymolligi mavjud. Normal holatda molekulalar asosiy  $S_0$  holatda bo'ladi. Optik nurlanishni yutishi natijasida, molekulalar asosiy  $S_1$  holatdan, tebranma-aylanma holatning  $S_1$ ga o'tadi. Bunday o'tishlar bilan aniqlanadigan yutish spektri, keng yo'lak shaklida namoyon bo'ladi. Yutish yo'lagining spektral holatining maksimumi, orgali bo'yoq rangini, turli moddalar uchun aniqlab beradi va u taxminan 0,3dan 1mkm gacha o'zgaradi. Yutish yo'lagining kengligi, turli bo'yoqlar uchun turli bo'ladi, taxminan 0,2 eV. Optik o'tish natijasida ( $S_0 \rightarrow S_1$ ) molekula, tebranma, aylanma holatlar jarayonida,  $S_1$  holatdan, relaksasion, nurlanishsiz jarayon natijasida  $S_1$  sathning quyi qismiga o'tadi, bunday termalizasiya jarayoni juda tez o'tadi, taxminan 1ps davomida. Termalizatsiyalovchi issiqlik tashuvchilar,  $S_1$  holatdan, o'zidan nur chiqarib yoki nur chiqarmay, asosiy holat  $S_0$ ga o'tadi.  $S_1 \rightarrow S_0$  o'tishlar uchun berilgan vaqt taxminan 1ns ni tashkil etadi. Ko'pgina organik bo'yoqlarda, o'zidan nur chiqarish holati, nur chiqarmaslik holatiga qaraganda ko'proq sodir bo'ladi. Suyuqlik bilan ishlovchi lazerning, nur chiqaruvchi elektron holati 1.14 - rasmda tasvirlab berilgan.[38, 43, 45]



1.15 -rasyn. Suyuqlik bilan ishlovchi lazerning elektron holati:  
st-singlet triplet konversiya holatining doimiyligi,  
ts-triplet singlet o'tishining doimiyligi.


Intensiv optik damlash jarayonida,  $S_1$  sathning quiy sathi yo'lagi va  $S_0$  sathning yuqori sathi o'rtaida, invers holat yuzaga keladi. Bu xolda generatsiya jarayoni  $S_1$  va  $S_0$  energetik sathlar yo'laklari orasida, to'rt sathli sxema asosida amalga oshadi.  $T_1$  va  $T_2$ . triplet holatlar, generatsiya jarayonida qatnashmaydi, ular generatsiya jarayoniga xalaqtit beradi. Organik bo'yoqlar bilan ishlovchi lazerlar, bizda katta qiziqish uyg'otadi, ular to'lqin uzunligi, tekis o'zgaruvchan generatorlar sifatida katta ahamiyatga ega. Buni amalga oshirish uchun, dispersion rezonatoridan foydalanishga to'g'ri keladi. Bunga ideal variat-bir modali, bir chastotali rezonatoridan foydalanishdir.

$S_0$ ,  $S_1$  bo'yoqli optik o'tishlar ehtimolligi yuqori bo'lganligi sababli, ularda nurni yutishi va kuchayishi yuqori bo'ladi. Shu sababli bunday lazerlar, yuqori darajada kuchaytirish koeffitsientiga ega bo'lib, aktiv muhitning katta bo'lmasagan xajmida ham ishlay oladi - 1 mm<sup>3</sup>. Yuqori intensivlikka ega bo'lgan, damlovchi nurni yutish jarayonida, kichik xajimga ega bo'lgan aktiv muhit tezda qiziy boshlaydi, shuning uchun ishchi aktiv muhit xajmi, doimiy ravishda almashtirilib turilishi kerak bo'ladi, aks xolda generatsiya jarayonida uzilish vujudga keladi. Organik

bo'yqqli lazerlar yordamida, yorug'lik nuri to'lqin diapozonining 0,34 dan 1,17 mkm oralig'i to'liq yopilishi mumkin. Xozirgi, zamonaviy lazerlarning foydali ish koeffitsienti - 30% tashkil etadi. Uzliksiz ish rejimida, bunday lazerlarning chiqish quvvati, bir necha vatt bo'lib, impulsli rejimda 10 Vt dan, bir necha megavattgacha etadi. Agar, lazer nurlanishi generatsiyasi davomiylik vaqt, bir impulsda 20ns, qaytarilish chastotasi 200Gs bo'lsa, lazer nurlanishining burchak ostida tarqalishi 2....2,5mrad tashkil etadi. modalar sinxronizasiyasi rejimidan foydalilanilda esa, juda qisqa yorug'lik nurlanishi impulslarini olish mumkin  $-310^{-14}$  s

### 1.8.6. Eksimer lazerlari

Eksimer lazerlari, molekulyar lazerlar sinfiga kiradi. Bunda, maxsus molkeulalar - eksimerlarning turli elektron holatlar orasidagi o'tishlarda, generatsiya jarayoni yuzaga keladi. Eksimer lazerlari molekulalari, ikki elektron sathlari orasidagi o'tish jarayonida ishlaydi. Ularning quyi sathi o'zidan itaruvchi sath atomlaridan tashkil topgan, Eksimer so'zi, qisqa ingliz so'zi bo'lib, exsited dimer ( qo'zg'atilgan dimer) so'zini anglatadi. Ikki atomli molekula  $A_2$ , ni ko'rib chiqamiz, Rasm 1.15 da molekulaning asosiy va qo'zg'atilgan holatlarining egri chiziqlı potensial energiyasi keltirilgan.



1.16-rasm. Eksimer lazerining energetik sath'lari.

Asosiy holat, atomlarning o'zaro itarilishi holati bo'lib, bu holatda molekulalar mavjud bo'lmaydi (asosiy holatda zarrachalar faqat monomer A- shaklida bo'ladi). Ammo qo'zg'algan holatlarning potensial energiya egri chizig'i, minimumga ega bo'lib, A<sub>2</sub> molekula qo'zg'olgan holatda mavjud bo'ladi (qo'zg'algan holatda zarrachalar dimer shaklida-A<sub>2</sub>, mavjud bo'ladi). Bunday A<sub>2</sub> molekulalar, eksimerlar deb yuritiladi (yoki qo'zg'atilgan demerlar). Taxmin qilaylik, biron-bir xajimda, qandaydur katta miqdorda eksimerlar yuzaga kelgan, u xolda generatsiya, yuqorida joylashgan (bog'langan) holatlar bilan, quyida joylashgan (erkin) holatlar orasidagi (bog'liq-erkin) o'tish jarayonida yuzaga keladi [42, 43, 47].

Eksimer lazerlarining klassik misoli sifatida, Ne<sub>2</sub> lazerini olish mumkin, bu lazer, birinchi eksimer lazerlaridan bo'lib, generatsiya to'lqin uzunligi ( $\lambda = 170$  nm).

Eksimer lazerlari, o'ziga xos 3 ta zaruriy hususiyatga ega:

1. Sathlar orasida o'tish jarayoni asosan molekulalarning turli elektron holatlari o'ttasida amalga oshiriladi, generatsiya to'lqin uzunligi ko'pincha UF diapozoniga to'g'ri keladi.


2. Generatsiya natijasida, molekula asosiy holatga o'tishi bilan u. tezda bu holatda mavjud bo'lgan bir-biridan itarilish potensiali natijasida, dissosiyalanadi. Bu, shundan darak beradiki quyi lazer sathi, doimo bo'sh bo'ladi va generatsiya to'rt sathli sxema asosida, amalga oshiriladi.

3. Asosiy holatda, energetik sathlarning yo'qligi sababli, aniq ajratilgan aylanma – tebranma o'tishlarning yo'qligi sababli o'tish, o'ziga xos hususiyatga ega emas, nisbatan keng yo'lakli bo'ladi ( $\Delta v = 20-100$  sm<sup>-1</sup>). Ammo, shuni hisobga olish kerakki, ba'zi bir eksimer lazerlarda, asosiy holatning potensial energiya egri chizig'i, o'zaro itarilishga to'la, to'g'ri kelmaydi va chuqur bo'ligan minimumga ega bo'ladi. Bunday holatda, o'tish yuqori bog'langan holat sathi va quyi (bo'sh) bog'langan holat sathi, orasida (bog'liq - bog'langan o'tish) sodir bo'ladi [40].

Asosiy holat, bo'sh bog'langan bo'lganligi sababli, molekula bu holat sathida, tez dissosiasiya jarayonini o'tkazadi yoki o'zi, boshqa gaz aralashmasi molekulasi bilan, birinchi to'qnashuv natijasida dissosiyalanadi. Shunga binoan, generatsiya uzlusiz spektorga ega bo'ladi.

Xozir biz, eksimer lazerlari sifining atomlari, inert (Kg, Ag, Xe) gaz bo'lgan va qo'zg'atilgan holatda, gallogen atomlari (F, Si), bilan qo'shilib ketadi, natijada gallogenidlар va inert gazlardan tashkil topgan eksimer lazarlari yuzaga keladi. Konkrent misol sifatida, ko'rsatishimiz mumkinki, ArF ( $\lambda = 193$  nm), KrF ( $\lambda = 248$  nm), XeF ( $\lambda = 351$  nm) i XeSi ( $\lambda = 309$  nm); har biri, UF diapozonida generatsiyani amalga oshiradi [42]. Nima

uchun gallogenidlar va inert gazlari atomlari, oson qo'zg'algan holatga keladi chunki, qo'zg'algan holatda, inert gazlar atomining kimyoviy hususiyati, ishqoriy atomlarga mos keladi, ya'ni ular gallogenlar bilan tez reaksiyaga kirishadi. Bu anologiya shuni ko'rsatadiki, qo'zg'atilgan xolda bog'lanish, ion bog'lanish harakteriga ega bo'ladi, bog'lanish jarayonida, qo'zg'atilgan elektron, inert gaz atomidan, gallogen atomiga o'tadi. Shuning uchun ham bunday holat, bog'langan holat kabi, zaryadni ko'chirish holati ham deyliladi. Xozir biz, KrF lazerini ko'rib chiqamiz, chunki bu lazer eng zarur lazer qurilmalaridan biri bo'lib hisoblanadi.



1.17-rasm. KrF - molekulalarining energetik holatini aks ettiruvchi, potensial energiyasi egri chizig'i.

Bunda, yuqori lazer sathi zaryadi ko'chirilgan, ion bog'lanishga ega bo'lgan holat bo'lib, agar  $R \rightarrow \infty$  intilsa, Kr atomining musbat ioni holatiga. F ionining manfiy holati javob beradi. Shuning uchun, katta  $2R$  yadrolar aro masofada, energiya egri chizig'i, Kulon qonuniga bo'yin sunadi. Ikki ion orasidagi o'zaro ta'sir potensiali, ( $0,5-1$  nm) dan ham uzoq masofaga cho'ziladi, kovalent o'zaro ta'sir holati ustun bo'lganda ham. Quyi holat, kovalent bog'lanishga ega bo'lib, va  $R \rightarrow \infty$  sa, kripton atomi, gazning  ${}^1S$  xoltiga, flor atomining  ${}^1R$  holatiga javob beradi. Generatsiya  $V^-\Sigma \rightarrow X^2\Sigma$  o'tish jarayonida sodir bo'ladi va sodir bo'luvchi jarayonnig katta yuzasiga ega bo'ladi [31].


O'tish jarayonida, nur beruvchi elektron, F- atomidan, Kr<sup>+</sup> ionni atomiga o'tadi. Bu o'tishning, zarur bo'lgan spektroskopik xarakteristikalarini Jadval 1.3 da keltirilgan.

1.3-jadval


Lazer turi	N <sub>2</sub>	(KrF)*
To'lqin uzunligi [nm]	337,1	248
Kesimi [ $10^{-13}$ sm <sup>2</sup> ]	40	0,05
Yuqori holatining yashash vaqtı [ns]	40	10
Quyidagi holatining yashash vaqtı [μs]	10	
O'tish shizig'inining kengligi [THz]	0,25	3
	40 (N <sub>2</sub> )	120 (Kr)
Parsial bosim [mbar]	960 (He)	6 (F <sub>2</sub> )
		2400 (He)

Azot va kripton, flor gaz aralashmasi sostavi va lazerning UF o'tishining spektroskopik hususiyatlari.

KrF molekulalarini vujudga kelishiga javob beruvchi, ikki asosiy qo'zg'atish mexanizmi, F atomlarini qo'zg'atish yoki kripton atomlari ionini qo'zg'atishga javob beradi [40,51]. Razryad elektronlari bilan qo'zg'atilgan Kr atomi, F<sub>2</sub> – flor molekulalariga, quyidagi reaksiya natijasida ta'sir ko'rsatadi:




Kripton ionini qo'zg'atish bilan bog'liq usul, quyidagi uch reaksiya orqali ko'rsatib beriladi



Avval Kr va F ionlari yuzaga keladi, so'ngra ularning razryad xududidagi rekombinasiyasi sodir bo'ladi. Energiyanı va impulsni saqlanish qonunini bu jarayonda bajarilishi uchun, uchunchi qatnashchining, Ne gazning (bufer gaz sifatida) ishtiroti kerak bo'ladi [23]. Agar, bufer gazning bosimi yuqori bo'lsa, (asosan gaz aralashmasi Kr dan iborat bo'lib, bosimi taxminan 120 mbar, F gazining bosimi 5 mbar va Ne gazining bosimi 2400 mbar) u xolda, jarayon asosan (KrF) kompleksini yuzaga kelishiga bog'liq bo'ladi. Gaz aralashmasi bosimi, atmosfera bosimidan

yuqori bo'lgani uchun, eksimer lazerlari. faqat impuls rejimida ishlaydi. 1.17- rasmida bu turdag'i lazerlarning TEA-konfigurasiyasining umumiylsxemasi ko'rsatilgan.



1.18-rasmda TEA - konfigurasiyali lazerining umumiylsxematičko'rinishi keltirilgan (qurilmanning o'qi bo'ylab)

Lazer qurilmasida, gaz oldi ionizasiyasi uchun, UF – nurlanishidan foydalanamiz, trubka o'qi bo'ylab, iskrali razryad olish uchun, bir necha manbalardan foydalaminigan [34, 37].

1.17-rasmda, keltirilgan ionizasiya oldi holati, ketma – ket kisqa razryadlar vositasida amalga oshiriladi. Katta lazer qurilmalari uchun, ionizasiya oldi jarayoni uchun, tashqi elektron nuri yoki rentgen qurilmasidan foydalaminildi. Seriyali ishlab chiqarilayotgan eksimer lazer qurilmalarining impuls ketma – ketligi 500Gs gacha va o'rtacha chiqish quvvati 100Vt gacha bo'ladi. Juda katta lazer qurilmalarining o'rtacha quvvati 1 kVt gacha , lazerning FIK (2 – 4%) ga teng bo'ladi.

Eksimer lazerlari, plastik materiallarni ablyasiya qilishda, biologiyada va tibbiyotda, to'qinmalarni yuqori aniqlikda kuydirishda, chunki bu materiallar, yorug'likning UF diapozonidagi nurlanishlarni juda yaxshi yutish imkoniyatiga ega. Shuning uchun ham, qisqa nurlanish vaqtga ega bo'lgan impuls ta'sirida, intensiv ablyasiya yuz beradi va materiallar to'g'ridan – to'g'ri, uchuvchi komponentlarga aylanadi [45]. Lazerning bu hususiyati, yuqori aniqlikda , yupqa plastinkalarda teshiklar ochishda, ko'z mikroxirurgiyasida keng qo'llanib kelmoqda. Litografiya sohasida, ultirosiolet nurlanishli manbalar to'lqin uzunligi 248nm bo'lgan, manba

yarim o'tkazgichli mikrochiplarga, submikron o'lchamida ishlov berishda qo'llanib kelinmoqda. Bundan tashqari, eksimer lazerlaridan, bo'yogli lazerlarni qo'zg'atishda keng foydalanim kelinmoqda, chunki ko'pgina bo'yolalar, UF diapazon nurlarini yaxshi yutadi.

### 1.9. Optik rezonatororda kinetik jarayonlarni boshqarish

Bu masala, asosan har xil yorug'lik nurini boshqaruvchi qurilmalar yorug'lik nuri (to'sqichlari) - zatvorlari va yorug'lik nur qaytargichilar yordamida amalga oshiriladi. Bularidan, keng tarqalgan qurilmalarga: optiko-mexanik, fototrop, elektrooptik yorug'lik zatvorlari, fototrop yorug'lik pylonkalari va elektrooptika, optik-mexanik nur qaytargichilar kiradi. Lazer texnikasida bunday turdag'i, yorug'lik zatvorlar va nur qaytargichlarning ishlatalishiga asosiy sabab, lazer sistemasining kinetik jarayonini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni, biron-bir alohida olingen boshqaruv elementi yordamida, boshqarib bo'lmasligidadir. Masalan, optiko-mexanik yorug'lik to'sqichlari (svetozatvorlari) asosan rezonator ishlash sifatini oshirishga xizmat qiluvchi, modulyator sifatida ishlataladi. Ba'zan o'zining kam inersionligi, ularni ishlashiga xalaqit beradi. Buning aksi sifatida, p'ezoakustik yorug'lik zatvori qulay bo'lib, rezonator asilliyligini oshirishda, yuqori chastotada modulyasiya qilishda (boshqarishda) ishlataladi. Fototrop yorug'lik zatvorlari rezonator ish faolligini oshiribgina qolmay, balki kuchaytirgich kaskadlarining o'zarbo'liqligini yo'qotishga hamda modulyasiya yordamida, bir modalik lazer nurini olishga ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, fototrop yorug'lik zatvorlarining, yorug'lik nurini o'tkazishining nochiziq bog'liqliligi yoki fototrop svetozatvorning yorug'lik nuri intensivligiga nisbatan yoritilganligi, generatsiyada qatnashayotgan, rezonatordag'i alohida elektromagnit to'lqin modallari fazasini, bir yo'sinda ushlab turishga imkon yaratadi. Buning asosida (samosinxronizatsiya) o'z-o'zini sinxronlash usuli yordamida, davomiyligi pikosekund bo'lgan lazer nurlanishini olish imkoniyatiga ega bo'linadi. Yana fototrop plenkalarining hususiyatlaridan biri, ularni katta diametrali lazer nurlarini boshqarishda juda ham samaradorlidir. Elektrooptik yorug'lik zatvorlar va yorug'lik qaytargichlar yanada katta imkoniyatlarga ega bo'lib, ularga berilgan kuchlanishning kattaligiga qarab, rezonatorni modulyasiyalab ular yuzasiga tushayotgan nurni ma'lum yo'nalihsida o'tkazib yuborish yoki qaytarish imkoniyatiga egadirlar. Buning yana avvalgi modulyatorlardan farqi, shundan iboratki, rezonator faoliyligini oshiruvchi modulyasiyalashni, tashqi signal yordamida amalga

oshirish imkoniyatini berishidadir. Nihoyat elektrooptik qurilmalarning bunday o'ziga xos hususiyatlari, lazer nurlanishining polyarizatsiyasini boshqarish imkoniyatini beradi. O'z-o'zidan ko'rinish turibdiki elektrooptik qurilmalardan foydalanish uchun, maxsus radioelektron (kerakli elektr impulsini o'zida ishlab chiqaruvchi) sxemadan foydalanish kerak bo'ladi [86].

Yuqorida ko'rib o'tilgan, amaliyotda qo'llanib kelinayotgan yorug'lik nurni boshqaruvchi qurilmalarga elektroportlagichli plenkali yorug'lik zatvorlari, ya'ni shaflof lentasimon, polietilen plenkalariga o'tkazilgan lital plenkalar va yuqori quvvatli elektr toki impulsli yordamida yorishadigan boshqaruv elementlari kiradi [37, 42].

### 1.10. Lazer nurlanishini kuchaytirish

Lazer nurlanishini kuchaytirish, texnik imkoniyatini yaratish, aktiv elementda invers holatni buning etish va invers element muhitida yorug'lik nuri oqimini shakkantirish masalalariga bog'liq bo'ladi. Lazer nurlanishi kuchaytirgichlarining turli turlari mavjud bo'lib, ular invers muhit kattaligi bilan va kuchaytiruvchi muhitda nur oqiminining shakkantirish yo'llari bilan—bir tomonga yo'naltirilgan, yugurma to'qinli kuchaytirgichlar, ko'p o'tgichli kuchaytirgichlar, rezonatori boshqarila oladigan kuchaytirgichlar va regenerativ kuchaytirgichlarga bo'linadi [38].

Bir tomonga yo'naltirilgan, yugurma to'qinli kuchaytirgichlarning invers muhiti, uzaytirilgan bo'ladi va ularda kuchaytiriluvchi nur, bir yo'nalish bo'yicha yo'naltiriladi. Bunday kuchaytirgichlardan foydalaniyganda, kuchaytirgichga yo'naltiriladigan nuring yuza birligi kengaytiriladi. Bunday extiyotkorlik qilinmasa, kuchaytiriluvchi nuring yuza birligidagi zinchligi, to'ynish darajasiga etadi va kuchaytiruvchi muhitni buzilishiga olib keladi. Katta kuchaytiruvchi imkoniyatga ega bo'lgan invers muhitni yaratish uchun, bir necha qiyinchiliklarni engib o'tishga to'g'ri keladi. Bularga, kuchaytirish jarayoniga bog'liq bo'lgan kuchli lyuminessensiya (superlyuminassensiya) holati bo'lib, bu holat invers muhitni kuchini kamaytiradi hamda ortiqcha shovqinlarga sabab bo'ladi. Bunday superyuminassensiyani yo'qotish uchun kuchaytiruvchi invers muhit bir-biridan ma'lum masofada joylashtirilgan, kuchaytirgich kaskadlaridan foydalilanadi va bu kuchaytiruvchi (svetozatvorlar) yorug'likni to'sib turuvchi pardalar bilan ajratilgan bo'ladi. Kuchaytirgich kaskadlarining optik sxemasi ham generatorning optik sxemasiga o'xshagan bo'lib, unda aktiv element va damlash lampasi, maxsus nur qaytargichga

(osvetitelga) joylashtirilgan bo'lib, ularning elektr ta'minoti va yoritgich lampalarining ishlash prinsiplari, lazer generatoriga o'xshagan bo'ladi.

Kuchaytirgich kaskadlaridagi aktiv muhiti, generatorning aktiv muhitiga qaraganda kattaroq bo'ladi. Kuchaytiriluvchi nuring yuza birligi teleskopik sistema yordamida kengaytiriladi. Kuchaytirgichlardan orqaga qaytuvchi nurlardan qutilish uchun, magnitooptik effektga ega bo'lgan optik ventillardan (nurni faqat bir tomoniga o'tkazuvchi qurilmadan) foydalani-ladi. Bunday extiyotkorlik, o'z navbatida orqaga qaytuvchi nurlard, optik elementlarni ishdan chiqarishidan saqlaydi. Shuni ham aytish kerakki, optik ventillardan foydalananish, kvant generatorlarini bir yo'nalishli, yugurma to'iqinti rejimda ishlash uchun ham maqsadga muvosiq bo'ladi [32].

Ko'p yo'lakli (ko'p kanalli) kuchaytirgichlar, invers muhitni rasional ishlatishga imkon beradi. Bunday kuchaytirgichlardan foydalanilganda, kuchaytiriluvchi nurni shakllantirish uchun va aktiv muhitudan ko'p marotaba foydalananish uchun ham kuchayuvchi nurlar bir-biri bilan kesishmasligi uchun, maxsus optik elementlardan, yassi parallel yoki egi chiziqli ko'zgulardan foydalaniлади va kuchaytiriluvchi nur ko'p marotaba aktiv invers muhitudan to'g'ri va teskari yo'nalishda o'tkaziladi. Yassi parallel ko'zgularni chiziqli kuchaytirgichlarda qo'llash, maqsadga muvosiq bo'lib, egi chiziqli ko'zgulardan esa kuchaytirish holatini to'yinishiga yaqin holatida ishlatgan ma'qul bo'ladi. Bu egi chiziqli ko'zgular, kuchaytiriluvchi nur yuzasini kuchaytirgichdan o'tish jarayonida kengaytiradi. Ko'p kanalli kuchaytirgichlar ko'pgina masalalarni ijobjiy echishga yordam beradi va o'z navbatida qo'llaniladigan bir necha optik elementlarni va elektr energiyasini tejaydi [42,43].

Rezonatori boshqariladigan kuchaytirgichlar yordamida, qisqa davrli nur impulslarini, kichik o'lchamli aktiv muhituda, maksimal kuchaytirishda qo'llaniladi. Bu holda kuchaytiriluvchi yorug'lik nuri oqimining kuchaytirgichda shakllantirish, almashib ulagichli rezonator yordamida amalga oshiriladi.

Buning uchun, avval kuchaytirilayotgan nur, rezonator ichiga kiritiladi, nur rezonatorida ko'p marotaba aktiv muhitudan o'tish jarayonida kuchayib, (100% qaytaruvchi ko'zgular yordamida) so'ngra rezonatorдан chiqarib yuboriladi. Kuchaytirgichning spektral yo'lagi, rezonator parametrlari bilan aniqlanadi.

Regenirativ kuchaytirgichlar, kichik aktiv muhituda, nur impulsini davomiyligi qayta va uzlusiz ishlaydigan lazer nurlarini kuchaytirishda ishlataladi. Bunday kuchaytirgichlarda, kuchaytiriladigan nur oqimini aktiv muhituda shakllantirish, optik rezonatorda, yarim o'tkazgichli ko'zgular

yordamida bajariladi. Bunday regenerativ kuchaytirgichlar, kvant generatorlarining o'z-o'zini qo'zg'atish bo'sag'asida ishlovchi, generatorlari turiga kiradi. Ularning spektral yo'lagi ham rezonatorning parametrlariga bog'liq bo'ladi.

Lazer nurlanishi spektrini o'zgartirish, nochiziq optik jarayonlariga bog'liq bo'ladi. Nochiziq optik jarayonlarning sodir bo'lib o'tishi jarayoni, o'zaro ta'sir etuvchi elektromagnit maydon fazalari nisbati bilan aniqlanadi. Shunday jarayonlar uchun optik ko'payish, chastotalarni aralashuvchi, parametrik o'zgarishlar va boshqalar, ularning o'tish harakteri asosan elektromagnit maydonlarining o'zaro ta'siri va ularning fazalari nisbatiga bog'liq bo'lib, bu jarayonlarda hal qiluvchi rolni, muhitning dispersiyasi yoki uning tarkibiy qismlariga ajralishu bajaradi [31].

Bunday jarayonlardan, lazer nurlanish spektrini o'zgartirish va amaliyotda foydalanishda, lazer nurlanishining quvvatiga bog'liq bo'ladi.

Lazer nurlanishi garmonikasining generatsiyasi, lazer nurlanishi spektrining o'zgartirishning texnik jihatdan ko'p qo'llaniladigan usullaridan biridir.

Lazer nurlanishining ikkinchi garmonikasini olish, nurlanishni nochiziq optik elementdan o'tkazish yoki uni rezonator ichiga joylashtirish orqali amalga oshiriladi. Agar, nochiziq optik elementni, lazer rezonatori ichiga joylashtirsak, lazerning asosiy optik sxemasi, birlamchi lazer nurlanishidan, uning ikkinchi garmonikasini ajratib olish bilan bog'liq bo'ladi.

Nochiziq optik elementlar, rezonatordan tashqarida joylashtirilganda, uning effektivligini oshirishning usullari mavjud bo'lib, ularidan foydalanish, biz uchun qiziqarli bo'ladi. Buning uchun, birlamchi lazer nurlanishini silindrik optik element (linza) yordamida, nochiziq optik elementga fokuslab uzatish orqali amalga oshiriladi.

Lazer nurlanishi spektrini o'zgartirishda, nochiziqli jarayonlarning ahmiyati katta bo'lib, ular parametrik generatsiya yordamida, lazer nurlanishi generatsiyasining to'lqin uzunligini ravon o'zgartirishi mumkin. Bu holda, nochiziq elementning bo'lishi va undan spektr chastotasini parametrik o'zgartirishda foydalanish, asosiy faktorlardan biri bo'lib hisoblanadi. Bunday holatda nochiziq element, optik rezonator ichiga joylashtirilishi shart bo'ladi.

Parametrik generatorlarda ishlataladigan optik rezonatorlar, qattiq jismli kvant generatorlari, optik rezonatorlaridan ko'p farq qilmaydi. Parametrik generatorlarining foydali ish koeffisentining kichikligi, ularni texnik jihatdan amalga oshirishda, ko'pgina qiyinchiliklar tug'diradi.

Yaxshi o'rganilgan va lazer nurlanishi spektrini o'zgartirishda, keng qo'llaniladigan, boshqa sinf o'zgartiruvchilariga mansub bo'lgan, noiziq optik jarayonga, suyuqlik yoki gaz molekulasi tebranishida sodir bo'ladi, majburiy kombinatsion tarkalish (MKT) dan foydalaniadi.

MKT jarayoni o'tishi uchun, yaroqli muhit, optik rezonatorga joylashtirilgan bo'lib, damlash, birlamchi lazer nurlanishi yordamida amalga oshirilishi natijasida, kombinatsion tarqalish chastotasida, majburiy nurlanish sodir bo'ladi. Shu kabi MKT-lazerlarda, nurlanishini kuchaytirish uchun, MKT-kuchaytirgichlardan foydalaniadi.

Yana bir qattiq jismli lazer nurlanishlari chastotasini o'zgartirish uchun, qulay bo'lgan muhit, bu organik bo'yoqlar bo'lib, ulardan amaliyotdan keng qo'llanilib kelinmoqda. Organik bo'yoqlar, qattiq jismli lazer nurlanishi yordamida qo'zg'atilib, ular yordamida, keng uzuksiz spektrda, generatsiya olish mungkin va lazer nurlanishi chastotasini o'zgartirish mumkin.

Texnik jihatdan MKT-lazerlar va organik bo'yoqlar yordamida ishlovchi lazerlarni, amalga oshirish masalalari va ularning hususiyatlari bizning darsligimizda ko'rildigan masalalar doirasidan tashqarida bo'lib, qiziquvchilar uchun maxsus kitoblar va maqolalarga murojat qilishlari tavsiya etiladi

### 1.11. Lazer nurlanishining hususiyati

Lazer nurlanishining asosiy hususiyatlari:

1. Nurlanishning yuqori darajada yo'naltirilganligi,
2. Uning monoxromatikligi,
3. Nurlanishning kogerentligi,
4. Nurlanishning yorqinligi.

Nurlanishning yo'naltirilganligining asosiy sababi, aktiv elementning rezonator ichiga o'rnatilganlidir. Rasm 1.3da ko'rsatil ganidek, o'zaro parallel ko'zgular orasida, shunday elektromagnit to'lqinlari uchun, kuchayish sharoiti yaratiladiki, bu to'lqinlar, rezonator o'qi bo'yicha yoki unga yaqin yo'nalishda tarqaladi [15, 22, 44].


Monoxromatiklik, asosan quyidagi ikki holatga bog'liq bo'ladi:

- a) (1.1) formuladagi chastotasi v ga teng bo'lgan elektromagnit to'lqinligina, kuchayish imkoniyatiga ega bo'ladi.
- b) Ikki o'zaro parallel ko'zgudan iborat bo'lgan rezonatororda, generatsiya faqat, rezonatorning rezonans chastotasida yuzaga keladi.

3. Nurlanishning kogerentligi. Elektromagnit to'lqinlari uchun, ikki mustaqil kogerentliklik tushunchasi mavjud bo'lib, bular fazoviy va vaqtiy kogerentlikdir.

Fazoviy kogerentlikni tushunish uchun, quyidagilarni ko'rib chiqamiz, fazoda joylashgan ikki  $R_1$  va  $R_2$  nuqtalardan vaqitning  $t_0$  momentida ulardan, elektromagnit to'lqinining, to'lqin fronti o'tsin,  $E_1(t)$  va  $E_2(t)$  – nuqtalardagi elektor maydon kuchlanishi [45]. Bizning shartga ko'ra, vaqtning  $t_0$  momentida, elektor maydon fazalari farqi qiymati, shu nuqtalarda nolga teng. Agar nuqtalardagi fazalar farqi, vaqt  $t$  ning har bir momentida nolga teng bo'lsa, u xolda ikki nuqta o'rtaosida to'lq kogerentliylik bor deyiladi. Agar shunday shart, to'lqin frontining har bir justlik nuqtasi uchun bajarilsa, bu to'lqin to'la fazoviy kogerentlikka ega deb aytildi [46].

Vaqt bo'yicha kogerentlik. Buning uchun, vaqitning  $t$  va  $t + \tau$  momentida, R nuqtadagi elektromagnit to'lqinining, elektor maydonini ko'rib chiqamiz. Agar vaqitning shu intervali  $\tau$  da, maydon tebranishlar fazalari farqi  $\tau$  vaqitning har bir momentida bir xil bo'lib saqlanib qolsa,  $\tau$  vaqt oraliq'ida vaqtiy kogerentliylik bor deb aytildi va to'lqin to'lq kogerentlikka ega deb xarakterlanadi. Agar bu shart, vaqt  $\tau$  ning faqat ma'lum  $0 < \tau < \tau_0$ , intervalida bo'lsa, unda to'lqin qismidan  $\tau_0$  vaqt bo'yicha kogerentlikka ega deyiladi [47,48].




1.19 – rasm. Vaqtiy kogeretligi  $\tau_0$  bo'lgan elektromagnit to'lqini misol sifatida olinigan.

1.19- rasmida misol tariqasida  $\tau_0$ , vaqtiy kogerentlikka ega bo'lgan, sinusoidal shakilga ega bo'lgan,  $\tau_0$  intervalida sakrab o'zgaruvchi fazaga ega bo'lgan, elektromagnit to'lqini olib ko'rilib. Vaqt bo'yicha kogerentlik ko'rinish turibdiki, nurlanishning monoxromativligi bilan bog'liq [29, 49].

Shuni qayd qilib aytib o'tish kerakki, vaqtiy va fazoviy kogerentlik bir-biriga bog'liq emas. Misol qilib shunday elektromagnit to'lqinlarini olish mumkinki, ular to'la fazoviy kogerentlikka ega bo'lsada, qisman vaqt bo'yicha kogerentlikka ega va teskarisi.

**5. Yorqinlik.** Biron bir manba, yuza birligidan, bir kichik burchak ostida tarqalayotgan elektromagnit to'lqini yorqinligini, nurlanishning quvvati sisifatida aniqlaymiz. Yanada aniqroq bo'lish uchun, Q nuqtadagi nuqtaviy manba yuzasining dS elementini ko'rib chiqamiz. (1.20 - rasm)

6.



1.20-rasm. *Q nuqtadagi elektromagnit to'lqin manhaining yuza yorqinligi*

U xolda, dS yuza elementidan, oniy burchak  $\theta$  ostida,  $OO'$  yo'naliishi bo'yicha, tarqalayotgan nurlanish quvvati  $dP$ , sferik koordinatani qo'llash yordamida quyidagicha aniqlanadi [51].

$$dP = B \sin \theta \, dS \, dQ \quad (1.17)$$

bu yerda,  $\theta-00'$  yo'naliishi bilan yuzaga o'tkazilgan normal  $R$ , orasidagi burchak.

Katta quvvatga ega bo'lmagan lazer nurlanishi, (masalan, bir necha millivat) shunday yorqinlikka egaki, u oddiy yorug'lik manbaalardan bir necha karra yorqin bo'ladi. Bu xususiyat, lazer nurlanishining yuqori darajada yo'naltirilganligidandir [47,48].



1.21–rasm. Lazer nurlanishining xarakteristikasi.

### I - Bo‘lim bo‘yicha o‘zlashtirish savollari:

1. Invers muhit nima?
2. Tebranishlarni shakllanishi qanday bo‘ladi?
3. YOritgichlarning tuzilishi va ularning ishlash prinsipi?
4. Aktiv elementlar va ularning turlari, shakllari, vazifalari?
5. YOritgich lampalar va ularning ishlatilishi?
6. Invers holat nima va u qanday hosil etiladi?
7. O‘z-o‘zidan nurlanishni tushuntirib bering?
8. Lazer nurlanishining monoxromativligini tushuntirib bering?
9. Nurlanishning kogerentligini tushuntirib bering?
10. Nima uchun lazer nurlanishi kichik burchak ostida tarqaladi?
11. Lazerlarda ishlatiladigan qattiq kristallarning qaysilarini bilasiz, ular qanday tarkibga ega?
12. Lazer rezonatorlari va ularning tuzilishi?
13. Gaz bilan ishlovchi qanday lazerlarni bilasiz?
14. YArim o‘tkazgichli lazerlar to‘g‘risida nimalar bilasiz?
15. Organik bo‘yoqlar bilan ishlovchi lazerlar?
16. Ekimer lazerlar?
17. Lazer nurlanishining qanday xususiyatlari bor?
18. Aktiv elementni qanday qilib, qo‘zg‘algan holatga keltirish mumkin?

## 2. LAZERLARNING OPTIK SHEMA SINING ELEMENTLARI

### 2.1. Optik yoritish tizimlari

Qattiq jismli lazerlarining, aktiv muhitida invers holatni yaratish uchun, impulsli yoki uchuksiz ishllovchi yoritgich lampalar yordamida, optik damlash analga oshiriladi. Yoritgich lampalarining effektivligini analga oshirish uchun, aktiv element, yoritgich kamerasi ichiga joylashtiriladi. Yoritgich kamera, yopiq optik ti zim bo'lib, yoritgich lampalaridan taralgan nurlar, maxsus ishllov berilgan kamera ichki devorlaridan qaytib, aktiv element tomon yo'naltiriladi.

Yoritgich kamerasining konstruktiv tuzilishi, yoritgich lampalar turi, ularning soni hamda aktiv element, elementning o'lchamlari va uning yoritgich kamerasida yoritgichlariga nisbatan qanday joylashtirilganligiga, generatorming ishlash rejimiga, yutilgan yorug'lik nurlanishi energiyasining aktiv muhitda taqsimlanishiga qarab aniqlanadi.

Bu esa, o'z navbatida lazer generatoridan chiqqan nurlanish energiyasi va burchak ostida tarqalish harakteristikalariga ta'sir qiladi.

Yoritgich kamerasi lampalaridan taralgan yorug'lik nuri, ideal ravishda aktiv elementda taqsimlanadi. Elektr energiyasining, yorug'lik energiyasiga aylanishining effektivligini pastligi (35-50%) hamda aktiv element tomonidan yutilgan yorug'lik energiyasidan, to'liq foydalanib bo'lmasligi (6-15%) va yoritgich kamerasidagi yo'qotishlar (30-70%)ga, qattiq jismli lazerning (FIK) foydali ish koefisientini kamayib ketishiga, olib keladi (0,1-5%). Shularni hisobga olib, yoritgich kamerasini tanlash, har bir lazer generatori uchun maxsus qo'yilgan talablarga qarab, olib boriladi.

Misol uchun, bir modali generator uchun, yuqori darajadagi talablar qo'yiladi. Ularning aktiv muhiti uchun, damlash energiyasining aktiv element yuzasi bo'yicha, bir tekis taqsimlanishi va maksimal effektiv yorug'lik berish talab qilinadi.

Katta chiqish energiyasi talab qilingan lazerlar uchun esa, ko'p lampali yoritgich kamerasi zarur, bu kamera yuqori intensivlikdagi yorug'lik oqimi bilan aktiv elementni ta'minlaydi.

Ko'pgina amaliy ishlarni, etarli aniqlik bilan baholash uchun, yoritgichni effektivliyliги qo'shimcha burchaklarni hisobga olish nadjeschi lampadan taralgan nurlanishni to'g'ridan-to'g'ri aktiv elementga yoki tur marotaba yuzadan qaytgandan so'ng, aktiv elementga tomon yo'naltishi


aniqlanadi va bunda avval ko'rib o'tilgan muloxazalar, inobatga olinadi. [1, 4, 7].

Ikki lampali yoritgich sistemasi misolida, analitik metod yordamida yoritgichning effektivliyligining, geometrik hisobi bajarilgan:

$$\eta_0 = f(a, b, d_a, d_L, e, \Lambda, r_3) \quad (2.1)$$

bu yerda,  $\eta_0$ -geometrik effektivlik (damlash yorug'lik nuri oqimining aktiv elementga tushgan qismining, butun yorug'lik oqimiga nisbati).  $a$  - ellipsning katta yarim o'qi,  $b$  - ellipsning kichik yarim o'qi,  $d_a$  - aktiv elementning diametri,  $d_L$  - lampaning diametri,  $e$  - ellipsning ekssentristeti,  $\Lambda$  - lampalar soni,  $r_3$  - ko'zgu yuzasining qaytarish koeffitsienti.

Elliptik silindrning har bir elementdar yuzasi, o'zida aktiv elementdagidagi lampa aksini namoyon etadi, o'zgaruvchan kattalashish (yoki kichrayish bilan)  $h/s$  nisbatiga proporsional holda bo'ladi. (2.1-rasm)da lampaning, fokus bilan tutashgan aksining o'lehamlari quyidagidan aniqlanadi  $d_L h/s$ . Aktiv jismga kelib tushadigan yorug'lik energiyasining bir qismi, quyidagicha aniqlanadi  $d_a/d_L s/h$ . Unda  $d_a/d_L s/h \leq 1$  chunki, aktiv element, yoritgich lampasidan chiqqan yorug'lik energiyasidan ortiq, energiyani yuta olmaydi. Elleptik qaytargichning, lampaga yaqin joylashgan qismi, lampaning kattalashgan aksini hosil qiladi, shuning uchun lampadan taralgan yorug'lik nurlanishi energiyasining bir qismi, aktiv elementga tushimaydi. Ellipsning boshqa qismi, aktiv elementga yaqin joylashgan qismi, yanada effektiviroq bo'lib, u o'zida lampaning kichraytirilgan aksini hosil qiladi. Shuning uchun bu yuzaga tushgan energiyaning butun qismi, aktiv element yuzasiga tushadi [9, 10, 14].



2.1-rasm. Ikki lampali yoritgichni hisoblash uchun chizma (shtrixlangan yuza bo'lagi yorug'lik nurining yo'qotilishiga proporsional).

Yoritgichning geometrik effektivliyligi, ushbu formula yordamida hisoblanadi:

$$\eta_0 = \int_0^{\pi} \frac{d_a}{d_L} \cdot \frac{s}{h} da = \frac{100}{\pi} \left[ \alpha_1 + \int_{\alpha_1}^{\pi} \frac{d_a}{d_L} \cdot \frac{s}{h} da \right] \quad (2.2)$$

Bu yerda  $\alpha_1$ - burchakni aniqlaydi, shu burchak ostida tarqaigan yorug'lik oqimi to'laligicha aktiv element tomonidan yutiladi yoki boshqa so'z bilan aytganda, shu burchak ostida yoritgich lampasining aksi, aktiv element diametriga teng yoki undan kichik bo'ldi.

Shunday qilib, quyidagi tengsizlikdan  $(s/h)da = d\theta$

Rasm 2.1.ga qarang, (2.2) formula, quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi.

$$\eta_0 = \frac{100}{\pi} \left( \alpha_1 + \frac{d_a}{d_L} \cdot O_0 \right). \quad (2.3)$$

Bu yerda, burchak  $\alpha_1$  quyidagicha ifodalanadi.

$$\cos \alpha_1 = \frac{1}{e} \left[ 1 - \frac{(1 - e^2)}{2} \left( 1 + \frac{d_a}{d_L} \right) \right] \quad (2.4)$$

Ellipsning qaytargich yuzasining bir qismi, lampa orqasida bo'lib, uni biz shaxtosf emas deb qabul qilamiz. Shuni hisobga olib, burchakni,  $\theta_1$  burchagi qiymatiga kamaytiramiz.

U holda,

$$\sin \theta_1 = \frac{d_L}{4ae} \quad (2.5)$$

Bundan tashqari yorug'lik oqimi, rasm.2.1 dan, ellips yuzasidan,  $SF_1 A$  ga proporsional holda, aktiv elementga tushmaydi, shuning uchun yana  $\alpha_2$  burchagi,  $\alpha_2$  qiymatiga kamayadi.

$$\cos \alpha_2 = \frac{(Z_e/1 + e^2) - \cos \theta_2}{1 - (Z_e/1 + e^2) \cdot \cos \theta_2} \quad (2.6)$$

U holda  $\theta_2 = \pi/\lambda$

Shu tuzatishlarni kiritib, hamda qaytarish ko'effisentini hisobga olib, ikki lampali yoritgich uchun geometrik effektivlikni, quyidagi ko'rinishda yozamiz:


$$\eta_0 = \frac{100}{\pi} \left[ (\alpha_1 - \alpha_2) \cdot r_3 + \frac{d_a}{d_L} \cdot r_3 (\theta_0 - \theta_1) + \arcsin \frac{d_a}{4a_e} \right] \quad (2.7)$$

Formuladagi  $d_a/4a_e$  ning qiymati, yorug'lik oqimining aktiv element yuzasiga tushayotgan qismini, ellips qaytargich yuzasidan qaytmagan oqimini, hisobga olgan holdagi kattalik bo'ladi.

Biz yuqorida ko'rib o'tgan usulni, faqatgina ko'p lampalik yoritgichlar emas, balki bir lampalik yoritgichlar effektivlikligini hisoblash uchun ham bemalel qo'llasa bo'ladi va konkret holdagi yoritgich uchun effektivliylikning optimal kattaligini aniqlasa bo'ladi. Aktiv element tomonidan yutiladigan energiyani, nafaqat lampalar hisobiga oshirish mumkin, balki aktiv elementni xalqasimon shaffof dielektrik bilan o'rabi olansa, nur berishning effektivligini yaxshigina oshishi mumkin, buning natijasida, chiquvchi nurlanishning intensivligi oshadi.

Dielektrik xalqaning devorining qalinligi, oddiy nisbiylik bilan keltirilgan rasm orqa'si aniqlanadi. Rasm 2.2. ko'rsatilishicha, tashqi xalqa radiusi  $R_a$  shunday bo'lishi kerak-ki, tashqi silindr devoriga urunma bo'lgan nur, singandan keyin,  $R_a$ - radiusli doiraga urunma bo'lishi kerak.

Agar aktiv element, immersion suyuqlik ichiga joylashtirilgan bolsa, yorug'lik berishning effektivlikligi oshadi. Qilingan taxlillarning ko'rsatilishicha, agar aktiv elementning sindirish ko'rsatichi  $n$  bo'lib, u immersion suyuqlikka tushurilsa, optik damlash davomida, diffuziya holatidan taralgan nurlanish tomonidan energiyaning zichligi, radius funksiyasi sifatida o'zgaradi. Aktiv element ichidagi, energiya zichligining kattaligini, tashqi energiya zichligiga nisbati, taxminan  $n^2$  teng bo'ladi. Bu katta qiymat radiusi  $R_n = R_a/n_a$ -silindr ichida bo'ladi. ( $R_a$ - aktiv element radiusi).



2.2 – rasm. Aktiv element dielektrik xalqa ichiga joylashtirilgan

2.2-rasmga binoan, kichik yuza  $dS$  ga tushayotgan yorug'lik oqimi  $2\pi$  (ster) chegarasida hamma tomonidan keladi, singan nurlar choqqi burchagi  $2\Psi_k$  ga teng bo'lган konus bilan chegaralangan bo'lib, konusning ichida fazoviy burchak  $\Omega$ , quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\Omega = 2 \cdot \pi (1 - \cos \Psi_k) \quad (2.8)$$

Ushbu burchaklar nisbati, quyidagi ko'rinishga ega

$$\frac{2\pi}{\Omega} = \frac{n_u}{n_u - (n_u^2 - 1)^{1/2}} \quad (2.9)$$

Bu yerda  $n$  - immersion muhitining sindirish ko'satgichi,  $n$  uchun u,  $n_u = 1.3 \div 1.7$  bo'lib, bu nisbat taxminan shunday izohlanadi

$$2\pi/\Omega = 1.49 n_u \quad (2.10)$$

Asosan, immersion suyuqlik bir vaqtning o'zida, aktiv elementni sovutish va filtrlash uchun ham ishlataladi. Immersion suyuqlik, quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. U katta sindirish koefisientiga, katta quvvatli yorug'lik ta'siriga bardosh bera olishiga, optik damlash nurini kam yutishi, kam yopishqoqlik va issiqlikni o'zidan yaxshi o'tkazish kabi, xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Katta konsentrasiyalı yorug'lik

nurlanishing oqimini, aktiv elementdan olish uchun, suyuqlikning qalinligi taxminan  $\sim R_a(n_i - 1)$  teng bo'lishi kerak.

Bu yerda  $n_i$  - suyuqliknin sindirish koeffisienti,

$R_a$  - aktiv elementning radiusi.

YOrigichning effektivliyligi bilan bir qatorda, optik damlashning bir tekisligi ham katta ahamiyatga ega, natijasida aktiv elementdagi invers holat, shunga bog'liq bo'ladi.

Aktiv elementni damlash davrida, genersiyani (chegaraviy) boshlanish davridan sal yuqori qiyimatda, aktiv elementning ko'ndalang kesimi yuzasining hamma qismi emas, balki qisman yuzasi generatsiyada qatnashadi.

Qo'zg'atuvchi nurlanish intensivligini oshib borishi bilan, aktiv element yuzasining generatsiyada ishtirok etuvchi qismi, kengayib boradi va intensivlikning ma'lum qiyamatiga kelib, aktiv elementning yuzasi to'liq generatsiyada ishtirok etadi. [9, 10, 14]

## 2.2. Aktiv elementlari

Qattiq jismli lazerlarida, aktiv element sifatida, aktivlashtirilgan ion kristallari, shisha va organik birlashmalar qo'llanilishi mumkin. Aktivator sifatida, o'tuvchi metallar ionlari, ya'ni er ishqorli metallar va aktinidlar gruppasi olinadi. Ko'pgina holatlarda aktivator ionlar, izomorf yo'li bilan ion almashish orqali kiritiladi. Aktiv sentrlarning energetik holatining strukturasi, aktivatorlar atomalarining tabiatiga bog'liq bo'ladi. Hozirgi kunda, tayyorlangan aktiv muhitlarning ro'yxati va ularning fizika-kimyoiyi hususiyatlari va ularni o'stirish texnologiyalari ilmiy adabiyotlarda keltirilgan [38, 41,]. Yuzdan ortiq aktiv muhitlar, neorganik materiallar, ion tuzilishi asosida yaratilganligi ma'lum. Chunki, aktiv muhit yuqori FIK ni ta'minlashi kerak hamda vaqt bo'yicha stabil ishlasli va kichik burchak ostida nurlanishni tarqatish hususiyatiga ega bo'lishi kerak [16, 18].


Aktiv elementning yana bir asosiy hususiyatlaridan biri, uning xona temperaturasida ishslash qobiliyati hisoblanadi. Lazer materiallariga qo'yilgan asosiy spektroskopik talablar, ilmiy adabiyotlarda keltirilgan [38, 52].

Hozirgi kunga kelib, keng tarqalgan aktiv elementlardan: Rubin (yoqut), shishaning har-xil turrlari, uch valentlik neodium bilan aktivlashtirilgan, ittriyli-alyuminli granat, aktivlashtirilgan neodium (IAG), volfram kalsiyli, neodium bilan aktivlashtirilgan shisha va boshqalar.

Azot temperaturasida, energetik parametrlari yaxshi ishlaydigan flyuorit, ikki valentli disproziy bilan aktivlashtirilgan. Bu aktiv elementlarning spektroskopik hususiyatlari har tomonlama o'rganilgan. Aktiv element sifatida, katta impulsli energetik quvvatga mo'ljallangan kvant generatorlarida, asosan rubin va neodim bilan aktivlashtirilgan shisha kristallari keng ishlatiladi [17].

Aktiv elementlarning nurlanish harakteristikasi, aktiv element materialidan tashqari, aktiv elementning konstruktiv parametrlari va uni yoritgichda maxkam o'rnatish usullariga ham bog'liq. Yaxshi sifatli, katta o'lchovli aktiv elementlarda, juda yuqori bo'limgan damlash vaqtida, aktiv elementning ikki uchi yuzasida, sirtidan qaytgan nurlar ishtirokida, o'z-o'zidan uyg'onish jarayoni sodir bo'lishi mumkun. Bu esa, aktiv elementda yuqori darajada invers holat yuzaga kelishiga to'sqinlik qiladi.

Aktiv elementning ikki yuzasi sirtida, yuz beradigan nurlanishning qaytishini kamaytirish uchun, ikki yuzani ravshanlashtirish yoki ularni immersion suyuqlikka tushurish kerak bo'ladi, xuddi Rasm 2.3 da ko'rsatilganidek.



2.3 – rasm. Aktiv elementni immersiyal suyuqlikka o'rnatish usuli.

Immersion suyuqlik shunday tanlanadiki, uning sindirish koefitsienti, aktiv elementning sindirish koefitsientiga juda yaqin bo'lishi kerak bo'ladi. bu bilan biz, teskari bog'lanishni nolgacha kamaytiramiz. Aktiv elementni bunday usulda mustahkam o'rnatish, ilkala yon yuzasini, katta quvvatli impulslardan yaxshi saqlaydi va aktiv elementni ikkala yuzasini ravshanroq qiladi.

Shisha oynaning qiyalik burchagini  $\Psi_H$  quyidagicha aniqlash mumkin:

$$\Psi_H = \arccos \left( \frac{n_c}{n_i} \sqrt{1 + n_i^2} \right) \quad (2.11)$$

$n_s$  shishaning sindirish ko'rsatgichi,  $n_i$  —immersion suyuqlikning sindirish ko'rsatgichi Bu holda generatordan chiquvchi nurlanishning og'ish burchagi quyidagicha teng bo'ladi

$$\Psi_L = \arcsin \frac{n_s (\sqrt{n_n^2 - n_s^2 - n_i \cdot n_s} - 1)}{n_i (1 + n_s^2)} \quad (2.12)$$

Ko'rib o'tilgan usullar cheklangan bo'lib, ularni impuls energiyasining(taxminan  $100\text{Dj/sm}^2$ ) gacha bo'lgan qiymatda qo'llash mumkin. Yuqori quvvatli, katta energetik zinchlikka mo'ljallangan aktiv elementlar uchun, ikkala yon yuzasi kichik burchak ostida kesilgan ( $2^\circ - 5^\circ$ ) yoki Bryuster burchagi ostida kesilgan, aktiv elementlardan foydalaniladi.

## 2.3. Optik elementlar

Lazer nurlanishini intensivligining fazodagi taqsimoti, spektral tarkibi, yo'naltirilganligi va boshqa xarakteristikalarini asosan rezonatorni tashkil etuvchi optik elementlar bilan aniqlanadi. Rezonatorni optik elementlari sifatida — ko'zgular, rezonans qaytargichlar, prizmalar, prizmali bloklar, diafragmalar va boshqalardan foydalanish mumkin.

### 2.3.1. Ko'zgu

Ma'lumki, rezonatorni ko'zgularida nurlanishning yutilishi va sochilishi bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlar minimal bo'lishi, ularning nurlanishga hamda mehanik va klimatiq ta'sirlarga chidamliligi, ba'zi xollarada, qaytarish koefitsienti juda katta bo'lishi lozim.

Parametrik generatorlar uchun mo'ljallangan ko'zgular, bundan tashqari yana keng yo'lakli spektrga ega bo'lishi kerak. Lazer texnikasida, metall yoki dielektrik qoplamlari yassi (tekis), silindrishimon, sferik va asferik ko'zgulardan foydalaniib kelmoqqa. Ularning yuzasi dielektrik yoki metall qaytargichli qoplama bilan qoplanadi. Metall qoplamlari qaytargichli ko'zgularning kamchiliklari bo'lib, agar qaytaruvechi yuza alyuminiy yoki kumush bo'lsa, qaytarish koefitsienti (90-95%) bo'ladi, yuzaga qoplangan alyuminiy qatlami, mehanik jixatdan chidamsiz bo'ladi. Shuning uchun, uni ustidan dielektrik pardasi bilan himoyalanadi. Kimyoviy yo'l bilan eritmadan, ko'zgu yuzasiga o'tkazilgan kumush, yuqori mehanik

chidamlilikka ega bo'lib, ular generatorning yuqori quvvatli nurlanishiga ham chidamli bo'ladi. Metall qoplamlari ko'zgularda yo'qotishlar katta bo'lib, ular (10-15%)ni tashkil etadi va juda katta kuchli nurlanishlar ta'siridagina, o'z ish sifatini yo'qotadi. Yuzaga beriladigan dielektrik parda ko'zguga, yuqori qaytarish koeffitsientini beradi (100 % gacha) va juda kam miqdorda nurlanishni yutib qoladi [ 3,4].

Dielektrik ko'zgular podlojkaga (asos materialiga) ketma-ket yuqori va kam sindirish koeffitsientiga ega bo'lgan, qatlamlarni birin-ketin o'tkazish yo'li bilan olinadi. Asos material sifatida, shisha, kvars va boshqa shaffof lazer materiallarini ishlatish mumkin. Dielektrik ko'zgular, quyidagi yo'l bilan tayyorlanadi: yuqori vakuumda, termik par yo'li bilan, fitorli magniy  $MgF_2$  ni, kimyoviy yo'l bilan qorishmadan va kislorod atmosferasida, katod changlashuvi yerdamida olinadi. Qaytargich yuza sifatida ishlatiladigan materiallar chegaralangan bo'lib, hozirgi kunda oltingugurtli rux  $ZnS$  va fitorli magniy  $MgF_2$  dan foydalanib kelinmoqda. Asos materiallarining (podlojka) yuzasiga yuqori darajadagi tozalik ko'rsatgichi bilan ishlov beriladi. Misol uchun 99% qaytarish koeffitsientiga ega bo'lgan yuzani olish uchun,  $\lambda=0,7$  mkm bo'lgan holda qaytaruvchi yuzaning tekisligi,  $50.4$  dan katta bo'lishi mumkin emas bo'lib, yuzaga qayta ishlov berish talabi  $1/150\lambda$  dan kam bo'lmasligi kerak.

Asos materialga dielektrik sirt o'tkazishdan oldin, yaxshilab, toza yuviladi va keyinchalik yuza, elektron yoki ionlar bilan yuqori vakuumda bombardirovka ciliynadi. Dielektrik sirtni asosga mustahkam o'rashib olishi uchun va adgeziyani yaxshi bo'lishi uchun, asosga avvalroq krokus bilan ishlov beriladi.

Dielektrik sirt, katta quvvatli nurlanish ta'siri ostida kuyadi yoki asosdan ko'chadi. Yuza sirtining chidamliligi, yuza sirtiga o'tkazilgan materialning chidamliligi va uni o'tkazish texnologiyasiga bog'liq bo'ladi [21, 24, 25].

Rubini lazer generatorlari uchun tayyorlangan dielektrik sirtli ko'zgularning, lazer energiyasi quvvatiga chidamlilik darajasi Jadval 2.1.da ko'rsatilgan. Jadvalda keltirilgan quvvat zichligining qiymatidan, yuza bo'yicha olingan o'rtacha quvvat zichligi, 4 marta kam.

2.1-jadval

Qoplama sirtning turi	Sirt yuzali o'tkazish usuli	Chidamlilik quvvat zichligi MVt/sm <sup>2</sup>
SiO <sub>2</sub> qoplalami sirt silliqlangan Sapfirli asosda	Katodli changlatish yo'li bilan	230
15-qatlamlili dielektrik ko'zgu	Vakuumda parlatish yo'li bilan	90
SiO <sub>2</sub> qoplalami sirt silliqlangan Sapfirli asosda	Katodli changlatish yo'li bilan	180

Qoplama sirtning chidamliligi, uning qoplamlari soniga va asosining yuzasiga sirt o'tkazilayotgandagi temperaturasiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, olingan materiallarning tozaliliga, undagi defektlarga, qoplama sirt mikrokristallarining orientasiyasiga ham bog'liq bo'ladi. Eng optimal yuza sirti qatlami, 5-6 qavat bo'ladi, bundan ortiq sirt qatlami, yaxshi natijalar bermaydi. Tajribalardan ma'lum bo'lishicha, qo'rg'oshin oksidining sindirish koeffitsienti, rux sulfatning sindirish koeffitsientidan yuqori bo'lganligi sababli, qo'rg'oshin oksidli sirt qoplalami ko'zgu, yuqori darajada qaytarish koeffitsientiga ega bo'ladi. Shuning uchun, qo'rg'oshin oksididan foydalanganida yuzani qoplovchi sirtning qatlami ham kamroq bo'lishi mumkin [6,11].

2.2-jadvalda qo'rg'oshin oksidli ko'zgular ishlataliganda, rubinli lazer generatorining erkin generatsiyasi rejimida, oksidli yuza sirtini, energiya zichligiga chidamliligi ko'rsatilgan.

2.2-jadval

Qavatlisoni	Qaytarish koeffitsienti % larda*	Energiyaning chegarasi Dj/sm <sup>2</sup>	Qaytarish koeffitsienti % larda**	Energiyaning chegarasi** Dj/sm <sup>2</sup>
1	40	680	44	2100
5	86	500	90	1400
7	95	360	97	1300
9	97	320	99	640

Qatlamlili sirt -20°С temperaturada, asosning yuzasiga o'tkazilgan .

Qatlamlili sirt -200°С temperaturasida, asosning yuzasiga o'tkazilgan .

Qo'rg'oshin oksidi bilan qoplangan sirtning chidamliligi past darajada bo'lishining sababi, qo'rg'oshining past temperaturada erishiga bog'liqdir (~888°С)

Dielektrikli qoplamali sirtning, energetik qvvat zichligiga chidamliligi, unga ta'sir qilayotgan lazer nurlanishining impuls davomiyligiga bog'liqdir. Masalan, vakuumda dielektrik sirtga ega bo'lgan ko'zgu to'lqin uzunligi  $\lambda=1060\text{ nm}$ , impulsning davomiylik vaqtasi  $t\sim 600\text{ mks}$  bo'lsa, uning chidamlilik energiyasi chegarasi  $2000\text{ D}/\text{sm}^2$ . Agar impulsarning davomiylik vaqtasi  $30\text{ ns}$  bo'lsa, qvvat zichligi chegarasi  $30\text{ MVt}/\text{sm}^2$  bo'ladi. Agar impuls davomiyligi vaqtini  $ns$  dan, mikrosekundgacha oshirsak, qvvvatning zichlik chegarasi dielektrikli ko'zgu uchun 1000 marta oshadi [ 11, 30, 31 ]

#### 2.4. Rezonansli yorug'lik qaytargich

Rezonatorning chiqish ko'zgusi sifatida bir qator hollarda, rezonansli qaytargichdan foydalaniladi. Rezonansli qaytargich yuzasi, tekis o'zaro parallel bo'lgan, shaffof shisha, tekis plastinkalardan iborat bo'lib, yuzasiga hech nima qoplanmaydi. Plastinkalar o'zaro havo bo'shliqlari bilangina chegaralangan bo'ladi. Shunday plastinkali reflektorlarga tushgan nurlanish, ko'p marotaba plastinka yuzalaridan qaytadi va natijada hosil bo'lgan interferension hodisa, uning qaytarish koeffitsientini generatsiya nurlanishi chastotasiga bog'liq qilib qo'yadi. Sistemaning maksimal qaytarish koeffitsienti, qalinligi bir xil bo'lgan va bir xil havo bo'shilg'i masofasi orasida joylashgan, soni butun toq sondan tashkil topgan  $\lambda_0/4$  ( $\lambda_0$ - nuring vakuumdagi to'lqin uzunligi) quyidagi tenglik bilan aniqlanadi:

$$\lambda_{max} = \left( \frac{1 - n^{2m_n}}{1 + n^{2m_n}} \right)^2 \quad (2.13)$$

Bu yerda,  $m_n$  - plastinkalar soni.

Qaytish koeffitsientining qiymati plastinkalar soniga va sindirish ko'rsatgichini bog'liq.

Qaytish koeffitsientining qalinligi  $D$  bo'lgan birligina plastinadan iborat bo'lib, yuzaga tushuvchi nurlanishning chastotasiga ( $v$ ) bog'liqligi, quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$R(v) = \frac{4r \sin^2(2\pi n D v)}{(1 - r)^2 + 4r \sin^2(2\pi n D v)} \quad (2.14)$$

va o‘z nabitida nurlanish, chastotaning davriy funksiyasi hisoblanadi. Qo‘shni qaytarish maksimumlari bilan oraliq masofa (intervali) quyidagicha bo‘ladi:

$$\Delta v_p = (2nD)^{-1} \quad (2.15)$$

Qaytarish koefitsientining ko‘p plastinali qaytargichga bog‘liqligi murakkab funksiya bo‘lib, uning harakteri plastinalar soniga bog‘liq bo‘lib, to‘rt plastinalar nazariyasi yordamida aniqlanadi yoki optikaning yupqa plastinkalar uchun sodda tenglamalari yordamida EXM yordamida echiladi [27].

SHuni aytib o‘tish kerak-ki, ikkita plastinali qaytargich uchun, chastota intervalining taxminiy hisobidan foydalansa bo‘ladi. Ikkita plastinali qaytargich uchun qalinligi  $D_1=2\text{mm}$  ( $n\approx 1,79$ ) va havo oralig‘i  $D_1 = 25\text{mm}$ , asosiy maksimumlar bilan chastota intervali (oralig‘i) to‘lqin uzunligi  $\lambda=6943\text{A}^\circ$  bo‘lsa,  $\Delta\gamma_1 = (2 \cdot D_1^{-1}) = 0,67 \text{ A}^\circ$ , qo‘sishimcha maksimumlar aro interval  $\Delta\gamma_2 = (2n \cdot D_2)^{-1} = 0,069 \text{ A}^\circ$  ga teng bo‘ladi. Hisoblangan kattalik taxminiy bo‘lib, aniq metodlar yordamida hisoblangan kattalikdan 10% ga farq qiladi [28].

Qaytarish koefitsientining hisoblangan qiymatini olish uchun, rezonansli qaytargichni tayyorlashda, yupqa plastinkalar qalinligi bir-biridan farqi,  $\lambda/8$  dan katta bo‘lmasligi kerak, aks holda, asosiy maksimumlarning qaytarish hususiyati kamayib ketadi. Plastinalar qalinligining bir tartibda o‘zgarib borishi yoki havo oralig‘ining o‘zgarishi, qaytish koefitsienti maksimumining chastotasini siljishiga olib keladi.

Agar yupqa plastinkalarning tayyorlash aniqligi yoki plastinalar aro qo‘yiladigan xalqalarning aniqligi  $\lambda/4$  dan kam bo‘lsa, bunday optik sistemaning qaytarish koefitsienti, hamma yuzalarning frenel qaytarish koefitsienti yig‘indisiga teng bo‘ladi. Bunday qurilma optikada stopa deb yuritiladi va rezonatorlarda, chiqish qaytargichlari sifatida ishlataladi, qachonki rezonatorda ishtirot etayotgan to‘lqin modalarini saralash zaruriyati bo‘limasa.

Ko‘pgina, yupqa plastinalardan tashkil topgan qaytargichlar, yuqori quvvatlari generatsiya nurlanislari uchun chidamli bo‘ladilar. Javval 2.3.da, ba’zi optik materiallarning buzulushining energetik chegarasi keltirilgan. Javval 2.4.da esa, shishadan yasalgan optik elementlarning yuzasining chidamiliyi, yuzasining qayta ishlash sifatiga bog‘liqligi va yuzaga rubin

lazerining asosiy, ko'ndalang yo'nalgan tipdagi, tebranishlari modulyasiyasining, generatsiyaga ta'siri keltirilgan.

2.3-jadval


Shishaning tipi	To'lqin uzunligi mkm da	Erkin generatsiya vaqtidagi buzilish chegarasi		Monoimpulslik rejimdagagi buzilish chegarasi		Adabiyotlar
		Energiya zichligi Dj/sm <sup>2</sup>	Quvvat zichligi Vt/sm <sup>2</sup>	Energiya zichligi Dj/sm <sup>2</sup>	Quvvat zichligi Vt/sm <sup>2</sup>	
Eritilgan kvars	0,69	-	-	220	$1,4 \cdot 10^{10}$	[30]
Kron	0,69	-	-	133	$0,89 \cdot 10^{10}$	[31]
Oq kron	0,69	-	-	350	$50 \cdot 10^{10}$	[31]
Borosilikatli kron	0,69	-	-	500	$71 \cdot 10^{10}$	[32]
Og'ir baritovli kron	0,69	-	-	500	$71 \cdot 10^{10}$	[32]
Kron	0,69	-	-	40	$0,56 \cdot 10^{10}$	[37]
Baritovli kron	1,06	15000	$16,5 \cdot 10^{-6}$	-	-	[38]
Og'ir kron	1,06	13 500	$14 \cdot 10^{-6}$	-	-	[38]
Og'ir flint	1,06	7 000	$8,7 \cdot 10^{-6}$	-	-	[38]
Flint	1,06	100000	$11,7 \cdot 10^{-6}$	-	-	[39]
Engil flint	1,06	9200	$9,5 \cdot 10^{-6}$	-	-	[39].
	1,06	7 500	-	-	-	[40]

2.4-jadval

Material	Yuzaga ishlov berish sifati	Yuza buzilishi chegarasi, Dj/sm <sup>2</sup>
Shisha K-8	Nihoyatda toza polirovka	$190 \pm 25$
Shisha K-8	Oddiy mexanik polirovka	$87 \pm 8$
Shisha K-8	Shlifovka	$9 \pm 0,6$


## 2.5. Prizmalar

Prizmalar, optik sxemalarda keng qo'llaniladigan elementlardan bo'lib, ularning qo'llanilish imkoniyatlari keng. Teng yonli prizmalardan, tarqalish burchagi kichik bo'lgan nurlanishlar bilan ishlaganda, ularni qoplama sirt yuzali qaytargichlar, o'rniда ishlatsa bo'ladi. Bu holda, prizmaning katet qirralarida yuz beradigan, nurlanishni to'la ichki qaytarish hususiyatidan foydalaniladi. Bunday prizmalardan foydalanilganda, lazer rezonatorining quvvat zichligini oshirish imkoniyati tug'iladi. Shuning uchun ham yana prizmada sodir bo'ladigan, tushayotgan nurlanishning just martta prizma yuzasidan qaytishi, uni orqaga qaytg'an nurlanish uchun sezilmas qilib qo'yadi. Bunday hususiyat, prizmani generatsiyasi modulyatsiyalangan lazer qurilmalarida, keng qo'llanilishiga imkon beradi. Chunki, bunday generatorlarning rezonatorlarida, quvvat zichligi katta bo'lib, optik elementlarning katta chidamlilikka ega bo'lishini taqazzo qiladi. Shu kabi prizmalardan optik rezonatorda foydalanish, aktiv element yuzasining ko'ndalang kesimi bo'yicha, lazer nurlanishining zichligini bir tekis taqsimlanishiga hamda nurlanishning ko'p marotaba aktiv element bo'ylab, bitta yo'ldan borib kelishini ta'minlashga sabab bo'ladi. Optik prizmaning qo'llanilishi, Rasm. 2.4 da ko'rsatilgan. Optik qaytargichli ko'zguni, bitta yoki ikkita prizma bilan almashtirilsa Rasm. 2.4 a, b, v ga o'xshab, u holda prizma o'tasidagi nurlanish, prizma chetidagi nurlanish bilan o'rin almashadi va natijada rezonatorda, aktiv elementning ko'ndalang kesimi, teng yuzasi bo'yicha, energiya zichligi, bir xil o'rtacha qiymatga ega bo'ladi hamda aktiv elementdagi mavjud bo'lgan nojinistikni o'mini to'lg'izadi [12.28].



2.4-rasm. Rezonator elementlari

- a) ko'zgu, b)teng yonli prizma
- v) ikkita teng yonli prizma



2.5-rasm. Brijuster burchagi ostida kesilgan prizma

Agar prizma, piramidaga xos ko'inishda bo'lsa, Rasm. 2.5dagi kabi, u holda, nurlanishning qaytish vaqtida eneregiyaning 8-9% yo'qotiladi. Bu holatni yo'qotish uchun, prizmaning oldindi yuza tekisligi, Bryuster burchagi ostida kesiladi, u holda prizma, sellektivlik hususiyatiga ham ega bo'ladi.

Rezonator elementlari sifatida, prizmalarga qo'yiladigan talablar shundan iboratki, tushayotgan nurlanishning yo'nalishi, qaytayotgan nurlanishning yo'nalishi kabi bo'lishidir. Agar, teng yonli prizmaning to'g'ri burchakli burchagi, kattaligi biron xatolik  $\delta$  bilan tayyorlangan bo'lsa, u holda prizmadan chiqayotgan nurlanish, kichik og'ish burchagi  $\Delta\Psi$  bilan prizmadan chiqadi.[39]

Agar, nurlanish, kirish yuzasiga normal ( $\perp$ ) burchak ostida tushsa, u holda,

$$\Delta\Psi = 2n\delta \quad (2.16)$$

bu yerda,  $n$  - sindirish ko'rsatgichi.

Bryuster burchagi ostida kesilgan prizma uchun

$$\Delta\Psi = 2n^2\delta \quad (2.17)$$

Prizmalarni ishlab chiqarishda, uning to'g'ri burchagi, burchagini manfiy xatosi chegarasi, quyidagidan aniqlanadi.

$$\delta \leq \frac{d_a}{8n^2\sqrt{2}L} \quad (2.18)$$

Bu yerda,  $d_a$  - aktiv element diametri;  $L$ -rezonatorning uzunligi;  $n$  - prizmaning sindirish ko'rsatkichi.

Prizmani to'g'ri burchagini ishlash jarayonida beriladigan kichik xatolikka ruxsat, manfiy qiymatga ega bo'lishi, maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki bunday holda, prizma,  $m_{qay}$  qiymatiga bog'liq bo'lmaydi.


$m_{qay}$ -nurlanishning rezonatordan chiqishidan oldindi qaytishlari soni. Rezonator, prizma va ko'zgudan iborat bo'lsa,  $m_{qay}$  quyidagicha aniqlanadi

$$m_{qay} = d_a / L \cdot \delta . \quad (2.19)$$


Ikki yassi ko'zguli rezonator uchun, Bryuster burchagi ostida tushayotgan nuring qaytish soni, keltirilgan formula yordamida aniqlanadi

$$m_{qay} = d_a / 2L i_{ush} . \quad (2.20)$$

Tushuvchi va qaytuvchi nurlanishlarning o'zaro bog'liqligi, grafik usuli yordamida rasm 2.6. da keltirilgan.



2.6-rasm. Rezonatordagi nurlanishning qaytish sonining, nurlanish bilan rezonator o'qi orasidagi burchakka bog'liqligi



2.7-rasm. Teng tomonli prizmaning nurni qaytarish imkoniyati

2.6-rasmdagi egri chiziqning punkti qismi, yuzasi yassi ko'zguli rezonatorga qarashli bo'lib, uzilmagan qismi esa, yuzasi yassi ko'zguli va prizmali rezonatorga qarashli. Grafikdan ko'rinishicha, agar  $i_{nuz}=\delta$  bo'lsa, u xolda, prizmali rezonatorda burchak xatolik qiymati  $2\sigma$  bo'lib, berk yo'llar hosil bo'ladi va nurlanish rezonatorning yon tomonlaridan chiqib ketaolmaydi. Yana shu ham ko'rinish turibdiki, prizmali rezonatorga  $2\sigma$  dan kam burchak ostida kirib kelayotgan nurlar, yuzasi yassi ko'zguli rezonatordagi nurlanishga nisbatan, taxminan uch marta ko'proq, o'tish harakatlarini bajarib, rezonatordan chiqadi.

Prizmaning qaytarish hususiyati, qirrasi atrofida aylanishi bilan tez o'zgaradi (Rasm 2.7). Bunday tuzilishli prizmada, prizmaning to'la ichki qaytish burchagi atrofida, uning qaytarish hususiyati o'zgarishi ko'rsatilgan. Tushish burchagini bir necha gradusga o'zgarishi bilan, prizmaning qaytarish hususiyati ham bir necha foizdan to 100% gacha o'zgarishi mumkin. Qaytarish koeffitsientini bir tekisda o'zgartirish orqali, optimal qiymatga ega bo'lgan, ish rejimini o'rnatish mumkin.

Optik prizmadan, bir xil intevsivlikka ega bo'lgan va qarama-qarshi yo'nalish bo'yicha tarqalyotgan, ikkita yorug'lilik nurlanishi chiqadi. Nurlanishning fazoviy tarqalishi, yo'nalish bo'yicha siqilgan bo'ladi. perpendikulyar qitraga nisbatan qiymati tḡ ga proporsional bo'ladi.

To'liq ichki qaytarishga ega bo'lgan prizmalarda, nurlanishning juda katta quvvat zichligida, birinchi navbatda, prizmaning asosan to'liq

qaytarish hususiyatiga ega bo'lgan yuzalari emirila ~~boribaydi~~  
 Eksperimental tadqiqotlarning ko'rsatishicha, prizmani yorug'lik oqimiga  
 nisbatan ma'lum usulda joylashtirilganda, bunday emirilishlarni chekah  
 o'tish mumkin bo'ladi. Yuzaga tushuvchi va qaytuvchi nurlanishlar,  
 qaytaruvchi ishyuza yaqinida turg'un to'lqinlar hosil qiladi. Tushuvchi va  
 qaytuvchi elektromagnit to'lqinlarning elektr vektorlarni kuchlanganligi  
 fazoda, geometrik qo'shilish nuqtasida, tushuvchi to'lqining elektr maydoni  
 kuchlanganligi vektori  $\vec{E}$  bilan, prizma katetining qirrasi (tushish yuzasi  
 bilan)  $\sim 45^\circ$  burchak hosil qilsa, qo'shilish nuqtasida, maydonning kuchlan-  
 ganligi  $\sqrt{2}|\vec{E}|$  ga teng bo'ladi. Agarda, elektr vektori  $\vec{E}$  ning yo'naliishi,  
 prizma kateti teng yon qirrasiga parallel bo'lsa, u holda elektr maydonidan  
 kuchlanganligi, qo'shilish nuqtasida,  $2 \cdot |\vec{E}|$  qiymatga ega bo'ladi. Lazer  
 nurlanishi tarqalishi burchagini kamaytirish uchun, prizmali qaytar-  
 gichlardan foydalanish mumkin. Avtorlar tomonidan, romb shaklidagi  
 prizmaning ishi o'rganilgan bo'lib, bu prizma yordamida, kirib kelgan  
 nurlanish, prizma yuzasidan to'rt martta, prizmaning eng katta qaytarish  
 qiymatiga ega bo'lgan, yaqin burchak ostida qaytadi.

Qaytarish yuzasiga tushayotgan nurlanishlar, kichik burchak ostida  
 bo'lsa, prizma yuzasidan o'rt martta qaytish natijasida o'z kuchini yo'qotadi.  
 Romb shaklidagi prizmani rezonatorda ishlatalsa, yorug'lik oqimi zinchligi  
 ko'payadi

Prizmali qaytargichlar, ikkita prizma shaklida yasalgan bo'lib, yupqa  
 qalinfangi ( $2\text{mm}$ ) bo'lgan, immers muhit (suv yoki metanol) bilan ajratilgan.  
 Prizmaga kirgan yorug'lik nurlanishi, to'liq nur qaytish hususiyati  
 buzilganligi uchun, muhitni ajratuvchi chegara yuzasidan, qarama-qarshi  
 tomoniga yo'nalgan ikki nurlanishga ajraladi va prizma ichida aylanib, yana  
 prizmadan chiqish oldidan bir-biriga qo'shiladi. Prizmaga kirayotgan  
 nurlanishga, parallel chiqayotgan nurlanish, prizma ichida, toq martta  
 yuzadan qaytib yoki just martta yuzadan qaytib chiqadi. Mana shu prizma  
 bloklaridagi farqqa qarab, ularning o'ziga xos hususiyatlari aniqlanadi. Agar  
 nurlanish, prizma ichida just martta urilib qaytsa, qaytgan nur, ko'ndalang  
 yo'nalish bo'yicha ikkiga ajralmaydi, aks holda, ya'ni toq marotaba yuzaga  
 urilib qaytadi, u holda nurlanish, ko'ndalang yo'nalishda ikkiga ajraladi. Bu  
 hususiyat yordamida, biz prizmaga tushgan nurlanishni ko'ndalang  
 modasini, selektiv ajratish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Shunday qilib,  
 qaytarish koefitsienti qiyamatini, suyuqlikni sindirish koefitsienti  
 ko'rsatgichini o'zgartirish natijasida yoki prizmaga tushayotgan kiruvchi  
 nurlanishni, tushish burchagini o'zgartirilgan holda o'zgartirishimiz  
 mumkin. Bunday qaytargichlarni tayyorlash juda moxirlilik va extiyotkorlik

bilan olib boriladi, ayniqsa ikki yuza orasidagi suyuqlikni germetik holda ushlab qolish ham oson bo'lmaydi [22].

Bu qaytargichda, prizmalar yupqa havo qatlami bilan (qalinligi to'lqin uzunligi chegarasidagi) bir-biridan ajratilgan bo'ladi. Prizma blokiga tushayotgan nurlanish, Bryuster burchagi ostida yuzaga kiradi va ikki nurlanishga bo'linadi. Ulardan biri, yuzadan qaytib, prizma blokidan tushuvchi nurlanishga nisbatan, to'g'ri burchak ostida chiqib ketadi, ikkinchisi esa havo qatlamidan o'tib, prizmadan tushuvchi nurlanishga parallel holda chiqib ketadi.

## 2.6. Diafragmalar

Katta quvvatga mo'ljallanmagan lazer rezonatorlarida, nurlanish o'tmaydigan, metalldan yasalgan, teshikchali diafragmalar ishlataladi. YUqori quvvatli generatorlarda, metall diafragmaning tirqishi atrosida, metall materialining emiriilishi sodir bo'ladi. Shuning oldini olish uchun, tirqish konusli sfera shaklida yasalib va yaxshilab sillqlanib, katta qaytarish koefitsienti qiymatiga qadar ishfov beriladi.

Katta quvvatli lazer generatorlari uchun, shisha va kvarsdan ishtlangan diafragmalar ishlatalib, nurlanish o'tuvchi tirqishga sferali konussimon shakl beriladi.

Diafragmaning kirish tomoni yassi, chiqish tomoni esa konus shaklida bo'ladi. Bu konus shaklidagi yuza, tushuvchi nurlanishni, to'la ichki qaytarish burchagi ostida qaytaradi.

## 2.7. Rezonatorlar

Interferometr Fabri-Peroni rezonator sifatida, optik kvant generatorlarida qo'llanilganda, uning yordamida yo'naltirilgan kogerent lazer nurlanishini olish imkoniyatiga ega bo'lamiz.


Yassi parallel yuzali Fabri-Pero interferometridan tashqari, optik rezonatorlarda, yuzasi sfera shaklida va parabolik shaklida tayyorlangan interferometrlardan ham foydalaniladi. Elektromagnit to'lqinni, lazer rezonatorida nazariy jixatdan qaraganda, uni bo'lingan qator uch indeksga bog'liq bo'lgan, bir necha funksiya sistemasi sifatida tasavvur etish mumkin. Har biri, aniq bir turdag'i to'lqin tebranishlari, to'lqin modasiga ta'lulqi bo'lib,  $TEM_{mn}$  bilan belgilanadi. Katta harflar tagidagi birinchi ikki indeks elektromagnit maydonning ko'ndalang strukturasini (ko'ndalang tebranuvchi to'lqin) —  $TEM_{mn}$ . Har bir ko'ndalang to'lqin uchun, bir necha

bo'ylama to'lqin to'g'ri keladi. Bu to'lqinlar bir-biridan, rezonator uzunligi bo'ylab joylasha olgan  $\frac{1}{2}\lambda$  to'lqinlarni (yarim to'lqinlar) soni bilan ajralib turadi. Bu tebranishlar q-indeksi bilan belgilanadi. Har bir tipdag'i tebranishlarning o'zining chastotasi bo'lib,  $V_{mn}$  bilan belgilanadi.

Generator va uning rezonatorida ishtirok etuvchi bo'ylama to'lqinlar modasi, lazerlarda aktiv element va rezonatorning lyuminessensiya chizig'i kengligi bilan aniqlanadi. Bu to'g'risida ko'p adabiyotlar, monografiyalar hamda obzorlar mavjud [18,19,21].

Biz quyida, rezonatordagi elektromagnit maydonining ko'ndalang va bo'ylama strukturasi aniqlovchi faktorlarni ko'rib chiqamiz.

Ko'ndalang tebranishlar strukturasini, nurlanishing difraksiyasini, ko'zgu va yuzalardan qaytarish natijasida sodir bo'ladigan va nurlanish aperturasini chegaralovchi, elementlardagi diffraksion yo'qotishlar bilan bog'liq bo'лади. Elektromagnit maydon to'lqinining, optik rezonatorda taqsimlanishini birinchi bo'lib, Gyugens-Frenel o'rGANIB chiqqan.



2.8 - rasm. Interferometr Fabri-Pero (a), uzatuvchi muhit analogi (b) maydonning ko'ndalang yuza bo'ylib taqsimoti xemasining qaytarigich ko'zgulardan nurlanishing qaytish sonini oshishiga qarab (v).

Agar biz, ko'zgu o'chamlarini to'lqin uzunligiga nisbatan juda katta deb faraz qilsak, rezonatordagi elektromagnit maydon kuchlanganlik vektori  $\vec{E}$ , ko'ndalang joylashgan holatga juda yaqin bo'lsa va bir tekislikda qutblangan bo'lsa, u holda tirkish A orqali, yoritilgan maydon  $A_p$  Frenel zonasida, yuza integralli orqali aniqlanadi

$$U_P = \frac{jk}{4\pi} \int_A U_a \frac{e^{-jkR}}{R} (1 + \cos X) \cdot dS \quad (2.21)$$

Bunda  $u_r$  - tirkishdagi maydon,  $k$  - muhitdagi tarqalish doimiyligi;  $R$  - tirkishdan kuzatish joyigacha bo'lgan masofa;  $X$  - tirkishning yuzasiga o'tkazilgan normal bilan radius -vektor orasidagi burchak.

Rezonator ko'zgusidan qaytgan nurlanish va boshqa ko'zgudan qaytgan nurlanish, elektromagnit maydoni bilan bog'liq bo'ladi va (2.21) formula bilan aniqlanadi. Nurlanishning ko'p marta rezonatordagi harakati va ko'zgulardan ko'p marotaba nurlanishning qaytishi natijasida elektromagnit maydoning taqsimoti qisman o'zgaradi va vaqt o'tishi bilan statsionar holatga keladi. 2.8.v rasmida statsionar holat sxematik ravishda ko'rsatilgan bo'lib, bu holatning boshlang'ich taqsimoti, bir jinsli bo'lgan holga, mansub bo'ladi. Qaytish jarayonida, elektromagnit maydonining taqsimlanishi, chetki qismalarida, markaziy qismga nisbatan tezroq o'zgaradi. Ko'pgina qaytishlar natijasida, yorug'lik maydoni, chetki qismida juda kichik qiymatga ega bo'lib qoladi va natijada chetki difraksion yo'qotishlar deyarli kamayib ketadi. Umuman olganda rezonatorda nurlanishning d-marta borib kelishi davomida, statsionar holat o'matilganda, maydonning qaytargich ko'zgulardagi taqsimoti, kompleks doimiylik aniqligi bir xil bo'ladi va shunday kelib chiqqan holda, quyidagicha yozish mumkin.

$$u_p = (1/Z_R)^g \cdot v(R) \quad (2.22)$$

Bu yerda  $v(R)$  - qaytargichlardan qaytganda, o'zgarmaydigan taqsimlash funksiyasi bo'lib, interforometrning normal turdag'i tebranuv'i deyiladi.  $Z_R$  kompleks doimiylik bo'lib, bu fazoviy koordinatlarga bog'liq emas. Natijada (2.22) va (2.21) formulalardan foydalanib integral tenglama olamiz

$$v = Z_R \int_A k u dS, \quad (2.23)$$

Unda

$$K = \frac{jk}{4\pi R} (1 + \cos X) \cdot e^{-jkR}. \quad (2.24)$$

Bu tenglamani analiz qilganda agar,  $(r_3^2/\lambda L) \ll (L/r_3)^2$  shart bajarilsa ( $r_3$  - ko'zgu radiusi;  $L$  - ko'zgular orasidagi masofa,  $\lambda$  - nurlanishning to'lg'ini

uzunligi bo'lsa) ko'zgular o'lehami va ularning orasidagi masofa kombinasiyasini aniqlashda, asosiy, birdan-bir kerakli parametr bo'lib, Frenel soni hisoblanadi.  $N_\phi = (r_s^2/\lambda L)$  taxminan, Frenel zonalari soniga teng bo'lib, bir ko'zguga, ikkinchi ko'zgu markazidan qaraganda ko'rindi. Har xil turdag'i rezonatorlar uchun, tenglama (2.23) echilishi va yana umumiy tahlil qilish masalalari bir necha avtorlar tomonidan ko'rib chiqilgan bo'lib, biz quyida, biz uchun qiziqarli bo'lgan va optik generatorlar parametrlari va lazerlarning optik sxemasini hisoblash uchun kerakli ma'lumotlar va hisoblarning natijasidan foydalanamiz [21, 33, 34].

Ko'p sonli optik rezonatorlarning ichidan, biz uchun qiziqarli va bilishimiz kerak bo'lgan rezonatorlarga, sharsimon va yassi yuza ko'zguli rezonatorlar kirdi.

SHarsimon ko'zguli rezonatorlarda, ko'zgularning ixtiyoriy egrilik radusi  $R_1$  va  $R_2$  bo'lib, ular bir-biridan  $L$  masofada joylashgan bo'lib, bu sistema turg'un yoki turg'un bo'lmagan optik sistemani o'zida namoyon etadi.

Turg'un sistemalarda, qaytargich ko'zgulardan qaytuvchi nurlanishing, davriy fokuslanishi bo'lib turadi. Turg'un bo'lmagan sistemada nurlanish, ko'zgulardan qaytg'an sari kengayib boradi. Sistemaning turg'unligining asosiy sharoitlaridan biri, rezonatorda nurlanishning davriy fokuslanib turish holati bo'lib, rezonatorning analogi sifatida quyidagi ko'rinishda bo'ldi:

$$0 < \left(1 - \frac{L}{R_1}\right) \cdot \left(1 - \frac{L}{R_2}\right) < 1 \quad (2.25)$$

2.9-rasinda diagramma keltirilgan bo'lib, uning o'qlari bo'yicha quyidagi qiymatlar qo'yilgan:  $g_1=1-(L/R_1)$  va  $g_2=1-(L/R_2)$  bo'lib, ular yordamida, ixtiyoriy sharsimon ko'zguga ega bo'lgan rezonatorning, turg'unlik holatini, grafik usul yordamida baholash ko'rsatilgan. Grafikda turg'un holat (shtrixlanmagan) giperbolalar bilan chegaralangan bo'lib, keltirilgan tenglama bilan aniqlanadi:

$$\left(1 - \frac{L}{R_1}\right) \cdot \left(1 - \frac{L}{R_2}\right) = 1 \quad (2.26)$$


To'ljin modalari maydoni turg'un bo'lmagan rezontorlarga nisbatan, turg'un rezonatorlarda sistema o'qi yaqinida kuchliroq jipslashgan bo'ldi.

Shuning uchun ham turg'un bo'lmagan rezonatorlarda, turg'un rezonatorlarga qaraganda difarakcion yo'qotishlar ko'p bo'ladi [6].

Bir xil tur va shakldagi ko'zgular, ular orasidagi masofaga qarab, turg'un yoki turg'un bo'lmagan rezonatorlar hosil qilinadi. Turg'un holatdan turg'un bo'lmagan holatga o'tishning tezligi Frenel soniga bog'liq bo'ladi. Silliq o'tish holati esa, Frenel soni kichik bo'lgandagina bo'ladi.

Rezonatorning turg'un bo'lmagan holatga o'tishi bilan nafaqat, difrakcion yo'qotishlarning obsalyut qiymati ko'payadi, undan tashqari, rezonatordagi boshqa yo'qotishlarning xissasi ham oshadi. Turg'unlik diagrammada, koordinata boshi, egrilik radiusining qiymati bir xil bo'lgan konfokal sistemaga to'g'ri keladi.

Bunda difrakcion yo'qotishlar, Frenel soni uchun ham bo'ladi. Konsentrik ( $R_1=R_2=L/2$ ) (bitta umumiy markazli) va yassi yuzali ( $R_1=R_2=\infty$ ) rezonator turg'unlik chegarasida joylashgan bo'lsin.



2.9- rasm. Lazer rezonatorining turg'unlik diagrammasi  
(rezonatorning turg'un bo'lmagan holati shurixlangan)

Ikkita botiq ko'zguli yoki biri botiq, ikkinchisi qabariq ko'zguli rezonatorlar ham turg'un yoki turg'un emas tizimni vujudga keltirishi mumkin, bu ularning ko'zgularining egrilik radiusi hamda ular orasiagi masofaga bog'liq bo'ladi. Bitta ko'zgusi qabariq, ikkinchi ko'zgusi botiq bo'lgan rezonatorda, xuddi sharsimon, ikki ko'zguli rezonatorga o'xshab, bir-biridan  $2L$  masofada joylashgan ko'zgular kabi, maydon strukturasi yuzaga keladi. Ikkala ko'zgusi botiq rezonatorda, turg'un bo'lmasan sistema vujudga keladi.

Shunday qilib, turg'un va turg'un bo'lmasan rezonatorlar, asosan uch harakteristikalari bilan bir-biridan farq qiladi. Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan turdag'i, tebranishlarni spektr taqsimoti, ma'lum turdag'i tebranishlar uchun, mavjud bo'lgan har xil yo'qotishlar, rezonator ichidagi har xil turdag'i tebranishlarning hajimi kabilardir [35].

## 2.8. Turg'un rezonatorlar

Rezonatordagi har xil turdag'i to'lqin tebranishiga ta'luqli yorug'iik nurlarining, intensivlik bo'yicha taqsimlanishi, murakkab harakterga ega. Har moda to'lqin tebranishlari uchun, intensivlikning yuza bo'yicha taqsimlanishi, nurlanishning burchak ostida tarqalishi, ularning ko'ndalang tebranuvchi to'lqin modalariga bog'liqligi, har to'lqin modalarining tartibi va to'lqinlarning tarkibiga qarab, har xil bo'ladi. Eng pastki turdag'i tebranishlar, asosiy moda tebranishlari deb yuritiladi va ular intensivlikni yuza bo'yicha taqsimlanishi, gaussimon taqsimlanishiga o'xshagan bo'ladi. Bunday nurlanishning diametri, ko'zgular diametri qiymatining maksimal intensivlik qiymatidan, e martta kamaygan qiymatida olinadi. Gauss taqsimoti bo'yicha, intensivligi taqsimlagan nurlanish dastasi eng kichik, asosiy diametr qiymatiga qarab, torayib boradi, bu holda, to'lqin frontining fazasi, yassi yuza bo'yicha joylashgan bo'ladi ( 2.10- rasm). Hosil bo'lgan nurlanish dastasi, giperbol'a bo'lib, uning asimptotalari, o'qqa nisbatan quyidagi burchak ostida egilgan bo'ladi

$$\theta_r = 2\lambda / (\pi d_0). \quad (2.27)$$


Bu burchak uzoq zonadagi asosiy moda uchun difraksiya burchagiga teng bo'ladi. 2.11- rasmda ko'zgulari radiusi  $R$ ,  $d_0$ ,  $\beta_r$  har xil egrilikka ega bo'lgan, turg'un rezonatorning sxemasi keltirilgan. Bunday rezonatorning ko'zgulari yuzasi to'lqin frontining rezonatordagi modalari fazasiga mos keladi.

Nurlanishni asosiy modalarining, ko'zgular yuzasidagi diametrlari  $2d_1$  va  $2d_2$  bo'lsa, uning rezonator ichidagi minimal diametri quyidagicha aniqlanadi:

$$d_1^4 = 4 \left( \frac{\lambda R_1}{\pi} \right) \cdot \frac{R_2 - L}{R_1 - L} \cdot \frac{L}{R_1 + R_2 - L} \quad (2.28)$$

$$d_2^4 = 4 \left( \frac{\lambda R_2}{\pi} \right) \cdot \frac{R_1 - L}{R_2 - L} \cdot \frac{L}{R_1 + R_2 - L} \quad (2.29)$$

$$d_0^4 = 4 \left( \frac{\lambda}{\pi} \right)^2 \cdot \frac{L(R_1 - L)(R_2 - L)(R_1 + R_2 - 2L)}{(R_1 + R_2 - 2L)^2} \quad (2.30)$$




2.10-rasm. Asosiy modaning elektromagnit maydonining taqsimlanishi  
(a) va mirlanish dastusining parametrlari (b).

Ko'zgu tekisliklari orasidagi masofa  $l_1$  va  $l_2$  bo'lsa va  $d=d_0$  bo'lsa, ular quyidagi tengliklar bilan aniqlanadi:

$$l_1 = \frac{L(R_2 - L)}{R_1 + R_2 - 2L}, \quad (2.31)$$

$$l_2 = \frac{L(R_1 - L)}{R_1 + R_2 - 2L}. \quad (2.32)$$



2.11-rasm. Har xil egrilik radiusiga ega bo'lgan, ko'zguli rezonatorordagi, modaning parametrlari.

Umumiy kichik yo'qotishlarga ega bo'lgan rezonatorlar uchun, rezonans chastotalari spektri, quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\frac{v}{v_0} = (q + 1) + \frac{\beta}{\pi}. \quad (2.33)$$

Bu yerda,  $v$  - modaning rezonans chastotasi,  $\beta$  - rezonator tuzilishiga bog'liq bo'lgan faza surilishi (fazoviy siljish). Xalqasimon, yumaloq ko'zgularning katta oraliqdagi  $N_\phi$ ,  $g_1$  va  $g_2$  ning 1ga yaqin qiymatlari uchun fazani surilish qiymati:

$$\beta = (2m + n + 1) \arccos \sqrt{g_1 \cdot g_2} \quad (2.34)$$

$N_\phi$  va  $q$  ning boshqa qiymatlari uchun, fazaning surilish qiymati murakkab ko'rinishga ega bo'ladi.

Yo'qotishlar y Frenel soniga ( $N_\phi$ ) va modalar tartibi bog'liq bo'ladi. Bu bog'liqlikning harakteri rezonatorlar turlariga qarab har xil bo'ladi. Konfokal rezonatorlar uchun, chastotalar spektri quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{v}{v_0} = (q + 1) + \frac{1}{2}(m + n + 1) \quad (2.35)$$

Har xil tartibdagi tebranishlar uchun yo'qotishlarning qiymati Frenel soniga bog'liq bo'lib quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi [36, 39] :

$$\gamma = \frac{2\pi(8\pi N_f)^{2m+n+1} e^{-4\pi N_f}}{G(m+1)G(m+n+1)} \cdot \left[ 1 + O\left(\frac{1}{2\pi N_f}\right) \right] . \quad (2.36)$$

Bu yerda,  $G(m+1), G(m+n+1)$  - gamma funksiyalar.

Konfokal rezonator ichidagi ko'zgular yuzasidagi nurlanishning diametri kichik bo'lib, u ko'zgu o'lchamlariga bog'liq emas:  $d_1 = d_2 = \sqrt[2]{\lambda L}/\pi$ ,  $d_0 = \sqrt[2]{\lambda L}/2\pi$ . Bunday holat, konfokal rezonatorlarning amaliyotda kam ishlatalishiga olib keladi, chunki rezonator aktiv elementining ishlatalish koefitsienti bunday rezonatorlarda yuqori bo'lmaydi.

Yassi yuza ko'zguli rezonatorlarda, nurlanishning yuzasi, ko'zgu yuzasi o'lchamiga yaqin bo'ladi, shuning uchun, yassi ko'zgu yuzalari rezonatorlarda, aktiv element hajmi to'la ishlataliladi.

Har xil tartibdagagi tebranishlar uchun, fazaning surilishi va yo'qotishlar, quyidagicha aniqlanadi.

$$\beta = (M_\phi / 4\delta)\gamma \quad (2.37)$$

$$\gamma = 8K_{mn} \frac{8(M_\phi + \delta)}{[(M_\phi + \delta)^2 + \delta^2]^2} \quad (2.38)$$

Bu yerda,  $\delta=0.824$ ;  $M_\phi = \sqrt{8\pi N_\phi}$ ;  $K_{mn}$  -  $n$ -chi tartibli Bessel funksiyasining  $(m+1)$ -chi noli. Bu formulani ham konfokal rezonatorlardagiga o'xshab, Frenel sonining kichik qiymatlari va yo'qotishlar kam bo'lgan xollarga qo'llab bo'lmaydi.

Yassi ko'zguli rezonatorlar tuzilishi tomonidan sodda va ularni tebranishlar soni axamiyatga ega bo'lmagan xollarda ishlatalish qulay bo'ladi. Bundan tashqari, yassi parallel ko'zguli rezonatorlarda, ajratib olingan ma'lum turdagagi tebranishlar foydali hajjni boshqa rezonatorlarga qaraganda to'liq egallaydi. Bu o'z navbatida, invers muhitni effektivligini oshiradi.

## 2.9. Turg'un bo'lmagan rezonatorlar

Yuqorida ko'rib o'tilgan turg'un holatlari rezonatorlarni, turg'un holati chegarasida, ularning ko'zgulari orasidagi masofasi o'zgartirish yo'li bilan yoki ko'zgularning egrilik radiusini oshirish bilan, turg'un bo'lmagan rezonatorlar holatiga olib kelishi mumkin. Bu holdagi turg'un bo'lmagan rezonatorlordan nurlanishni chiqarib olish uchun, rezonatorning bir qaytaruvchi ko'zgusini, yarim o'tkazuvchi qilib tayyorlanadi. Turg'un


bo'Imagan holatlari rezonatorlar uchun, difraksion yo'qotishlar, hamma turdag'i tebranishlar uchun tezda oshib ketadi.

Katta difraksion yo'qotishga ega bo'lgan rezonatorlar ham o'ziga qiziqish uyg'otadi. Bu holat, o'zida xalqa shaklida nurlanishni rezonatordan olib chiqish imkoniyatini beradi. Bunday holatda, qaytargich ko'zgulardan bir-necha marta qaytgan nurlanish yuzasi kengaya boradi va oxirgi qaytishida shunday o'lchamiga etadiki, uning o'lchamlari rezonatorning bir qaytargich oynasining diametridan oshib ketadi va rezonatordan chiqib ketadi. Bunday, xalqasimon yo'l bilan rezonatordan nurlanishni chiqib ketishiga yana difraksion yo'l ham deb yuritiladi.


Turg'un bo'Imagan rezonatorlarda, turg'un rezonatorlarga nisbatan birinchi geometrik yaqinlashuvda, past tipdagi modalar energiyasini o'rtacha yo'qotishi kattaligining, ko'zgudan bir marta qaytgandagi (ko'zgu o'lchamlari va ko'zgu formasiga bog'liq bo'lmagan holdagi) qiymati, quyidagicha aniqlanadi [17,38].

$$\gamma = 1 \pm \frac{1 - \sqrt{1 - (g_1 \cdot g_2)^{-1}}}{1 + \sqrt{1 - (g_1 \cdot g_2)^{-1}}} \quad (2.39)$$

(2.39) formuladagi "+" belgisi g ning qiymati turg'unlik diagrammasining birinchi va uchunchi kvadrantidagi qiymatlari uchun bo'lib, "-" belgisi esa, qolgan ikki kvadrantidagi qiymati uchun mo'ljallangan.



2.12-rasm. Turg'un bo'lmagan rezonatorlari uchun maydonning taqsimlanishi: a-simmetrik, b-antisimmetrik



2.13-rasm. Teleskopik rezonator (a) va uning ekvivalent sxemasi (b).

Turg'un bo'Imagan rezonatorlarning rivojlangan turlaridan biri teleskopik rezonatorlardir. Ular, o'qlari usma - ust tshuvchi ikki ko'zgulni bo'lib, ulardan biri qavariq ( $R_2 > 0$ ), ikkinchisi botiq bo'lib ( $R_2 = -[2L + R_1]$ ) bunday rezonatorning chiziqli kattalashishi  $M = 1 + (2L/R_2)$  teng bo'ladi.

Rasm 2.13.da, teleskopik rezonator va uning ekvivalent sxemasi keltirilgan. Agar, yassi yuzali rezonatorda, ko'p karra ko'zgudan nurlanishni qaytishi natijasida, to'lqin frontining qo'zg'alishi, optik sxemaning chetlaridagi difraksiyadan bo'lsa, teleskopik rezonatorda, yorug'lik nurlanishi energiyasi, bir necha bor qaytish natijasida, kichik markaziy uchastka yuzasidan kengaya boradi. Qachonki, nurlanish yuzasi ko'ndalang kesimi, ko'zgular o'lchamlariga tenglashhib qolganda, difraksiyaning ta'siri, nurlanishning ko'ndalang tarkibining shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi [40, 41].

## 2.10. Lazer qurilmalarining rezonatorlari

Real lazer rezonatorining to'ldirilmagan boshqa generatorlardan farq qiluvchi asosiy faktorlari quyidagilardan iborat:

- 1) Optik aktiv muhitni bir jinsli emasligi va boshqa elementlar materiallarida bor bo'lgan nomukammalliklar, qoldiq deformatsiya, nurlanishning sohilish markazlarining mavjudligi va xokazo.
- 2) Optik damlashning bir tekis bo'Imaganligi natijasida aktiv muhitda sodir bo'ladigan xodisalar.
- 3) Aktiv elementning ko'ndalang kesim yuzasi bo'ylab inversion holat taqsimotining bir tekis emasligi.
- 4) To'yinish holatining ta'siri va xar turdag'i tebranishlarning rivojlanishi.
- 5) Rezonator elementlarini sozlashning aniqligi.

Ko'pgina sabablar natijasida, katta burchak ostida tarqalish va ko'pgina bo'ylama to'lqinlarning tebranishi vujudga keladi. Katta burchak ostida tarqalish asosan, rezonatordagi ko'ndalang to'qinlarning ko'pligi, optik muhitning bir jinsli emasligi natijasida, to'lqin frontining o'zgarishi natijasida bo'lishi mumkin. To'lqin frontining o'zgarishiga ko'pincha modalar deformatsiyasi ham deb aytildi.

Lazer rezonatorining hamma elementlari ichida, eng katta optik bir jinslik emasligi, aktiv elementlarda bo'ladi.

Aktiv element materiallari ichida asosan, Rubin kristallida bunday bir jinslik emasligi, sirpanish tekisligi, kuchlanishning bir tekis taqsimlanmaganligi bo'lsa,  $N_d^{+3}$  ionlari bilan aktivlashtirilgan shisha kristallari, o'zining yuqori bir jinsligi bilan ajralib turadi. Agar, rubin kristallidan, difraksion tarqalishga ega bo'lgan, yassi to'lqin o'tsa, to'lqinning amplituda-fazasini o'zgarishi nurlanishning burchak ostida tarqalishining sezilarli kattalashida ko'rindi, bu esa o'z navbatida kristalldagi mikrokuchlanishlarning mavjudligini tasdiqlaydi. Aktiv elementning optik bir jinslik emasligi, lazer nurlanishining modalari turiga ayniqsa, ko'ndalang tipdag'i tebranishlarning seleksiyasiga ta'sir qildi. Agar, biz rezonatorda, aktiv element sifatida, optik bir jinsli rubin kristallidan foydalansak, ko'zgulari yassi yuzali, parallel rezonatorda, turg'un holdagi bir modali rejim ( $TEM_{00}$  tipdag'i) generatsiyasini olamiz. [42, 43] ishlarda har xil turdag'i nurlanishni tarqalishiga sabab bo'luchchi manbalar (yuzaring siljishi, bloklar o'rtasidagi chegaraning bo'linishi va boshqalar) to'laligicha o'rganilgan. Shuni ham aytib o'tish kerakki, yassi yuzali rezonatorlarda nurlanish yuzasi, optik elementlarda bo'lgan bir jinslik emasligi yaqqol nomoyon bo'ladi. Tajribadan ma'lum bo'lishicha, yassi yuzli rezonatorlarda, ko'pincha ko'ndalang to'lqin modalarinining yuqori tartibiyatlari ishtiroy etadi, bu esa o'z navbatida, rezonator yo'qotishlarini biroz kamaytiradi.

Aktiv elementlardagi temperaturaning oshib ketishi bilan bog'liq bo'lgan, sinditish koeffitsientining o'zgarishi, elementlarning geometrik shaklini o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan, fotoelastiklik hususiyati, optik bir jinslik emasligiga olib keladi.

Lazer elementlarining optik harakteristikalari, temperaturaga bog'liqligi, tadqiqt ishlarda, har tomonlama o'rganilgan [37, 43].

Temperatura natijasida sodir bo'ladijan bir jinslik emasligi asosan, aktiv elementlarda bo'lib, boshqa elementlardan farqli, faqat lazer nurlanishining generatsiyasi davomida emas balki, optik damlash davomida ham issiqlik ta'sirida bo'ladi. Neodim shishali lazerda, damlash impulsi

oxiriga kelib, burchak ostida tarqalishining qiymati, ikki martaga ko'paygan, Rubin kristalli rezonatorda esa 3-5 martagacha ko'paygan. Bu kabi holatlar, lazer generatorlarining davriy ish rejimida yoki uzlusiz ish rejimida ishlagan vaqtida bundan ham katta bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda optik bir jinslik emasligi muayyan holatga kelgan bo'ladi va rezonatorga to'g'irlash elementlaridan (linza) kiritilib, ro'y bergan o'zgarish tekislanadi. To'lqin frontidagi o'zgarishini to'g'irlash uchun, rezonatorda modulyasiya qiluvchi elementlardan foydalilanadi, u holda lazer generatsiyasi vaqtini qisqarishi sababli, bu vaqt ichida, temperaturaning damlash davridagi o'zgarishi, aktiv element bo'ylab taqsimlanishga ulgurmeydi. Lazer generatorida, termik ta'siri butunlay yo'qotish masalasi juda murakkab bo'lib, bu masala har bir generator uchun, uning hususiyati, aktiv element materiallari hamda optik sxemaning barcha elementlarini hisobga olgan holda, lazer generatorining ishlash rejimiga qarab, zaruriy choralar ko'riladi.

Aktiv muhitda kuchlanishning to'yinish holati erkin generatsiya rejimida asosiy ko'ndalang modaga, deformatsiya jixatidan ko'pam ta'sir ko'rsatmaydi.

Agar, generator aktiv modulyasiya rejimida ishlayotgan bo'lsa, nurlanishning katta kuchayish holatida, to'yinish holati, modalarni o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bunday o'zgarishning o'sishi Frenel sonining o'sgani sari ortib boradi.

Kuchlanishning to'yinish holati ayniqsa, bo'ylama to'lqin modalarining generatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

## 2.11. Bo'ylama to'lqin turlarini seleksiyasi

Fabri-Pero interferometrida, difraksion yo'qotishlar kam bo'lib, Frenel soni katta qiymatga ega bo'lqanda, bir jinsli yassi to'qinlarining rezonans holati yuzaga keladi. Bu to'lqinlar rezonatori o'qi bo'ylab ikki yo'nalishda ma'lum burchak ostida tarqaladi. Bunday holatda rezonatorda turg'un to'lqinlar hosil bo'ladi. Bunday bo'ylama tebranishli to'lqinlarning rezonans holati sharoiti, quyidagicha bo'ladi:

$$q\lambda=2L \sin \theta_r \quad (2.40)$$


Bunda,  $q$  –butun son,  $\theta_r$  nurlanishning yo'nalishi va rezonator o'qi orasidagi burchak. Bo'ylama to'lqinlar modalari orasidagi chastota intervali  $\Delta\nu=(2L)^{-1}$  ga teng. Bunday ko'p miqdordagi bo'ylama to'lqinlarning Fabri-Pero interferometrida va aktiv muhitda generatsiya qilish imkoniyati,

muhitning aktiv markazlarining, turg'um to'qinlarning fazoviy bir jinsik emasliklariga bog'liq bo'ladi. Aktiv markazlar, modalar to'plamida, moda fotonlari bilan o'zaro ta'sirdan so'ng, intensiv ravishda energiyasini yo'qqa boshlaydilar. Modalar bog'lamida joylashgan aktiv markazlar, bu moda maydonida hech qanday aktiv ish bajarmaydilar. Bu markazlar boshoq to'lqin modalarini uchun energiya manbai bo'lib hisoblanadilar.

Bo'ylama to'lqinlar modalarini seleksiyasi uchun effektiv yo'llardan biri qo'shimcha interferometr Fabri-Pero rezonatori ichiga joylashtirib, chastotalar filtri sifatida ishlatalishi maqsadga muvosiq bo'ladi. Qaytarish koeffitsientining qo'shni maksimum va minimumlarning chastotali intervallari  $\Delta v_p = (2nD)^{-1}$  ga teng. D ning qiymati, quydagiicha tanlab olinadi. Etalon plastinalaridan birining doimiyligi, lyuminessensiya chizig'i kengligiga yaqin bo'lib, ikkinchisi liyuminessensiya maksimumida joylashgan rezonatorning qo'shni bo'ylama to'lqin modasini kamaytirish uchun etarli qaytarish koeffitsientiga ega bo'lishi kerak.

Rezonans qaytargichli rezonator, tuzilishi jixatidan murakkab rezonatorlardan bo'lib hisoblanadi. Murakkab rezonatorlarning bir turi, o'zaro bog'langan rezonatorlar bo'lib hisoblanadi. Ularning rezonatorida ikki qaytaruvchi ko'zgularidan tashqari, orasida kamida bitta qo'shimcha qaytarish elementi bo'ladi. Bunday sistemaning chastotalari ketma-ketligi ekvivalent (bir xil oraliq masofada emas bo'lib), har-xil tipdag'i tebranishlarning kuchayish koeffitsienti rezonator tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Rezonator uzunligini va o'rtadagi ko'zguning o'tkazish koeffitsientini tanlab olinib, qolgan chastotali to'lqinlarga imkon bermasdan, bitta chastotada generatsiya olishga harakat qilinadi. Yana murakkab rezonatorlardan biri, Maykelson turidagi interferometrlı rezonatorlardir.

Rezonatorning mos keluvchi chastotalari uchun  $L_2+L_1$  va  $L_2+L_3$  nurlanishni bo'lувчи sistemada, yo'qotishlar yo'q. Sistemaning mos keluvchi chastotalari uchun kuchaytiruvchi muhitning oraliq elkasi  $L_2$  yoki ikki bir hil darajada kuchaytiruvchi muhitning oraliq elkasi  $L_1$  va  $L_2$ .  $L_1=L_3$  bo'lganda, yo'qotishlar sistemaning o'tkazish koeffitsienti miqdoricha quydagi ifoda bilan aniqlanadi:



2.14-rasm. Maykelson turdag'i interferometrli murukkah rezonator;  $M_1, M_2, M_3$ - ko'zgular.

$$T_{bo'luv} \approx \sin^2(\pi/m) \approx (\pi/m)^2 \quad (2.41)$$


Bu yerda m-uzun rezonatordagi aksial modalarining soni.

Agar kuchaytiruvchi muhit  $L_1$  yoki  $L_3$  elkada joylashgan bo'lsa va rezonatorning eng kichik uzunligi  $L_2+L_3$  yoki  $L_1+L_2$  bo'lsa, rezonatordagi yo'qotishlar quyidagi tenglikdan aniqlanadi.

$$T_{bo'luv} = 4 \frac{\sin^2(\pi/m)}{1 + (4\pi/m)^2} \approx \frac{4(\pi/m)^2}{1 + 4(\pi/m)^2}$$

Bunday turdag'i optik sistemalar, 3-4 marta katta selektivlikka ega bo'ladi. Sistemada nurni bo'luchchi element sisatida, poliarizasion prizmadan foydalanish mumkin bo'lib, uning nurni o'tkazish o'qi, nurning poliarizatsiya tekisligiga nisbatan  $45^\circ$  burchak ostida bo'ladi. 2.15- rasm. Bu sistemaning yo'qotishlari ham (2.41)- formula yordamida hisoblab topiladi.

Moda maydonlarining fazoviy bir jinslik emasligi tufayli yo'qotishning yo'li, rezonatorda hosil bo'lgan turg'un to'lqinlar rejimidan, rezonatorda bir tomonga yo'nalgan taqsimotli, yuguruvchi to'lqinlar rejimiga o'tish bo'ladi. To'lqin modalari maydonning fazoviy bir jinslik emasligi tufayli yo'qotishning ma'lum bo'lgan usulla:idan biri, aktiv markazlarni rezonator o'qi bo'yicha yo'nalgan, turg'un to'lqinlariga nisbatan aralashtirishdir.



**2.15-rasm.** Lazer optik sistemasining ikki bo'qli rezonatori, 1-rezonansli qaytargich; 2-rubinli aktiv element; 3-KDP kristalli asosida ishlangan elektrooptik zatvor; 4-Glan-Fuko prizmasi; 5-ajratuvchi polarizatsion prizma; 6 va 7-teng yonli prizmalar keltirilgan.

Buni amalga oshirishning ikki yo'li bor: aktiv elementni mexanik tarzda aralashtirib yoki rezonator uzunligini o'zgartirmagan holda, aktiv elementdan turli tomonga, sindirish ko'rsatgichini teskari fazada modulyasiya qilish natijasida amalga oshiriladi [21, 30, 42].

## 2.12. Ko'ndalang to'lqin modalarini seleksiyasi

Nurning burchak bo'yicha tarqalishini va generatsiyada mavjud bo'lgan ko'ndalang kesimli tebranishlar va ularning deformatsiyasini kamaytirish uchun, har xil yo'llardan foydalaniladi.

Ideal aktiv muhitda va bir jinsli damlashda, modalar deformatsiyasi juda kichik bo'ladi. Generatsiyada mavjud bo'ladigan modalar soni asosan, difraksiya tufayli va noselektiv yo'qotishlarining nisbatiga bog'liq bo'ladi.

Burchak osti seleksiyasining eng oson va sodda yo'llaridan biri, kichkina yuzali diafragmadan foydalanish va uning yordamida Frenel sonini kamaytirishdir. Rezonatorga diafragmani joylashtirilsa, har hil tipdag'i tebranishlar uchun difraksion yo'qotishlarining absolyut qiymati oshadi.

Ammo, diafragma yordamida eksperiment yo'li bilan diafragma o'lchami tanlab olinib, aktiv elementni optik bir jinslik emasligi effektiv seleksiyasini va boshqa elementlardagi xam bir jinslik emasligi seleksiyasini ham amalga oshirish mungkin. Diafragmadan foydalaniilganda, lazer impulsi formasining uzgarishini, lazerning modulyasiya rejimida, nurlanishning kuchayishi, to'yinishi natijasida modalar sostavining

uzgarishini, hamda kichkina yuzali rezonatorning ko'zgulari, turli shaklda bo'lsa ham diafragma yordamida bitta ko'ndalang tipdagi tebranishni, ajratib olish mumkin bo'ladi. Amaliy tomondan qaraganda, diafragma, nurlanishni o'tkazmaydigan plastinkadagi kichik tirqishdan iborat. Diafragmani effektivliligini oshirish, diafragmani o'tkazish koefitsientini sekin-asta kuchsizlanuvchi filtr sifatida, diafragma radiusi o'chamiga qarab, ajratib olingen tipdagi tebranishlarni, ma'lum qonun buyicha taqsimlanishini amalga oshiriladi. Bu nuqtai nazardan qaraganda, p'ezooptik effekt asosida, elektrooptik yorug'lik zatvorlaridan (svetozatvorlandan) foydalanish natijasida, boshqariluvchi diafragmalarni yaratish, ancha qiziqarli bo'lib ko'ri-nadi.

P'ezooptik boshqariluvchi diafragnada, nurlanishning yuza bo'yicha o'tishini taqsimlash mumkin, masalan asosiy ko'ndalang turdag'i tebranishlar uchun, bunday diafragnadan foydalanishda, elektrooptik yorug'lik qaytargichga davriy elektr kuchlanishi ularib, uming natijasida kristallda mexanik tebranishlar uyg'otiladi, diafragma rolini fototrop yorug'lik qaytargich o'ynaydi. Fototrop yorug'lik qaytargichni diafragma sifatida ishlatalganda, uning nurlanishni o'tkazish koefitsientining, yorug'lik yuzasiga nisbati, nochiziq bog'lanishda ekanligi hisobga olinadi.

Burchak seleksiyasi usuli, Frenel sonini kamayishiga asoslangan metodlaridan biri bo'lib, u rezonator uzunligini uzaytirishga asoslangan [14.33]. Ammo, rezonator uzunligini uzaytirganda, aberasiya ham oshadi, bu esa o'z navbatida, difraksiyon yo'qotishlarni o'sishiga olib keladi va bu o'zgarishlar esa, generatsiya qilinayotgan nurlanishning quvvatini pasayib ketishiga olib keladi. Bu turdag'i seleksiya metodidan foydalanishga xalaqit beruvchi parametr, rezonator uzunligiga bo'lgan talablar bo'lib, u generator nurlanishining diametri o'chamiga bog'liq bo'ladi. Rezonatorning uzunligi, nurlanish dastasining ko'ndalang kesim yuzasi radiusi kvadratiga proporsional holda oshib boradi va dastaning radiusi 0.5 sm bo'lganda uni amalga oshirib bo'lmaydi. Yorug'lik nurlanishshi diametrining o'chashda, bu usuldan foydalanilganda, ishlatalgan diafragma diametri, yorug'lik nurlanishi diametri o'chamidan, sal kattaroq bo'ladi.

Burchaklı seleksiya usulini, rozonator ichiga, kichik qiyalikda o'matilgan Fabri-Pero interferometri yordamida ham amalga oshirish mumkin. Bunday sellektorning ishlashi Fabri-Pero interferometrinining lazer nurlanishining o'tkazish koefitsientini nasaqat to'lqin uzunligiga, balki lazer nurlanishining tarqalish yo'nalishiga ham bog'liq bo'ladi. Agar, burchaklı seleksiya usulidan, nurlanishning ikki yuza tekisligi bo'yicha seleksiyalash kerak bo'lsa, u holda ikkita interferometri foydalanishga to'g'ri keladi.

Yana bir burchakli selleksiyalash usuli- bu ikki muhit chegarasida nurlanishning qaytish koeffitsientini, tushish burchagining chegarviy burchak - to'la ichki qaytish burchagiga yaqinligiga asoslangan. Buning uchun, bir yoki ko'p marta to'la ichki qaytarish burchagiga, yaqin burchak ostida qaytaruvchi prizmadan foydalaniladi, bu holda nurlanishning qaytarish koeffitsientining, tushish burchagiga bog'liqligi sezilarli darajada kuchli bo'ladi.


Har hil tipdag'i tebranishlarning difraksion yo'qotishlarining orasidagi farqini oshirishning effektiv yo'llaridan biri, lazer rezonatorlarining barqaror ishlashi darajasini boshqarishdir – bu lazer rezonatorining ko'zgulari orasidagi masofani o'zgartirish orqali malga oshiriladi. Bunda rezonatorda sharsimon, yarim sharsimon ko'zgulardan foydalaniladi. Rezonatori ishlashini barqaror holatdan (turg'un to'lqin) barqaror bo'Imagan (turg'un bo'Imagan to'lqin) holatga o'tkaziladi. Turg'un bo'Imagan holatga o'tganda burchakli selektorlardan foydalanishning effektivligini oshiradi. Masalan, agar burchakli seleksiya kichik diametrlı diafragmma yordamida amalga oshirilayotgan bo'lsa rezonatorning turg'un bo'Imagan holatida diafragma diametrini kattalashtirish imkonini beradi [32,47].

### 2.13. Optik – mexanik yorug'lik to'sqichlari (zatvorlari)


Qattiq jismli lazerlarda, qisqa va katta quvvatlari impulslarni olish uchun maxsus qurilmalardan foydalaniladi, bu qurilmalar yordamida rezonatorning yo'qotishlarini boshqariladi. Bunday qurilmalar yorug'lik to'sqichlari (o'tkazgichlari) deb yuritilib, ularni boshqarish usullariga qarab, bir necha turlarga bo'linadi.

Optik-mexanik yorug'lik to'sqichlari, optik elementlarning joyini o'zgartirish orqali, nurlanishning o'tishi va qaytishini yoki nurlanish tarqalayotgan sirtning mexanik deformatsiyasi yo'li bilan boshqaradilar. Yorug'lik oqimini to'sib qo'yuvchi to'sqichlari yupqa metall disk shaklida bo'lib, tez harakatlanuvchi elektr dvigatelining o'qiga o'rnatilgan bo'ladi. Yassi parallel yuzali rezonatorda aylanuvchi disk, Bitta o'kda joylashgan ikkita linzauning fokal masofadagi yuzasiga o'rnatiladi. Sferasimon ko'zguli rezonatorda, nurlanishning millimetrdan kichik yuzagacha toraygan joyiga, disk o'rnatiladi. Yorug'lik to'sqichlarini yoqib, o'chirish vaqt, bir necha mikrosekundga teng bo'ladi va diskning o'qi atrofida aylanish tezligi va yorug'lik nurlanishining diametri (diskdagi tirkishdan to aylanish o'qigacha) yordamida aniqlanadi.

Katta quvvatlari yorug'lilik impulslari ta'sirida bunday to'sqichning diafragmasi chetlari emirlishi va havoda uchqun paydo bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham bu turdagini to'sqichlari arnaliyotda keng qo'llanilmaydi. 2.16-rasmida yupqa havo qatlamining, ikki muhit chegarasidagi qaytarish imkoniyati keltirilgan bo'lib, nurlanishni qaytarish imkon 0 dan 1 gacha. Bunday qaytargichning ishlash prinsipi 2.17- rasmida ravshan ko'rsatib berilgan. P'ezoelektrik plastinkaga berilgan boshqaruvchi kuchlanishning ta'siri natijasida, uning qalinligi va oraliq masosa  $\Delta$  o'zgaradi. Havoning qalinligi va boshqaruvchi kuchlanishning qiymati shunday tanlab olinadiki, kuchlanish berilgan vaqtida, plastina va prizma orasidagi havoning qalinligi (zazor) 0 ga teng bo'ladi [37,38].



2.16 - rasm. Qaytiwochi  
nurlanishning intensivligini havo  
qatlamini qalinligiga bog'ligligi  
(to'qin uzumligi birligida  $\lambda$ )




2.17 - rasm. Optik-mexanik  
kontaktni yorug'lilik nur to'sqich  
sxemasi

Prizma-tomning (1) holatiga qarab, kuchlanish berilganda, nur to'sqich ochiladi yoki yopilladi.

Bunday konstruksiyaning o'ziga xos tononi, to'sqichning sekin-asta ochilishi  $[(5-10) \cdot 10^{-6}]$  s<sup>-1</sup> hamda optik kontaktidagi molekulalarning katta kuchidadir. Ikkita shisha plastinkalarning bir-biridan ajratib olish uchun,  $(20-50)$  kg/sm<sup>2</sup> kuch talab qilinadi. Bu tipdagisi nur to'sqichlari ham amaliyotda keng qo'llanilmaydi. Ba'zi bir hollarda, to'sqich o'rniiga o'zining o'rtacha o'matilgan holati atrofida tebranib turuvechi (o'zgaruvchan magnit maydoni ta'sirida) ko'zgulardan ham foydalanilsa bo'ladi.

Nur to'sqichlar ichida, amaliyotda keng o'rni olgan nur to'sqich bu aylanuvchi prizmali yoki ko'zguli nur to'sqichdir. Bunday optik-mexanik

to'sqichlarda asosan prizma-tomdan foydalaniлади, chunki prizmali to'sqich yuqori darajada, katta quvvathli lazer nurlanishining ta'siriga chidamli bo'ladi. Optik-mexanik to'sqichning aylanuvchi prizma-tom bilan tuzilishi 2.18-rasmida ko'rsatilgan. Yuqori tezlikda aylanadigan elektr dvigateli o'qiga, 1 prizmani ushlab turuvchi oprava, 2 to'liq ichki qaytarish imkoniyatiga ega bo'lgan prizma 3 o'rnatiladi. Prizmani ushlab turuvchi oprava, maxsus moslama 4 bilan dvigatel o'qiga mahkamlanadi.




2.18-rasm. Aylanuvchi prizmali, optik-mexanik, mur to'sqich.

To'sqich elementlari, prizma 3 va opravaning tomi 5, maxsus kley ED6-8 bilan o'rnatiladi.

To'sqichda asosiy e'tibor shunga qaratiladiki, prizmaning o'rnatib, mahkamlanish holati shunday tamlab olinadiki, prizmaning og'irlik markasi, aylanish o'qiga to'g'ri kelsin. Bunday holda, prizmaga ta'sir etuvchi markazdan qochuvchi kuchlar, katta qiyomatga ega bo'lmaydi. Prizmaning qirrasi, tom 5 ning aylanishi bilan dvigatel o'qiga, perpendikulyar qilib mahkamlanadi. Bunday zatvor uchun prizma, K-8 markali shishadan yes eritilgan kvarsdan, maxsus ishllov berilib tayyorlanib, yana va qurilish chiqqolmosli silliqlash usuli bilan, qayta ishllov berilas. Tayyorlash jarayonida, shunga alohida e'tibor qaratish kerak, burchakli prizmaning charxlangan qirrasining (faskasi) qalin bo'lishi kerak. Prizmani ushlab turuvchi moslama, yana va qurilish to'g'ri burchakli qirra o'rnatiladipni joyiga, va xushlas.

silliqlangan bo'lishi kerak, chunki prizma qirrasidan o'tgan yorug'lilik, moslama yuzasidan qaytishi zarur, aks holda moslama zararlanadi.

Bunday nur to'sqichlarning tuzilishi, maxsus talablarga javob beradigan darajada ishlaniши kerak. Agar, og'irlik markazini aylanuvchi o'qqa nisbatan, perpendikulyarlik holati (sentirovkasi) to'g'ri bo'lmasa, bu hol dvigatel podshivningini va konstruksiya elementlarining, vibrasiya va shovqin natijasida muvozanatsizlikka olib keladi. Muvozanatsizlik ayniqsa katta tezlikda prizma aylanayotganda, kichkina xato ham ortiqcha keraksiz bo'ylama va ko'ndalang to'lqlarlarni yuzaga keltiradi, bunday holat maqsadga muvofiq emas. Ikki hil muvozanatsizlik mavjud: dinamik va statik.



2.19-rasm. Dinamik moslashuv

Statik muvozanatsizlik aylanuvchi qism og'irlik markazining, aylanuvchi o'qqa nisbatan surilganligidan kelib chiqadi. Bu xolda aylanish o'qi, inersiya o'qiga parallel bo'ladi (Rasm 2.19). Dinamik muvozanatsizlik, inersiya o'qini aylanish o'qiga nisbatan aylanib ketganligidan kelib chiqadi, bu holda og'irlik markazi, aylanish o'qida yotadi 2.19-rasm. Dinamik muvozanatsizlik, faqat aylanish vaqtida paydo bo'ladi.

Aylanish tezligining oshib borishi bilan, tayanch nuqtalariga nisbatan dinamik yuklamaning muvozanatlashtirilgan massanening kuchi, aylanish soni kvadratiga proporsional ravishda oshib boradi, shuning uchun optik-mekanik to'sqich ning har bir qismlari va bo'laklari dinamik balansirovka qilinib moslashtiriladi.

Muvozanatsizlikning miqdoriyi qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$F_s = m_g R_g \omega_g^2. \quad (2.42)$$

Bu yerda  $F_s$  - markazdan qochma kuch;  $m_g$  - muvozanatlashtirilgan yukning massasi;  $R_g$  - muvozanatlashtirilgan yuk o'rnatilgan nuqtaning radiusi;

$$m_g = G_g/g ; F_s = (G_g/g) \cdot R_g \omega_g^2 = (\omega_g^2/g) \cdot (G_g R_g) \quad (2.43)$$

Bu yerda,  $G_g$  - muvozanatlashtirilgan yukning og'irligi; g - og'irlilik kuchining tezlanishi;  $\omega_g = \pi \cdot n_g / 30$  aylanish chastotasi, n - 1 sekunddag'i aylanishlar soni. Dvigatel o'qiga prizma yoki ko'zguni konsol o'rnatishni (Rasm 2.18.da keltirilgan) aylanish tezligi 30.000 aylan/min bo'lгanda, to'sqichdan foydalanishni amalga oshirish, maqsadga muvoziq bo'ladi. Bunda, yorug'lik nuri yuzasining o'chami diametri 10 mm gacha bo'ladi. Bundan yuqori tezliklarda konstruksiyaning ishonchli ishlashi uchun maxsus podshivniklarning turlari ishlataladi.

Konstruksiya qism va bloklarining temperaturaning katta diapazonida normal ishlashi uchun va podshivniklarning tez aylanganidagi tebranishlarini (bienie) minimal holatga keltirish uchun valga podshivniklar kichkina kenglikda (0.001-0.004) mm o'rnatiladi. Shunday nozik talablarni bajarish uchun, har bir qurilmada, alohida moslashtirish ishlari olib boriladi. Prizmaning bunday katta tezlikda aylantirish uchun, maxsus elektrodvigatellardan foydalaniladi.

Optik-mexanik nur to'sqichgichli rezonatorni (ishlash sifatini oshirish uchun) modulyasiya qilishda, prizmaning optimal o'ringa joylashtirishidan foydalanishda, yana nur to'sqich uchun qo'yilgan talablar – tez ishga tushishi va yo'qotishlar kichik bo'lishi talab qilinadi.

Nur to'sqichgichli ishini sinxronizatsiyalash uchun lazerni impulsli lampalarni yonishidan boshlab, aylanuvchi prizmaning holatini aniqlash maqsadida, fotoelektrikli, elektromagnitli va elektroiskralli metodlari uchun foydalaniladi.

Fotoelektrik metodni qo'llanganida, prizmali rotorga, ko'zga o'matiladi va prizmaning ma'lum holatida fotopriyomnik ko'zguteg yorug'lik nuri bilan yoritiladi. Ko'zgu maxsus kichik quvvatlari yorug'lik mando bilan yoritiladi. Fotopriyomnikning o'mini (holatinii) o'zgartirish usulli, aylanuvchi prizma holatiga nisbatan elektr signalini o'ldirish ketishini boshqarish mumkin.

Elektromagnit usulidan foydalilanilda, dvigatel rotorga devon magnit o'rnatiladi va oraliq yonidan o'tayotgan vechda solenoidning zanjirini yoqadi va uning o'ramlarida impulsli tok vujudga keladi.

Elektruchqunli metoddan foydalanilganda, yuqori kuchlanishli zanjirda elektr impulsi vujudga keladi. Bu impulsli tok metalldan ishlangan do'nglikning uchqun chiquvchi oraliqdan o'tayotgan vaqtida paydo bo'ladi. Metall do'nglikli xalqa, aylanib turuvchi prizmaning ushlab turuvchi moslamasiga o'rnatilgan bo'ladi.

Optik-mekanik nur to'sqichgichlar bir necha kamchiliklari qaramasidan (shovqin, vibrasiya, kichik F.I.K.) generatsiyasi boshqariladigan lazer qurilmalarida keng qo'llanila boshladи. Ularning tuzilish, konstruksiyasining nisbatan soddaligi va sozdashning osonligi, ishonchliligi hamda keng spektral va temperatura diapazonida ishlash imkoniyatlari ularni keng qo'llanilishiga imkon beradi.

Optik-akustik to'sqichning ishlash prinsipi ultratovushli to'lqinlarni muhitdan o'tganida uning sindirish koefitsientining o'zgarishiga asoslangan. Opto-akustik to'sqich kremliy yoki kvars yordamida tayyorlanadi. Opto-akustik to'sqich IAG lazeri bilan ishlashda ancha qulay, chunki lazer generatorining to'ljin uzunligi  $\lambda=1,06$  mkm va undan katta qiyimalari uchun shaffof (kremliy yoki kvars) va kichkina yo'qotishga ega bo'ladi. Lazer generatorini modulyasiya rejimidan, uzlusiz rejimda ishlashga o'tkazish uchun, o'zgartgichga (preobrazovatel) ulangan yuqori chastotani uzib qo'yish etarli buladi.

IAG lazerlarining uzlusiz ish rejimida ishlashi ularning aktiv elementlari hususiyatiga bog'liq bo'ladi.

Bu tipdag'i to'sqichgichlar, lazer generatorining modalarni sinxronizatsiyalash rejimda ishlashga mo'ljallangan [40, 43, 47].

## 2.14. Fototrop yorug'lik to'sqichlar

Fototrop svetozatvorlar - (nurlanishni to'suvchi maxsus to'sqichlar), optik materiallar nurlanishni rezonansli-yutilishiga asoslangandirlar. Lazer texnikasida asosan shunday materiallar ishlatiladiki, ularning nurlanishni o'tkazish hususiyatlari yorug'lik nurlanishi intensivligining ortishi bilan oshib boradi. Bunday materallardan lazerdag'i kuchaytirgich kaskadlarini o'zarboq'liqligini kamaytirish maqsadida va lazerlarning rezonatorining aslliliginini modulyasiyalashda qo'llaniladi.

### 2.14.1. Fototrop yorug'lik to'sqichlarning tuzilishi

Amaliyotda, suyuqli va plenkali fototrop yorug'lik to'sqichlaridan foydalananladi. Suyuqli fototrop yorug'lik to'sqichlari, kvarsdan yoki

shishadan ishlangan kyuveta bo'lib, ular rezonansli yutuvchi moddaning eritmalı aralashmasidan iborat bo'ladi. Kyuveta qalin shishadan yoki kvarsdan xalqa shaklidagi, ikkita parallel yuzali plastinkadan iborat bo'lib, xalqa bilan optik kontakt usulida birlashtirilgan. Xalqaning chet tomonida, kichkina tirkishecha bo'lib, shu tirkishecha orqali eritma aralashmasi qo'yildi.

Eritma quyilgandan keyin, tirkishecha maxsus shishadan yoki flotoplastdan yasalgan probka bilan yopiladi. Kyuvetaning detallariga, chuqur optik kontaktga o'tkazilmasdan oldin, maxsus ishlov beriladi, yuzanining toza va aniqligi 1 ta polasagacha ( $N=1.0$ ) bo'lib, xatosining aniqligi 0.2 polasagacha ( $\Delta N=0.2$ ) bo'ladi. Kyuvetaning kiruvchi oynasining parallelligi (5-10) sekund oralig'ida bo'ladi. Kyuveta uchun K-8 markali shisha ishlataladi. Fototrop muhit qo'yiladigan yuzanining oraliq masofasini qalinligi (1-3mm) atrosida bo'ladi. Fototrop muhit quyilgan yuzanining qalinligi oshishi bilan, organik krasitelda -majburiy kombinasiyon sohilish (MKS) va majburiy Mandelshtamp-Bryullen sohilishlar (MMBS) natijasida yo'qotishlar ko'payva boradi. Undan tashqari kyuveta qalinligi yupqa bo'lsa va nurlanish Bryuster burchagi ostida tushsa nurlanishning siljishi juda kam bo'ladi.


Bunday suyuqlikli fototrop yorug'likto'sqichlar, nanosekundli va pikosekundli impulslar olishda ishlataladi. Ular, rezonansli yutuvchi muhitni konsentrasiyasini tanlashda va boshqa maqsadlar uchun qo'llaniladi.

Plyonkali yorug'likto'sqichlarning tuzilishi, uning yuqori quvvatlari lazer nurlanishning ta'siriga nisbatan barqaror emasligi bilan aniqlanadi. Shu sababli xar bir ( yoki bir qancha) ta'sirdan keyin plenkaning ish soxasini o'zgartirilib turiladi. Bunday holda hech qanday qo'shimcha sozlash qilinmaydi. Fototrop plyonkalarni yaratish texnologiyasi murakkabligi tufayli tajribada ularning konsentrasiyasini tanlash imkoniyatini bermaydi va bu faqat ishlab chiqarilayotgan plyonkalardan kerakliliginini tanlash bilan chegaralanadi. Shunga qaramasdan ular optik generatorlarning kuchaytirguvchi kaskadlari orasidagi bog'lanishni yo'qotishda qo'llashga etarli bo'ladi. Fototrop plyonkalarning asosiy yutuqlari shundan iboratki ular yordamida katta ko'ndalang kesim yuziga ega bo'lgan yorug'lik nurlanishini boshqarish mumkin [44, 45].

## 2.15. Elektrooptik nur to'sqichlarlar

Elektrooptik nur to'sqichlar qattiq jism yoki suyuqlik moddalaridagi chiziqli (Pokkels yorug'likto'sqichlari) yoki kvadratli (Kerr yorug'lik

to'sqichlari) elektrooptik effektga asoslangan. Elektrooptik yorug'lik to'sqichlar ikki o'zaro kesishgan polaryzatorlaridan tashkil topgan bo'lib, ular orasida elektrooptik yoki modulyasion element joylashtirilgan bo'lib u elektr maydoni bilan boshqariluvchi fazali plastinkani rolini o'ynaydi.



2.20-rasm. Nur to'sqichning optik sxemasi

*P<sub>1</sub>*—polyarizator; MЭ—modulyasiyalovchi  
(elektrooptik) element; *P<sub>2</sub>*—polyarizator

Yorug'lik to'sqichning asosiy parametrlari polyarizatorning va elektrooptik elementning harakteristikasiga bog'liq. Elektrooptik materiallar va yorug'likto'sqichlarining ko'pgina hususiyatlari [47] da ko'rib chiqilgan. Biz yorug'lik to'sqichning lazer texnikasida ishlataladigan hususiyatlarini quyida muhokama qilamiz [48, 49].

## 2.16. Pokkels effektiga asoslangan elektrooptik elementlar

Elektrooptik elementlarni tayyorlashda, keng miqyosda elektrooptik xususiyati yuqori bo'lgan  $\overline{42}m$  sinfiga qarashli kristallardan foydalaniladi. Ular elektrooptik hususiyatiga ega xozirgi zamonaviy texnologiyalar asosida yaxshi optik-mexanik harakteristikaga ega bo'lgan kristallarni o'stirish imkoniyatini beradi. Bunday kristallar sinfiga shunday kristallar: digidrofosfat kaliy kristallari [ $KN_2 RO_4$  (KDP)]; digidrofosfat ammoniy [ $NH_4H_2PO_4$  (ADP)]; digidrofosfat rubidiy [ $RbH_2PO_4$  (RDP)]; deyterilash-tirilgan digidrofosfat kaliy [ $KD_2PO_4$  (DKDP)]ga shunga o'xshash boshqa kristallar kiradi: $ND_4D_2PO_4$  (DADP);  $NH_4H_2AO_4$  (ADA);  $KH_2ASO_4$  (KDA);  $SSH_2ASO_4$  (SDA);  $RbH_2ASO_4$  (RDA) - bu kristallar, amaliyotda keng qo'llanilmasada ammo, ularning hususiyatlari yorug'likto'sqichlarni tayyorlovchil mutaxassislarda qiziqish uyg'otadi.

Materialarning optik indikatrisalarini tahlil qilishning ko'rsatishicha, agar elektromagnit maydon kristallning optik o'qi OZ bo'ylab yo'nalgan

bo'lsa kristall ikki o'qli hususiyatiga ega bo'ladi va o'qlar OX' va OY' bilan, kristallning kristallografik o'qlari OX va OY orasidagi burchak,  $45^{\circ}$  teng bo'lganida, sindirish ko'rsatgichi yangi o'qlar bo'ylab quyidagi qiyomatga teng bo'ladi:

$$\begin{aligned} n_x &\approx n_0 + 1/2 n_0^3 r_{63} E \\ n_y &\approx n_0 - 1/2 n_0^3 r_{63} E . \end{aligned} \quad (2.44)$$

Bu yerda  $n_0$  - oddiy nurning sindirish ko'rsatkichi,  $r_{63}$  - elektrooptik doimiylik.

Agar, nurlanish optik o'q OZ bo'ylab yo'nalgan va uning polyarizatsiya tekisligi OX yo'nalishi bo'yicha bo'lsa, u holda kristalda ikkita o'zaro perpendikulyar polyarizatsiya komponentlari bir hil amplitudalik va har hil tezlikdagi nurlanish xosil bo'ladi.  $\ell$ - masofani o'tgandan keyin, komponentlar fazasi farqi G ga teng bo'ladi;


$$G = \frac{2\pi l}{\lambda} (n_x - n_y) = \frac{2\pi}{\lambda} n_0^3 \cdot r_{63} l E = \frac{2\pi}{\lambda} n_0^3 \cdot r_{63} U = \pi \frac{U}{U_{\lambda/2}} . \quad (2.45)$$

Kattalik  $U_{\lambda/2} = \lambda / 2n_0^3 r_{63}$  yarim to'lqin kuchlanishi qiyomatiga teng.


Elektr maydonning shunday o'zaro orientasiyasi bilan, nurlanishning yo'nalishi va uning asosiy o'qlarga nisbatan polyarizatsiyasiga bo'ylama chiziqli elektrooptik effekt deyiladi. Bo'ylama elektrooptik effekt o'zining amaliyotdagi o'rnnini KDP kristall asosidagi elektrooptik elementlarda topdi. Nurlanishning asosiy o'qqa nisbatan boshqa yo'nalish orientasiyasi va polyarizatsiyasida yorug'lik to'sqichlarning ishlashiga kristalldagi tabiiy ikkilanib sinish xodisasi muxim ta'sir ko'rsatadi. Bo'ylama elektrooptik effektga asoslangan, modulyasiya qiluvchi elementning tuzilishi to'g'riburchakli yoki dumaloq yuzli sterjen shaklida bo'ladi. Z o'qi bo'yicha uzunligi ko'ndalang kesim yuzasi bo'yicha olingan diametriga nisbatan (2-2.5) marta uzunroq bo'ladi (2.21-rasm).

Ikkita elektrodga, elektr kuchlanishi berish bilan, kristalda elektr maydoni hosil bo'ladi va kristallning tuzilishiga qarab, birinchi kristalda nurlanishni o'tishi uchun yumaloq yuza (2.21.a-rasm), ikkinchi kristalda esa, nurlanishni o'tishi uchun to'g'rito'rtburchakli yuzadan foydalaniлади (2.21.b-rasm). Kristalda elektr maydonining bir jinsli tarqalmagantligi natijasida, kristalda p'ezoelektrik kuchlanish yuzaga keladi va kristalldagi to'lqin kuchlanishining, radial yo'nalish bo'yicha o'zgarish sodir bo'ladi.

Kristallning ikki yon yuzasiga, yuza tekisligi tozaligi 14 klass bo'yicha ishlov beriladi, yon yuzalarining o'zaro paralelligi 5-10" bo'ladi.



a)



b)

2.21 - rasm. To'g'riburchakli elektor impulsi yordamida ochiliychi nur to'sqichning, nur xo'tkazishining vaqtiga bog'liqligi  
a - o'lchamlari  $24 \times 24 \times 50$  mm<sup>3</sup> bo'lgan KDP elementining bo'ylama elektrooptik effektiga asoslangan, modulyasiyalovchi element; b - o'lchamlari  $10 \times 10 \times 36$  mm<sup>3</sup> bo'lgan KDP elementining bo'ylama elektrooptik effekti ga asoslangan, modulyasiyalovchi element; Elektor impulsi amplitudasi qiyomi - 3.5 kV.

Ko'rib o'tilgan, birlamchi yoki "asosiy" elektrooptik effektdan tashqari, modulyasion element hususiyatlariga, ikkilamchi "yolg'on" elektrooptik effekt, katta ta'sir ko'rsatadi. Bu effekt, unga elektr maydoni ta'sirida va teskari p'ezoeffekt natijasida, kristallning deformatsiyasiga sabab bo'ladi. Bu deformatsiya, sindirish ko'rsatkichining optik indikatrisasini, qo'shimcha o'zgarishiga olib keladi. Deformatsiyani, kristallning elektrooptik hususiyatiga ta'siri o'rganilgan, KDP tipidagi kristallar uchun, tashqi elektr maydonining, [001] o'q bo'yicha yo'naliishi va elektrooptik doimiyligining yig'indisi, quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$r_{63} = r'_{63} + d_{63}p_{66} = r'_{63} + d_{63}c_{66}\pi_{66} \quad (2.46)$$

$r_{63}$  - mexanik erkin kristallning elektrooptik koefitsienti,  $r'_{63}$  - mexanik qisilgan kristallning elektrooptik koefitsienti, asosiy elektrooptik effektga teng;  $d_{66}p_{66} = d_{36}c_{66}\pi_{66}$  - elastik optik effektini, harakterlovechi kattalik bo'lib, u o'z navbatida  $d_{66}$  - p'ezoelektrik modul va elastik optik koefitsient  $p_{66}$  va suyuqlikning elastik qattiqlik doimiyligi,  $c_{66}$  hamda p'ezooptik koefitsient  $\pi_{66}$  bilan aniqlanadi. Agar, elektr maydonining o'zgarish vaqtida, kristallning muvozanat holatiga qaytishi vaqtidan kam bo'lsa, kristalda

elastik to'lqinlar paydo bo'ladi. Maydonning tez o'zgarishining, kristallga ta'siri, KDP kristallari uchun keng o'rganilgan.

P'ezoelektrik tebranishlarning, elektrooptik doimiylikning yig'indisiga ta'siri, garmonik elektr kuchlanishi natijasida bo'lib, har tomonlama o'rganilgan.

Lazer yorug'lik to'sqichlarining modulyasion elementlari, to'g'ri burchakli elektr impulslari fronti qiyaligi  $10^{-2} - 10^{-8}$  bo'lib, impulsning doimiyligi 0,1mks dan bir necha millisekundgacha bo'ladi. Shu munosabat bilan, birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan tebranishlar emas, balki bu tebranishlarni so'ndiruvchi kristalldagi o'tuvchi jarayonlar, ahamiyatga egadir. Eksperimentlar natijalarining ko'rsatishicha, yorug'lik to'sqichidan o'tgan impulsning boshlang'ich qismida, gorizontal maydon bo'lib, so'ngra katta amplitudali murakkab tebranishlar – (bir necha murakkab garmonik tebranishlarning qo'shilishi natijasida) sodir bo'ladi.

KDR kristallidagi to'lqin siljishi tezligi  $1.8 \cdot 10^5$  sm/s ga teng bo'lib, vaqt bo'yicha olingen harakteristika yordamida hisoblangan. Z-o'qiga perpendikulyar bo'lgan, yuzadagi kristallning o'lchamlarini bilib, tushayotgan nurlanishning ko'ndalang kesimi yuzasini o'lchamlarini aniqlab va uning kristallning geometrik o'qiga nisbatan holatini bilgan holda, yorug'lik nurlanishi impulsining, maksimal davomiyligini aniqlash mumkin.

Kristalda, yorug'lik nurlanishi impulsining buzilmagan uchastkasi uzunligining davomiyligi, bir necha mikrosekund bo'ladi, undan so'ng yorug'lik nurlanishi impulsi, kristalldagi tebranayotgan to'lqin natijasida buziladi. Tebranishlar amplitudasi va uning spektri, kristallning turiga, modulyasiya qiluvchi elementning geometrik tuzilishi va o'matilishi usuliga bog'liq bo'ladi.

Modulyasiyalovchi element KDRda, lazer nurlanishining o'tishi natijasida sodir bo'lgan, bo'ylama elektrooptik effekt ta'sirida, temperaturaning radial gradienti paydo bo'ladi.

Bunday temperatura gradientining paydo bo'lishi, qo'shimcha farzalar farqining hosil bo'lishiga olib keladi, bu farq quyidagicha aniqlanadi.

$$G_T = \frac{2\pi n_0^2}{\lambda} \int_0^L a_{66}(x, y, z) \cdot dz. \quad (24)$$

Bu yerda,  $a_{66} = P_{66} \cdot \varepsilon_6$ ;  $\varepsilon_6$  - deformatsiya.

Amaliyotning ko'rsatishicha, bu qo'shimcha fazaning farqi, ayniqsa bir impulsli generatorda kichkina bo'lib, lazerning ish rejimiga ta'sir o'tkazmaydi.

Hozirgi kunda, kristallar KDDR; RDR; ADR; DKDR, nur qaytargich materiallari uchun bo'lgan talablarni qoniqtiradi.

Bulardan KDR va DKDR kristallari, lazer yorug'lik to'sqichlarini tayyorlovchi asosiy materiallar bo'lib hisoblanadi.

SHu kristallar yordamida, lazer nurlanishini boshqarish masalalari, spektrning 0,4 dan 1,2 mkm oraliq intervalida, o'z echimini topadi. Bu kristallarning asosiy kamchiligi, lazer nurlanishini kam yutib, uni kam o'tkazishidadir.

Bizda, yuqori elektrooptik koefitsientiga ega bo'lgan kristallar qiziqish uyg'otadi. Bularga masalan:

$B_a T_1 O_3; S_{2x} B_{a(1-x)} N_{6_2} O_3; K_{0.6} Z_{0.4} N_{66_3}; K_a T_{ax} N_{8_{1-x}} O_3; K S_{r2} N_{6_5} O_{15}$  kiradi.

Bu kristallar, uy temperaturasida ham elektrooptik effekt hususiyatiga ega bo'lib, ularning elektrooptik effekti, KDR kristallinikidan yuqori qiymatga ega. Ammo, ularni lazer generatsiya nurlanishini boshqarish uchun qo'llash masalasi, oxirigacha echilmagan. Kristallardan,  $\exists_m [LiNbO_3, LiTaO_3]$  klassidagi elementlarni, lazer qurilmalarida qo'llanilishi to'g'risida [38,51] ishlarda ma'lumot berilgan.

Lazer nurlanishi yo'nalishi bilan, kristallografik o'qning, o'zaro qo'l keladigan varianti, bu elektr maydonning, OZ o'qiga perpendikulyar bo'lib, nurlanishning optik o'q bo'ylab tarqalishidir.

Optik indikatorsa yuzasi tekisligining, OZ o'qiga perpendikulyarligi ellips bo'lib, uning asosiy o'qlari, kristallografik o'qlar OX va OY ga nisbatan burilib,  $\gamma$  burchak hosil qiladi  $tg 2\gamma = E_x/E_y$ . Agar  $E_x/E_y$  nisbiyligi o'zgarsa, ellipsga aylanadi.

Elektrooptik effektining qiymati, fazalar farqi  $G$  bilan harakterlanadi va faqat  $|E|$  ga bog'liq bo'ladi:

$$G = (2\pi/\lambda) \cdot n_0^3 \cdot r_{22} \cdot E \cdot \ell , \quad (2.48)$$

Bu yerda,  $E = \sqrt{E_x^2 + E_y^2}$

Elektr maydonining har bir yo'nalishi uchun, yorug'lik nurlanishi polyarizatsiyasiga to'g'ri keladigan, yo'nalishni bilish kerak.

Masalan  $E_y=0$  bo'lsa, nurlanish OX yoki OY o'qlari yo'nalishi bo'yicha, agar  $E_x=0$  bo'lsa, nurlanishning polyarizatsiya tekisligi, o'qlar OX va OY bilan  $45^\circ$  burchakni tashkil qilish kerak. Kristallar  $LiNbO_3$ (LN) va  $LiTaO_3$ (LTO) asosiy kamchiliklari ularning yorug'lik nurlanishining katta zinchiliklarida, sinish ko'rsatgichini o'zgarishidir.  $LiNbO_3$  kristalli yorug'lik diapazonining 0,35 dan 6 mkm oralig'iда timiq bo'lib, yorug'likni o'tkazadi. Bu kristallar asosan IK-diapazonida (infra qizil) ishlashtga mo'ljalangan (boshqa lazer kristallari masalan rubin kristalli uchun ishlatib bo'lmaydi). Ma'lumotlarga ko'ra,  $LiNbO_3$  kristallarini, lazer generatorining chastotali rejimida ishlatish mumkin. Boshqa kristallardan,  $\alpha$ -kvars kristallini eslatib o'tish, maqsadga muvofiqdir. Bu kristall, o'zining kichik elektrooptik effektivliyigiga qaramasdan, o'zining optik sifatini yuqoriligi bilan ajralib turadi. Kvars kristallida, ko'ndalang elektrooptik effektdan foydalanish mumkin. Amino, uning kuchli optik aktivligi ta'siri, elektrooptik effekt natijasida, katta kuchlanishlarda, kvars kristalli yordamida, modulyasiya qilish imkonii beradi. Kvarsning optik aktivliyigini yo'qotish uchun, lazer nurlanishi yo'nalishini, optik o'qqa nisbatan kichik burchak ostida  $5\text{--}7^\circ$  yo'naltirish kerak bo'ladi. Bunday yustirovkani buzish, natijada doimiy fazalar farqini yuzaga kelishiga olib keladi [29, 33, ].

## 2.17. Kerr effektiga asoslangan elektrooptik elementlar

Modulyasion elementlarga, simmetriya markazi yo'q, chiziqli elektrooptik effektiga ega bo'lgan kristallardan tashqari, kvadratli elektrooptik effektiga ega bo'lgan, kristallardan tayyorlangan modulyasion elementlar ham kiradi. Bunday kvadratik effektiga ega bo'lgan kristallar gruppasiiga: perovekitlar  $AVO_3$  va suyuqliklar-nitrobenzol  $C_6H_5NO_2$  va serauglerod  $cs$ , kiradi.

Nur qaytargichlarda, modulyasion element sifatida, kvadratik effektiga ega bo'lgan elementlarni ishlatishning qiziq tomoni shundaki, bunday elementlarda tabiatan, ikkilamehi nurning sinish hususiyati yo'qligidir. Nur qaytargichlarni, lazerlar rezonatorida, qayta optik bog'lanishni hosil qilish uchun, kvadratik effektli elementlarni ishlatish o'rini bo'ladi, chunki berilgan maydon kuchlanishiga, fazalar farqining bog'liqligi mavjud. Bunday gruppera kristallaridan (KTN)-tantalat-niobad va titanat bariy ( $B_2TiO_5$ ) lar, yuqori kvadratik effektiga ega. Fazalar farqini, har hil variantdagi maydon yo'nalishi va kristallografik o'qlar uchun, optik indikatrisani analiz qilib, onsongina aniqlash mumkin.

$$\sum_{ijk} \left( \frac{1}{n_0^2} \delta_{ij} + r_{ijk} E_k + Q_{ijk} P_k \cdot P_i \right) x_i \cdot x_j = 1 \quad (2.49)$$

Bu yerda  $P_k$ -polyarizatsiya vektori komponenti,  $\sigma_{ij} = 0$  agar  $i \neq j$ ;  $\sigma_{ii} = 1$  agar  $i = j$  bo'lsa. Bunday kristallar uchun, tenzor koefitsienti  $Q_{nm}$  ning noldan farqli koefisientlari quyidagilar:

$$Q_{1111} = Q_{2222} = Q_{3333} = Q_{11}; Q_{1122} = Q_{2211} = Q_{1133} = Q_{3311} = Q_{12} \\ Q_{1212} = Q_{2323} = Q_{3131} = 1/2 Q_{44} \quad (2.50)$$

SHuning uchun,  $XY$  tekisligida tarqalayotgan va  $OZ$  o'qiga  $45^\circ$  burchak ostidagi tekislikda polyarizatsiyalangan hamda yo'nalishi, elektr maydoni yo'nalishiga mos bo'lgan yorug'lik nurining, kristall uzunligi bo'yicha fazalar farqi  $G$ , quyidagiga teng bo'ladi:

$$G = \left(\frac{\pi}{\lambda}\right) \cdot (Q_{11} - Q_{12}) \cdot n_0^3 P^2 \ell \quad (2.51)$$

Agar, kristallga qo'shimcha o'zgarmas maydon bilan ta'sir ko'rsatilsa,  $E_{sm}$  uning ta'sirida, muhitda  $Z$  o'qi yo'nalishi bo'yicha,  $R_{sm}$  ga teng, doimiy polyarizatsiya ro'y beradi. Agarda, modulyasiya qiladigan maydon qiymati, muhit maydoni qiymatidan kichik bo'lsa, ya'ni  $\varepsilon \cdot E < P_{sm}$  bo'lsa, shunday yozish mumkin bo'ladi:

$$G = G_{sm} + G_m \\ = \frac{\pi \cdot n_0^3}{\lambda} (Q_{11} - Q_{12}) P_{sm}^2 + \frac{2\pi \cdot n_0^3}{\lambda} (Q_{11} - Q_{12}) \varepsilon \cdot P_{sm} E \cdot l \quad (2.52)$$

$(Q_{11} - Q_{12}) P_{sm}$  - qiymatiga chiziqli, effektiv elektrooptik koefitsient deyiladi. Qo'shimcha maydon ta'sirida paydo bo'lgan fazalar farqi doimiyligi shunday tanlab olinadiki, bunda modulyasion harakteristika, katta nishablikka ega bo'ladi:

$$G_{sm} = (2m + 1) \pi / 2 \quad (2.53)$$

bu yerda,  $m$  - butun son. Doimiy polrizasiyaga  $R_{sm}$  ga ega bo'lgan kristall uchun, yarim to'ljin balandligidagi kuchlanish, quyidagiga teng:

$$U_{\lambda/2} = \frac{\lambda}{2 n_0^3 (Q_{11} - Q_{12}) \cdot P_{sm} \cdot \varepsilon_0 l_k} \quad (2.54)$$

Bu yerda,  $\varepsilon_0 = (dp/dE)_0$  - ish nuqtasidagi dielektrik doimiylik.  $\ell_k$  - maydon yo'nalishi bo'yicha kristallning o'lchami. (2.54) dan ko'rinishicha  $U_{\lambda/2}$  qiymati  $R_{sm}$  ning qiymatiga, teskari proporsional, bu yerda, berilgan o'zgarmas maydon qiymati  $E_{sung}$ ga teng. Kristallardagi kvadratik effekt, perovekitlar gruppasining kelajagini ko'rsatib, nafaqat rezonatorni unumli ishlashini boshqarishi, balki musbat yoki manfiy qayta bog'lanishni tashkil etishi mumkin. Bu turdag'i kristallarda modulyasiya parametri, modulisiya qiluvchi elementlarning temperaturasiga bog'liq bo'lib, kristallning Kyuri nuqtasi, bu kristallar ishslash temperaturasi xududiga yaqin yoki shu xudud ichida bo'ladi. Modulyasion element sifatida ishlatalayotgan suyuqliklar, kvadratli elektrooptik effektiga ega bo'lib, elektr maydon kuchlanishi berilgunga qadar, izotrop muhit hususiyatiga ega bo'ladi. elektr maydoni ta'sirida esa, ular optik o'qli kristall hususiyatiga ega bo'ladi. Bu optik o'q, maydon yo'nalishi bo'ylab yo'nalgan bo'ladi. Bunday holatda, suyuq muhitda, nurlanishning tarqalishi tezligi, uning poliarizatsiyasiga bog'liq bo'ladi. Nurlanishning, optik o'q bo'ylab yo'nalgan poliarizatsiyasi va optik o'qqa perpendikulyar tekislikdagi, poliarizatsiyasi komponentlari orasidagi fazoning farqi,  $\ell$  masofa o'tgandan keyin, quydagiga teng bo'ladi:

$$G = (2\pi \ell / \lambda) \cdot (n_e - n_0) = 2\pi B_k \ell E^2 \quad (2.55)$$

Bu yerda,  $B_k$  - Kerr doimiyligi.

Polyarizatsiyalangan nur komponentlari va ularning sinish koefitsientining farqini. Xavelok nisbati yordamida, oddiy ( $n_0$ ) va oddiy bo'lmagan ( $n_e$ ) nurlarning sinish ko'rsatkichi farqi va suyuqlikning elektron maydoni ta'sir etmagan holdagi sinish ko'rsatkichidan, foydalaniib aniqlanadi  $n_i$ :

$$-(n_e - n_0) = 2(n_0 - n_i) \quad (2.56)$$

Ko'rib chiqilgan suyuqliklar orasida, yuqori kvadratli effekt hususiyatiga ega bo'lgan suyuqlik, nitrobenzol  $C_6H_5NO_2$  bo'lib, bu suyuqlik uchun Kerr doimiyligining qiymati, boshqa suyuqliklarga qaranganda 100 marta katta qiymatga ega bo'ladi. Lazer nurlanishi to'lqin uzunligi  $\lambda=7000$  Å bo'lsa, Kerr doimiyligi  $3.6 \cdot 10^{-10}$  sm/V. Kerr doimiyligi, nitrobenzolning

tozaligiga bog'liq bo'ladi. Nitrobenzol suyuqligi uchun, undan elektr tokining o'tishi uchun, kerak bo'lgan kuchlanish kattaligi  $(5 \div 10) \cdot 10^4$  V/sm (probboy kuchlanishi). Nitrobenzol, tiniq suyuqlik bo'lib, uning yorug'lik nurlanishi uchun, tiniqlik diapazoni 0,45 dan 1,1 mkm gacha bo'ladi. Kerr doimiyligi, nitrobenzol suyuqligining temperaturasiga ham bog'liq bo'ladi:

$$B_k = \frac{n_j - 1}{n_j} \cdot \left( \frac{\mu}{kT} \right)^2 \cdot \frac{1}{5\lambda} \quad (2.57)$$

Bu yerda  $\mu$  - dipol momentining doimiyligi;  $h$  - Bolsman doimiyligi. Temperaturaning oshishi bilan  $20 \div 40^\circ S$ ,  $V_k$  ning qiymati ham, har bir gradus ( $1^\circ S$ ) uchun, 1,2% oshib boradi.

Kuchlanishning, yarim to'lqin kattaligidagi, Kerr yachevkasidagi qiymati, quyidagicha aniqlanadi:

$$U_{1/2} = \sqrt{\frac{d_k^2}{2B_k \cdot l}} \quad (2.58)$$

Bu yerda,  $d_k$  - Kerr yachevkasi elektrodlari orasidagi masofa.


Kerr yachevkasi, germetik usulda ishlangan kyuveta bo'lib, u metalldan, shisha yoki kvarsdan ishlangan bo'ladi. Elektrodlari maxsus metall yoki nikeldan tayyorlanadi. Kyuvetaning ichidagi bo'shliq, nitrobenzol bilan to'ldiriladi, kyuvetani mahkamlovchi materiallar, kimyoviy ta'sirga chidamli materiallardan tanlab olinadi.

Kerr yachevkasining elektrodlari orasidagi masofa 8mm, elektrodlarning nurlanish bo'ylab o'lchamlari 6 sm, yachevka tashqarisidan berilgan kuchlanishning yarim to'lqin qiymati 25 kv ni tashkil etadi. Kerr yachevkasi tuzilishining murakkabligi va ishlatishga qulay emasligiga qaramasdan, lazerlar rezonatorlarining ishini, samarasini oshirishda va ularda qayta bog'lanishini amalga oshirishda, keng qo'llanilib kelinmoqda. Lazer generatorini boshqaruvcchi intensivlikning qiymatini, yachevkada oshib borishi bilan, Kerr yachevkasida, nurlanishning majburiy kombinatsion sochilishi yuzaga keladi, bu esa nurlanishning spektral tuzilishini o'zgartiradi, bu hol, yachevkani ishlatish imkoniyatini chegaralaydi. Kerr yachevkasining boshqa kristall modulyatorlardan afvzalligi shundaki, unda boshqaruvcchi elektr impulslarining ixtiyoriy qiymatida, p'ezooptik effekt bilan bog'liq o'zgarishlar bo'lmaydi. Kerr yachevkasiga, to'g'ri burchakli elektr impulsi ta'sir etsa, Kerr yachevkasi tomonidan o'tkazib yuborilgan nurlanish, nurlanish impulsini davomiyligi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, to'g'ri burchakli shaklni saqlab qoladi [39, 40, 43].

## 2.18. Polyarizatorlar (Qutblagichlar)

Yuqorida ko'rib o'tilgan modulyasyon elementlar, svetozatvorlar uchun zarur komponentlаридан бири, поларизацыйон курилмалар исобланади. Катта қувватли лазерлар учун, хар қандай поларизатордан фойдаланиб бо'лмайди. Масалан, классик поларизаторлардан Аренс поларизатори, Волластон ва Никол поларизаторлардан, юқори қувватли лазерлар учун фойдаланиб бо'лмайди, чунки улarning kontaktлари, канада балзами билан кleylangan bo'lib, юқори қувватли лазер нурларига бардоз бера олмайди. Агар Глан-Фуко призмасидан фойдалансак, бу призмада кleylangan kontaktlar yo'q. Униг иккита ишлап шпатидан тайyorlangan призмаси, бир-бидан хаво qatlами билан ажратилган. Ишлап шпатидан тайyorlangan Глан-Фуко призмаси, оптик o'q yo'naliishiga bog'liq bo'lib, у бирлашиб нурланиш qiymatini 52% o'tkazishi mumkin (ишлап шпатидаги yutilishni hisobga olinaganda).

Svetozatvorlar uchun eng mos keladigan poliarizator, bu Archard-Taylor poliarizatori bo'lib, у Глан-Фуко poliarizatorining boshqa turi исобланади. Нурланиши юқори o'tkazish qiymatiga ega bo'lishi uchun, Archard va Taylor, Глан-Фуко poliarizatorini o'zgartirib, ya'ni призмаларнинг оптик o'qlarini, kiruvchi qirrasiga parallel joylashtiriladi (2.22- rasm).



2.22-rasm. Archard-Taylor poliarizatori

Nurning хаво bo'shiig'i chegarasi bilan hosil qilgan tushish burchagi poliarizatorda, ichki to'la qaytish burchagidan катта bo'lsa oddiy, agar tushish burchagi, ichki to'la qaytish burchagidan kichik bo'lsa, oddiy bo'lmagan nurlarga ta'lulqi bo'ladi. To'lqin uzunligi diapazoni 0,2-2 mkm bo'lsa, ишлап шпати учун oddiy nuring sinishi ko'rsatgichi, ко'rsatilgan chegarada  $n_0 = 1.903 \div 1.621$  gacha o'zgaradi, oddiy bo'lmagan нур учун esa,  $n_c = 1.576 \div 1.473$ , гача bo'ladi va shuning учун, nuring ichki to'la qaytishi burchagini, oddiy нур учун mos keladigan sindirish ko'rsatgichi

1,903-1,621 intervalida olinadi. Polyarizatsiyalangan nur uchun, kirishdagi, oraliqdagi va chiqishdagi yo'qotishlar qiymati ~ 12% ni tashkil etadi.

2.5-jadvalda, island shpatida, nurlanishning yutilishi qiyatlari keltirilgan. Jadvaldan ko'tinishicha, rubinli va neodimli lazer nurlanishlari uchun, 1-kategoriya island shpatidan tayyorlangan prizmalar mos keladi, ammo 1 kategoriyali island shpati, o'zining katta quvvatlarda ishlashiga, to'la kafolat bermaydi. Island shpati tarkibidagi turli tabiiy aralashimlar, uning chidamliyligiga aks ta'sir ko'rsatadi.


2.5- jadval

Shpatni markasi	Yutishi % sm			To'lqin uzunligi o'lchash birligi mkm
	1-ya kategoriya	2-ya kategoriya	3-ya kategoriya	
Shpatning markasi (turi)				
ISH-U	50	55	60	0,22
ISH-V	10	20	30	0,4
ISH-M	1	3	10	0,7


Kuchli, lazer nurlanishi ta'sirida, yuz beradigan buzilishlar, kichkina yoriqlar va pufakchalar shaklida bo'ladi. Hozirgi kunda ham island shpatini tanlab olishning birdan-bir yo'li, unga katta intensivga ega bo'lgan nurlanish yordamida olib boriladi.

Ba'zi hollarda, polyarizatorlardan foydalanish har tomonlama qulay bo'ladi. 2.23-rasm va 2.24-rasmlarda ko'rsatilgan polyarizatorlarning, Archard-Taylor prizmasidan avzalliklari shundaki, ularda birgina rombsimon prizmadan foydalaniadi. Romb shaklidagi prizma, tuzilish tomonidan sodda va qulay hisoblanadi. Romb shaklidagi prizma-polyarizator ham Archard-Taylor prizmasi kabi bir qiyamatda  $\alpha$  burchakka ega. Rombsimon prizma nurlanishning bir komponentning 88,4%; ikkinchisining 0,05% o'tadi [38, 39, 41].

Rombsimon prizmaning asosiy kamchiligi, uning Archard-Taylor prizmasiga nisbat, kam chidamliyligidir. Bu prizmada, nurlanish prizma qirrasidan qaytib, kesilish zonasini tashkil etadi, bu zonada nurlanishning zichligi, ikki baravar katta qiyamatga ega bo'ladi. 2.24-rasmda ko'rsatilishicha, polyarizatsiyalangan nurlanishning ikkala komponentasi ( $n_0$  va  $n_c$ ) ishlataliladi.



2.23-rasm. Romsimon polyarizator



2.24-rasm. Nurlanishni bo'luvchi polaryazasion prizma

Bu, nurlanishni bo'luvchi polaryazasion prizma bo'lib, u ikki prizma kombinasiyasidan tashkil topgan. Birinchisi, rombsimon polyarizator prizma ikkinchisi, Archard-Teyloring uch qirrali prizmasidan tashkil topgan. Yutilishni hisobga olmiqanda bu prizma, o'zidan bir yo'nalishda 88,2% bir turli nurlanish komponentasini, ikkinchi yo'nalishda 86,4% ikkinchi nurlanish komponentasini o'tkazadi. Ba'zi hollarda, polaryazasion element sifatida, Bryuster burchakli stopa yoki Bryuster burchagi ostidagi prizma ham ishlataladi.

### 2.19. Nur to'sgichlarning asosiy harakteristikaları va elementlarni yustirovkasiga (sozlashga) bo'lgan talablar

Nur to'sgichlarning eng zarur harakteristikasi, modulyasiyalovchi harakteristika hisoblanadi yoki boshqacha qilib aytganda yorug'lik nurini o'tkazishning elektr maydon qiymatiga bog'liqligi deb aytildi.

Nur to'sgichlarning modulyasion harakteristikasi, quyidagi ko'rinishiga ega:

$$\frac{I}{I_0} = \sin^2 \frac{G}{2} \quad (2.59)$$

Modulyasion elementdagi fazalar farqi, bo'ylama chiziqli elektrooptik effekt holatiga asoslangan xolda, quyidagiga teng bo'ladi.


$$G = \pi U / U_{\lambda/2} \quad (2.60)$$

Modulyasion elementdagı fazalar farqi, bo'ylama kvadratik elektrooptik effektga asoslangan holda quyidagiga teng.

$$G = \pi U^2 / U_{\lambda/2}^2 \quad (2.61)$$

Nur to'sgichlarning modulyasion harakteristikalari birinchi bo'lib, elektrooptik element turiga va elektr maydonning, uning ichida taqsimlanishiga bog'liq bo'ladi. Bu faktorlar, yarim to'lqin kuchlanishi qiyimatini va uning temperaturaga, to'lqin uzunligiga, p'ezoeffekt ta'siriga, modulyasion elementdagı yo'qotishga va o'zaro kesishgan polyarizatordagı yo'qotishlarga bog'liqligini ko'rsatadi. Bulardan tashqari modulyasion harakteristikaga, nur to'sgich elementlarining o'zaro yustirovkasi ham etarli ta'sir ko'rsatadi. Yustirovkaning, ikki hil turdagı buzilishi bor: Nur to'sgichning optik o'tqi atrofida, elementlarning aylanishi va svetozavtor elementlarining gorizontal va vertikal tekisliklardagi burilishidan iboratdir [45, 46].

$E_{sv}$  – elektromagnit maydon amplitudasining, polyarizator  $P_1$  dan o'tgandagi qiymati (Rasm 2.20 qarang)  $E_x$  va  $E_u$  kristallda x va u yo'nalishi bo'yicha amplitudaning tarkibiy qismi.  $E_{2x}$ ;  $E_{2u}$  – amplituda  $E_x$  va  $E_u$  ning polyarizator  $P_2$  o'tkazish yo'nalishi.



2.25-rasm. Nurlanish qaytargichidan o'tgan lazer nurlanishi intensivligining, elektro-magnit maydon kuchlanishining tarkibiy qismi.

2.25-rasmida, yorug'lik nurlanishi tebranishlari amplitudasining  $E_{sv}$  kristalloptik o'qlari yo'nalishi va polyarizatorlar o'tkazish yo'nalishiga proeksiyasi ko'rsatilgan. Elektr maydon kuchlanishi vektori, polyarizator  $P_1$  o'tadi va kristallik plastinkasida, asosiy kristallo-grafik o'q yo'nalishi

bo'ylab, ikki tarkibiy qismiga  $E_x$  va  $E_u$  ga bo'linadi. Kristallik plastinkasidan o'tgandan so'ng, tebranishlar  $E_x$  va  $E_u$  da, o'tish yo'lida farq  $G$  yuzaga keladi, va ular,  $P_2$  poliarizatoriga kiradi.

$P_2$  plastinkasidan o'tgandan so'ng, elektr maydonining tarkibiy qismi  $E_x$  va  $E_u$  ning, tebranishlar proeksiyalarini teng bo'lib, ular  $n_1$  plastinka yo'nalishi bo'yicha va  $n_2$  plastinkaning o'tkazish yo'nalishi bo'yicha o'tadi. Bunday sistemarning o'tkazishi quyidagicha bo'ladi.

$$\frac{I}{I_0} = \cos^2(\beta - \alpha) \sin 2\alpha \sin 2\beta \sin^2 \frac{G}{2} \quad (2.62)$$

Tenglikdagagi birinchi qismi, poliarizatorlar orasidagi burchak qiymatiga bog'liq bo'ladi va o'tish yo'li farqi  $G$  ga bog'liq bo'lmasdi. Nurlanish qaytargichlari uchun  $\beta - \alpha = \pi/2 \pm \Delta\varphi$ , bu yerda  $\Delta\varphi$ - optik o'q atrofida svetozatvor poliarizatorlari uchun ruxsat berilgan kattalikdagi yustirovkaning buzilishi qiymati. Poliarizatorning o'tkazishi, agar  $G=0$  teng bo'lsa, u xo'ida,

$$\frac{I}{I_0} = \cos^2(\pi/2 \pm \Delta\varphi) = \sin^2 \Delta\varphi \quad (2.63)$$

bo'ladi. Shunday qilib  $\Delta\varphi$  ning qiymati, yopiq nurlanish qaytargichning e'tkazishi mumkin bo'lgan qiymat bilan belgilanadi. Agar mumkin bo'lgan o'tkazish qiymati 0,5% bo'lsa  $\Delta\varphi = 4^\circ$  bo'ladi.

Agar,  $\beta - \alpha = \pi/2$  bo'lsa, poliarizator yustirovkasining buzilishi natijasida, nur o'tkazish imkonini bo'lmasa, u holda KDP kristallining modulyatsiyalovchi elementida, bo'ylama elektrooptik effektdan foydalilanadi. Burchak  $\alpha$ , poliarizatorning o'tkazish yo'nalishi bilan,  $Z=O$  tekislikdagi, optik indikatorasining asos o'qlaridan biri orasidagi burchakdir. Bu holda  $\alpha = (\pi/4) \pm \Delta\alpha$ .  $\Delta\alpha$  - KDR kristallining kristallografiy o'qlari va poliarizatorning o'tkazish o'qlari orasidagi yustirovkasining buzilishi qiymati uchun, berilgan mumkin bo'lgan qiymat. Bu holda,

$$\frac{I}{I_0} = \cos^2 2\Delta\alpha \sin^2 \frac{G}{2} \quad (2.64)$$

$G=\pi$  bo'lsa, svetozatvor ochiq bo'lib, svetozatvordagi yustirovkaning buzilishi natijasidagi yutilish qiymati, shunday aniqlanadi:

$$T_{yutil} = \sin^2 2\Delta\alpha \quad (2.65)$$

Agar  $\Delta\alpha = 3^\circ$  bo'lsa,  $T_{yutil} = 0.5\%$  bo'ladi. Archard-Taylor polyarizasiyon prizmasining gorizontal va vertikal tekisliklardagi yustirovkasining buzilishi, svetozatvorning o'tkazish va yutish hususiyatlariiga ta'sir o'tkazmaydi. Yorug'lik nurlanishi yo'nalishiga nisbatan, modulyasiyalovchi elementining yustirovkasini buzilishi, katta ahamiyatga ega bo'lib, nurlanish qaytargichning o'tkazish qiymati kattaligi, na faqat nurlanishning yo'nalishi hamda elektrooptik elementning optik o'qi orasidagi burchakka, balki yana yustirovka buzilgan tekislikning, optik o'q joylashgan tekislik va kristallografik o'qlardan biri bilan bo'lgan, burchak kattaligiga bog'liq bo'ladi. Bo'ylama elektrooptik effektiga asoslangan, modulyasiyalash elementi kristalli KDRda, Z o'qi va nurlanishning yo'nalishi orasidagi burchak  $\Theta$  kichkina bo'lsa, tenglamadan nurlanishlar orasidagi o'tish yo'li farqi  $F$ , quyidagicha aniqlanadi:[48, 52].

$$G = \frac{2\pi n_0^2 r_{63} E l}{\lambda} + \frac{\pi l}{\lambda} \frac{n_0^2 - n_e^2}{n_e^2} n_0 \theta^2 = \pi \frac{U}{U_{\lambda/2}} + G_0 \quad (2.66)$$

Agar, nurlanishning yo'nalishi XOZ tekisligida, Z o'qiga nisbatan,  $\theta$  burchakka og'sa va yustirovka XOZ va EZ tekisliklarida buzilsa, o'tish yo'li o'rtaqidagi farq  $G_0$ , nolga teng bo'ladi.

## 2.20. Optik ventillar

Yuuruvcchi to'qinli lazerlarda yoki optik kuchaytirgichlarda, optik ventillar xizmatidan foydalilanadi. Ular, lazer nurlanishini faqat bir tomonga o'tkazib yuboradi. Optik ventillarning ishlashi, Faraday effektidan foydalnishga asoslangan. Faraday effekti, magnit maydonida ba'zi moddalaridan yorug'lik nurlanishining o'tishi natijasida, nurlanishning polyarizatsiya tekisligining burilishi hususiyatiga asoslangan. Optik ventil, ikkita polyarizatordan iborat bo'lib, ular orasiga, maxsus hususiyatga ega bo'lgan element joylashtiriladi. Bu elementning hususiyatiga, Faraday effekti yordamida erishiladi. Faraday effekti asosida, polyarizatsiya tekisligining burilish yo'nalishi, magnit maydon yo'nalishiga bog'liq bo'lib, nurlanishning tarqalish yo'nalishiga bog'liq bo'lmaydi. Polyarizatsiya tekisligining tabiiy burilishidan farqli ravishda, ba'zi moddalarida burilish burchagidan, nuring o'tib, qaytishdagi yo'nalishini o'zgartirishi sabli, yuzaga kelgan burilish burchagi qiymati, kompensasiya qilinmay, balki bir-biriga

qo'shiladi. Polyarizatorlarning asosiy tekisliklari, bir-biri bilan  $45^{\circ}$  burchak ostida bo'ladi, shuning uchun birinchi polyarizatordan o'tgan nur to'lqini, ikkinchi polyarizatordan o'tganda, o'z kuchini yo'qotmaydi qaytib (o'zaro burchak  $45^{\circ}$  ligicha qolsa), o'z yo'nalishini o'zgartirgan nurlanish to'lqini, ikkinchi polyarizatordan o'tadi ammo, birinchi polyarizator uni o'tkazmaydi, bunga sabab Faradey effekti hisoblanadi.

Chiziqli-polyarizatsiyalangan nur uchun, Faradey effekti quyidagi ko'rinishda berilgan:


$$\theta_H = W_B H l, \quad (2.67)$$

Bu yerda  $\theta_H$  - polyarizatsiya tekisligining burilish burchagi gradusda;

$W_B$  - Verde doimiyligi, nur tarqalayotgan modda uchun;

$H$  - nur yo'nalishi bo'yicha magnit maydon kuchlanganligi;

$l$  - nurning, raoddadagi o'tgan yo'l uzunligi.



2.26-rasm. Optik ventillar.

a - bir maritta o'tishli; σ - uch maritta o'tishli; 1 va 5 - polyarizatorlar

(Archard-Taylor prizmasi), 2 - elektromagnit o'rami, 3 - magnitsiz materialdrom ishlengan karkas, 4 - katta Verde doimiyligiga ega bo'lgan shisha sterjen, 6-100% qaytaruvchi ko'zgu.


Ventilning optik sxemasi, 2.27- a,b rasmda ko'rsatilgan. Kichkina diametrlri, nurlanish yuzasi kichkina uzunketta ega bo'lgan, ishlovchi modda va kichik magnit maydonda ishlovchi qurilma uchun, ko'p maritta o'tkazuvchi ventildan foydalanish qulay.

Polyarizatorlar sifatida, optik ventil sifatida Archard-Teylor prizmasidan foydalansila bo'ldi. Ammo, bunday prizmalarni katta aperturali nurlanishlar dastasi uchun ( $\geq 25$  mm) ishlatalish juda qimmat bo'lib, katta prizmalarni ishlash texnologik tomonidan qiyinchilik tug'diradi.

Yuqori darajadagi polyarizatsiyaga ega bo'lgan nurlanishni kam yutishi va katta quvvatli nurlanishlar uchun chidamli element bo'lib, stopa plastinkalari hisoblanadi. Stopaning materiallari va plastinkalar soni quyidagi nisbat asosida tanlab olinadi:

$$P = \frac{1 - (2n/n^2 + 1)^{4m_p}}{1 + (2n/n^2 + 1)^{4m_p}} \quad (2.68)$$

bu yerda  $P$ -stopaning polyarizatsiyalash darajasi;  $m_p$  - plastinalar soni Bryuster burchagi nishabligida;  $n$  - sinish koefitsienti. Rasm 2.27 da, plastinalarning stopada joylashishi ko'rsatilgan. Plastina yuzalari bir-biriga nisbatan (kichik  $1^\circ$  burchakka og'ishtirilgan) burchak ostida bo'lib, to'g'ri yo'nalgan va bir necha bor qaytgan nurlarning tarqalishiga imkon bermaydi.



2.27-rasm. Stopada plastinalarning joylashish sxemasi

Plastinalarning 2.27 -rasmda ko'rsatilgan tartibda joylashuvni, nurning ko'ndalang siljishini oldini oladi. Bunday sistemaning polyarizatsiyalangan nurni o'tkazish qiymati, 0,4 ga teng. Faradey effekti yordamida, mustaqil hususiyatga ega bo'lgan element, tuzilish jihatidan tekis parallel yon yuzaga ega bo'lgan va yon yuzasi  $\lambda/4$  yuza tekisligida silliqlashtirilgan tiniq. shaf'sof sterjenden tashkil topgan. Ventillarni ishlab chiqarishda asosiy qiyinchilik, materiallarni tanlab olish bo'ldi. Chunki Verde doimiyligi, to'lqin uzunligining osbishi bilan kamayadi ( $W_R = A/\lambda^2$ , bu yerda  $A$ -materiallarga bog'liq bo'lgan doimiylik). Ayniqsa, materiallarni nurning infraqizil diapazonidagi xududida ishlaydiganlarini tanlab olish, ancha qiyinchilik tug'diradi. Ventillar uchun ko'proq to'g'ri keladigan materiallardan shisha hisoblanadi. Uning yordamida, ichki yutilish jarayonini kamaytirish mumkin va ichki kuchlanishlar natijasida sodir bo'ladigan nurning ikkilamchi sinish hususiyati effektini kamaytirish va boshqalardir. Faradey effekti tomonidan olib qaraydigan bo'lsak, yaxshi

hususiyatga ega bo'lgan materiall sifatida, qo'rg'oshinli shishani olishimiz mumkin. Faradey magnit maydoniga asosiy yuqori talab, yuqori magnit induksiyasi (2,5-10 kGs), magnit maydonning bir xilligi (nurning yo'nalishi va yuzasi bo'yicha), optimal o'chovlari, og'irligi, maksimal quvvati va sovutishga bo'lgan talablar hisoblanadi. Tajribadan ma'lum bo'lishicha, magnit maydonining bir xilda bo'lish talabi,  $\Delta H/H = \pm 4\%$  ga teng bo'ladi. Har qanday elektromagnitlar, o'zgarmas tok manbayidan foydalanganda, doiniy magnitni, azot temperaturasigacha sovutish talab qilinadi. Bu asosan, magnitdan yuqori darajada issiqlikni chiqishi bilan bog'liq ( $H^2$ -proporsional holda). Ammo, impulsli lazerlarda, doimiy magnit o'miga, impulsli optik ventillardan foydalansa bo'ladi. Bunday ventillar uchun, havoli o'zak va impulsli manbali solinoiddan foydalaniladi. Optik ventilning effektivliyligi, nurni to'g'ri va teskari yo'nalishda o'tkazish koefitsienti hamda yo'qotishlar natijasi va o'zaro bog'liqlikni echish koefitsienti bilan aniqlanadi. Ko'pincha, bog'liqsizlik koefitsientining qiymati (26-30)db va yo'qotishlar qiymati (1,2-1,4)db. Nurlanishning aperturasi qancha katta bo'lsa, bog'liqsizlik koefitsienti shuncha kichik bo'ladi [49, 52, 53].

## **II - Bo'lim bo'yicha o'zlashtirish savollari:**

1. Boshqariladigan elektrooptik zatvorlar, ularning turlari va ishlatalishi?
2. Oddiy va g'ayrioddiy nurlar nima, ularning kelib chiqishi va bir biridan farq qiluvechi hususiyatlari?
3. Optik kvant generatorlarining rezonatori va uning elementlari?
4. Mexanik nur to'sqichning tuzilishi va ishlash prinsipi?
5. Pokkels effektiga asoslangan elektron-optik elementlar?
6. Kerr effektiga asoslangan elektrooptik elementlar
7. Optik ventillar to'g'risida nimalar bilasiz?
8. YOrug'lik nuring qutiblanishi to'g'risida nima bilasiz?
9. Qutiblagichlar nima va ular qanday ishlaydi?
10. Optik rezonatorlarning turlari.
11. Optika mexanik nur to'sqichning qanday turlarini bilasiz?
12. Elektrooptik qaytargichlar va ularning turlari.
13. Optik rezonatorda pikosekundli impulsleri shakillantirish.
14. Optik kvant kuchaytirgichlarning turlari.
15. Optik kvant kuchaytirgichlarning ishlash prinsipi.
16. Regeneratsiya kvant kuchaytirgichlari
17. CHiziqli va nochiziqqli qaytarigichlar

18. Optik ko'zgular va ularning turlari
19. Optik sistemani sozlash (yusterovka) usullari
20. Optik rezonatorni sozlash usullari
21. Optik ko'zgularning og'ish burchagini ,o'zgartiruvchi mexanizmnинг тузилиши.
22. Prizmalar, ularning turlari va vazifalari qanday amalga oshiriladi?
23. Optiko-mexanik nur to'sqichlar qanday bo'ladi va ularning ishlatalishi?
24. Fototrop znur to'sqichlar nima va ularning tuzilishi?
25. Elektrooptik nur to'sqichlar nima, ularning turlari va ishlash prinsiplarini so'zlab bering?
26. Qutiblagichlar nima va ulardan nima maqsadda foydalaniadi, ularning turlari, tuzilishi?
27. Nur to'sqichlarning optik sxemasi va ularning tuzilishi?
28. Optik kvant generatorlarining ishlash rejimlarini tushuntirib bering?
29. Nima sababdan lazer nurlaishini majburiy nurlanish deyiladi?
30. Archard-Taylor prizmasini tuzilishi va ishlatalishi?
31. Kerr yacheysining tuzilishi va ishlash prinsipi ?

### III BO'LIM

## 3. OPTIK REZONATORLARNI BOSHQARUVI

### 3.1.1. Nanosekundli impulslarni olish

Impulslar davriy uzunligi bir necha nanosekunddan, bir necha o'n nanosekundgacha bo'lgan lazer impulslarini, oddiy optik sxema yordamida olish mumkin.

Bunday lazerlarning rezonatori 100% tekis parallel yuzli va yarim o'tkazgichli ko'zgulardan va ular orasida joylashgan fototrop svetozatavor hamda aktiv elementdan iborat.

Bunday ikki komponentli sistemada, generatsiyani rivojlanish kinetikasiga, aktiv elementdagi majburiy energetik sathga o'tishlar va fototrop zatvorda nuring rezonansli yutilishidan tashqari, aktiv muhitdagi inversiya qiymatining kattaligiga, optik damlash va o'z-o'zidan o'tishlar jarayoni ta'sir ko'rsatadi. Generatsiya jarayonining balans tenglamasi, bir modali yaqinlashuvda, tenglamalar sistemasi yordamida fotonlarning zichligi F va aktiv energetik

sathlardagi invers holatining farqi  $N=N_2 - N_1$  hamda rezonansli-yutuvchi muhitdagi holat  $M=M_2-M_1$  ikki qavvatli model sifatida olingan, ikkala muhit uchun  $N_0=N_1+N_2$ ;  $M=M_1+M_2$  bo'ladi. U holda:

$$\frac{d\phi}{dt} = \left( \frac{\sigma_n l_n}{t_1} N - \frac{\sigma_m l_m}{t_1} M - \frac{\gamma}{t_1} \right) \phi + \left( a_n \frac{N_0 + N}{\tau_n} + a_m \frac{M_0 + M}{\tau_m} \right) \quad (3.1)$$

$$a_{n,m} = \frac{8\pi\nu^2}{c^3} \Delta\nu_{n,m} \nu / \eta_{n,m},$$


$$\frac{dN}{dt} = -2 \frac{\sigma_n l_n}{t_1} N \phi - \frac{N_0 + N}{\tau_n} + \omega_p (N_0 - P) \quad (3.2)$$

$$\frac{dM}{dt} = -2 \frac{\sigma_m l_m}{t_1} M \phi - \frac{M_0 + M}{\tau_m} \quad (3.3)$$

Bu yerda,  $\sigma_n$ ,  $\sigma_m$  - aktiv va rezonansli muhitdagi yutish yuzasi,  $\tau_n$ ,  $\tau_m$  ikkala muhitning yuqori energetik qavatidagi o'z-o'zidan (spontan) o'tish vaqt,  $t_1$ - fotonning rezonatordan o'tish vaqt  $a_n$  va  $a_m$  - ikkala sistemadagi o'z-o'zidan nurlanishning qanday qismi rezonatordagi to'lqinlar tebranishida qatnashishi ko'rsatadi.  $a_{n,m}$  - I' hajmdagi tebranishlar soni,  $\Delta\nu_{n,m}$  - nurlanish yo'lagi kengligi,  $\eta_{n,m}$  - lyuminessansiyaning kvant chiqishi,  $\omega_p$  - damlash yordamida, aktiv muhit zarrachalarini

uyg'otish ehtimolligi. Tenglamalar sistemasi (3.1)-(3.3) analitik holda echingga ega emas bo'lib, tenglamalarni sanoqli echimi va bir necha zarur amaliy ma'lumotlar keltirilgan.

3.1-rasmda olingan, fotonlar zichligi qiymatini va invers holatini vaqtga nisbatan bog'liqligini, fotonlarning har xil boshlang'ich zichliklarga bog'liqligi keltirilgan. Tenglamalar (3.1)-(3.3) dan ko'rinish turishicha, o'z-o'zidan uyg'onish uchun bo'lgan shart,  $\sigma_n l_n N - \sigma_m l_m M - \gamma \geq 0$  agar, generatsiyaning boshlanish vaqtidagi yorug'lilik nurlanishining intensivligi, fototrop muhitning energetik qavatidagi invers holatning kamayishi  $M$  ga teng bo'ssa, yoki boshlang'ich invers holatning darajasini ko'tarilishi  $N$ , optik damlash quvvatining oshishiga teng bo'lsagina bajariladi.



3.1-rasm. Fotonlar soni va invers holatning vaqtga nisbatan bog'liqligi

Damlash quvvatini belgilash uchun, o'z-o'zidan uyg'onish sharti bajarilishi (o'z-o'zidan nurlanishiga qarang), fotonlarning boshlang'ich zichligiga bog'liq bo'ladi. Damlash natijasidagi o'z-o'zidan energetik qavatlarga o'tish jarayonini hisobga olmasdan va  $L \approx l_n$  va  $l_n \gg l_m$  deb hisoblab, tenglamalar (3.1)-(3.3) dan, rezonatordagi fotonlar zichligini, ma'lum invers holat uchun bo'lgan nisbiylikni olish mumkin va uning yordamida, ko'rيلотган sistemaning, ба'zi kerakli parametrlarini aniqlash mumkin.

$$\Phi = \Phi_1 + \frac{N_i}{2\beta} \ln \frac{N}{N_i} - \frac{N_i}{2a} \left[ 1 - \left( \frac{N}{N_i} \right)^a \right] + \frac{N_i}{2} \left( 1 - \frac{N}{N_i} \right) \quad (3.4)$$


$$M = \frac{N_i}{2a} \left( \frac{N}{N_i} \right)^a \quad (3.5)$$

$$\text{Bu yerda, } \alpha = \frac{\sigma_m}{\sigma_n}; \beta = \frac{\sigma_n c t_1}{v} N_i;$$

$\phi_i$  va  $N_i$  - boshlang'ich vaqtdagi fotonlar zichligi va invers holat. Agar  $\alpha \gg 1$  bolsa, rezonatordagi fotonlarning maksimal zichligi quydagicha aniqlanadi:

$$\phi_{max} = \phi_i + \frac{1}{2} N_i - \frac{1}{2} \left( \frac{1}{\beta} + \frac{1}{\beta} \ln \beta \right) \quad (3.6)$$

Rezonatordagi fotonlar zichligining, vaqt bo'yicha o'zgarishi va aktiv element va yutuvchi muhitdagagi invers holatning qiymati, 3.2-rasmda ko'rsatilgan [20,21].



3.2-rasm. Rezonatordagi fotonlar zichligining vaqt bo'yicha o'zgarishi va aktiv element va yutuvchi muhitdagagi invers holatning qiymati


Aktiv element va rezonansli yutuvchi muhitning invers holatini hamda rezonatordagi fotonlar zichligini, vaqtga bog'liqligi  $t/\tau$ . Optik damlashning o'zgarish qiymatining chegarasini, bir impulsli generatsiyaga to'g'ri kelishi, har xil rezonansli yutuvchi muhitining konsentrasiyasida, juda katta qiymatiga ega emas. Optik damlash quvvatini oshirish bilan rezonatorda bir emas ikki, uch va undan ortiq yorug'lik impulsleri generatsiyada qatnashishi mumkin, agar damlash quvvati kamaytirilib borsa, oxiri generatsiya to'xtaydi. Xuddi shunga o'xshash voqeя, aktiv element temperaturasini oshib borishi bilan ham sodir bo'ladi. Asosan olganda, rezonatorda tebranihsllarning kuchayishi, optik damlashning bir tekis ishlamasligidan va aktiv element temperaturasining, generatsiya impulsi boshlanish momentining, impulsli lampalar yonishi vaqtiga nisbatan, stabil bo'lmasligi natijasidadir. Bundan tashqari, generatorning stabil ishlamasligiga, fototron muhitning tiniqlik harakteristikasining vaqt o'tishi bilan hamda fotoximik

reaksiyalar natijasidagi, o'zgarishi ham sabab bo'ladi. Yana shuni ham bilish kerakki, fototron muhitning harakteristikalari, ko'ndalang kesim yuzasining har bir nuqtasi uchun bir xil bo'lishi mumkin, ammo aktiv muhitda, optik damlashning bir tekis emasligi sababli, bir tekis bo'lmashigi ham mumkin. Bunday holat, generatsiya impulsining fazoviy struktura taqsimini, vaqtga nisbatan murakkab bog'lanishiga olib keladi. Chunki, generatsiya invers holatning tarkibi, bir jinsli emasligi natijasida, ko'ndalang kesim yuzasining har bir nuqtasida, har xil vaqtida boshlanib, har xil vaqtida tugashi mumkin. Bundan tashqari, fototron zatvorning yorug'likni o'tkazishi, nuring intensivlikligiga va aktiv elementda, invers holatning bir tekis emasligining, nochiziq bog'liqligi, ko'ndalang tebranuvchi, bir modali to'linlarning seleksiyasini yuzaga kelishiga imkon beradi [20-22].

### 3.1.2. Pikosekundli impulslarini olish

Pikosekundli impulslarini olish uchun, lazer rezonatorida, bir necha aksial to'linlarning uygotish kerak bo'ladi. Svetozatvorning tiniqlanish holatining relaksasiya vaqtini, ba'zi spontan shovqinlarning intensivligidan ta'sirlanishiga bog'liq bo'ladi. Bunday impulslarini olishning birinchi sharti, optik rezonatorda, qaytargich sirtli yuzaga ega bo'lmagan elementlardan foydalanish bo'ladi. Eng foydali va qulay usullardan biri, optik elementlarning yuzalarini, Bryuster burchagi ostida, tushayotgan yorug'lik nurlanishiga nisbatan joylashtirilgan bo'ladi 3.3-rasm.

Ikkinci sharti, rezonatorda tiniqlashish holati relaksasiyasi, qisqa vaqtga teng bo'lgan, nur qaytargichdan foydalanish bo'lib, bunda impulsning uzunlik vaqtini  $10^{-11}$ - $10^{-12}$  s jarayonida, yorug'lik nurlanishi impulsini siqish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bunday bo'lishi uchun, uygotish imkoniyatiga ega bo'lmagan elementlarning relaksasion vaqtini, generatsiya impulsini vaqtiga teng bo'lishi kerak.



3.3-rasm. Lazerning pikosekundli impulslarini olish uchun mo'ljallangan optik sxemasi. 1-100% qaytariuvchi ko'zgu; 2-fototronli nur qaytargich; 3-aktiv element; 4-yarim o'tkazuvchi ko'zgu.

Nur qaytargich, aktiv muhitining, tiniqlashish holatining relaksasiyası, avval qandaydır oraliq holatga ega bo'lgan bo'lsa, so'ngra yana avvalgi holatga qaytiadi. Bunday qaytish mexanizmi, polimetinli bo'yqlarga xos bo'lib, ular yordamida, impuls davomiyligi vaqtı 10 ps bo'lgan lazer impulsini olish mumkin. Lazerlar va optik sxemalarning parametrlari, fazalarning o'zaro muvosifligi harakteriga va shartiga bog'liq bo'ladi. Bu maqsadda, fototron nur qaytargichlarning rezonator ko'zgulariga nisbatan joylashish holati, katta ahamiyatga ega bo'ladi. Impuls maksimumlari va ularning intensivligi, nur qaytargichlarning qanday joylashganligiga bog'liq bo'ladi (3.3-rasmga qarang). Fototron to'sqiehning joylashishi  $X=L/m$  ( $L$ -lazer rezonatorning uzunligi,  $m$ -butun son,  $X$ - to'sqiehning 100% li ko'zgugacha bo'lgan masofasi) impulslar ketma-ketligi chastotasini oshishiga  $f_d=mf_i$  olib keladi, bu yerda  $f_i=s/2L$  [31]. Nur qaytargichning joylashish o'rnini  $X/L=O$  bo'lishi, praktik tomonidan qulay bo'lib, maksimal zinchlikka ega bo'lgan, nur dastasini olish imkonini beradi.


Bunday holda,  $N_m$ -sinxronizatsiyalashgan modalar amplitudasining, impuls davomiyligi  $t_u$ , quyidagi nisbat orqali aniqlanadi:

$$t_u \approx \frac{2.78 \cdot 2L}{\pi \cdot c N_m} \approx \frac{0.88}{c 2 \Delta v_r} \approx \frac{2t_1}{N_m} \quad (3.7)$$

bu yerda,  $2\Delta v_r$  - generatsiya spektrining to'liq kengligi:  $t_1=L/s$

Bunday holatda, quvvatning maksimal cho'qqisi, sinxronizatsiyalashgan o'rtacha quvvatga qaraganda  $N_m$ , maritta ko'tariladi. Bu usul yordamida, Rubin kristalli uchun ( $2\Delta v_r \approx 10 \text{ sm}^{-1}$ ) bo'lib,  $t_u \approx 3 \cdot 10^{-12} \text{ s}$  bo'ladi, neodim kristalli lazer uchun ( $2\Delta v_r \approx 250 \text{ sm}^{-1}$ ) bo'lib,  $t_u \approx 10^{-13} \text{ s}$  bo'ladi. Lazer nurlanishi, yarim o'tkazgichli ko'zgudan chiqishda, ketma-ket impulslar dastasini tashkil etadi, ular orasidagi interval, rezonatordan fotonlar o'tish vaqtining, ikkiga ko'paytirilgan vaqtiga teng bo'ladi. Agar impulslar ketma-ketligini o'rtacha intensivligini, hamma egallangan interval bo'yicha olsak, lazer nurlanishi intensivligi, rezonatorni modulyasiyalash natijasida olingan, davomiylik vaqtı, o'nlab nanosekundga teng bo'lgan impulsga teng bo'ladi. Bitta impulsni ajratib olish uchun, impulslar ketma-ketligi dastasini, elektrooptik to'sqiehdan o'tkazish kerak bo'ladi, bu nur to'sqieh, iskarali ryazryadnik yordamida, bir impulsning o'tishi vaqtida ochiladi, ammos boshqa impulslar o'ta olmaydi. Bundan boshqa, bu pikosekundli impulsni ajratib olishning usulidan foydalanish uchun, shunday rezonator xizmatidan foydalanish kerak bo'ladi, bunday rezonatordan kerakli vaqtida, zaxiradagi yorug'lik nurini ajratib olish imkon-

bo'ladi. Bir pikosekundlik impulsni ajratib olishda, quyidagi optik sxemadan foydalaniladi, bu sxemada elektrooptik qaytargichlardan foydalaniladi. 3.4-rasmda ko'rsatilgan.



3.4-rasm. Bir pikosekundlik impulsni olish uchun qo'llaniladigan lazerning optik sxemasi. 1, 7-Prizma-tomlik elektrooptik qaytargichlar; 2-fototron svetozavtor; 3- aktiv element; 4- nur iskrali razryadnik; 5- yuzasi tushuvchi marga Bryuster burchagi ostida bo'lgan 90° -li buruvchi prizma; 6-ikki 90° -li buruvchi prizmadan tashkil topgan, orasidagi havo bo'shilg'i qalinligini o'zgartirish imkoniyati bo'lgan murni bo'luvchi blok.


Bunday optik sxemada, hamma elementlarning chiqish yuzalari, nur yo'nalishiga nisbatan, Bryuster burchagi ostida joylashtirilgan bo'ladi.

Lazer rezonatorining optik sxemasi, ikkita elektrooptik qaytargichlardan tashkil topgan bo'lib, qaytargichlarning yon qirrasiga, prizma-tom joylashtirilgan, yana fototrop nur qaytargich, aktiv element va buruvchi prizmalardan tashkil topgan.

Nurning bir qisimini, rezonatorдан olib, prizmalar orasidagi kichik havo bo'shilg'idan o'tkaziladi, uni boshqarish natijasida, nur-iskrali razryadnik elektrodlari orasidan nur o'tkaziladi va nurni o'tkazish hususiyatini boshqarish mumkin bo'ladi. Rezonatorning asilliyligi yoqish, boshqariluvchi nur qaytargich orqali amalgalashiriladi.

Agar, rezonator ichidagi pikosekundli impulsning kattalik qiymati, nur-iskrali razryadnikni ishlashiga etarli bo'lsa, u holda, elektr impulsni yordamida razyadnik, ikkinchi boshqariladigan qaytargichni ishga tushiradi va uning yordamida, yorug'lik impulsni rezonatordan chiqariladi. Boshqariluvchi, elektrooptik qaytargichlar yordamida, yana boshqa optik sxema variantidan foydalanib, pikosekundlik impulsni olish imkoniyatiga keladi, masalan doira shaklidagi rezonatorning, optik sxemasi yordamidan foydalanib, 3.5-rasmda lazer qurilmasining, doira shakldagi optik sxemasi ko'rsatilgan bo'lib, uning yordamida, pikosekundli impulsmani olish mumkin [32,36].

3.5-rasmda ko'rsatilgan generatorda, yarim o'tkazgichli ko'zgudan, pikosekundli impulslar dastasi chiqadi. Elektrooptik zatvorlarni qo'llash, bizga doira shaklidagi sxemani amalga oshirishga imkon beradi va natijada bir pikosekundlik impuls olamiz (3.5- b rasm).



3.5-rasm. Doira shaklidagi optik rezonatorlar:

a- pikosekund impulslar dastasini olish uchun; b- bir pikosekundli impulsni olish uchun; 1- aktiv element; 2-fototron svetozavtor; 3;4,-100% qaytarguvchi ko'zgular; 5-yarim o'tkazguvchi ko'zgu; 6,7-90° li biriyuchi prizmalar; kiriyuchi yuzali nur yo'nalishiga Bryuter burchagi ostida bo'lган; 8-nur bo'lyuchi blok, ikkita 90° li biriyuchi prizmadan tashkil topgan bo'lib, ular orasidagi havo bo'shilig'i qalinligini o'zgartirish imkoniga ega; 9-o'tkazuvchi elektrooptik qaytargich chiquvchi yuzali nurga nisbatan Bryuster burchagi ostida bo'lган; 10-nur iskaralari razryadnik.

Bunday lazerlarda elektrooptik qaytargich, generatording ish rejimini o'zgartiradi. Avval mur, yopiq doira ichida rivojlanadi va maksimal qiymatga erishgandan so'ng, rezonatordagi elektrooptik qaytargich, yig'ilgan energiyani, bir pikosekundli impuls shaklida, sistemadan chiqarib yuboradi [23, 25].

### 3.2. Lazer rezonatorlarini elektrooptik boshqaruv

Elektrooptik nur qaytargichlar va boshqariladigan elektrooptik qaytargichlardan foydalaniib, lazerlarni turli ish rejimida ishlashiga erishish mumkin. Elektrooptik qurilmalar, nurni o'tkazishi (yoki qaytarishini) boshqaruvchi kuchlanish qiymatiga qarab, quyidagi ishlarni amalga oshirishi mumkin: rezonator faoliyigini oshirish natijasida, [33,34]; modalar sinxranizasiyasini yordamida, pikosekundli impulslar generatsiyasini olinadi. [35,36] impulslar parametri, tashqi musbat yoki manfiy qayta bog'lanish yordamida boshqariladi.

#### 3.2.1. Rezonatorning ishslash darajasi asilliyligini tezda bog'lash natijasida, nanosekundli impulsurni olish

Optik kvant generatorlarining asilliyligini, tezda bog'lab oshirish ish prinsipini, shunday tushuntirish mumkin. Agar, lampa yordamida damlash vaqtida, rezonatorning asilliyligi kichik bo'lsa, (yoki misol tariqasida rezonatorning qaytargich ko'zgularidan biri olib qo'yilgan bo'lsa) u holda generatsiya uchun belgilangan shart bajarilmaydi. Damlash davomida, aktiv elementning invers holati kuchayadi. shu paytda, tezda rezonator asilliyligini oshirsak, (yoki faraz qilamizki rezonatorning ikkinchi ko'zgusi o'z joyida, tezda paydo bo'lib qolsa) u holda, bu generatsiya jarayoni o'z-o'zidan nurlanish natijasida, bir necha vaqt davomida  $t_3$  (ushlab turish vaqt) generatsiyaning chiziqli o'sishi vujudga keladi va so'ngra generatsiya nochiziq ravijida rivojlanib, aktiv muhit to'yinish holatiga keladi. Vaqtning har bir momentida, rezonatorda nurlanishning intensivligining oshishi va so'ngra kamayish holati bo'lib turar ekan, nurlanishning bir qismi, rezonator ko'zgularining biridan tashqariga chiqariladi. [37] ishda ko'rsatilishicha, chiqish energiyasi uchun, quvvatning cho'qqi qiymati va monoimpulsning rivojlanishi uchun, ushlab turish vaqtini (vermya zaderjki) ko'rsatish uchun, uch qavatli tenglamalar sistemasidan foydalaniildi va u quyidagicha ifodalanadi:

$$E = (\gamma_n / 2\gamma)(n_i - n_f)N_0 h\nu V \quad (3.8)$$

$$P = \gamma_n \varphi N_0 h\nu V / \gamma t_1 \quad (3.9)$$

$$t_3 = \frac{t_1}{a_0 l(n_i - n_p)} \ln \left( 1 + \frac{n_i - n_p}{200\varphi_i} \right) \quad (3.10)$$

Bu yerda, n-nisbiy invers holat, u teng  $(N_2 - N_1)/N_0$ ;  $N_1$  va  $N_2$ - asosiy va qo'zg'atilgan holatdagi atomlar soni;  $N_0 = N_1 + N_2$ ;  $t_i$ -rezonatordan fotonlarni o'tish vaqt;  $n_r = \gamma/\alpha_a t_i$ ;  $t$  - aktiv elementning uzunligi;  $\alpha_a$ - aktiv element yorug'lik nurlanishining maksimum nurlanish liniyasidagi yutish koefitsienti;  $\gamma$ -to'la yo'qotishlar (tarkibiga soydalı  $\gamma_p$ , zararli  $\gamma_v$ ) ( $\gamma_v$ -optik sxema elementlaridagi yutilish va sochilishlar bilan aniqlanadi);  $\gamma_p = -1/2 \cdot ln R_1 R_2$ ;  $R_1$  va  $R_2$  - chetki qaytargichlarning qaytarish koefisiyenti;  $n_r n_f$  boshlang'ich va oxirgi nisbiy invers holat, tenglik bilan shunday bog'langan:

$$n_p \ln \frac{n_f}{n_i} = n_f - n_i \quad (3.11)$$


Kattalik  $\varphi$  - ning qiymati, quydagicha aniqlanadi.

$$\varphi = \varphi_i + \frac{1}{2} \left[ n_p \ln \frac{n}{n_i} - n - n_i \right] \quad (3.12)$$

Bu yerda,  $\varphi = \frac{F}{N_0}$ ,  $F$  - rezonatordagi kvantlar zichligi.


$$\varphi_i \approx \frac{n_p}{n_i} \cdot \frac{1 + n_i}{8\pi\tau_i} t_R \Omega \quad (3.13)$$

Bu yerda,  $\tau_i$ - qo'zg'atilgan holatning yashash vaqt;  $\Omega$ - lazer nurining oniy (teles) burchagi;  $t_R = t_i / \gamma$  rezonatorda kvantning yashash vaqt. Monoimpulslı nurlanish quvvatining, vaqtga nisbatan bog'liqligi, murakkab harakterga ega bo'lib, ular EXM yordamida hisoblanishi mumkin. 3.6-rasmida fotonlar zichligining va invers holatning vaqtga nisbatan bog'liqligi ko'rsatilgan.



3.6-rasm. Invers holat va fotonlar zichligining vaqtga bog'liqligini rezonator asilliyligini tezda oshishga bog'liqligi.

Lazer rezonatori asilliyligini tezkor modulyasiyasi, elektrooptik nur to'sqichlar va qaytargichlar yordamida amalga oshiriladi. Lazer sxemasida, nur to'sqichlarni ishlatalishining maqsadga muvosiqligi, sxemada, maxsus tuzilishiga ega bo'lgan (masalan, sfera shakldagi) yoki maxsus dielektrik qoplamlari, ko'zgulardan foydalanish imkoniyati mavjudligidandir. Agar, oxirgi qaytargichida prizma-tom ishlataligan bo'lsa, u holda 3.7-rasm a,b da ko'rsatilgan elektrooptik qaytargichlardan foydalanish kerak bo'ladi.




3.7-rasm. Lazerlarining elektrooptik qaytargichli optik sxemasi: a-yon yuzasi to'g'ri burchakli elementlar; b-yon qirra yuzasi nisbatan Bryuster burchagi ostidagi elementlar 1-yarim o'tkazgichli ko'zgu; 2-aktiv element; 3-elektrooptik qaytargich.

Har xil turdag'i elektrooptik qaytargichlarning ishlatalishining sababi, quyidagi faktorlarga bog'liq bo'ladi: aktiv element lyuminessent nurlanishining polyarizatsiyalanganligi yoki polyarizatsiyalanmaganligiga, rezonatorning temperaturaga bog'liq bo'lgan talablariga, chiqish parametriining stabilliyligiga va yokazo. Frenel effekti ta'sirida, optik elementlarning chetki yuzalaridan qaytuvchi nurlanishning zararli ta'sirini kamaytirish maqsadida, optik sxema elementlari, nurlanishga nisbatan Bryuster burchagi ostida joylashtirilgan bo'lishi kerak (3.7-rasm b). Shu holdagina damlash jarayonida, maksimal invers holatga erishish, generatsiya jarayonida optik sxema elementlari yuzasidan, qaytgan nurlanishlar yo'qotishini, minimum qiymatiga erishish mumkin.

Berilgan ma'lumotlarga ko'ra, o'chamlari 120 mm x 8 mm li rubin kristalli va IFP-1200 turdag'i yoritgich lampa yordamida, damlash jarayonida, rezonatordan generatordan nurlanishning chiqish energiyasi 2-3 Djga teng bo'lgan, lazer generatsiyasini olish mumkin. Parametrlari boshqariluvchi qaytargichlar xususiyati, bir necha gers chastotali ish rejimida, bir necha ming impulsdan keyin ham yomonlashmaydi. Bunday optik sxema, lazerlarining davriy ish rejimi, yuqori chastotali impulslar

ketma-ketligida ishlashga mo'ljallangan bo'lib, impulslar energiyasi 0,3-0,5 Dj bo'ssa, bu generator uzoq muddat ishlab beradi. Chiquvchi impulslar polyarizatsiyasini boshqarish, 3.8-rasmda ko'rsatilgan optik sxema yordamida, amalga oshiriladi.



3.8-rasm. Lazerlarning generatsiya polyarizatsiyasini boshqariladigan optik sxemasi: 1-yarim o'tkazgichli ko'zgu; 2-aktiv element; 3-5, nurlanishni ikkiga bo'livchi polyarizasion prizmalar; 4-elektrooptik modulyator 6-100% qaytarguvchi ko'zgu.


Bu sxemada, ikkala elektrooptik elementga, bir vaqtning o'zida boshqaruvchi elektr impulsleri beriladi va natijada polyarizatsiyalangan yorug'lik nurlanishining generatsiyasi olinadi. Agar boshqaruvchi elektr impulsleri, elektrooptik elementlarga ketma-ket berilsa, u holda chiquvchi nurlanishning polyarizatsiyasi boshqa-boshqa tekislikda bo'ladi. Avtorlar tomonidan ko'rsatib o'tilishicha [27, 29, 38], polyarizatsiyalangan yorug'lik nurlanishi energiyasi, polyarizatsiyalangan yorug'lik nurlanishi impulsi energiyasidan, deyarli farq qilmaydi. Lazerlarda, elektrooptik modulyasiya natijasida olinadigan impulslerning davriy vaqt 10-30 n.s. bo'ladi. Elektrooptik modulyasiyalı lazerlarning boshqa generatordan farqi shundaki, yorug'lik impulsi generatsiyasi vaqtining aniqligi va nurli damlash yordamida, faqat impulsli nurlanishning generatsiyasini olish bilan farqlanadi. Yana qiziqarli ish rejimlaridan biri, rezonator asilliyligini birin-kekin oshib borishi holati. Bu holda, boshqaruvchi kuchlanishning qiymatini o'zgartirib, bir necha ketma-ket kattalikda, ketma-ket impulsler olish mumkin. Rezonator asilliyligini, yana bir qiziqarli usuli shundaki, avval asilliylilik chegara qiymati kattaligidagi yoqiladi, so'ngra kuchsiz yorug'lik impulsi paydo bo'lishi bilan butunlay yoqiladi. Bu rejimda, lazerda monoimpulsini olish, amalga oshiriladi, fototrop nur qaytargichlar yordamida va shu bilan birga, bir modali lazer impulsini olish imkoniyati tug'iladi.

### 3.2.2. Lazerlar rezonatoridagi energiyani chiqarishda, nanosekundli impulslarni shakillantirish

Lazerlar rezonatorida yig'ilgan energiyani, rezonatordan tashqariga chiqarish uchun, rezonator asilliyligini invers holati, aktiv elementda maksimumiga chiqqanida va rezonatorda energiya zichligi maksimumga etganida, nurlanishni tashqariga chiqarib yuborish natijasida erishiladi [25]. Bu jarayonini shunday izohlash mumkin. Damlash lampasini yoqilishi, invers holatning, aktiv elementda yuqori darajaga chiqishi va aktiv elementning rezonatorda joylashganligi sababli, aktiv elementda qo'zg'atilgan atomlarining engriyasi, elektromagnit energiyasiga aylanadi va rezonator uzra taqsimlanadi. Elektromagnit energiyasi qiymatining rezonator ichida, maksimal darajaga etganida, generatsiya sodir bo'lib, to'plangan energiya, yarim o'tkazgichli ko'zgudan tashqariga chiqadi. Energiyaning rezonatordan chiqish vaqtin, rezonator uzunligining ikki barovariga teng bo'ladi, ya'ni yorug'lik nuri impulsining davomiyligi  $2L/c$  ga teng bo'ladi. Nazariy ishlar chegarasidan chiqmagan holda, chiqish energiyasi  $E_p$  va uning quvvati  $P_p$  rezonatordagi har xil yo'qotishlarni hisobga olmaganda, quyidagicha aniqlanadi:

$$E_p = N_0 V_{phv}, \quad (3.14)$$

$$P_p = E_p / 2t. \quad (3.15)$$



3.9-rasm. Rezonatorda to'plangan energiyani chiqarivchi lazerning optik sxemasi.

a- elektrooptik svetozavtor bilan; b- elektrooptik qaytargich chiqish yuzasi murga nisbatan Byuster burchagi ostida bo'lgan; 1,6- prizma -tom; 2- ajratuvchi poliarizasiyon prizma; 3-elektrooptik modulyator; 4-Archard-Taylor prizmasi; 5- aktiv element; 6-elektrooptik qaytargich.

Yorug'lik nuri impulslari fronti, nurning ko'ndalang kesimi yuzasining har bir nuqtasida, rezonatorning ochilish vaqt bilan aniqlanadi. Generatsiya, nurlanish yuzasi kesimining har xil nuqtasida, oldinma-keyin rivojlanishi, nurlanish zichligining yuza bo'yicha taqsimlanishi, rezonatorning ochilish vaqtiga ta'sir qiladi. Bunday lazerlar tarkibida nur to'sqichlar, maxsus polaryzatorlar va elektrooptik qaytargichlar bo'ladi. 3.9-a rasmda, rezonatordagi yig'ilgan energiyani chiqaruvchi, optik sxema keltirilgan.

3.9-b rasmda, lazerlarning optik sxemasi keltirilgan bo'lib, unda elektrooptik qaytargichning kirish yuzasi, nurlanish yo'nalishiga nisbatan, Bryuster burchagini tashkil qiladi va uning yon qirrasi yuzasiga, prizma-torn o'matilgan. Bunday sxemada, elementlar yuzasidan qaytuvchi, frenelning qaytuvchi to'lqinlari sababli, paydo bo'lgan yo'qotishlarning yo'qligi uchun, olingen impulslar yo'qotishsiz, sof holda bo'ladi. 3.9-a rasmda esa, elementlar yuzasidan qaytuvchi Frenel to'lqinlari, yorug'lik nurlanishi impulsning ohirida, dum sifatida paydo bo'ladi [20, 21, 23].

### 3.2.3. Modalar sinxronizatsiyasi natijasida, pikosekundlik impulslarning shakillanishi


Yuqorida aytib o'tilgan, pikosekundli lazer impulslarini olish usullaridan farq qilib, pikosekundli impulslarini modalar sinxronizatsiyasi yordamida, rezonatorning generatsiya jarayonida, davriy modulyasiya qilish usuli bilan olish mumkin. Olib borilgan izlanishlarni ko'rsatishcha, tashqi davriy modulyasiya natijasida va 20ta modani fazirovkasi natijasida olingen impulsning davriy vaqt 5·10<sup>-10</sup>s ga teng bo'ladi. Nazariy jihatdan olib qaralganda, impulsarning rivojlanish jarayoni ikki davrdan iborat. Birinchi davr mobaynida, impulsarning davriy vaqt qisqaradi. Bir-biriga moslashgan fazalar natijasida, ikkinchi davrda impulslar kengayadi, bu fazalarning moslashuvining yo'qolishi natijasida sodir bo'ladi. Impulsar energiyasining o'zgarishi yoki o'rtacha nurlanishning quvvatini o'zgarishi, lazer nuri intensivligi asilliyligini modulyasiyasi natijasida bo'ladi. Optimal holat shundan iboratki, maksimal o'rtacha quvvat bilan, minimal davriy uzunlik bir vaqtida bo'lganda, pikosekundlik impulslar vujudga keladi. Tashqi davriy modulyasiyaning chastotasi, aksial modalar chastotasi intervaliga, teng qilib olinadi. (Aksial modalarning orasidagi chastota intervallni, yorug'lik nuri tezligini rezonator uzunligining ikki barovarga bo'linganiga teng) rezonator asilliyligini oshirish bilan, uning natijasida davriy modulyasiya yo'qotishlari, impulsning rezonatordan har bir o'tishda, uning formasi kuchayishi, yo'qotishlar modulyasiyasi va dispersiya o'zgaradi.

Modalarning sinxronizatsiya qilish, keyinchalik pikosekundlik impulslarni rezonatordan tashqariga chiqarish uchun, eng to'g'ri keladigan optik sxemalardan biri bo'lib, optik elementlar yuzasi, nurga nisbatan Bryuster burchagi ostida o'rnatilgan optik sxemadan iborat bo'ladi, unda boshqaruvchi elektrooptik qaytargichlardan foydalaniladi. Bunday optik sxemada, bo'ylama to'lqin modalarini ajratuvchi, slektiv elementlarning yo'qligi, ko'p sonli oksial tebranishlarning, fazirovkasinini amalga oshirishga imkon beradi. Sxemada, ikki yoki undan ortiq boshqariluvchi elektrooptik qaytargichlardan foydalanib, rezonator asilliyligini yoqish, modalar sozirovkasi uchun, davriy modulyasiyadan foydalanish va impulsni rezonatordan chiqarish ishlarni bajarish mumkin. Rezonatordan chiqarilgan kichik intensiv nurlanishining kuchi, nur-iskrali zaryadlovchini ishlatalishga etarli bo'lganida, zaryadlovchi ishga tushib, elektr impulsni hosil qildi, uning natijasida, boshqaruvchi kaytargichlardan biri, generatsiya nurlanishini rezonatordan chiqarish rejimida ishlayci va natijada, pikosekundlik impuls, rezonatordan tashqariga chiqadi. Bunday optik sxemalarni ishlab chiqish uchun, eng qulay va to'g'ri keladigan optik sxema, o'zida elektrooptik qaytargichli, yon tomoni yuzasida qaytargich prizma-tom bo'lib, uning yon yuzasi, Bryuster burchagi ostida nurga nisbatan bo'lishi kerak. Bir boshqariluvchi qaytargich, rezonator asilliyligini yoqish uchun va davriy moludyasiyani ishga tushirish uchun, elektrodlar kerakli kuchlanish bilan ta'minlanishi imkonini yaratadi. Ikkinci boshqariluvchi qaytargich, pikosekundli impulsni rezonatordan tashqariga chiqishni ta'minlaydi [19, 32, 34].

### **3.2.4. Tashqi qayta bog'lanish yordamida, impulslar parametrlarini boshqarish**

Yuqorida ko'rib o'tilgan lazerni boshqarish usullarida, elektrooptik qurilmalar maksimal holatda yoki minimal holatda bo'lib, nurni o'tkazadilar yoki o'tkazmasdan qaytaradilar. Bunday holda, yerug'lik impuls generatsiyasi parametrlari asosan, rezonator harakteristikasiga va aktiv elementga bog'liq bo'ladi. Ba'zi bir hollarda masalan, impulsning shakli va nur impulsning davomiylik vaqtini boshqarish uchun, elektrooptik qurilmaning nurni o'tkazishi yoki qaytarishi, nuring intensivligi qiymatiga qarab o'zgaradi. Buni amalga oshirish uchun, tashqi zanjir yordamida yoki musbat qayta bog'lanish natijasidan foydalaniadi. Qayta bog'lanish zanjiriga, elektrooptik qurilmadan tashqari, har xil optik elementlarga (nurni bo'lувчи, filtrlar) nurni qabul qiluvchi qurilmalarga (fotoelementlar, nur

iskrali razryadniklar) va hamda qayta bog'lanish zanjirini ishini effektivligini oshiruvchi va nurlanish impulslarini parametrlarini aktiv boshqarishni ta'minlovechi, elektron qurilmalar kiradi (3.10-rasm). Lazerlarning tashqi manfiy bog'lanishli zanjiri uchun, nazariy va amaliy olingan ma'lumotlar mavjud. Manfiy qayta bog'lanish, asosan lazerlaridagi cho'qqili rejimni yo'qotish uchun va yorug'lik nurlanishining tekis yuzali impulslarini olish uchun qo'llaniladi. Masalan, Rubin kristalli lazer asilliyligi modulyasiyasi, tashqi mansiy bog'lanish yordamida olib borilgan, bu optik sistemaning parametrlari quyidagicha: generatsiya impulsi davomiyligi vaqt 700 ns, nurlanish spektri kengligi  $3 \cdot 10^{-2} \text{ sm}^{-1}$ , impulsning energiyasi 50 mJ, impuls cho'qqisining tekismasligini 10%. Lazerda chorak to'lqinli nur to'sqichdan foydalanilgan bo'lib, u KDRdagi bo'ylama elektrooptik effektga asoslangan bo'lib, nurlanish spektrini siqish uchun, optik kyuvetadagi fitalosianit vanadiy aralashmasini nitrobenzoldagi eritmasidan foydalanilgan.



3.10-rasm/ Mikrosekundli impulslar olish uchun, ishlataladigan lazerning tashqi manfiy bog'lanishli sxemasi.


1, 9, 14- ko'zgular; 2-chorak to'lqin uzuunligidagi plastinalar; 3-KDR li kristall (z o'q bo'yicha); 4- polyarizatorlar; 5-fototronnur to'sqich; 6-diofragma 7-shiisha plastinkalar; 8-aktiv element; 10-11-rezistorlar; 12-koaksial fotoelement; 13-svetofiltrlar.

Tashqi qayta bog'lanish zanjiriga, koaksial fotoelement o'rnatilgan. Generatsiya jarayonining kichik inerasionligini, aktiv elementdagи yuqori kuchlanishni va fotonlarning rezonator ko'zgulari orasidan o'tish vaqtining kichikligini hisobga olib, signalni paydo bo'lishi va zanjiridan o'tish vaqt 1 nanosekunddan ortiq bo'lishi kerak emas va fotopriyomnik elektron qurilmalari keng polosali bo'lishi kerak. Musbat qayta bog'lanishdan, modalarni sinxronizatsiyalashda va pikosekundli impulslarni shakillan-

tirishda foydalaniлади. Bundan tashqari, musbat qayta bog'lanishdan, bir modali lazer generatsiya nurlanishini olishda ham foydalaniлади [18, 31].

### 3.3. Elektrportlovchi pylonkali nur qaytargichli optik sxemalar

Elektrportlovchi pylonkali nur qaytargich yordamida hamma to'lqin uzunligidagi yorug'lik nurlari bilan ishlashi mumkin, uning asos materiali, yorug'lik nurini yutmайдиган bo'lishi shart. Bunday nur to'sqichning optik sxemasi (Rasm 3.11. a) berilган. Pylonka 3-5<sup>0</sup> burchak ostida rezonator o'qiga nisbatan perpendikulyar tekislikda joylashtiriladi. Nur to'sqich pylonkasining tiniqlashuvchi, damlash lampasining yonish vaqt bilan sinxronizatsiya qilinadi va invers holatning maksimal darajasi, pylonkani tiniqlashuv holati bilan bir vaqtida sodir bo'ladi. Nur to'sqich pylonkasi generatsiyaning quvvatli, impulsni o'tkazib yuboradi. Shu vaqtida, quvvatli generatsiya impulsiga erishgan, bir necha erkin generatsiya impulslar ham hosil bo'ladi, bu jarayon damlash lampasining yoritish hususiyati tugagunga qadar, davom etadi. Bunday erkin generatsiyada impulslar ketma-ketligini olib tashlash uchun, optik sxemaning, kombinasion sxemasidan foydalaniлади. ( 3.11-b rasm), bu sxemada, pylonkali nur to'sqich bilan birga, fototron nur to'sqich ham ishlataladi.



3.11-rasm. Lazerning optik sxemasi

a- elektrportlovchi pylonkali nur to'sqich; b-fototronli va elektrportlovchi nur to'sqich; 1,4- yarim shaffov va to'la qaytaruvechi ko'zgular, 2-aktiv mushit, 3-elektrportlovchi pylonkali nur to'sqich; 5-fototron nur to'sqich.

Ikkita, neodim aktiv elementli (lazer), fototron nur to'sqich bilan ajratilgan va 100% qaytargich ko'zgudan, pylonkali nur qaytargich bilan to'silgan optik sxema keltirilgan. Bunday optik sxemalari generatormning, quvvati lazer impulsining generatsiyasi energiyasi 130 dj bo'lib, impuls davomiyligi vaqt 40ns bo'lgan. Shundan ko'rinish turibdiki, pylonkali nur

to'sqichlar, elektrooptik nur to'sqichlar kabi, rezonator aslliyigini bir zumda yoqish imkoniyatiga ega bo'lib, lazer generatorlarida, ulardan ham keng foydalaniladi [18, 21].


### 3.4. Modalar seleksiyasi sxemasi

Optik rezonatorning sxemasi, selektiv elementlar uchun asosiy kriteriy bo'lib, aktiv muhitni kuchayishi nisbati bilan, rezonatorda ajratib kuchaytiriluvchi va yo'qotilishi kerak bo'lgan turdag'i tebranishlar orasidagi yo'qotishlar hisoblanadi. Aktiv muhitning kuchayishi, ajratib olingan turdag'i tebranishlar qiymati, ketgan yo'qotishlardan katta bo'lishi kerak. Bunday holat, kichik kuchaytirish darajali sistemalarda, asosan hal etiladi. Buni hal etish uchun, uzlusiz damlashli generatorlardan, impulsli damlashli generatorlardan, erkin geperasiya rejimiga yaqin energetik ostona da ishlaydigan lazer sxemalaridan foydalanish kerak. Bunday generatorlarda modalarning seleksiyasi, maxsus seleksiyalovchi elementlarsiz amalga oshiriladi[24]. Rubin yoki granatl, uzlusiz damlash bilan ishlaydigan va rezonator asilliyligi modulyasiyasi, aylanuvchi ko'zgu asosida bo'lib, ko'ndalang tebranishli modalar  $TEM_{00}$  seleksiyaiyasi, diametri 2mm bo'lgan aktiv element orasida, amalga oshiriladi. Impuls damlashli va katta kuchlanishli generator rezonatorida, doim ko'pgina sonli bo'ylama va ko'pgina sonli ko'ndalang turdag'i tebranishlar bo'ladi. Bunday ko'p modali holatni yo'qotish uchun, ba'zi yo'qotilishi kerak bo'lgan tebranishlar, rezonator asilliyigini kamaytirish orqali erishiladi. Generator selektivligining effektivligi, nafaqat ba'zi bir turdag'i tebranishlar uchun balki, rezonator asilliyigini farq qilishi, bundan tashqari lyuminessensiyaning spontan shovqintariga aloqador bo'lgan, generatsiyaning rivojlanishi kenetikasiga ham bog'liq bo'ladi.

Bu ikki faktorning ta'siri [22] ishda o'rganilgan bo'lib, bundan ma'lum bo'lishicha, impulslar generatsiyasi rezonator asilliyigini tez yoqilishi, ikki etapga bo'linadi: generatsiyaning chiziqli rivojlanishi, elektromagnit maydon amplitudasining eksponensial ravishda o'sishi bilan harakterlanadi. Generatsiyaning chiziqli rivojlanishi, invers holatni kam miqdorda o'zgarishiga sabab bo'ladi. Chiziqli rivojlanish vaqt, (generatsiyani ushlab turish vaqt) rezonatordagi kuchayish va yo'qotishlar bilan bog'liq bo'lib, qiymati bir necha o'n nanosekunddan, bir necha mikrosekundgacha bo'ladi. Generatsiyaning nochiziq rivojlanishi xududida, invers muhitda saqlangan energiya hisobiga, yorug'lik nurlanishi impulsli shakllanadi va aktiv muhitda nurlanishing kuchayishini, to'yinish holatiga olib keladi.

### 3.4.1. Fototrop nur to'sqichli sxemalarda modalar seleksiyasi

Fototrop nur to'sqichli lazerlarda, shunday holat yuz beradiki, generatsiya jarayonida nur to'sqichning tiniqlashuvi natijasida, damlash energiyasining boshlanish qismi ostonadan boshlanadi. Fototron nur to'sqichli lazer generatorining impulsi, quyidagi shakilga ega bo'ladi. 3.12-rasm.




3.12-rasm. Lazerning aslliyligi, modulyasiya qilingan impulsi shakli.  
(Koordinata o'qi bo'yicha siqilgan masshtab  $\phi_{lo\gamma\mu\mu}/\phi_{o'z-o'zulm} = 10^{12} \div 10^{13}$ )

Generatsiyani rivojlanishining boshlanishi, spontan nurlanishlar shovqin darajasida  $\Phi_{sp}$  boshlanib, yorug'lik nurining zichligi, ba'zi bir turdag'i tebranishlar uchun, eksponensial ravishda o'sadi va bu o'sish vaqtning davomiyligi  $t_{imp,ush}$  ga teng. Qachonki, rezonatorda yorug'lik nurlanishi zichligi qiymati darajasigacha  $\Phi_{lo\gamma\mu\mu}$  ( $\Phi_{lo\gamma\mu\mu} \approx 10^{15} \Phi_{o'z-o'zulm}$ ) bo'lsa, u holda rezonatorda saqlab qo'yilgan energiya, ya'ni lazer generatsiyasi impulsi paydo bo'ladi, bu qisqa muddatli impuls vaqtiga  $t_{imp} = 10 \div 100$  ns ga teng bo'lib, yorug'lik nurlanishi zichligining o'sish vaqtidan 10 martta kichik bo'ladi. Shu vaqt ichida, yorug'lik nurlanishi impulsi davom etadi. Yorug'lik nurlanishii zichligining o'sish vaqtiga  $t_{imp,et}$  -boshlang'ich invers holat darajasiga va aktiv hamda fototrop muhitlarning qo'zg'atilgan holatining, relaksasiya vaqtiga bog'liq bo'ladi. Nazariy va eksperimental ishlarning natijasini ko'rsatishicha, fototrop nur to'sqichlar generatorda,  $t_{imp,ush}$ -impulsining rivojlanshi vaqtiga quyidagi qiymatga ega bo'ladi  $\sim 2 \div 4$  mks, rezonatordan fotonlarning o'tish soni  $m_{pr} = t_2/t_1$  taxminan  $\sim 10^3$  qiymatga etadi ( $t_1$ -fotonlarning rezonatordan bir martta o'tgan vaqtiga). To'sqichning tiniqlashuvi vaqtiga  $t_{pr}$  da, ikki turdag'i modalar quvvati nisbati, quyidagicha aniqlanadi [21]:

$$\frac{P_n(t_{pr})}{P_m(t_{pr})} = \left( \frac{r_{1n}\gamma_n}{r_{1m}\gamma_m} \right)^{m_{pp}}, \quad (3.16)$$


bu yerda,  $r_{ln} \gamma_n$ , va  $r_{lm} \gamma_m$  – n-chi va m-chi modalar uchun qaytarish va yo'qotish koefisiyentlari. Uzunligi 0,5 m bo'lgan rezonator uchun, ikki qo'shni modalar nurlanishi zichligi nisbati, taxminan 10 ga teng bo'lib, yo'qotishlardagi farq 0,1% tashkil etadi. Bu miqdordagi rezonator yo'qotishlari, real rezonatorlarida bo'ylama va ko'ndalang to'lqin modalari orasida bo'ladi. Diafragmali turg'un rezonatorlarning har bir turida, bir jinsli aktiv element va fototrop nur to'sqichli rezonatorlarda, tebranishlar modasi seleksiyasini amalga oshirib, bir modali lazer nurlanishi generatsiyasini olish mumkin, ishda konsentrik va botiq-qovariq ko'zguli turg'un rezonatordan foydalaniilgan, 3.13.-rasmga qarang. Bunda aktiv element sifatida, yon qizralari  $90^\circ$  – to'g'ri burchak yuzali, Rubin kristallidan foydalaniilgan, uning uzunligi 75 mm, diametri 65 mm bo'lib, rezonatorning uzunligi 54 sin bo'lgan. Rezonator ko'zgularining radiusi 5m.



3.13-rasm. Optik kvant generatori. a-konsentrik rezonator; b- qovariq – botiq ko'zguli rezonator; 1-aktiv element; 2-fototropto'sqich.


Olib borilgan ishlar natijasiga ko'ra, modalarni seleksiyalash maqsadida diafragmadan foydalanish mumkin. Ammo bir modali tebranishli to'lqinlar generatsiyasini olishda, diafragmaning roli, masalani hal qiluvchi faktor emas. Olib borilgan izlanishlarning [23-25,26] ko'rsatishicha, simmetrik optik damlashdan foydalaniilganda, ya'ni spiral tuzilishdagi lampalar, tebranishlar seleksiyasini sharoitini biroz yaxshilaydi, keyinchalik qo'llanilgan optik sxema tarkibida, yarim konsentrik rezonatordan foydalaniilgan (ko'zgu radiusi R=30 sm) va fototrop nur to'sqichni, aktiv kristall Rubin bilan sferasimon ko'zgu orasiga joylashtirilganda, tekis yuzali ko'zgu o'mida, kvarsdan ishlangan qalinligi 10 mm bo'lgan plastinadan foydalaniilgan. Optik sxema ichiga, aktiv

element Rubin bilan kvars plastinka orasiga diametri 0,8-1 mm bo'lgan diafragma o'rnatilgan. Rubin kristalining o'lchamlari uzunligi  $\ell=120$  mm, diametri esa  $\Phi=7$  mm bo'lgan. Lazerning nurlanish spektri kengligi 100 MGs bo'lib, impulsning davriy uzunligi  $\tau=8$  ns bo'lgan. Generatorming nur taratish burchagi, difraksiya burchagiga teng bo'lgan. Quyidagi optik sxemada, tekis yuzali parallel rezonatordan va fototron nur to'sqichdan foydalanilgan. Aktiv element sifatida, yuqori optik sisatlari Rubin kristalidan foydalanib, kristalning ikkala yon qirralari yuzasi, parallel qilib tayyorlangan bo'lib, uzunligi  $L=10$  sm rezonatorda ishlatalgan diafragmaning diametri  $\varnothing=2$  mm bo'lgan. Natijada bir modali TEM<sub>00</sub> tebranishlar generatsiyasi olingan, energiyaning fazoviy taqsimoti, toza gauss taqsimotiga o'xshagan bo'lib, impulsning quvvati 2mVt bo'lgan. Ba'zi bir hollarda, modalar seleksiyasi effektivligini oshirish maqsadida rezonator holatini, turg'un bo'lmagan holat tomon surishdan foydalaniladi, bu holda rezonatorda ishlatalgan diafragmaning diametri kattaroq qilib olinadi [27]. Bu usulda, aktiv element sifatida Rubin va Neodimli shisha kristallaridan foydalanilgan. Rezonator ko'zgulari sifatida, qavariq va botiq yuzli ko'zgulardan foydalanilgan, ularning radiusi  $R_1=3$ m;  $R_2=0.5$ m bo'lib, ko'zgular orasidagi masofa radiusi  $R_2$  dan katta bo'lgan. Bir modali lazer nurlanishi, botiq ko'zgu orqali rezonatordan tashqariga chiqarilgan. Diafragmaning kattaligi, 0.25-0.4 sm bo'lgan. Bunday parametrlar yordamida olingan bir modali lazer nurlanishining quvvati, impulsda 0.04 Dj ga teng bo'lgan. Shunga o'xshash natija, yarim konsentrik rezonator yordamida (3.14-rasm) ko'zgular orasidagi masofani  $L=(1.1+1.2)R$  miqdorigacha uzaytirib, rezonatori turg'un bo'lmagan holatga keltirib olingan.



3.14-rasm. Yarim konsentrik rezonatorli lazer. (rezonatori turg'un bo'lmagan holat tomon siljitchi ko'zgular orasidagi masofani uzaytirish hisobiga amalga oshirilgan) 1- 100% qaytaruvchi ko'zgu; 2-fototrop mur to'sqich; 3- aktiv element; 4- diafragma; 5- yarim o'tkazuvchan ko'zgu.

Bunday holat ya'ni rezonator ish rejimini turg'un bo'limgan holatga o'tkazib olish usuli, aktiv elementning bir jinsliligiga bog'liq bo'ladi. Bunday usuldan foydalanilganda, turg'un bo'limgan rezonatorda difraksion effektdan foydalanib, nurlanishni tashqariga chiqarish usulidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi va yaxshi natija beradi. Bunday rezonatorдан foydalanilganda, nurlanishning yo'nalish diagrammasini, tekis parallel ko'zguli rezonatorga nisbatan, siqish mumkin bo'ladi. 2.14-rasmda lazer rezonatorini turg'un bo'limgan ish holatini, diffraksiya usuli yordamida, nurlanishni rezonatorдан tashqariga chiqarish usulidan foydalanilgan [28], aktiv element sifatida, o'lchamlari katta bo'lgan neodimli shisha kristalidan foydalanilgan.




3.15-rasm. Teleskopik rezonatorli lazer. 1-aktiv element; 2-fototropur to'sqich; 3,4-100% qaytaruvchi ko'zgular.

Generatsiya impulsi energiyasi 30 Dj teng bo'lgan, nurlanishning difraksion tarqalish burchagi 4-ster bo'lib, tekis yuzali rezonatornikiga qraganda anchagina nurlanishni tarqalish burchagi toraygan. Bunday tashqari, monoimpulsning davomiyligi vaqt qisqargan, bunday holat rezonatorning tuzilish konfigurasiyasiga bog'liq bo'ladi va uning siqilish mexanizmi, aktiv elementning ko'ndalang kesimi yo'nalishi bo'yicha bo'ladi. Bunday teleskopik rezonatorli lazer chemaci 3.15-rasmda ko'rctilgan.

### 3.4.2. Elektrooptik boshqaruvi sxemalarda modalar selekssiysi

Generatsyaning uzoq vaqt rivojlanishini, magnitooptik va elektrooptik boshqariluvchi rezonatorlar yordamida olish mumkin. Rezonatorda o'tishlar sonini oshirish, optik ventil yordamida, rezonator asilliyligini sekin oshirib borish, Faradey effektiga asoslangan bo'ladi, solenoid yordamida, razryad tokining optimal qiymati va uning shaklini tanlab olish orqali, rezonatordag'i nurlanishning o'tish soni oshiriladi, generatsyaning chiziqli rivojlanishi jarayonida, o'tishlar soni 700 ga teng bo'lsa, Rubin kristallidan foydalanilganda o'lchamlari -  $16 \times 200 \text{ mm}^2$  va rezonator uzunligi 1 m bo'lsa,

generatorning nurlanish spektori, taxminan  $4 \times 10^2 \text{ sm}^{-1}$  ga teng bo'ladi. Bo'ylama to'lqin tebranishlarini seleksiyasi uchun qaytargichlarning biri o'miga, tekis yuzali plastinadan va ko'ndalang turdag'i diafragmadan foydalaniлади. Ammo lazer impulsining energiyasi va quvvati, bu rejimda ishlaganda, 2 barobar kam bo'ladi. Shunday qilib, modalar seleksiyasi optik ventillik rezonatorda, kattagina energetik yo'qotishlarga sabab bo'ladi. Modalar seleksiyasi uchun, yuqori imkoniyatlar elektrooptik boshqaruvli generatorlarda bo'ladi, ular yordamida rezonator asilliyligini sekin-asta oshirib boriladi. Bundan tashqari lazerlarda, bir modali generatsiya olish, elektrooptik nur to'sqichda, elektr kuchlanishi impulsini qiymatini ketma-ket oshirib borish. invers holatning aktiv elementdagi maksimal darajasiga etgan vaqtida bo'ladi. 3.16-rasmda, elektrooptik to'sqichga berilgan, elektr impulsni kuchlanishning diagrammasi berilgan va lazer generatsiyasi impulsini ko'rsatilgan.



3.16-rasm. Kuchlanish impulsni shakli (a) va generatorning yorug'lik impulsni (b) asilliyligini pog'onali oshiruvchi, elektrooptik modulyasiyali rezonator

3.16-rasmdan ko'rinishicha, rezonator asilliyligini osnirib borish, ikki etapda amalga oshiriladi. Birinchi etapda asilliylilik oshirilganda, kuchsiz bir modali yorug'lik impulsni shakllandi va yorug'lik nurlanishi impulsni maksimal qiymatga erishgan vaqtida, zatvorga kuchlanish berilib, uni maksimal ochilishiga majbur qilinadi va natijada generatsiya rivojlanib bir modali, quvvatlari lazer impulsni hosil qiladi. Bunday generatorning optik sxemasi 3.17-rasmda ko'rsatilgan. Asilliylikni pog'onali modulyasiyasiidan, generator uchun seleksiyalovchi sistemaning hususiyatlari kriteriyasidan, ikki qo'shni tipdagi tebranislarning rivojlanishining turli vaqtidan,


tajribada foydalanish mumkin. Ikki qo'shni modalarning rivojlanish vaqtining farqi, impuls dovomiyligi vaqtiga teng yoki undan, impuls davomiyligi vaqt qiyamatidan,  $\tau_2$  yarimi qiyamatiga ko'p bo'lsa, ivers muhitidagi saqlangan energiya, bitta modaning rivojlanishi uchun sariflanadi.

Qo'shni modalarning rivojlanishi o'ttasidagi farq quyidagicha isodalanadi [37].

$$\Delta t = t_3 \frac{\Delta y}{\alpha_0 \ln_i - \gamma}, \quad (3.17)$$


Bu yerda  $\Delta t$  - impuls davomiyli kattaligining yarim qiyamatiga ( $\tau_2$ ) teng kattalik;  $\Delta y$  - qo'shni modalarning yo'qotishlari farqi;  $\gamma$ -rivojlantiril maydigan moda tebranishlarining yo'qotishlari.

Lazerlar qurilmalarida, modalar seleksiyasi uchun asilliylikni oshirishda, elektrooptik modulyasiyadan foydalanilganda, p'ezoelektrik tebranishlarni paydo bo'lishi imkoniyatini ham hisobga olish kerak, chunki ular elektrooptik kristallga, elektr impulsi berilganda, paydo bo'ladi. P'ezooptik tebranishlarning paydo bo'lishi, yuqorida aytib o'tilgan jarayonni, generatsiya rivojlanishini buzadi natijada, modalar seleksiyasini amalgaga oshiruvchi elementlarning hususiyati yomonlashadi. P'ezooptik halaqitlarni yo'qotishning boshqa yo'llaridan biri, svetozatvorming elektrooptik elementlarini geometriyasini va ularni o'rnatish usullariga ham bog'liq bo'ladi, bu rezonatorning asilliyligini pog'onali oshirish usuli qo'llanganda, sodir bo'ladi. Pog'onali usul bilan, asilliylikni oshirishning keyingi rivojlanishi, rezonator bilan, tashqi musbat aloqa bog'lash natijasida bo'lib, bunday usul qo'llanganda, rezonatori boshqarishda, p'ezoshunning paydo bo'lish ehtimoli yo'qoladi. Bo'ylama to'lqin modalarini seleksiya qilishda, rezonansli qaytargichidan foydalaniladi, ko'ndalang to'lqin modalarning seleksiyasi, p'ezooptik diafragma yordamida amalgaga oshiriladi. Bunday turdag'i rezonatorning optik sxemasi, 3.18-rasmida keltirilgan. Bu turdag'i optik generatorning tarkibida 98% li qaytarish ko'zgusi va rezonansli qaytargich bo'lib, u ikki kvars plastinkasi - 6dan, (qalintigi 14 mm bo'lib, plastinalar o'ttasidagi oraliq masofa 7 mm). iborat. Rezonatorning uzunligi 80 sm, aktiv element sifatida rubin yoki shisha kristallari - 5dan foydalanilgan, uzunligi 80 mm, diametri 8 mm bo'lgan.




3.17-rasm. Pog'onali elektrooptik modulyasiya asilllikligiga ega bo'lgan lazerning optik sxemasi

1-rezonansli qaytargich; 2-murni chetlatish plastinasi; 3-diafragma; 4-aktiv element; 5-polyarizatsiyalovchi prizma; 6-elektrooptik kristall; 7-prizmatom; 8-razryadnik oradig'iga murni fokuslab beriluechi linza; 9-razryadnik; 10-zaryadlovchi kabel; 11- razryadlovchi kabel; 12-ta'minot manbai.



3.18-rasm. P'ezooptik diafragmali va misibat qayta bog'lmishli, bir chastotali lazer generatorining sxemasi.

Aktiv elementni optik daimlash uchun kvarsli - IFP-800 turdag'i lampadan foydalanilgan. Rezonatorning aslliyligini modulyasiya qilishda, chorak to'lqin uzunligidagi yorug'lik nur to'sqichidan va Archard - Teylor polyarizatori 3dan foydalanilgan. ( 3.19- e rasmda), kuchlanishning paydo bo'lishi, lazer rezonatorida yorug'lik nurlanishini paydo bo'lishiga bog'liq bo'ladi.



3.19-rasm. Elektrooptik elementning boshqaruchi kuchlanishning diagrammasi, nur qaytargichning generatsiya impulsini o'tkazishi

a da,  $U_{yopuvchi}$  - yopuvchi kuchlanish; b da,  $U_{veg'otuvchi}$  - elektrooptik elementdagи p'ezoelektrik tebranishlarni uyg'otuvchi kuchlanish; v da,  $U_{yopishchi}$ -asilliylikni sekin yoqish uchun sinxron tarzda beriladigan kuchlanish; g-nur to'sqichning o'tkazishi; d-nur to'sqichning, vaqtning  $t_{max}$  nuqtasi yaqinida o'tkazishi, kattalashitirilgan mashtabda; e-qayta bog'lanish natijasida kuchlanishning o'zgarishi, j-generatsiya impulsining formasi (qayta bog'lanish mavjudligida, qayta bog'lanish yo'qligida).

3.19-rasmida, lazer generatsiyasining yorug'lik impulsini ko'rsatilgan. Misol qilib, bir modali lazer impulsini olingan bo'lib, energiyasi 0,1-0,15 Dj neodimli shisha kristallida, 0,15-0,2 Dj rubin kristallida olingan. Impuls davomiyligi vaqtiga 30 ns, ketma-ketlik chastotasi esa 0,5 Gs bo'lgan. DKDR kristallidan foydalaniilgan, o'lchamlari ( $10 \times 10 \times 40$  mm) bo'lib z o'qi bo'ylab kesilgan va Archard-Taylor polyarizatoridan – 3dan foydalaniilgan. DKDR kristallining yon tomoniga, belbog' shaklidagi elektrodlar kumush pasta yordamida o'rnatilgan bo'lib, bu elektrodlar yordamida nur to'sqich, lazer

nurlanishining bir qismi, tekis yuzali parallel plastinkalar - 4 yordamida, noaksial fotoelement (FEK-09) - 9 tomon yo'naltirilgan, fotoelementning katodi, kristall - 2 ning elektrodlariga bog'langan. Musbat qayta boshlanishning kattaligi, plastinka - 4 ning burilishi, manfiy linza 7, hamda neytral va rangli svetofilterlar 8 yordamida boshqarilgan. Kristall 2 ga kondensator -  $S_2$  va rezistor-R<sub>3</sub> orqali sinusoidal kuchlanish, generator 16 (G3-7A) yordamida berilgan. Shu kuchlanish natijasida, sinxronizatsiya amalga oshirilgan va boshqaruvchi kuchlanish, nur to'sqich va blok 17 ga ularadi so'nga damlash lampasi - 10 yoqiladi. Buning uchun sinusoidal kuchlanish - 14, blokdagi ketma-ket qisqa impulslarga aylantiriladi va ulardan ajratib olingan bir impuls - 15 kirishga ularadi va ishga tushirib yuboruvchi signal berilgandan so'ng 14 blokdan chiqqan impulslar yordamida, lazer generatori ishini, boshqa sistemalar bilan sinxronizatsiya qilinadi. Ishga tushirib yuboruvchi signal kelishi bilan, impulsli lampalar - 17 yonadi va bir vaqtning o'zida -12 blok yordamida, rezistor - R<sub>2</sub> orqali fotoelement- 9 katodiga va kristall - 2 elektrodiga manfiy kuchlanish U<sub>yop</sub> (kolokol shaklidagi impuls davomiylik vaqt 1 ms) elektrooptik nur to'sqichni yopadi va lazerda, o'z-o'zidan uyg'onish sodir bo'lishini olidini oladi. Rasm 3.19.da, aktiv muhitning maksimal invers holati vaqtida, nur to'sqichga boshqaruvchi kuchlanish sxemasi - 13 yordamida, blok 11 va S<sub>1</sub> kondensator va R<sub>1</sub> rezistor orqali musbat impuls U<sub>och</sub> (elektrooptik zatvorni ochuvchi) kuchlanishi beriladi. 11 blokda ishlab chiqarilgan impulsning davomiyligi vaqt, generator - 16 dan kelgan sinusoidal kuchlanish U<sub>uo</sub> ning davriga to'g'ri keladigan (3.19 - b rasm). U<sub>yop</sub>, U<sub>och</sub> kuchlanishlar va nur to'sqichning qayta bog'lanish kuchlanishi ta'sirida nurlanishni o'tkazib yuboriladi. 3.19 - g va 3.19 - d rasmida, nur to'sqichning nurlanishni o'tkazib yuborishi, kattalashgan mashtabda t<sub>uks</sub> nuqtasi yaqinida ko'rsatilgan [16-19].

### 3.4.3. Optik kvant kuchaytirgichlari

**Nazariya asoslari.** Invers muhitidan nurlanish o'tganda, uning kuchayishi bilan nazariy jixatdan tanishmiz. fotonlar zichligini saqlanishni tenglamasi  $\Phi(x,t)$  va invers holat zichligini  $N(x,t)=N_2-N_1$  qandaydir t vaqtida, x-nuqtada, materiallarda yutilish sababli yo'qotishlar va nurlanishning sochilishini yo'q deb, faraz qilib, ( $\rho=0$ ) deb, ikki sathli model uchun, fotonlar zichligining saqlanish tenglamasi, shunday ko'rinishda yoziladi:

$$\frac{d\phi(x,t)}{dt} + c \frac{d\phi(x,t)}{dx} = c\sigma N(x,t) \cdot \phi(x,t) \quad (3.18)$$

$$\frac{dN(x,t)}{dt} = -2c\sigma N(x,t) \cdot \phi(x,t) \quad (3.19)$$

Bu yerda,  $\sigma$  - nurni ko'ndalang yutilishi;  $s$  - vakumdag'i yorug'lik nuri tezligi;  $N_1$  va  $N_2$  - asosiy va qo'zg'atilgan holatdag'i aktiv atominlarning zichligi. Bunday nochiziq tenglamalar, umumiy holda taxlit qilinmaydi. To'g'ri burchakli impuls uchun, impuls davriy vaqtli uzunligi  $\tau_0$ , bo'sha, echim qayidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\frac{\Phi(x,t)}{\Phi(0)} = \left[ 1 - (1 - e^{-\sigma N_1 t}) \cdot e^{-2\sigma\Phi(0) \cdot c \left( t - \frac{x}{c} \right)} \right]^{-1} \quad (3.20)$$

$\Phi(0) = \Phi(x=0, t=0)$  -fotonlar zichligi  $x=0$  boshlang'ich vaqtida bo'lib, impuls davomiyligi vaqtida  $\tau_0$  o'zgarmaydi deb hisoblaymiz. Aktiv muhitda yorug'lik nurlanishining o'tgan yo'liga qarab, yorug'lik impulsining kuchayishini quyidagiicha yozamiz.

$$G = \frac{1}{2\sigma\Phi(0)c\tau_0} \ln \left[ 1 + (e^{2\sigma\Phi(0)c\tau_0} - 1) \cdot e^{\sigma N_1 t} \right] \quad (3.21)$$

Har bir optik materialda, nurlanishning yutilishi va sochilib tarqalishi materialning bir jinsli ekanligidan bo'lib, ular yo'qotishlarga olib keladi, shu yo'qotishlaming ta'sirini aniqlash uchun, tenglama (3.20)ni quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$\frac{\partial\phi(x,t)}{\partial t} + c \frac{\partial\phi(x,t)}{\partial x} = c(\sigma N - \rho) \cdot \phi(x,t) \quad (3.22)$$

bu yerda,  $\rho$ -materialldagi aktiv bo'limgan yo'qotishlar. Tenglama (3.19) va (3.22) taxlili uchun, quyidagi ko'rinishdag'i formulani kiritish kerak, koordinatasi  $x$  nuqtada joylashgan kuchaytirgichning yuza birligidan,  $t$ -vaqt ichida o'tgan, impulsdag'i fotonlarning to'la sonini aniqlaymiz.

$$F(x) = \int_0^t c\Phi(x, t) dt \quad (3.23)$$

U holda, tenglik (3.19) ni (3.22) ga ko'yib va (3.23) ni hisobga olib, quyidagi ifodani olamiz:

$$\frac{dF(x, t)}{dx} = -\frac{1}{2} [N(x, t) - N_i] - \rho F(x) \quad (3.24)$$

Bu yerda,  $N_i = N(x, t=0)$  - kuchlanishni boshlanish vaqtidagi invers holat. Invers holat  $N(x, t)$  integrallash yo'li bilan (3.24) va (3.19)ni hisobga olib,  $N$ , va  $F(x)$  orqali, quyidagi ko'rinishga keladi.

$$N(x, t) = N_i e^{-2\sigma F(x)} \quad (3.25)$$

Formula (3.25) ni (3.24) ga qo'yib, quyidagi differensial tenglamani olamiz:

$$\frac{dF(x)}{dx} = \frac{N_i}{2} [1 - e^{-2\sigma F(x)}] - \rho F(x) \quad (3.26)$$

Bu nochiziq differensial tenglama, umumiy holda hisoblash usuli bilan echiladi. Ammo, ba'za bir taxminlarning asosida, kerakli bog'lanishlarni olish mumkin. Lazer nurlanishining kichik zichligini taxminan  $e^{-2\sigma F(x)} = 1 - 2\sigma F(x)$  deb olsak, u holda tenglama (3.26) echimi quyidagicha bo'ladi:

$$F(x) = F_0 e^{(\sigma N_i - \rho)x} \quad (3.27)$$

Bu yerda,  $F_0$  -kuchayishga qadar, impulsdag'i fotonlar soni. Tenglik (3.27)dan ko'rinishicha, kichik kattalikdag'i impulslar, kuchaytirguvchi muhitdan o'tish davomida, eksponensial holda kuchayadi (chiziqli kuchayish rejimi).  $F(x)$  ning katta qiymatlarda, taxmin qilamiz  $e^{-2\sigma F(x)} \rightarrow 0$  deb, tenglama (3.26)ni quyidagi holga keltiramiz:

$$\frac{dF(x)}{dx} + \rho F(x) - \frac{N_t}{2} = 0 \quad (3.28)$$

Tenglamani integrallab, quyidagi ko'rinishga keltiramiz.

$$F(x) = \frac{N_t}{2\rho} - \frac{N_t}{2\rho} \cdot e^{-\rho x} + F_0 \cdot e^{-\rho x} \quad (3.29)$$

Fotonlar sonini impulsda oshishi bilan,  $N_t/2\rho$ -maksimal qiymatiga tomon intiladi, bu qiymat, impulsdagи fotonlarning to'yingan holati bo'ladi. Yuqorida muhokama qilingan masalalar va natajalar, to'rt sathli aktiv element uchun va ulardagи o'tish holatlari sistemasi uchun ham to'g'ri bo'lib qoladi. Faqat tenglama (3.19) ning o'ng tomonidagi ko'paytma 2 ni. ko'paytma 1 ga almashtiriladi. Formula (3.29) dan ko'rinishicha energiyaning maksimal zichligi, yo'qotishlar kattaligi  $r$  va invers holat  $N_t$  ga bog'liq bo'ladi. Rubin kristalli uchun, invers muhit saqlagan energiya  $2.5 \text{ Dj/sm}^3$  bo'lib, yo'qotishlar qiymati  $\rho = 0.02 \text{ sm}^{-1}$  bo'lsa, kuchaygan impulsning maksimal enegrgiya zichligi  $62.5 \text{ Dj/sm}^2$  ga teng bo'ladi. Neodimli shisha kristalli aktiv element uchun esa, invers muhit saqlagan energiyasi  $1 \text{ Dj/sm}^3$  bo'lib, yo'qotishlar qiymati  $\rho = 0.003 \text{ sm}^{-1}$  bo'lsa, energiyaning maksimal zichligi  $333 \text{ Dj/sm}^2$  bo'ladi [18, 19, 22].

#### 3.4.4. Yorug'lik nurini kuchaytirish uehun invers holatni hosil qilish

Nurlanishni kuchaytirish uchun zarur bo'lgan sharoit, aktiv muhitda yuqori darajadagi invers holatini yaratish va uni ushlab turish kerak bo'ladi. Invers holatni yaratish va katta koefitsientli kuchlanishga erishishning o'ziga xos qiyinchiliklari bor bo'lib, u ham bo'lsa aktiv muhitning turg'un emasligidadir. Aktiv muhitning invers holatini pasaytiruvchi jarayonlardan biri, o'z-o'zidan nurlanish (superlyuminessensiya) jarayonidir.

Superlyuminessensiya har bir aktiv elementda invers holat bo'lgan jarayonda bo'lib, yuqori darajali invers holatni yaratishga xalaqit beradi va yuqori son paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Superlyuminessensiya kuchlanishning katta koefitsientlarida ( $20^3$ - $10^4$ ) o'zini yaqqol nomoyon qiladi. Bu holda, uming rubin va neodimli kristallarda, intensivligi kuchayadi va yo'nalishi, impulsi formasi o'zgaradi. Ba'zi bir hollarda superlyuminessensiya energiyasi impulsi  $100 \text{ Dj}$  bo'lib, impulsning davomiylik vaqtiga  $\sim 100 \text{ mks}$  bo'ladi. Bundan tashqari aktiv elementda, juda yuqori kuchayish

koeffitsientiga erishilgan vaqtida superlyuminessensiyaning gigant impulsi vujudga keladi. Agar fotonlar aktiv elementdan bir martta o'tganda, ularning kuchayishi shu darajaga boradiki, aktiv elementning, aktiv zarrachalarining ko'p qisimi nurlanadi. Gigant superlyuminessensiyani olishning shartlari quyidagicha ifodalanadi:


$$k \frac{t_0}{t_{qo'zg'}} \cdot \frac{N_2}{N_1} \cdot \frac{\Omega_{eff}}{2\pi} > 1, \quad (3.30)$$

bu yerda,  $t_{qo'zg'}$  -zarrachalarining qo'zg' algan sathda yashash vaqt,  $t_0$  - fotonning aktiv muhitdan o'tish vaqt;  $N_1$  va  $N_2$  boshlang'ich invers holat va ishchi yuqori sathdagi invers holat;  $\Omega_{eff}$  muhit geometriyasiga bog'liq bo'lgan lyuminessensiyaning effektiv fazoviy burchagi. Formula (3.30) dagi shart bajarilish ostonasida, bir necha  $t_0$  ga teng bo'lgan yorug'lik impulslarini vujudga keladi va ostonadan o'tgandan keyin esa superlyuminessensiyaning impulsi davomiylik vaqtiga  $t_0$  ga intiladi. Etarli yuqori kuchlanish vaqtlarida superlyuminessensiya nurlanishida, qayta bog'lanish natijasida parazit generatsiya ham kuzatiladi, bu asosan nurlanishning aktiv elementda tarqalishidan hosil bo'ladi. Bu effektini yo'qotish uchun, aktiv element immersion qavat bilan qoplanadi, bu qoplama nurlanishni yaxshi o'ziga yutadi. Superlyuminessensiya va parazit generatsiyadan qutilish uchun va katta kuchlanish koeffitsientiga ega bo'lish uchun ham kuchaytirgichlar ketma-ket joylashgan bo'ladi. lazer kuchaytirgichlari o'rtasida bog'liqlik bo'lishi kerak emas. Bunday bog'liqliknini yo'qotishning eng sodda usullaridan biri, kuchaytirguvchi lazer kaskadlarini iloji boricha bir-biridan uzoqroq qilib joylashtirish kerak bo'ladi, buning natijasida ular orasidagi fazoviy burchak kichkinalashadi va parazit generatsiyaning rivojlanishiga yo'l qo'ymaydi. Bu o'z navbatida noqulay va katta geometrik o'lehamlar talab qiladi. Bundan boshqa effektiv yo'llaridan biri, kuchaytirgich kaskadlar o'rtasidagi bog'liqliknini olib tashlash uchun, har turdag'i nur to'sqichlardan (fototron, elektrooptik, elektroportlovchi plenka) foydalanan hisoblanadi. Kuchaytirguvchi kaskadlarning orasidagi bog'liqliknini fototron nur to'sqichlar yordamida amalga oshirilganda, ular aktiv elementlar bilan birga, ikki komponentli kuchaytirguvchi va yutuvechi muhit sisatida namoyon bo'ladi hamda yorug'lik impulslarini intensivligiga nisbatan ostona hususiyatiga ega bo'ladi. Agar elektrooptik nur to'sqichlardan kuchaytirgich kaskadlarni bog'liqligini yo'qotishda foydalansila, ular faqat yorug'lik impulsining o'tish vaqtida ochiladi. Elektroportlovchi plenklar yopiq holatda hech qanday nurlanishni o'zidan o'tkazmaydi, ammo

ochilgandan so'ng, ular qayta yopilmaydi. Bir tomonlarga nurlanishni o'tkazish uchun, kuchaytirgich sistemalarida optik bog'lanishi olib tashlash uchun, Faradey effektidan foydalaniladi. Kuchaytirgichchi kaskadlarning, kuchaytitirish koefitsientiyuqori bo'lmasa ham kuchaytirgich kaskadalarida geometrik o'lehamlari katta bo'lgan elementlardan, foydalaniladi. Ayniqsa oxirgi chiquvchi kaskadning o'lehamlari, boshqalaridan farq qiladi va uzunligi va ko'ndaleng kesim yuzasining kattaligi bilan ajaralib turadi. Ularda bir necha parazit jarayonlar, optik damlash vaqt bilan bir vaqtda sodir bo'ladi. Aktiv elementlarni, neodimli shisha kristallini himoyalash uchun, uning ustiga samariy aralashmasi qo'shib ishlangan shishali ekranдан foydalanamiz yoki samariyini glisrindagi eritmasi bilan qoplanadi [28-30].

#### **3.4.5. Bir tomonga yo'nalgan, yuguruvchi to'lqinlarning kuchaytirgichi**

Bunday kuchaytirgichlar asosan bir-biri bilan optik bog'lanishi bo'limgan kuchaytirgich kaskadlaridan iborat bo'ladi. Ulardan kuchaytirilayotgan nurlanish, bir yo'nalishda o'tadi. Bu turdag'i kuchaytirgichlarda invers muhitdan kam foydalaniladi, chunki bir yo'nalishli yuguruvchi to'lqinlar, chiziqli ravishda kuchaytiriladi. Ularning chiqish energiyasi, kuchayishni to'yinishidan yoki aktiv elementni parchalanishi sababli chegaralangan bo'ladi. Shu sababalarni hisobga olgan holda, birinchi kaskadlarning aktiv elementlarining kesim yuzasi, kichikroq qilib olinadi. Bu bilan optik damlash energiyasi, bekorga aktiv elementlarning katta hajmida, invers holat yaratmaslik uchun tejaladi. Nochiziq kuchlanish xududiga o'tishda va maksimal energiyani kuchlanish ziehligi qiymatiga yaqinlashganida, yorug'lik nurlanishining diametri kattalashtiriladi (bu bilan aktiv elementning yuzasi proporsional ravishda kattalashadi) va natijada maksimal energiya qiymati olinadi. Bu turdag'i operasiya bir necha bor ma'lum chegaragacha qaytarilishi mumkin. Chunki, aktiv muhitni optik damlash qiyinlashadi, bunga sabab aktiv elementning kesim yuzasining katta o'lehamligi bo'ladi (3.20-rasm). Nazariy va eksperimental tekshiruvlar va kuchlanish jarayoni ustida, izlanishlar olib borilgan [31-33].




3.20-rasm. Yuguruvchi to'lqinli kuchaytirgich

1-aktiv element; 2-nur to'sqich; 3-teleskop, nur yuzasini keingaytiruvchi.

Yuqorida olib borilgan izlanishlarning ko'rsatishicha, quyidagi effekt aniqlangan. Yuqori quvvatga ega bo'lgan yorug'lik impulsining maksimumi, nochiziq muhit bo'lib, yuqori nurlanish tezligida harakatlanadi. shuni hisobga olib, yorug'lik nurlanishi quvvatini oshirishning yangi usuli ya'ni yorug'lik impulsi davomiyligi vaqtini nur to'sqich yordamida, yorug'lik to'lqininining oldi frontini shakkantirish natijasida, qisqartirish yo'li bilan oshirish usuli, taklif etildi. Katta quvvatli kuchaytirguvchilar kaskadini tuzilishi va ularni bir necha nur to'sqichlar bilan ajratilishi va aktiv elementlar yuzasini bir-biriga monad qilib tanlash yoki tabiiy ravishda nurlarni tarqalishini hisobga olib, teleskop yordamidan foydalanilganligi ko'rsatilgan. Aktiv elementlarning qirra yuzalari, Bryuster burchagi ostida qirqilgan bo'lib, bunday kuchaytirgichlar sistemasi yordamida, lazer impulsleri davomiylik vaqtি bir necha pikosekund bo'lgan, energiyasi 500 Dj bo'lgan generatsiya olingan. Bunday yuqori darajadagi lazer nurlanishi energiyasi, bir necha kuchaytirguvchi kesim yuzasi, katta aktiv element kaskadlar yordamida olingan. Katta o'chamli aktiv elementlar bilan ishlagandagi, qiyinchilik asosan, ularni bir tekis aktivlashtirish masakusi bo'ladi. Yumaloq sterjen shaklidagi aktiv elementlarning kesim yuzasini katta o'chamligidan foydalanilganda, yorug'lik nurlanishi konsentrasiyasini kamayishini hisobga olish kerak bo'ladi. Kuchaytirguvchi kaskadlarning yuzasini kattalashtrishning bir usuli, kuchaytiriluvchi nurga nisbatan burchak ostida joylashtirilgan disklardan foydalanishdir.

Agar, disklar suyuq muhitda joylashgan bo'lsa, ularni burchaklari ixtiyoriy tarzda bo'lishi mumkin. Agar ular havoda joylashgan bo'lsa, yon qirralardan qaytgan nurlanishning yo'qotishini hisobga olib, ularni Bryuster burchagi ostida kuchaytiriluvchi nurlanishga nisbatan joylashtiriladi. Disklarni or'matish, parallel yoki zigzaksimon qilib joylashtiriladi. Bunday disklarni optik damlash, yon tomonidan amalga oshiriladi (3.21-a rasm) kabi. Bunday sxemaning kamchiliklaridan biri, konstruksiyasining murakkabligi hamda kuchaytirguvchi kaskadlarning katta o'chamligidadir.

3.21-*b* rasmida ko'rsatilishicha, kuchaytiriluvchi nurlanishning ko'nda lang kesimi yuzasini kengaytirish uchun, silindrsimon teleskopidan foydalaniqan, buning uchun aktiv element to'g'ri burchakli yuzaga oya bo'lib, o'lchamlari yon tomondan optik damlashni amalga oshirishga imkon berishi kerak.



3.21-rasm. Tekis, aktiv elementli, chiquvchi, kuchaytiruvchi kaskadlar


*a*-zigzaksimon joylashgan tekis (kvadrat yoki xalqa shaklidagi) plastinkalar; *b*-to'g'ri to'rt burchak yuzali aktiv elementli kuchaytiruvchi kaskadlarni muvofiglashtirish; 1-kuchaytirgichning aktiv elementi; 2-nurlanishni yuzini kengeytiruvchi slindrik yuz; 3-chiquvechi kuchaytirgichning aktiv elementini, yon tomondan damlash amalga oshiriladi.

Bunday kuchaytiruvchi kaskadlar, shunday tanlab olinishi kerak-ki, aktiv elemntning yon tomon ko'ndalang kesimi yuzasining, bir birlit yuzasiga to'g'ri kelgan energiyaning kattaligi, aktiv element ishlangan materialning parchalanishi uchun mo'ljallangan energiya miqdoridan, oshib ketishi kerak emas bo'ladi. Kuchaytiruvchi bu tipdag'i (to'g'ri to'rt burchak yuzali) aktiv elementlar va silindrsimon teleskoplar nafaqat kuchaytiruvchi kaskadlarda, yuguruvchi to'lqinlarni kuchaytirish uchun, balki boshqa kuchaytirgichlar bilan birgalikda ham qo'llanilishi mumkin.

#### 3.4.6. Ko'p o'tish yo'lakli optik kuchaytirgich

Bu turdag'i optik kuchaytirgichlarda, nurlanish birin-ketin, tekis parallel yoki egri chiziqli ko'zgulardan qaytib, aktiv elementdan ko'p martta o'tadi.

Bu turdag'i kuchaytirgich, chiziqli yoki nochiziqli impulslarni kuchaytirishda effektiv hisoblanadi. Kichik quvvatli, chiziqli impulslarni kuchaytirisa maqsadida ko'p yo'lakli kuchaytirgichlardan, tekis parallel yuzali ko'zgular dan foydalaniadi. Chiziqli kuchaytirish rejimida, boshlang'ich invers holat, impulsni o'tishida deyarli o'zgartirmaydi, bu esa bir invers muhitdan bir necha marta foydalanishga imkon beradi. Bu rejimda nurlanish aktiv elementdan o'tib, ko'zgudan qaytib, o'z yo'nalishini teskari tomoniga o'zgartirib, yana qatib aktiv muhitdan o'tadi, bunday o'tishlar ko'p marta qaytarilishi mumkin, faqat superlyuminessensiya vujudga kelishidan ehtiyoj bo'lisi kerak. Shu maqsadda, aktiv element bilan qaytargich ko'zgular orasiga nur to'sqichlarlar o'matiladi. Bu esa o'z navbatida ko'p yo'lakli kuchaytirgichlar tuzilishini murakkablashtiradi. Juda katta qiymatli kuchaytirishga mo'ljallangan kuchaytirgichlar uchun, ikki, uch martta ko'p kuchaytirgichdan o'tadigan sistema uchun, optik nur to'sqich xizmatidan foydaanilmagan holda ham ishslash mumkin.



3.22-rasm. Ko'p o'tish yo'lakli optik kuchaytirgich  
a- ikki o'tish yo'li kuchaytirgich, b- ko'p o'tish yo'llik kuchaytirgich 1-aktiv  
element; 2-100% qaytaruvchi ko'zgu; 3-mur qaytargichlarlar.


Tekis parallel yuzali ko'zgular dan, ko'p yo'lakli kuchaytirgichlardan kichik yuzali nurlanishni kuchaytirishda foydalanish mumkin. Bunday kuchaytirgichlarning asosiy kamchiligi, invers muhitdan to'la foydalanmaslik bo'lib, bunga sabab invers muhitga kirayotgan va undan chiqib, ko'zgudan qaytib, qayta kirayotgan nurlanishning traektoriyalarini boshqa-boshqa ekanligidadir. Bundan tashqari, ko'p yo'lakli kuchaytirgichlar bilan ishslash va rezonator ichida nurlanishni boshqarish, ancha mohirlik va mehnatni talab qiladi. Shularni hisobga olib, katta kuchlanish koefitsientiga ega bo'lgan energiya zichligini olish uchun, ko'p yo'lakli va teskari parallel ko'zguli kuchaytirgich o'miga, boshqariladigan rezonatorli kuchaytirgich-

lardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. 3.22-*a* rasmida, uch o'tish yo'lakli, qavariq botiq ko'zguli kuchaytirgichning optik sxemasi ko'rsatilgan.

Agar, qavariq va botiq yuzli ko'zgular fokusi, o'zaro mutanosib bo'lalar, bunday uch o'tishli yo'lak kuchaytirgichi, teleskopik kuchaytirgich ham deyiladi. Bunday kuchaytirgich, nurlanishning tarqalish burchagini kamaytiradi va shu vaqtning ichida, nurlanishning ko'ndalang kesim yuzasi, bir necha barobar kattalashtiriladi (kattalashtirish, teleskopning kattalashtirish hususiyatiga bog'liq bo'ladi).

Ko'p yo'lakli kuchaytirgichlarning boshqa turi, bu qavariq-qavariq ko'zguli kuchaytirgichlar bo'lib, bu ko'zgular kuchayuvchi parallel nurlanish dastasini, tarqatuvchi nurlanish dastasiga aylantiradi. Bunday kuchaytirgichda, nurlanish dastasi birinchi qaytargichdan qaytgandan so'ng burchak ostida tarqala boshlaydi va ikkinchi qaytarilishidan so'ng, tarqalish burchagicha o'zgaradi. (3.23-*b* rasi).

Ko'zgular radiuslari nisbatiga qarab, keyingi qaytishlarda, tarqalish burchagi kamayishi yoki kattalashishi mumkin. (3.23-*v*).



Rasm 3.23. Egri chiziqli, silindrsimon ko'zguli, uch o'tish yo'lakli kuchaytirgichlar:


*a)* - teleskop tarzda joylashtirilgan qavariq-botiq ko'zgu;  
*b)* - qavariq-qavariq ko'zguli; *v)* - tekis qavariq ko'zguli; 1,3 - ko'zgular;  
 2,4 - svetozatvorlar; 4 - aktiv element.

Bunday kuchaytirgichda, kuchaytiriluvechi nurlanishning energiyasining zichligi, aktiv muhitning kuchaytirish qiymati, qavariq-qavariq sistemalari ko'zgularning kattalashtirish imkoniyatiga bog'liq bo'ladi. Hamma egri

chiziqli ko'zguli, ko'p o'tish yo'lli kuchaytirgichlarda, maksimal invers holatni aktiv elementda olish uchun, qaytarguvchi ko'zgular optik jixatdan, aktiv elementga bog'liq bo'lmaydilar, shuning uchun eng qo'l keladigan optik elementlar, fototron yoki elektrportlovchi plenkali svetozatvorlar bo'ladi [26,35,38,43].

### 3.4.7. Regenerativ optik kuchaytirgich

Regenirativ optik kvant kuchaytirgichlarda, kuchaytirish rejimi, musbat qayta bog'lanish yordamida amalga oshiriladi. Regenerativ kuchaytirgichning optik sxemasi, ikkita yarim o'tkazgichli ko'zgudan iborat bo'slib, ularning o'tkazish koefitsienti  $r_1$  va  $r_2$  bo'slib, ular orasiga aktiv element joylashtirilgan bo'ladi. Kuchaytiriluvchi nurlanish  $r_1$  ko'zgu orqali kirib, ko'p marta  $r_1$  va  $r_2$  ko'zgulardan qaytib, aktiv elementda kuchayib, yarim o'tkazuvchi ko'zgu orqali rezonatoridan chiqadi (3.24- a rasm).



3.24-rasm. Regenerativ optik kuchaytirgichlar:

a)- tekis parallel rezonatorli regenerativ kuchaytirgich: 1,3- yarim o'tkazgichli ko'zgular; 2-aktiv element; b)-regenerativ kuchaytirgich.

Regenerativ kuchaytirishni, ikki turdag'i rezonatorlardan foydalaniילganda ham (turg'un va turg'un bo'ligan rezonatorlardan) amalga oshirish mumkin. 3.24- b rasmida, teleskopik rezonatorli regenerativ kuchaytirgichni optik sxemasi keltiriladi. Bunda nurlanishning kuchayishi bir vaqt ni o'zida, nurlanishning kesim yuzasini keganyishi va invers muhitning nurlanishni kuchayishi jarayonida, aktiv element hajmimining ko'pgina qismini qatnashihibidir.

Regenerativ kuchaytirgichlar, bir yo'lakli kuchaytirgichiga qaraganda ko'proq lazerga o'xshab ketadi, chunki bu kuchaytirgichning generatoriga o'xshab o'zinig rezonatori bor. Shunga ko'ra, regenerativ kuchaytirgichlarning kuchaytiriluvchi nurlanishning spektoriga nisbatan, tanlash

hususiyati bor. Regenerativ kuchaytirgichlar uzlusiz yoki impulsli generatsiya nurlanishini kuchaytirish imkoniyatiga ega. Regenerativ kuchaytirgichlardan, lazerlar impulslarini kuchaytirishda foydalaniladi. Regenerativ kuchaytirgichlar

dan foydalanib, bir chastotali spektor liniyasi kengligi  $0.005 \text{ sm}^{-1}$  bo'lgan lazer nurlanishi kuchaytirilgan. Birlamchi (asosiy) generatordagi va regenerativ kuchaytirgichdagi bo'ylama to'lqinlar modasi orasidagi masota  $0.008 \text{ sm}^{-1}$  teng bo'lgan. Kiruvchi signalning intensivligi  $10^2 \text{ Vt/sm}^2$  bo'lib, chiqishdagi intensivlik  $10^8 \text{ Vt/sm}^2$  gacha kuchaytirilgan, ammo nurlanishning yo'nalish diagrammasi yomonlashgan,  $2 \cdot 10^{-4}$  dan  $1.5 \cdot 10^{-4}$  radiangacha. Regenerativ kuchaytirgichlardan kuchsiz, uzlusiz ishlaydigan yoki impulsli rejimda ishlaydigan, impulsning davomiylik vaqtı ancha uzunroq bo'lgan nurlanishlarni kuchaytirishda foydalanib, energiyaning katta qiymat largacha oshirish mumkin.

### 3.4.8. Boshqariladigan rezonatorli kuchaytirgich

Kuchsiz yorug'lik signallarini, davomiylik vaqtı, fotonnning rezonatoridan o'tish uchun sarflangan vaqtning, ikki barobaridan ham kam vaqtga ega bo'lgan signallarni kuchaytirishning effektiv usuli, boshqariluvchi rezonatorli kuchaytirgichlar bo'lib hisoblanadi (ko'p yo'lakli rezonatrlı kuchaytirgich). Bu qurilma, optik kvant generatoriga o'xshagan bo'lib, uning ko'zgularining o'tkazish va qaytarish koefitsientlari 0 dan 1 gacha bo'lgan oraliqda sakrab [37], generatsiya jarayonidan oldin va keyin o'zgaradi. Kuchaytiriluvchi signalni, kuchaytirgichga kirish vaqtı davomida, kirish ko'zgusi ochiq bo'lib, chiquvchi ko'zgu yopiq bo'ladi. Kuchaytiriluvchi signal, kuchaytiruvchi kaskadning rezonatoriga kirib bo'lgandan keyin, kiruvchi ko'zgu yopiladi va rezonator ichida kuchaytirish jarayoni davom etadi va intensivligi ma'lum darajagacha kuchaytirilgan yorug'lik signali, chiqish ko'zgusi ochilishi bilan rezonatordan chiqadi. Rezonatordagi, har bir vaqt birligi uchun energetik balans, ikki sathli sistema uchun, shu ko'rinishda yoziladi:

$$E = E_0 + \frac{\hbar v}{2} V \left[ (N_i - N) + N_0 n_p \ln \frac{N}{N_i} \right] \quad (3.31)$$

bu yerda,  $E_0$ ,  $E$  - kuchaytiriluvchi va kuchaygan yorug'lik nuri energiyasi;  $N$ ,  $N$ - kuchlanish boshlanishidagi va oxiridagi invers holat zinchligi;  $N_0$  - aktiv sentrlar zinchligi;  $V$ - aktiv element xajmi;  $n_p$ -invers

holatning cho'qqi darajasiga teng,  $\gamma/\alpha l_a$  – ( $\gamma$ -rezonatordag'i yo'qotishlar,  $l_a$ -aktiv elementning uzunligi;  $\alpha_0$ -lyuminissensiya chizig'i markazidagi aktiv muhitning yutish koefisienti). Aktiv elementda saqlangan energiyaning bir qismi, rezonatorda yutilish, sochilish v rezonator elementlaridagi boshqa yo'qotishlarga sarf bo'ladi. Energiyaning bu qismi ( $E_{nom}$ ) quyidagicha aniqlanadi:


$$E_{nom} = N_0 V h \nu \frac{n_p}{2} \ln \frac{N}{N_i} \quad (3.32)$$

Kuchaytirilgan nurlanishni rezonatordan chiqishdagi maksimal energiyasi va impulsining davomiylik vaqtini, shu ifoda bilan aniqlanadi:

$$E = \frac{1}{2} (n_l - n_p) x V N_0 h \nu; \quad \tau = 2 \frac{L}{c} \quad (3.33)$$

Impuls formasining kuchaytirilish natijasida, shaklning o'zgarishini analiz qilish uchun (3.22) dan foydalananimiz  $f(x) = \int_0^t e\Phi(x, t) dt$  ( $x$ -nuqta yuzasidan ( $t$ ) vaqtida o'tgan fotonlar soni)

Boshqvriluvchi rezonatordan amaliy maqsadda foydalanish uchun, har turli elektrooptik qurilmalardan va yorug'likning uchqunli razryadniklaridan foydaliladi. Bu maqsad uchun, elektrooptik qaytargichlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, ular yordamida har turli kuchaytirgichlarning optik sxemalarini amalga oshirish mumkin bo'ladi.



3.25-rasm. Rezonatori boshqariladigan kuchaytirgich:

1,4-nur uchqunli razryadniklar; 2-yorug'lik nurini bo'luvchi plastinka; 3,9- $90^\circ$  lik buruvchi prizmalar, kirish yuzasi Bryuster burchagi ostida bo'lgan chiquvchi nurga nisbatan; 5- ikkita  $90^\circ$  buruvchi prizmalar orasida havo bo'shilig'i bor bo'lib, murni qisman o'tkazishni ta'minlaydi; 6,7-elektrooptik prizma-tomli qaytargichlar; 8-aktiv element.

3.25- rasmida, ikki elektrooptik qaytargichli kuchaytirgichning optik sxemasi ko'rsatilgan (bu kuchaytirgichlarning kirish yuzasi Bryuter burchagi ostida, nurlanishga nisbatan bo'lib, yon tomoniga prizma-tom o'rnatilgan), qaytargichlarning orasiga esa, aktiv element joylashtirilgan hamda Bryuster burchagi ostida kiruvchi nurlanishga nisbatan joylashgan buruvchi prizmalardan foydalanilgan. Kuchaytirgichga kirish oldidan nurlanish bo'linadi va bir qismi nurlanish, uchqunli razryadnikka tushadi, razryadnik ishga tushib. elektrik signal, elektrooptik qaytargichni ishga tushiradi, qaytargichdan qaytg'an nurlanish, kuchaytirish rezonatoriga kiradi [1, 7].

Ikkinchini nurlanish, uchqunli razryadnik rezonatordan chiqish oldida, yarim o'tkazgichli ko'zgu oldida joylashgan bo'ladi. Bunday kuchaytirgich, yorug'lik impulsi shaklini buzmasdan kuchaytirish imkoniga ega bo'ladi. Yorug'lik nurlanishi impulsining davomiylik vaqt, bir necha pikosekunddan to fotonlarning rezonatordan o'tish vaqtini, ikkiga ko'paytirilgan vaqt davomiyligicha bo'ladi.[21, 22, 23].

### 3.5. Ikkinechi garmonikani olish uchun qo'llaniladigan optik sxemalar

Lazer nurlanishining birlamchi chastotasini, ikki marotaba ko'paygan chastotasini olish, nurlanishning kristall bilan chiziqli o'zaro ta'siri, reaksiyasingin o'ziga xosligi shundan iboratki, muhiitdan tarqalayotgan to'lqin polyarizatsiyasi, elektr maydonning kuchlanishi ta'sirida, sezilarli darajada o'zgaradi. Bu masala, nazariy jixatdan qator monografiya va obzorlarda muhokama qilingan. Hozirgi kunda ikkinchi garmonika generatsiyasini amalga oshirish uchun, ishlatsa bo'ladijan kristallarning bir necha turi ma'lum bo'lib, bunday kristallarning effektivligi yuqorilari safiga, quyidagi kristalografik sinfiga kiruvchi 42m kristallarni ko'rsatib o'tamiz. (KDR;ADR; va boshqlar); segnetoelektrik perovskitlar ( $LiNbO_3$ ,  $LiTaO_3$  va boshqlar) volfram bronza strukturali kristallar

( $Ba_2NaNb_5O_{15}$  va boshqlar); geksagonal-piramidal struktura ko'rini-shidagi kristallar ( $LiIO_3$  va boshqlar) va yana boshqa klassga kiruvchi piyezoelektrik hulusiyatga ega bo'lgan kristallar kiradi. Zamonaviy texnologiyalar asosida, bu turdag'i kristallarning katta hajmdagi, yaxshi optika mexanik harakteristikaga ega bo'lganlarini o'stirish mumkin. Amaliyot praktikasida ishlatsish uchun va katta quvvatlari garmonikalar generatorini yaratishda, effektivligini katta emasligiga qaramasdan, KDR

kristalidan foydalanim kelinmoqda. Ikkinci garmonikani generatsiyasi uchun ishlataladigan, nochiziq element kristalli, fazalar mutanosibligi yo'nalishi bo'yicha kesilgan bo'lib, (boshqacha qilib aytganda sinxronizm yo'nalishi bo'yicha) kristallning butun hajmi bo'yicha nurlanishning tarqalishi davomida, birlamchi nurlanishni ikkinchi garmonikaga aylantiradi. Nurlanishning sinxronizm yo'nalishiga, birlamchi nurlanish polyarizatsiyasi yo'nalishi hamda ikkinchi garmonika nurlanishi polyarizatsiyasi yo'nalishi bog'liq bo'ladi. Fazalar aro mutanosiblikning o'zaro ta'siri natijasidagi sharti, asosiy to'lqin bilan uning ikkinchi garmonikasining sinish ko'rsatgichlarining o'zaro tengligi hisoblandi, ya'ni  $n_0(\omega)=n_e(2\omega)$ . Sinxronizatsiya burchagi  $\theta_{sn}$  quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\text{sos}^2 \theta_{sn} = \frac{1 - n_e^2(\omega)/n_0^2(2\omega)}{1 - n_e^2(\omega)/n_0^2(\omega)} \quad (3.34)$$

bu yerda  $n_0(\omega)$ ,  $n_0(2\omega)$  va  $n_e(\omega)$ ,  $n_e(2\omega)$  - asosiy va ikkinchi garmonika uchun oddiy va oddiy bo'lgagan nurlanishning tarkibiy qismlari uchun sinish ko'rsatgichi KDR kristalida, rubin kristali generatsiyasi nurlanishi uchun  $\theta_{sn} = 50^\circ 49'$ , neodim shishali kristallar uchun  $\theta_{sn} = 41^\circ 31'$ ga teng. Ikkinci garmonika chiqish nurlanishi quvvatining burchak  $\theta_{sn}$  va  $\phi$  ga bog'liqligi, ikkinchi garmonikani chiqishining maksimal qiymati,  $\phi = 45^\circ$  bo'lgan holda amalga oshiriladi. Ikkinci garmonikaning effektivligi asosiy nurlanish polyarizatsiya tekisligining, ikkinchi garmonika polyarizatsiya tekisligiga nisbtan perpendikulyar holatdaligiga bog'liq bo'ladi. Bu holda nurlanishning  $00 \rightarrow e$  ta'siri, ikkinchi garmonika olishda, tekis parallel yuza effektivligini ko'rsatadi. Ikkinci turdag'i o'zaro ta'sir, muhit bilan  $O_i \rightarrow e$  o'rtaida bo'ladi [88,89] ular o'rtaсидаги fazalar mutanosibligini quyidagi ko'rinish orqali olamiz:

$$\frac{n_0(\omega) - n_e(\omega)}{2} \geq n_e(2\omega) - n_e(\omega) \quad (3.35)$$

bu yerda, burchak  $\theta_{sn}$  bu holatda quyidagi formula yordamida hisoblanadi [88].

$$\text{sos}^2 \theta_{sn} = \frac{2[2n_e(2\omega) - n_0(\omega) - n_e(\omega)]}{n_e(\omega)[1 - n_e^2(\omega)/n_0^2(\omega)] - 2n_e^2(\omega)[1 - n_e^2(\omega)/n_0^2(2\omega)]} \quad (3.36)$$

KDR kristalli uchun, nurlanishning maksimal ikkinchi garmonikaga aylanib chiqishi  $\phi = 0$  bo'lgan holatda amalga oshadi. Aytib o'tish kerakki, rubin kristallari uchun (3.26) shart bajarilmaydi, neodimli shisha kristallari uchun taxminan  $\theta_m \approx 59^\circ$  ga teng bo'ladi. Polyarizatsiyalanmagan yorug'lik nuri uchun  $O_c \rightarrow l$  nurlanishning ta'siri asosiy faktor bo'lib. ikkinchi garmonika olishda polyarizatsiyalanmagan nurlanish uchun bosh rolni o'yndi. Agar, birlamchi tushuvchi nurlanish polyarizatsiyalangan bo'lsa, uning polyarizatsiya tekisligi, kristall KDR ning kristallografik o'qiga nisbatan ma'lum nisbatda orientirlangan bo'lishi kerak bo'ladi [38, 39, 40].

### 3.5.1. Ikkinchi garmonika olishda silindrsimon optikadan foydalanish


Nurlanishning ikkinchi garmonikasi intensivligi, sinxronizatsiya burchak tekisligida, nurlanishning tarqalish yo'naliishiga bog'liq bo'lib, nurlanishning perpendicularar tekislikdag'i burchak ostidagi tarqalishiga bog'liq bo'lmaydi. Silindrsimon linza yordamida, nurlanishni fokuslasak, nurlanishni zichligi oshadi va lazerning sinxronizatsiya tekisligidagi tarqalish burchagi qiymati o'zgaradi. Optimal F.I.K. qiymatini olish uchun linzaning fokus uzunligining qiymatini to'g'ri olish kerak. Bu fokus uzunligi, quyidagi sharoitni hisobga oлган xolda, olinadi  $\alpha_k = \theta_l - \theta_m$ , bu yerda  $\alpha_k$  fokusirovka qilinmagan nurlanishning, sinxronizatsiya yo'naliishiga, eng chetki nurlanishni og'ish burchagi:  $\theta_l$  - kristallning optik o'qi bilan fokuslangan eng chetki nurlanishning o'zaro tashkil qilgan burchagi. Shunday ko'rinishda aniqlanadi.

$$\cos \theta_l = \cos \theta (2 \cos \beta - 1) \quad (3.37)$$

burchak  $\beta$ , fokusirovka tekisligida nurlanishning yig'ilishini aniqlaydi.  $tg\beta = d/f$ , bu yerda  $d$  - nurlanishning diametri;  $f$  - linzaning fokusi uzunligi. Linzaning fokus uzunligi  $00 \rightarrow e$  va  $\theta_e \rightarrow e$  nurlanishi uchun har xil bo'ladi. Olib borilgan tajribalarining ko'rsatishicha, diametri 10 mm bo'lgan nurlanish uchun, uning tarqalish burchagi  $2\alpha_k = 2'$  bo'lsa,  $\theta_e \rightarrow ef$  uchun  $f = 150 \text{ mm}$  va  $00 \rightarrow ef$  uchun esa,  $f = 600 \text{ mm}$  ekanligi aniqlangan. Shundan ko'rinish turibdiki, bir xil sharoitda  $\theta_e \rightarrow e$  komponentali nurlanishlar uchun, fokusi uzunligi 4 marta va undan kichikroq kichik bo'lgan, linzadan foydalanishga to'g'ri keladi. Shunga o'xshash, uzunligi 40 mm bo'lgan

kristallda fokus uzunligi  $f=380\text{ mm}$  bo'lgan silindrsimon linza yordamida olingan, fokuslanmagan lazer nurlanishidan foydalaniłgan.

Olib borilgan optik sxemalar ustidagi nazariy va amaliy izlanishlarning ko'rsatishicha, teleskopik sistemalar nurlanishni yuzasi bo'yicha hamma yo'nalishlarda bir xil kattalashtirishga ega bo'lgan hususiyatlari yordamida (3.26- a rasm) va ikki o'zaro perpendikulyar tekislikdagi, har xil qiyamatda kattalashtirilishi, sistemaning F.I.Kini oshirish imkonini bermaydi. (3.26- b rasm ) chunki silindrsimon linsalar nurlanishning tarqalish burchagini kamaytirish bilan birga, nurlanishning zichligini kamaytirib yuboradi (3.26-rasm).



3.26-rasm. Lazer nurlanishi strukturasining fazoviy shakllanishining optik sxemalari:

a- teleskopik, oksial-simmetrik sistema; b- silindrsimon linsalardan tashkil topgan teleskopik linsa; c- silindrsimon fokusloviči linsalardan tashkil topgan teleskopik sistema.

3.26-v rasmida, ko'rsatilgan optik sxema, ko'rsatilgan kamchiliklarni yo'qotib, nurlanishning zichligi bilan tarqalish burchagi orasidagi optimal nisbiylikni belgilab beradi. Bu sistemaning tuzilishi: ikki silindrsimon linsadan tashkil topgan, teleskopik sistema shunday joylashtirilganki, nurlanishning kesim yuzasi, kristallning asosiy tekisligida kattalashsin, uchinchi teleskopik linsa yorug'lik nurlanishini, kristallning asosiy tekisligiga, perpendikulyar tekislikda fokuslasin. Amaliy tomonidan nurlanishning bunday shakllanishi, ikkita linsa yordamida amalgalashadi. birinchi linsa mansiy silindrsimon bo'lib, ikkinchisi mustbat sferasimon bo'ladi.

Neodim shisha kristalli asosida ishloviči lazerning quvvati  $20\text{Mvt/s}^2$  bo'lib, uning nurlanishining tarqalish burchagi  $2'$  bo'lgan, generatsiyasining

ikkinchi garmonikasi, uzunligi 5 sm bo'lgan KDR kristali yordamida, optik sxemada, amalga oshirilgan. Bunday sistema ishlataliganda, ikkinchi garmonika olish generatsiyasini F.I.K ti 70% etgan [ 35,42, 43].

### 3.5.2. Lazer rezonatorida ikkinchi garmonika generatsiyasini olish

Ikkinchi garmonikani olish uchun, lazer rezonatorini ichiga nochiziq o'zgartuvchi kristal joylashtiriladi. Bu rezonatorning bir ko'zgusi, asosiy nurlanishni 100% qaytarish hususiyatiga ega bo'lib, ikkinchi ko'zgu esa ikkinchi garmonika nurlanishini to'la o'tkazib yuboradi. Bu holatda rezonatordan ikkinchi garmonika nurlanishining hammasi chiqarib yuboriladi.

Erkin generatsiya rejimi uchun yozilgan tezlik tenglamalari, ikkinchi garmonika nurlanishining chiqish quvvatini, generatorning parametrlariga (ichki yo'qotishlar koeffitsienti, damlash tezligi lyuminissensiya vaqt, aktiv zarrachalarning umumiyligi soni va boshqalar) bog'liqligini aniqlab beradi. Nochiziq elementlarning rezonator ichida joylashganligi, nafaqat ikkinchi garmonika olishga olib keladi, balki impuls shaklini ham o'zgartiradi. Rezonator ichidagi yo'qotishlarning nochiziq, asosiy nurlanish quvvatiga bog'liqligi, ichki manfiy qayta bog'lanishni keltirib chiqaradi. F.I.K. ning lazer quvvatiga qarab, chiziqqli bog'liqligiga, rezonatordagi yo'qotishlar, ikkinchi garmonika olishda, katta bo'limgan holda, balans tenglamasining, fotonlarning nisbiy zichligi  $\varphi$  va invers holat  $n$  ga nisbatli, quyidagi ko'rinishda bo'лади:

$$\frac{d\varphi}{dt} = \left( \frac{n}{n'_p} - 1 - \frac{\alpha\varphi}{\gamma_B} \right) \varphi \quad (3.38)$$

$$\frac{dn}{dt} = -2 \frac{n}{n'_p} \varphi \quad (3.39)$$

bu yerda,  $\varphi$  va  $n$  - fotonlar zichligi va invers holat kattaligining aktiv zarrachalar  $N_0$  zichligiga nisbatli;  $n'_p = \gamma_B / \alpha_0 \ell$  - rezonatorda fotonlarning zichligining, nurlanishning ikkinchi garmonikaga aylanmagan holdagi, pik qiymati vaqtidagi, nisbiy invers holat. Vaqt birligining ko'rinishi  $T = t_1 / \gamma_B$  ( $t_1$ -fotonlarning rezonatordan bir martta o'tgan vaqt), rezonator asilliyligini yoqilish vaqtidan boshlab hisobga olinadi. Boshlang'ich vaqtida  $n=n_i$ , fotonlar zichligi  $\varphi$ , -o'z-o'zidan nurlanish bilan aniqlanadi, u kam bo'lsa  $\varphi \approx 0$  bo'лади.

Shunday taxmin qilamizki, aktiv elementda invers holatning taqsimoti, rezonator o'qi bo'ylab tarqalayotgan to'lqinlarning tekis yuzasiga yaqin va generatordagi, bitta bo'ylama turdag'i tebranishlar generatsiya chastotasi, aktiv elementning lyuminessensiya maksimumiga to'g'ri keladi. Unda tenglamalar (3.38) va (3.39) analitik echimiga ega bo'lib, ikkinchi garmonikaning rezonator ichidagi kerakli parametrlarni aniqlashga imkon beradi. Tenglamalardan vaqtini olib tashlab, birinchi darajali, chiziqli differensial tenglamani olamiz, uning echimi esa, quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\varphi(n) = C_n^k - \frac{n'_p}{2k} - \frac{n}{2(1-k)}, \quad (3.40)$$


bu yerda, S- o'zgarmas kattalik bo'lib, moddaning boshlang'ich invers holati va  $n'_p$ -ning qiymati orqali ifodalanadi.  $k=a/2\alpha_d\ell$ . Formula (3.40) dan agar  $d\varphi/dt=0$  bo'lsa, fotonlarning rezonatordagi cho'qqi zinchlig qiymati  $\varphi_p$  va asosiy nurlanishning ham maksimal cho'qqi quvvati qiymati  $p_0$  aniqlash mumkin.

$$P_0 = N_0 h v c S \ell \varphi_p / L \quad (3.41)$$

$$\varphi_p = n_t (u - v) / 2k \quad (3.42)$$

bu yerda, S -aktiv elementning kesim yuzasi; L-rezonator uzunligi: s-yorug'lik nuring tezligi;  $u=(k-kv+v)^{1/4}$ ;  $v=n'_p/n$ . Ikkinchi garmonika nurlanishining maksimal cho'qqi quvvati, quyidagi tarkibiy kesimidan iborat bo'lib  $P_2$  ( $\gamma_{mp}$  - nurni ikkinchi garmonikasini olishda yo'qotishlar summasi va quvvat  $R_0$  ning yo'qotishlar summasi yig'indisidan) teng bo'ladi.

3.27-rasmida, hisoblar natijasi keltirilgan  $P_2/P_{2max}$  ning,  $k$  parametr qiymatiga nisbatan, invers zinchlik  $n_t$  ning bir necha boshlang'ich qiymatlari:  $N_0 h v = 4.65 \text{ Dj/sm}^3$ ,  $S = 0.5 \text{ sm}^2$ ,  $\ell = 8 \text{ sm}$ ,  $L = 75 \text{ sm}$ ,  $\gamma_v = 0.15$  maksimum  $P_{2max}(k)$  ning mavjudligi invers holatining oshishi bilan.  $k$  ning kichlik qiymatlari tomon siljishi, parametrlari:  $a$  - proporsionallik koefitsienti, ikkinchi garmonika nurlanishi quvvati va asosiy chastota, quvvatining kvadratlari orasida optimal qiymat borligini ko'rsatadi.



3.27-rasmda  $n$ , ning har xil qiymatlarida  $P_2/P_{2\max}$  ning parametr k ga bog'liqligi

1)  $P_{2\max} = 2.5 \text{ MVt}$ ; 2)  $25.5 \text{ MVt}$ ; 3)  $150 \text{ MVt}$

Ikkinci garmonika energiyasining zichligi, quyidagiga teng:

$$E_2 = \frac{V_0}{2} \left[ (n_i - n_f) + n'_p \ln \frac{n_f}{n_i} \right] N_0 h \nu V \quad (3.43)$$

bu yerda,  $n_i$  - invers holatning qoldiq qismi bo'lib, uni quyidagi nisbiylikdan aniqlaymiz:


$$\left( \frac{n_f}{n_i} \right)^k \left[ \frac{\nu}{2k} + \frac{1}{2(1-k)} \right] + \frac{\nu}{2k} = \frac{n_f}{n_i} \cdot \frac{1}{2(1-k)} \quad (3.44)$$

Agar,  $k \neq 1$

Yuqorida tanlab olingan parametrlarning qiymatlari asosida olib borilgan integral hisobning natijasining, tenglama (3.38), (3.39)da, grafik usulidagi generatsiya impulsi shaklining ko'rinishi 3.28-rasnda berilgan.

Yuqorida aytib o'tilgan hisoblash usuli bilan, rezonator ichidagi nurlanishni o'zgaruvchi energetik parametrlarini aniqlash uchun, proporsionallik koefitsienti  $\alpha$  ni, ikkinchi garmonika quvvati, aosisiy garomnika chastotasi quvvatining kvadratini bilish kerak bo'ladi. O'zgartirishning F.I.K qiymatini 1% dan oshmasligini hisobga olib, Kleyman nisbatidan foydalanamiz. F.I.K ning katta qiymatlarini olishda, hisoblash natijalaridan foydalanish mumkin. Optik rezonator sxemasi berilgan bo'lib, aktiv element sifatida IAG dan, nochiziq element sifatida,


uzunligi  $L=10\text{mm}$ , sinxronizm burchagi  $30^0$  bo'lgan  $LIO_3$  dan va prizmatom hamda dielektrik ko'zgudan foydalaniqan.



3.28-rasm. Nochiziq elementli rezonatordagagi asosiy chastota murining impulsi formasasi (E.X.M. yordamida hisoblang)

Ko'zguning to'lqin uzunligi  $\lambda=1.06\text{ mkm}$  bo'lsa, qaytarish koefitsienti  $R=99.8\%$  bo'lib,  $\lambda = 0.53\text{mkm}$  uchun esa, qaytarish koeffisienti  $R=15\%$  ni tashkil etadi.

Ikkinchini garmonika nurlanishining rezonatordan to'la chiqarish uchun, yorug'lik nurlanishini fazoviy ikki poliarizatsiya tekislikka bo'luvechi, ortogonal tarqatuvchi poliarizasion prizmalar yordamidan foydalananiz. Asosiy va ikkinchi garmonika nurlanishi poliarizatsiyasining ortogonal yo'nalishi, nurlanishlar komponenti  $00 \rightarrow \ell$  tipdag'i nurlanishning o'zgorganida bo'ladi.



3.29-rasm. Nochiziq qaytargichning optik sxemasi.

Nochiziq kristall, poliarizatsiyalovchi prizmalar, ko'zgu bular hammasi nochiziq qaytargich hisoblanadi. Bunday qaytargichning optik sxemasi 3.29-rasmda ko'rsatilgan. Bunga, asosiy garmonika ehastotasi, maxsus

polyarizasion-bo'luvchi prizmadan o'tib, nochiziq sinxronizm yo'nalishi bo'yicha kesilgan  $00 \rightarrow \ell$  komponenta nurlanishlarga ta'sir etuvchi kristall kiradi. Nurlanish prizma-tomdan qaytib, ikkinchi marta nochiziq kristaldan o'tib, asosiy chastota nurlanishi va ikkinchi garmonika nurlanishi, ikki o'zaro perpendikulyar tekislikda polyarizatsiyalanadi, yana qaytib prizma-bo'luvchiga boradi, prizma asosiy nurlanishni o'tkazib yuboradi va ikkinchi garmonika nurlanishini sxemadan chiqarib yuboradi. Nochiziq qaytargichlarni, har turli rezonatorlarda va har turli modulyasiyada olishda ishlatalisa bo'ladi [37,43].

Shunday qilib, rezonatorda maxsus fokuslovchi elementlardan foydalanmay, ikkinchi garmonika generatsiyasini yuqori F.I.K ga erishib bo'lmaydi hamda impuls formasini ham boshqarib bo'lmaydi. 3.29- rasm.

### 3.6. Optik sxemalarini yustirovkasi

Lazerlarning optik konstruksiyasini ishlab chiqishda, optik sxema elementlarining o'zaro joylashishiga va ularning orientasiyalariga etarli darajada ahamiyat berish zarur bo'ladi. Optik elementlarni o'zaro joylashishi, har xil darajada sistemaning energetik, spektral parametr lariga ta'sir qiladi. Tekis, parallel yuzali rezonatorga maksimal asilliylik, ko'zgularning nihoyatda o'zaro parallelligiga bog'liq bo'ladi. Chunki, optik o'qqa nisbatan parallel yo'nalgan nurlanishlar, rezonatordan ko'p martta o'tadi, agar ko'zgular o'zaro parallel bo'lmasa nurlanishning rezonatordan o'tishlari soni chegaralaangan bo'ladi. Olib borilgan tekshirishlarning natijasiga qarab, shuni aytib o'tish kerakki, ko'zgularning og'ish burchagi, bir necha sekund bo'lsa, bu rezonatorda generatsiyaniing bo'lmasligiga olib kelishi mumkin.

Bu mulohazalar, yuqori fazoviy, bir jinsli aktiv muhitlar uchun o'rindir. Masalan, tekis parallel ko'zgu yuzali lazerlarga nisbatan, rezonator ko'zgularining yusterovkasini buzilishi, qattiq jismli lazerlarda, ularning generasion harakteristikalariga ta'siri, o'rganib chiqilgan. Bunda, eksperimental ravishda generatsiya nurlanishining harakteristikasi, aktiv elementining sifatiga, rezonator turiga va qaytaruvchi ko'zgularning qaytarish koefitsientiga va optik elementlarning yusterovkasi buzilishiiga qarab, o'zgarishi ko'rsatilgan.


Lazerlarning turli turdag'i, aktiv elementlari parametrlari, sifat tomonidan umumiy bo'lib, lazerning optik elementlarining yusterovkasiga bog'liq bo'ladi.

Ularning sanog jixatidan olingan harakteristikalar, umuman har xil bo'lib, asosan aktiv elementning sifati va uning bir jinsliligiga bog'liq


bo'ldi. Qattiq jismli lazerlardan, ularni amaliyotda qo'llanilishiga qarab kristallar: Rubin va Neodimli shisha to'g'risida gapiradigan bo'lsak, optik elementlar yusterovkasining aniqligiga katta ahamiyat beriladi.

3.30-rasmda, har xil sifatlari rubin kristallari uchun, damlash energiyasi ostonasining, ko'zgular og'ish burchagiga nisbatan bog'liqligi ko'rsatilgan. Rasmdan ko'rinishicha, I-egri chiziq, rubin kristallining yuqori optik sifatlari, na'munaviy aktiv elementi uchun bo'lib, damlash energiyasi ostonasining o'sishi, ko'zgulardagi juda kichik og'ish burchagiga ham bog'liq (3.31-rasm).

I va II-egri chiziq rubin kristallining sinish ko'rsatgichi grandlenti 2-3 marta katta bo'lган elementi uchun bo'lib, bu kiristallning o'zida yustrovkasi buzilgan xududlari bor, shunga qaramay damlash ostonasi o'zgarmasdan qolgan. II va III-egri chiziq, rubin kristallining optik sifati past darajali elementiga ta'lulqli bo'lib, bu kristallar, ko'zgular yustirovkasini buzilishiga ahamiyatsiz bo'ladilar.[47,48, 49].




3.30-rasm. Har xil sifatlari rubin kristallining ko'zgulari og'ish burchagiga, damlash energiyasining ostona qiymatining bog'liqligi



3.31-rasm. Damlash energiyasining rezonator ko'zgulari og'ish burchagiga bog'liqligi. Neodim shishasi aktiv element uchun. a)- yon yuzasisilliqlangan, b)- yon yuzasi tiniq emas qilib ishlengan.

Neodim shishali generatorlar uchun, ularni yuqori darajada optik bir jinisligi tufayli, generatsiyasi ko'zgular energiyasi, ko'zgular yustirovka sifatiga juda bog'liq bo'ladi. Yustirovkaning buzilishi, nafaqat generatsiya energiyasi ostonasiga, balki generatsiyani harakterlovchi egri chiziqning nishabliligiga ham ta'sir qiladi (3.32-rasm) va natijada f.i.k. tushib ketadi.




3.32-rasm. Rezonator ko'zgulari og'ish burchagiga qarab, generatsiya ostonasini energiyasining, damlash energiyasiga bog'liqligi.

Ko'zgular, quydag'i og'ish burchagiga og'diriladi: 1-5<sup>II</sup> ga: 2-1<sup>II</sup>: 3-30<sup>II</sup>: 4-1<sup>II</sup>: 5-15<sup>II</sup>. Neodim shishali generatorda, yustirovka burchagini bezilishi, burchak intervali 0-1 bo'lsa, generatorming ostona energiyasi 3 marttaga o'zgaradi, xuddi shunday sharoitda, rubin kristali uchun generatorming ostona energiyasi 1% ga yaqin o'zgaradi. Rezonator ko'zgularining tekis parallel yuzliyligi, sferasimon ko'zgulariga nisbatan yustirovkaning buzilishiga, o'ta sezgir bo'ladi. Bundan tashqari, damlash jarayonida, aktiv elementning bir tekis qizmasligi natijasida, har xil ichki deformatsiyalar kelib chiqadi. Aktiv elementning markaziy qismi, qattiqroq qizib ketadi, yon qirra yuzasi sferasimon shaklga keladi. Yustirovkasi buzilagan rezonatorda nurlanishning yo'nalishi ham o'zgaradi.

3.33-rasmda ko'rsatilishicha, ko'zgularning burilishi bilan, nurlanishning yo'nalishi, unga nisbatan o'tkazilgan normal bilan mos keladi va yustirovkasi buzilgan ko'zgu tomon [burchak  $\theta_n$ ] ga og'adi, natijada yaqin zonadagi nurlanishning maksimumi siljiydi  $[\Delta]$ .

Bu bog'liqliklar son jixatidan 3.33-rasmda, grafik usulda ko'rsatilgan. Nurlanishni siljishining kattaligi qiyomatini aniqlashda, ko'zgu diametriga va ko'zgu o'rnatiladigan moslamaning (opravaning) o'chamlariga e'tibor berish kerak bo'ladi.



3.33-rasm. Ko'zgular og'ish burchagiga qarab, murning yo'nalishi va siljishining bog'ligligi.  $\theta_n$ -murning yo'nalishini o'zgarishi;  $\Delta$ -murning siljishi.

Shuning ham hisobga olish kerakki, ko'zgular yustirovkasi buzilganda, lazer nurlanishining tarqalish burchagi ham yustirovka buzilgan tomonga qarab kattalashadi. Nurlanishga perpendikulyar yo'nalish bo'yicha esa, o'zgarmasdan qoladi. Yustirovkaning buzilishi, kattaroq burchak ostida bo'lsa, nurlanish alohida diskret yo'nalishlar bo'yicha tarqaladi.

Ko'zgular orasidagi og'ish burchagini bir necha minutga o'zgarishi, geperasiyada qatnashayotgan tebranishlar sonini va turini sezilarli darajada o'zgartirib yuboradi va ular orasidagi interval oralig'i stabillashadi.

Tekis, parallel yuzali rezonatorda, 100% qaytaruvchi ko'zgu o'rniда, prizma-tomondan foydalanish mumkin. Bu holda, qo'shimicha talablar vujudga keladi, ya'ni prizma qirrasining, aktiv element kristallografik o'qiga nisbatan orientasiyasi talab etiladi.

Bunga sabab, rubin kristalli kristallografik o'qining, rezonator o'qiga nisbatan normal holatida, rezonatorda yuqori bo'limgan damlashda vaqtida, energiyasi 100% li, chiziqli – polyarizatsiyalangan nurlanishlar generatsiyasi olinadi. Yuqori energiyalik damlashda esa, polyarizatsiya darajasi tushib ketadi.

Agar vektor  $\vec{E}$ , to'lqin tebranishining prizmaga tushuvchi tekisligi, prizma qirrasi bilan  $\alpha$  burchak xosil qilsa, nur katet qirralaridan ikki marta qaytgandan keyin  $r$  va  $b$  komponentlar orasida fazolar farqi vujudga keladi  $\delta$ , shundan so'ng chiziqli – polyarizatsiyalangan to'lqin, elektik polyarizatsiyali to'lqina aylanadi [51,52,53].

Agar, shunday deb taxmin qilsak, prizmaning qaytarishini  $r_e$  qaytargichiga ekvivalent deb olsak, va chiziqli-polyarizatsiyali to'lg'ın alimpitudasini, qaytishiga qadar  $E_1$  bo'lsa va shu polyarizatsiyaga ega bo'lgan komponentning amplitudiyasi qaytgandan so'ng  $E_2$  bo'ladi u holda:

$$r_e = (E_2/E_1)^2 \quad (3.45)$$


burchak  $\alpha$  ning va fazoning siljishi  $\delta$  ga nisbatan natijaviy amplitudasi, quydagi ko'rinishiga ega bo'ladi:

$$E_2 = E_1 \sqrt{\cos^4 \alpha + \sin^4 \alpha + 2 \cos^2 \alpha \sin^2 \alpha \cdot \cos \sigma} \quad (3.46)$$

$$r_e = \cos^4 \alpha + \sin^4 \alpha + 2 \cos^2 \alpha \sin^2 \alpha \cdot \cos \sigma \quad (3.47)$$

Shisha va saptiradan tayyorlangan prizma uchun,  $r_e$  qiymatining bog'liqligi 3.34-rasmida ko'rsatilgan.

Prizmaning va uning yuzasiga tushayotgan tebranishlar vektori  $\vec{E}$  ning yo'nalishi, prizma qirrasi bilan  $45^\circ$  li burchak tashkil etsa, unda prizma minimal qaytarish hususiyatga ega bo'ladi.



3.34-rasm. Prizmaning ekvivalent qaytarish kattaligining chiziqli-polyarizatsiyali yorug'lik murlanishi  $\vec{E}$  ning tebranish tekisligining, prizma qirrasi bilan tashkil qilingan burchagiga bog'liqligi a)-saptir; b)- shisha;

Shunday qilib, damlash energiyasi yuqori bo'limganda, anizotrop materiallardan tayyorlangan to'g'ri burchakli prizma, agar uning qirrasi kristallografik rubin kristallining o'qi bilan  $0^\circ$  yoki  $90^\circ$  burchak hosil qilsa, ko'zguga ekvivalent bo'ladi. Yaxshilab yustirovka qilinganda, energiyaning yo'qotish 2% dan ko'p bo'lmaydi. Energianing eng ko'p yo'qotishi, prizma qirrasi bilan, aktiv elementning kristallografik o'qi  $45^\circ$  burchak tashkil etgan holda yuz beradi [46, 47].


### 3.6.1. Lazerni yustirovka qilish (sozlash) usullari

Lazerning optik elementlarini yustirovka qilish va ularni o'zaro joylashishini tekshirish, ularni ishlatish jarayonida har xil usullar bilan amalga oshiriladi.

Avtokollimasion usul [11,17]. Rezonatorning optik elementlarini, aktiv elementini va ko'zgularini yustirovka qilishning uch krest usuli, quydagidan iborat:

Avtokollimator yordamida yustirovka jarayonida, ketma-ket eng uzoq masofada joylashgan, nur o'tkazmaydigan ko'zgudan boshlab, ko'zgudan qaytgan krestini, aktiv elementining oldingi yon qirrasi yuzasidan qaytgan krest bilan va chiqish ko'zgusidan qaytgan krestlarni birini ustiga, biri joylashtirilgan. Bunday metodning aniqligi, avtokollimatorning kattalashtirish imkoniyatiga bog'liq bo'ladi. Agar, ikkita uzoqda joylashgan nuqta, avtokalliminatorning ob'ektivining ko'rish markazidan  $a_{km}$  burchak ostida ko'rinsa va bu burchak, shu optik sxema uchun ohirigi qiymat bo'lsa, u holda uning kattaligi quydagicha aniqlanadi (3.35-rasm). Sistemaning kattalashtirish qiymati  $M = \alpha/a_{km}$ . Ko'zni ko'rib ajrata olish kuchi  $\alpha=60^\circ$  sistemaning ko'rish kuchi  $a_{km}=60^\circ/M$ , avtokallimitor uchun  $M=f_{ob}/f_{ok}$  bu yerda,  $f_{ob}$  - ob'ektivning fokus masofasi;  $f_{ok}$  - okulyarning fokusi masofasi. u holda.


$$\alpha_{km} = (60''/f_{ob}) \cdot f_{ok} \quad (3.48)$$



3.35-rasm. Avtokallimatororda nurlanishning yurishi.

Shunday qilib, ob'ektiv fokusi 200 mm, okulyari 20mm bo'lgan avtokallimitor, rezonator ko'zgularini o'zaro paralleligini 6° xatolik bilan yustirovka qila oladi. Bunday usul bilan yustiroka qilinganda, aktiv elementning sinish koefsienti gradienti natijasida, nuringning og'ishini ko'ra olmaydi va defektlarni yustirovka orqali tuzatib bo'lmaydi. Shuning uchun, aktiv elementdan o'tayotgan nurlanish, o'zining boshlang'ich yo'nalishidan og'adi va ko'zguga qandaydir burchak ostida tushadi. Bu burchakning

qiymati, aktiv element materiallarning sifatiga bog'liq bo'ladi, masalan rubin kristalli uchun uning qiymati, bir necha minutgacha etadi. Rezonator ko'zgularini aniq o'rnatish uchun, avtokallimator krestini, nur o'tkazmaydigan ko'zgudan qaytgan tasviri bir nuqtada, ustma-ust joylashtiriladi. Bu usul praktikada. Neodim shishali kristallarda keng qo'llaniladi. Rubin kristallik optik generatorda, ko'zgulardan qaytgan tasvir, kristallning bir jinsli emasligi tufayli xiralashib qoladi va qaytgan tasviri aniq, birini ustiga birini tushirishda qiyinchilik tug'iladi. Agar kristall diametri 12-15 mm dan kichkina bo'ladicha bo'lsa, ko'rish maydoning chegaralanganligi va yorug'lik nurlanishining ingichka va uzun kristallda etarli darajada emasligidan, yanada ko'proq qiyinchiliklar tug'iladi.




3.36-rasm. Damlash energiyasini ostonasini, ko'zgular orasidagi masofaga bog'liqligi.

Har xil sozlovchi usulini qo'llaganda: A-uehta krest usuli: tarfi elementlardan birin ketin nurni o'tkazib, sozlash usuli deyiladi.


3.36-rasmida ko'rsatilgan grafikka qarab, rubin kristali rezonatorlarni yustirovka qilish usuliga qarab, har xil damlash energiyasini ostona qiymatida, generatsiyasini aniqlash mumkin.

Optik richak usuli sxemasi 3.37-rasmda keltirilgan. Kichik borchok ostida tarqaluvchi gazli lazer 1 nurlanishi, kichik diafragmadan 2-iga rezonatorga kiradi va 4.5 ko'zgulardan qaytib, 2-ko'zgudan qaytib, oxiranga tushadi. Ekranda yorug' nuqtalar paydo bo'ladi. Shu paydo nuqtalar ekranda yo'qolsa va diafragmadan o'tib, nur bilan birlashsa yesishib amalga oshirilgan bo'ladi.




3.37-rasm. Optik richag usuli yordamida rezonatorni yustirovka qilish sxemasi. (A-aktiv element).

3.38-rasmda yustirovkaning interferension usuli ko'rsatilgan bo'lib, bu usul avtokallimasion usulidagi qiyinchiliklarni chetlab o'tadi va yaxshi ko'rinishdagi yuqori ochiqlikni amalga oshiradi.



3.38-rasm. Interferension usul bilan rezonatorni yustirovka qilish sxemasi

Bu usul shundan iboratki, lazer nurlanishi 1, ekrandagi kichik teshikdan o'tib, manfiy linza 3dan o'tib, rezonatorning ko'zgulari 4 va 5ni yoritadi. Ekranda ikkita dog' ko'rindi, bu dog'larni birini ustiga biri joylashtirilsa, interferension chiziqlar hosil bo'ladi. Ekranda ko'ringan interferension rasm shakli, interferension xalqalardan iborat bo'ladi. Bu xalqalarining markazi, yorug'lik manbaiga nisbatan belgilanadi. Agar, qaytaruvchi yuzalar, o'zaro parallel bo'lsalar, yuzalarning parallel emasligini interferension xalqalarining markazining yorug'lik manbaidan siljishiga qarab aniqlanadi (3.39-rasm).



3.39-rasm. Interferension usul bilan yustirovka qilingandagi nurning yurishi.

Ko'zgularning og'ish burchagini, quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:


$$a_3 = \frac{h\sigma}{2(L-h)L} \quad (3.49)$$

agarda  $L \gg h$  bo'lsa,

$$a_3 = \frac{h\sigma}{L^2} \quad (3.50)$$

Interferension usul, ko'zgular o'zaro parallelligini 5<sup>th</sup> aniqlik bilan yusterovaka qiladi.


Agar, optik rezonator sferasimon ko'zgulardan iborat bo'lsa, u holda ularni yustirovakasi, aktiv elementsiz quyidagicha amalga oshiriladi. ( 3.40-rasm). Ko'zgularga imkon qadar, yaqin qilib ekran o'rnatiladi va ekran markazida kichkina teshik teshiladi 1 va 2. Chiquvchi 3 va uzoqda joylashgan 4 ko'zguga, ekrandagi teshikdan o'tgan gazli lazer nuri tushadi. 5 ko'zgu, 4 ko'zguni og'dirish bilan ko'zgudan qaytgan lazer nuri teshikchaga tushiriladi, ko'zgu 3 ni sozlash oldingiga o'xshagan bo'ladi. Lazer nuri ketma-ket 4 va 3 ko'zgulardan qaytib ekrandagi teshik 2ga tushiriladi va shu bilan rezonator yustirovka qilingan bo'lib hisoblanadi.



3.40-rasm. Sferasimon ko'zguli lazer yustirovkasining sxemasi.

Shu ishlardan keyin, aktiv element ko'zgular orasiga o'rnatiladi va uning joylashish holatini o'zgartirish natijasida, uning yon yuzalaridan qaytgan lazer nurlanishini ekrandagi teshik orkali o'tkazishga harakat qilib moslashtiriladi. bunday yustirovka amallarini bajarish uchun, yustirovka mexanizmlaridan foydalaniladi. Bu mexanizmlar juda ham sezgir bo'lib, optik elementlarni o'rganishga etarli aniqlikka ega bo'la oladi. ko'zgularni yustirovka qilish mexanizmi 3.41-rasmida ko'rsatilgan.

Kuzgu 1, tutqich 2 bilan qo'zg'aluvchi asos 3ga o'rnatilgan. Ikki elkali richag 4, 5 va 6 prujinali vintlar bilan asos 3 bilan bog'langan. ikki elkali richag 8 ham asos 3 bilan tekis prujinalar yordamida mahkamlangan. Asos 3 ning holati, hamda ko'zgu 1ning holati, uchta nuqta 1,2,3 ning (bir biriga nisbatan 90 lik burchak ostida o'rnatilgan) holati bilan aniqlanadi. Sharik (1) 12 flanesdag'i, 5 vintning sferasimon uchi, prizma shaktidagi ariqchaga (12 flanesdag'i) kiradi. 3-asos bilan kuchli bog'lanishni, ikki slindrasimion prujina yordamida amalga oshiradi.



3.41-rasm. Ikki o'zaro perpendikulyar o'qlar atrofida.  
ko'zgular og'ishini ta'minlovchi mexanizm sxemasi.


Ko'zgularning og'ishi, ikki o'zaro perpendikulyar yo'nalishda, o'qlar ox va ou atrofida amalga oshiriladi. Vint 5 avvalgi og'ishni, vint 6 esa, ohirgi aniqlikni o'rnatishni amalga oshiradi, kuzgularning og'ish burchagini, quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$a_3 = \frac{l_3 t_v}{l_2 l_1} \quad (3.51)$$

bu yerda,  $t_v$ -aniq o'rnatuvchi vint qadami,  $l_1$ -vint 5 o'qidan sharik markazigacha bo'lgan masofa:  $l_2$ - vint 6 o'qidan , richag 4 ning aylanish o'qigacha bo'lgan masofa  $l_3$  -5 vint o'qidan, richag 4ning aylanish o'qigacha bo'lgan masofa. Bu konstruksiyada, yanada yuqori sezgirlikni amalga oshirish mumkin. Buning uchun, qo'pol vint asosini, aylanuvchi ikki elkali richag asosiga o'rnatish kerak bo'ladi, u holda  $l_3=0$  va ko'zguning og'ish burchagini quyidagi formuladan aniqlash mumkin:

$$a_3 = \frac{l_4(l - \cos \operatorname{arctg} t_v/l_2)}{l_1} \quad (3.52)$$

bu yerda,  $l_4$ -flanes bilan richagning aylanish o'qi orasidagi masofa



3.42-rasm. Ko'zguni og'dirish mexanizmi. 1-ko'zgu; 2-aktiv element;

3.42-rasmda, ko'rsatilgan yustirovka qiluvchi mexanizm, germetik holatni ta'minlaydi, shuning uchun aktiv elementning yon uchi qirrasini, qo'shimcha mustahkamlashga xojat yo'q.

Aktiv element yon qirrasi 2 bilan, ko'zgu yuzasi 1 ning orasidagi immersiya, aktiv element yon qirrasi yuzini katta quvvatli generatsiya paytida parchalanib ketishdan saqlaydi hamda ikki muhit chegarasidan qaylgan nurlanishlar quvvatini kamaytiradi [ 40,47-49].

### III-bo'lim bo'yicha o'zlashtirish savollari:

1. Bo'ylama tebranishli to'lqinlarning seleksiyasi qanday?
2. Ko'ndalang tebranishli to'lqinlarning seleksiyasi qanday amalga oshiriladi?
3. Lazer rezonatrлarini elektrooptik boshqaruvi.
4. Modalar seleksiyasi haqida tushuncha.

5. Ikkinchи garmonikani olish usullari.
6. ADR, KDR, DKDR lar to‘g‘risida nima bilasiz?
7. Ikkinchи garmonikani olishda qanday optik sxemalardan foydalilanadi.
8. YOrug‘lik nurlanishini polyarizatsiyasi to‘g‘risida nima bilasiz?
9. Polyarizatorlar nima va ular qanday ishlaydi?
10. Optik rezonatorlarning turlari.
11. Optik stopaning tuzilishi.
12. Elektrooptik qaytargichlar va ularning.
13. Optik rezonatorda pokosekundlik impulslarni shakillantirish.
14. Optik kvant kuchaytirgichlar.
15. Optik kvant kuchaytirgichlarning turlari.
16. Optik kvant kuchaytirgichlarning ishlash prinsipi.
17. Regeneratsiya kvant kuchaytirgichlari
18. Ikkinchи garmonika generatsiyasi va uning f.i.k.
19. Chiziqli va nochiziq qaytarigichlar
20. Opik ko‘zgular va ularning turlari
21. Optik sistemaning yusterovka qilish usullari
22. Optik ko‘zgularning og‘ish burchagini o‘zgartiruvchi mexanizmning tuzilishi.

## IV BO'LIM

### 4. OPTIK KVANT GENERATORLARI PARAMETRLARINI O'LCHASH BO'YICHA NAZARIY USLUBIY QISM

#### 4.1. Lazer nurlanishining xarakteristikalarini o'lchash

Kvant radiofizikasi, hozirgi zamонавиј fizikasining ilmiy va texnika sohasida, borgan sari keng va effektiv qo'llanilib kelinmoqda. Lazer texnikasi mamlakatimizning xalq xo'jaligiga chuqur kirib bormoqda. Ular materiallarni qayta ishlashning yangi texnologiyalarida, optik bog'lanish liniyalarida, kosmosda va suv ostida masofani aniqlashda, kompyuter tizimlarining ishlash jarayoni tezligini oshirishda hamda ularning xotira sig'imini oshirishda ayniqsa tibbiyat va harbiy sohada keng miqyosida qo'llanib kelmoqda. Shuning uchun kvant qurilma va apparatlarning parametrlarini to'g'ri o'lchash, bu sohaning progressiv rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu masalaning muvaffaqiyatli echilishi, metrologik ishlar darajasi, etalonlar va na'munaviy o'lchov qurilmalari va o'lchov texnikasi holatiga bog'liqdir. Ko'pgina qilingan ishlarga qaramasdan hozirgi kunda, ilmiy-texnik adabiyotlarida kvant elektronikasi generatorlarning parametrlarini o'lchashning metrologik masalalari kam aks ettirilgan, bu esa o'lchash ishlarini olib borishda va parametrining terminalogiyasida va ularning fizikaviy aniqlashda va baholashda noaniqliklar keltirib chiqaradi. Bu darslikda shu masala bo'yicha nasr qilingan ilmiy materiallardan foydalananib, hamda o'zimizning kvant generatorini parametrlarni o'lchash yuzasidan olib borilgan tajriba ishlari va malakamizga tayanib umumlashirilgan. Kitobda lazerlarning energetik va fazoviy-vaqt parametrlarini o'lchashni keng tarqalgan usullari ko'rib chiqilgan va o'lchov apparatlarning tuzilishi va ularning tavsisi adabiyotlarda berilgan ma'lumotlar asosida attestasiya qilingan. Avtorlarning original ishlari, natija va ma'lumotlariga qarab, parametrlar aniqlanib, tasdiqlanadi hamda asosiy o'lchash texnikasi metodlari va apparatlari, xatoliklari manbai aniqlanadi. Ushbu bo'linda lazerlarning energetik parametrlarini o'lchash metodlari va o'lchovchi apparaturalar keltirilgan. Kalorimetrik va ponderamotor o'lchash usullari tubdan o'r ganilgan. Bu metodlarga asoslangan o'lchov apparatlari va qurilmalarining tavsisi keltirilgan. Shu bilan birga fotoelektrik signallarni qabul qiluvchi datchiklarning ishlash imkoniyatlari va impulsli quvvatini o'lchash metodlari keltirilgan hamda kogerent nurlanishning to'ljin uzunligini, nurlanishning chastotasi, monoxromatikligi, lazerlar

impulslarining vaqt parametrlari, kogorentligi va nurlanishning tarqalishi, polaryazatsiyasini o'lehash metodlari keltirilgan [16,41,43].

Lazerlar ilm-fan va texnikasining ko'pgina masalalarini echishda qo'llanib kelinmoqda. Lazer generatorlarining asosiy xarakteristikalarini shartli ravishda ikki guruppaga bo'linadi: energetik va fazoviy-vaqt.

#### **4.1.1. Lazerlarning fazoviy-vaqt xarakteristikalarini**

To'lqin uzunligi, mkm .....	0,3-10,6 (300 gacha)
CHiqishdagi nurning diametri (optik elementlarni qo'llanilmasdan) mm .....	2-50
Tarqalish burchagi, rad .....	$10^{-3}$ -0,5
Polyarizatsiyasi .....	99,99 gacha
Spektr kengligi, Gs .....	$10^2$ - $10^8$
Impulsning davomiylig sek .....	$2 \cdot 10^{-9}$ - $10^{-2}$
CHlastotaning stabillik nisbati .....	$10^{-6}$ - $10^{-8}$
Impulsning qaytarilish chastotasi Gs.....	0/10- $10^4$ gacha
Kogerentlik uzunligi .....	0,5-500

#### **4.1.2. Lazerlarning energetik parametrlarini o'lehash**

Uzluksiz nurlanishning quvvati, vt .....	$10^{-5}$ - $10^{-2}$
O'rtacha quvvati, vt .....	$10^{-3}$ - $10^{-3}$
Oliy quvvat, vt .....	$1-10^{10}$
Energiya, dj .....	$10^{-3}$ - $10^{-5}$

Lazerlar bir to'lqin uzunligida ishlaydi. Hozirgi kunda to'lqin uzunligi asta-sekin o'zgaradigan, lazer generatorlari ham yaratilgan. Lazer generatorlarining to'lqin uzunligi, nanometrlar yoki mikrometrlar bilan o'lehanadi. Tebranishlar chastotasini, to'lqin uzunligi va nurlanish tezligini aniqlash orqali topiladi. Masalan, rubin kristalli lazer to'lqin uzunligi  $0,6943$  mkm bo'lsa, chastotasi  $4,3209 \cdot 10^{14}$  Gs ni tashkil etadi. Hozirgi kundagi

to'lqin uzunligini o'chash texnikasi, klassik optika usulidan olingan bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri to'lqin chastotasini o'chaydigan qurilma ishlab chiqilgani yo'q. Shuni aytish kerak-ki, chastota birligi, generatsiya chizig'i kengligini aniqlashda qulay bo'lib, generatsiya nurlanishining chastotasini, nisbiy stabilligini aniqlashda keng qo'llaniladi. Lazerlarning nurlanishlari bir-biriga yaqin chastotalarda bo'lib, ma'lum chastota, interval oralig'i ni to'lg'azadi. Bu esa nurlanish spektri kengligini va nurlanishning modasining strukturasi tuzilishini harakterlaydi.

Optik generatorning chiqish quvvati  $R$ , generatorning energetik xarakteristikasini ko'rsatib, Umov-Poynting vektori bilan aniqlanadi. Lazer quvvatini o'chovchi priborlar, optik quvvat qiymatini o'zgarmas tok etalonlari yoki issiqlik va mexanik qiymatlar birligi qiymatlariga keltirish imkoniga ega bo'ladilar. Ko'pgina, lazer generatorlari impulsli nurlanish manbai bo'lib, impulslar orasida katta vaqt intervaliga ega bo'ladilar.

Ular uchun qulay harakteristika, energiya  $E$  bo'lib, yorug'lik nurlanishining bir impuls davomidagi energiyasi hisoblanadi va quyidagi ko'rinishda yoziladi:

$$E = \int_{t=0}^{t_u} P(t) \cdot dt \quad (4.1)$$

Bu yerda,  $P(t)$  — nurlanishning  $t$  vaqtidagi oniy quvvati,  $t_u$  — generatsiyaning tugash vaqt. Boshqa turdag'i generatorlar uchun, boshqa energetik harakteristikadan foydalananamiz. Lazer nurlanishining impulsli-modulyasiyalangan o'rtacha quvvatidan foydalananamiz:

$$Rsr = \frac{1}{T_p} \int_0^{T_p} P(t) \cdot dt, \quad (4.2)$$

Generatorning bir implusli generatsiyasi vaqtidagi nurlanishning maksimal pik quvvati  $P_m$

$$P_m = P_{max}(t) \quad (4.3)$$

va impulsning o'rtacha quvvati

$$P_{avr-imp} = \frac{E}{\tau_i} \quad (4.4)$$

Bu yerda  $\tau_i$  — impuls davomiyligi vaqt.

Lazer nurlanishining fazoviy taqsimlanishi, quvvat zichligining nurlanish yuzasi bo'yicha taqsimlanishi orqali harakterladi va nurlanish quvvatining oniy burchak ostidagi taqsimlanishi (yo'nalish diagrammasi) orqali aniqlanadi. Ko'p holatlarda lazer, parallel nurlanishiga yaqin, nurlanish dastasini generatsiya qiladi. Bu nurlanishlar burchak ostida tarqalish bilan harakterlanadi. Hamma optik generatorlar uchun, bu xarakteristika birdek yuqori aniqlikda aniqlanmaydi.

Har bir holat uchun, alohida o'Ichov sharoitidan kelib chiqib, intesivlik qiymatining yarmidagi nurlanish izi o'Ichami hisoblanib, energiyaning o'zgarmas qiymatida, har bir yuza diametrlarining nisbati aniqlanib baholanadi. Lazerlarining yana bir asosiy hususiyatlaridan biri, nurlanishning kogerentligi hisoblanadi.

Kogerentlik – bu nurlanishning elektro-magnit hususiyatidir. Bu hususiyat, elektromagnit maydonni harakterlovchi qiymatlarni o'zgarishining korrelyasiyasi natijasida, nurlanishning interferensiyasi holatida namoyon bo'ladi. Maydon, bu fazoviy koordinata va vaqtning funksiyasi bo'lib, fazoviy va vaqt kogerentligi to'g'risida so'z yuritiladi. Elektromagnit maydonning tanlab olingan fazoviy nuqtadagi parametrlerining korrelyasiyasi, kuzatilgan vaqt mobayni vaqtini kogerentlik deb tushunsa bo'ladi. [11,13,15-17].

Kogerentlik uzunligi esa, ikki teshikdan o'tgan nurlanishning o'tgan yo'lining farqi orqali aniqlanadi, bu holda nurlanishning interferensiyasi namoyon bo'ladi. Nurlanishning kogerentlik darjasи, interferension chiziqlar ko'rinishi aniqligiga proporsional bo'ladi. Shunday qilib, kogerentlik darjasи, lazer nurlanishi interferogrammasini, densitometr orqali oson aniqlanadi. Lazer larining yana bir zarur parametrleridan biri, nurlanishning polaryazatsiyasi hisoblanadi. Bu hususiyat, elektromagnit to'lqinining, elektr maydon vektorini, holatini harakterlaydi. Nurlanishning polaryazasion holati, quyidagicha harakterlanadi (chiziqli, atylanma, elliptik) va polaryazatsiya jarayonining darjasи bilan, bu esa polaryazatsiya komponentlari intensivligining, nurlanishning umumiyy intesivligiga nisbati bilan aniqlanadi. Hozirgi kunda, keng tarqalgan lazerlar konstruksiysi, ish rejimi va chiqish harakteristikalariga qarab uch kategoriya bo'linadi:

### *1. Uzlaksiz rejimda ishlaydigan lazerlar.*

Eng keng tarqalgan optik generatorlar, elektr razryadi yordamida, qo'zg'atilgan gazli generator hisoblanadi. Bunday generatorlar safiga (Ne-Ne)- geliy va neon gazlar aralashmasi bilan ishlaydigan optik generator kiradi. To'lqin uzunligi 0,6328; 1,15 va 3,39 mkm bo'lib, ular ko'zgular va trubka yuzalarining materiallariga bog'liq bo'ladi. Bunday generatorlarning

chiqish quvvati 1 dan 100 mvt bo'lib, nurlanishning tarqalish burchagi. bir necha minutni tashkil etadi, diametri – 1,5 mm. Argon gazi bilan ishlovchi lazer, spektrning ko'k-bayrang diapazonida ishlaydi. Uning quvvati bir necha vattga teng bo'lsa, malekulyar gaz  $\text{SO}_2$  da ishlaydigan lazerning to'lqin uzunligi - 10,6 mkm bo'lib, quvvati kilovatt va undan yuqori bo'ladi.

### **2. Bir impulsli lazerlar.**

Bu generatorlarning ish rejimida impulslar orasida katta pauza bo'lib, har bir impulsni o'lhash nuqtai nazaridan, bir impuls deb qabul qilinadi. Optik generatorlarda aktiv element, qattiq jism bo'lib, bunday element sifatida rubin ( $0,05\% \text{ Sr}^{3+}$  atomlari va monokristall  $\text{Al}_2\text{O}_3$ ) yoki neodim atomlari qo'shilgan ( $5-7\% \text{ Nd}^{3+}$ ) shisha ishlataladi. Ularning to'lqin uzunligi 0,694 va 1,06 mkm ga teng bo'ladi. Rubinli aktiv elementning o'lehamlari  $\varnothing 12 \times 120$  mm; chiqishdagi maksimal energiya 10-30 dj, impuls davomiyligi 1 m sek. Katta o'lchamli kristalldan foydalaniilganda, maksimal energiya 100-300 dj va undan ortiq bo'lishi mumkin. Generator rezonatori asilliyligi boshqariluvchi yoki modulyasiyalangan rejimda ishlovchi generatorlarda, damlash jarayoni yopiq rezonatorda olib boriladi va bunda o'z-o'zini qo'zg'atish sharti bajariladi. Yuqori darajadagi invers holat vujudga kelishi bilan, rezonator ochiladi va qo'zg'atilgan ionlar tezda o'zidan nulanish chiqaradilar (o'n yoki bir necha nanosekund) generatsiya davom etadi. Rezonator asilliyligini boshqarish uchun, to'la ichki qaytarish bususiyatiga ega bo'lgan prizmadan, 100 % qaytaruvchi ko'zgu sifatida foydalaniiladi, (prizma 20-60 ming ob/min tezligida aylanadi). Bunday generatorlarning oniy quvvati, o'n yoki yuzlab megavatt bo'lib, qo'shimcha kuchaytirgich bloklaridan foydalaniilganda esa, bir necha gigavatt quvvatga ega bo'ladi. Bunday generator impulsleri nurlanishining tarqalish burchagi 30 dan oshmaydi.

### **3. Impulsi-modulyasiyalangan nurlanishli lazerlar.**

Bunday lazer qurilmalari keng tarqalgan bo'lib, impulsi-modulyasiyalangan lazer nurlanishini gazli va qattiq jismli muhitdan olish mumkin. Ko'pincha, yarim o'tkazgichli lazerlarda foydalaniiladi. Generatorda damlash jarayoni, impulsli tok yordamida amalga oshiriladi. Yarim o'tkazgichli, ikki yuzasi sillqlangan element, optik rezonatori tashkil etadi va shu yuza orqali impulsli tok yordamida damlash olib boriladi. Impulslar ketma-ketligi  $10^2-10^4$  gs, generatsiya impulsining oniy qiymati bir necha vattga teng bo'lib, impuls davomiyligi  $\sim 10^{-4}$  sekga (masalan GaAs kristallida), nuring tarqalish burchagi bir necha o'n gradusga teng [18-19,20].

Bu generatorlarning asosiy farqli tomoni, ularning foydali ish koefitsienti yuqoriligi bo'lib, 50 % va undan yuqori qiymatni tashkil etadi. Bundan tashqari, rubin kristalli lazer konstruksiyasi ma'lum bo'lib, ularning impulslar ketma-ketligi chastotasi bir necha o'n gers va o'ttacha chiqish quvvati bir necha o'n vattga teng bo'lib, asosan texnologik maqsadlarda ishlataladi. Lazerning qo'llanilishini keng miqyosda o'sishiga, nochiziq optika texnikasini o'rGANISH va undan foydalanish sabab bo'ldi, uning yordamida lazer nurlanishining to'lqin uzunligini o'zgartirish va asosiy nurlanishning garmonikalarini olish imkoniyati amalga oshirildi. Asosiy nurlanishning garmonikalarini olishda, maxsus sharoitda, o'zgarish koeffitsientining yuqori qiymatlarini olish mumkin (bir necha o'n soyiz). Amaliyotda keng qo'llaniladigan generatorlarning garmonikaları: neodimli shisha kristallining ikkinchi garmonikasi to'lqin uzunligi  $\lambda=0,53$  mkm, rubin kristallining ikkinchi garmonikasi to'lqin uzunligi  $\lambda=0,347$  mkm. Keyingi paytlarda yanada keng, qo'llanilayotgan lazer nurlanishlari, spektrning ma'lum intervalida, to'lqin uzunligini bir tekis o'zgartiruvchi lazer generatorlari bo'lib, ular asosan nochiziq optik muhitning parametrik kuchayishini o'rGANISHDA qo'llanib kelinmoqda. Shu bilan birgalikda, keyingi paytda lazerlar, effektiv holda holografiyada, interferension ko'rinish holatini uch o'lchainli foto shaklini rasmga olishda ishlatalib kelinmoqda. Mutaxassislarning aytib o'tishlaricha, yarim o'lkazgichli kvant generatorlaridan EXM da foydalanish, ularning harakteristikalarini tubdan o'zgartiradi va prinsipial yangi hotira sistemasini yaratish imkonini beradi. Qattiq va o'ta qattiq moddalarga texnologik jihatidan qayta ishlov berishda, optik lokasiyada, optik bog'lanishda, ilmiy tekshirish ishlari, tibbiyotda, qurilishda, o'ta aniqlikda o'lchaydigan o'lechov texnikasida, lazerlar texnikasidan foydalanib kelinmoqda. Shuning uchun ham lazerlarning asosiy harakteristikalarini aniqlash masalasi va ularni yuqori aniqlikda va ishonchiylikda o'lehash, hozirgi kunning aktual va muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

#### 4.2. Lazerlarning energetik parametrlarini o'lehash usullari

Lazerlarining chiqish energetik harakteristikalari muhim parametrlar bo'lib, ular orqali optik generatorlarning effektivligi aniqlanadi. Energetik parametrlarni to'g'ri o'lehash uchun, o'lehash metodlari va na'munaviy anjomlarga ega bo'lish va o'lechov birliklari asosida aniqlanadigan (vatt. djou) va etalon hamda metodik tizmalar va vositalar yerdamida hamma spektral diapozonda, lazerlarning parametrlari amaliyotda, o'lechov tizmlari

yordamida aniqlanadi. Hozirgi zamонавиу lazer texnikasining holatiga mos bo'lgan harakterli diapazonlar:  $10^{-6}$  vt dan yuz va ming vattgacha bo'lib, lazer uzlusiz ish rejimining va modulyasiyalangan nurlanishning o'rtacha quvvati  $10^{-5}$  jouldan to ming joulgacha (erkin generatsiya rejimida) etadi. Bir impulsli lazerning boshqariladigan rezonator asilliyligi holatida, bir impulsdag'i quvvati, bir necha yuzdan to ming megavatt quvvatgacha etadi. Bu ko'rsatilgan quvvat diapozonini, kichik darajali quvvat yoki energiyaga shartli ravishda bo'lish mumkin: 0,1 vt dan va 1 dj gacha, 100 vt dan va 100 dj gacha, bir necha 100 vt dan ,bir necha 100 dj gacha. Lazer spektral diapozoni butun optik oblastni o'z ichiga oladi, ultrabinafsha xududidan to uzoq infraqizil xududigacha va undan submillimetrlı to'lqin uzunligi xududigacha kirib boradi [24,25,30, ].

Lazerlarning energetik parametrlarini o'lehashda, hozirgi kunda fotoelektrik, kolorimetrik va ponderomotor usullaridan foydalaniлади. Keyingi paytda, yangi fizik effektlarga asoslangan moddalardagi nochiziq jarayonlardan foydalaniлmoqda. Fotoelektrik qurilmalar juda sezgir bo'lib, ularni kalibrovka (sozlash) qilish qiyin bo'ladi hamda ish jarayonida stabilligi kichik bo'ladi. Shuning uchun ulardan indikator sifatida yoki nisbiy o'lehash ishlarida foydalaniлади. Nochiziq jarayonlardan, lazerning energetik parametrlarini o'lehashda foydalaniш katta qiziqish uyg'otadi, ular yordamida yangi o'lechov usullari yaratishda, lazer impuls quvvatining hamma qiymat birliklarida o'lechov ishlarini olib borish uchun, klassik usullardan foydalaniш, juda qiyinchilik tug'dirganda yoki iloji bo'lмаган hollarda foydalaniлади. Ammo, yuqorida aytib o'tilgan usullar yordamida, o'lechov asbobları yaratish imkoniyati borilagini va bu imkoniyatlar natijasida, o'lechov qurilmasini yaratishning tasdiqlash uchun ko'pgina fizikaviy qonuniyatlar asosida izlanishlar olib borilib, bu effektlarni aniqlab, o'lechov qurilmalarini kalibrovka qilish yo'llari topildi. Hozirgi kunda, lazer energiyasini va quvvatini absolyut usullar yordamida o'lechovchi qurilmalar, kolorimetrik va ponderomotor usullariga asoslangan. Kolorimetrik usuldan foydalaniлganda, nurlanishning issiqlik energiyasi ta'sirida, qabul qiluvchi element va uning issiqlik energiyasini o'zgarishiga (termoparaning E.Yu.K. yoki issiqlik qarshiligining o'zgarishiga) olib keladi.

Ponderomotor usuldan foydalaniлganda, qabul qiluvchi elementda nurlanishning bosimi o'lehanadi. Bu ikki usul yordamida, optik nurlanishning energiyasi va quvvati o'lechov sistemasining parametrlari orqali yoki energiya va quvvatni qiymati o'mini oluvchi kattalik yordamida aniqlanadi. Kolorimetrik usul yordamida o'lechovchi qurilmaga misol qilib, IMO-1ni olsak, uning yordamida nurlanishning optik quvvati yoki

energiyası o'lehanadi. Biometrik priyomniklar tuzilish jihatidan sodda bo'lib, yuqori sezgirlikka ega va tez ishlash qobiliyatiga hamda stabilliylikka ega, shu hususiyatlari bilan, kichik quvvatga ega bo'lgan lazerlarini o'chaydigan, asboblar ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Bunday priyomniklar, ko'prik sxemali o'chov sxemalari bilan birga ishlatiladi. Ponderomotor usulining kelajagi bor bo'lib, yuqori energiya va quvvatli lazer nurlanishini o'chaydigan apparat va qurilmalarni yaratishda qo'l keladi. Ammo, bu holda qurılma va apparatlarning ishlatish uchun, maxsus sharoitlar talab etiladi, chunki bu qurilmalar vibrasiyaga juda sezgir bo'ladilar, shuning uchun ham bu qurilmalar na'munaviy o'chov asboblari sifatida ishlatiladi. Lazerlarining chiqish parametrlarini o'chaydigan qurilmalarni yaratishda, ayniqsa rezonatorining asilliyligi boshqariladigan generatorlarni o'chash, qo'shimcha qiyinchiliklar keltirib chiqaradi:[17,19,21,31,].

A) Yuqori impulsli quvvatga ega bo'lgan nurlanishlar, priyomnik elementi yuzasini, intensiv qizib ketishi natijasida, buzilishiga olib keladi, generatsiya vaqt millisekundli impulslar uchun;

B) Yorug'lik nuri impulsining turg'unligi, qisqa vaqtliyligi oddiy fotopriyomniklardan foydalanishga imkon bermaydi, bu fotopriyom niklarning vaqt bo'yicha impulslarni ajrata olishi imkon 10-1000 n sek intervalida bo'ladi.

C) 4.1- jadvalda lazerlarning quvvati va energiyasini o'chovchi qurilmalar keltirilgan, bu o'chov qurilmalari, turli firmalar tomonidan ishlab chiqilgan.

Qurilma-ning modeli	Qurilma-ning turi	Ishtih chiqarilgan firma	To'lqin uzunligi mkm	Maksimal quvvat vt
Radiometr 580	Vakuumli fotodiod	Egg	0,2-1,2	$10^{10}$
690	Kalorimetri	PRD	0,25-4,0	1 (uzluksiz quvvat); quvvat zichligi 2 $vt/sm^2$
6621	Bolometr	PRD	0,25-4,0	0,1(uzluksiz quvvat); quvvat zichligi 2 $vt/sm^2$
RN-1	Kalamushini	WES	0,26-3,1	-
100	Konus	FRg	0,3-1,1	$3 \cdot 10^8$
107	Konus	FRg	0,3-1,1	$10^9$
YM-630	"	GSF	0,3-20,0	$2,5 \cdot 10^8$
LA-31	Fotodiod	RAY	0,35-1,1	-
560	Kremli fotodiod	Egg	0,35-1,13	0,5
362 A	Konus	MO	0,4-2,0	-
362 V	Konus	MO	0,4-2,0	-
362 S	"	MO	0,4-2,0	-

4.1-jadval

Maksimal energiya $\text{J}$	Sugirligi $\text{J}$ da	Vaqtlilik o'sishi $\text{nsek}$	Vaqtni o'sishi $\text{nsek}$	Apert urasi $\text{mm}$ da	Hatolik % da
$10^4$	$10^{5*}$	1	1	15,6	8
-	-	$25 \cdot 10^9$	-	15,6	5
-	-	$15 \cdot 10^9$	-	9,4	5
50	0,625	-	$20 \cdot 10^9$	25	20
300	$0,2 \cdot 10^{-3}$	$7 \cdot 10^9$	$80 \cdot 10^9$	25	5
$10^3$	$0,055 \cdot 10^{-3}$	$20 \cdot 10^9$	$10 \cdot 10^9$	50	5
0,5	-	-	-	6,25	10
$3 \cdot 10^3$	$0,8 \cdot 10^{-6}$	1	-	44	2**
-	0,5*	4	15	3	10
0,2- 5,0	-	-	-	12,5	10
2-20	-	-	-	18,5	10
20-50	-	-	-	25	10

362 D	"	MO	0,4-2,0	-	$50 \cdot 10^3$	-	-	-	25	10
K-J2	Suyuqlikli	KOR	0,53-1,06	$3 \cdot 10^9$	100	$31,3 \cdot 10^6$ 6	$30 \cdot 10^9$	-	25	3**
K-J3	Suyuqlikli	KOR	0,53-1,06	$3 \cdot 10^9$	500	$5 \cdot 10^{-6}$	$30 \cdot 10^9$	-	25	3**
K-J4	Suyuqlikli	KOR	0,53-1,06	$3 \cdot 10^9$	$2 \cdot 10^3$	$2 \cdot 10^5$	$30 \cdot 10^9$	-	50	3**

\* Belgilangan qiymat birligi a/vt bilan o'lchanadi.

### 4.3. Lazerlar energiyasi va quvvatini o'chovchi kalorimetrlar qurilmalar

Optik generatorlarning quvvati va energiyasini o'chovchi kalorimetrlar qurilmalar ikki gruppaga bo'linadi: o'zgaruvchan temperaturali kalorimetrlar va o'zgarmas tempuraturali kalorimetrlar.

O'zgaruvchan temperaturali kalorimetrlarda issiqlik energiyasining ajralib chiqishi, temperatura yuklamasining oshishiga olib keladi. Bu holda energiyaning ko'pgina qismi, tashqi muhitga chiqib ketadi va indikator qurilmasiga ta'sir etmaydi.

O'zgarmas temperaturali kalorimetrlarda (izotermik kalorimetrlarda) yuklamadan issiqlik energiyasining ajralib chiqishida, energiya yutiladi (masalan modda fazasini boshqa fazaga o'tish jarayonida) bu energiyaning miqdori ajralgan issiqlik energiyasiga teng bo'ladi. Shunday qilib, yuklamada quvvatning har hil taqsimlashga qaramasdan, issiqlikni yo'qtish holati ro'y bermaydi va indikator qurilmasiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Kalorimetrdagi issiqlik jarayonini misol sifatida, o'zgaruvchan temperaturali kalorimetrdagi ko'ramiz.

Issiqlik sig'imi tenglamasining, issiqlik manbaining, yuklamaning massasi bo'ylab, bir tekis taqsimlanish holatidagi ko'rinishi, quyidagicha bo'ladi:

$$C \frac{dT(t)}{dt} + \alpha T(t) = \varepsilon P(t) \quad (4.5)$$

bu yerda,  $S$  – yuklama materialining issiqlik sig'imi;  $\alpha$  – tashqi muhit bilan issiqlik almashinish koefitsienti;  $\varepsilon$  – yuklamaning yutish koefitsienti;  $T$  – tashqi muhit bilan, yuklama temperaturasining o'zaro farqi;  $R$  – tushuvechi optik quvvat.

Tenglama (4.5) ning chap qismidagi birinchi qo'shiluvchisi, yuklamaning qizishini aniqlaydi, ikkinchisi esa, issiqlikni tashqi muhitga chiqib ketishini aniqlaydi. Tenglama (4.5) ning doimio ta'sir etuvchi quvvat  $R_0$  uchun, boshlang'ich sharti  $T(0)=0$  bo'lgan holat uchun echiuning ko'rinishi:

$$T(t) = \frac{\varepsilon P_0}{\alpha} \left( 1 - e^{-\frac{t}{\tau_n}} \right) \quad (4.6)$$

bu yerda  $\tau_n = \frac{C}{\alpha}$  – yuklamaning davomiylik vaqt.

Turg'un holat uchun, agar  $T \rightarrow \infty$ ; u holatda kiruvchi va tashqi muhitga chiquvchi quvvat o'rtaida, dinamik tenglik vujudga keladi. Yuklamaning qizish temperaturasi, yutilayotgan quvvatga nisbatan proporsional bo'ladi va tashqi muhit bilan issiqlik almashinishiga teskari proporsional bo'ladi:

$$T_0 = \frac{\varepsilon P_0}{\alpha} \quad (4.7)$$

Kalorimetrik yuklamaning issiqlik rejimini ko'rib chiqamiz, unga to'g'ri burchak shakldagi optik impuls ta'sir etganda va impulsning vaqt bo'yicha davomiyligi, yuklamaning doimiylik vaqtidan juda kichik bo'ladi. Impulsning davomiyligi  $\tau_n$  vaqtida, yuklama ma'lum temperaturagacha qiziydi.

$$T_{max} = \frac{\varepsilon R i}{\alpha} \left( 1 - e^{-\frac{\tau_i}{\tau_n}} \right) \quad (4.8)$$

$\tau_i \ll \tau_n$  - bu holatni hisobga olib, formulaning eksponentasini qator bo'yicha yoyamiz va yoyish qatorining ikkita hadi bilan chegaralanamiz.

U hoida,

$$T_{max} = \frac{\varepsilon E}{C} \quad (4.9)$$

bu yerda,  $E = R_n \tau_n$  – lazer impulsining energiyasi.

Olib borilgan tahlillarning ko'rsatishicha formula (4.9) impulsining hohlagan shakli uchun mo'ljalangan bo'lib, faqat impulsining davomiyligi yuklamaning doimiylik vaqtidan kichik bo'lishi kerak bo'ladi. (4.7) va (4.9) formulalar kalorimetrik metod yordamida lazer quvvati va energiyasini o'lehashda, asosiy nisbatlar bo'lib hisoblanadi [37,39,43,44].

#### 4.4. Optik quvvat va energiyani o'lechoveli kalorimetrlarning tuzilishi

Ko'pgina optik quvvat va energiyani o'lechoveli kalorimetrları o'lehangichlarda, konus yoki shar shaklidagi yutuvchi quruq yuklamadan foydalaniлади. Bunday yuklamaning issiqlik temperaturasi termometr, termistr yoki bolometrlar yordamida aniqlanadi. Yutuvchi yuklama sisatida, qurilmada ichi bo'sh ko'mirli (uglerodli) konusdan foydalaniлган. Konusning temperaturasini ko'tarilishi, uehta bir hil termistrlar yordamida

aniqlanadi. Bu termistrlar asos yaqinida joylashtigan bo'lib, ko'priksxemasiga ulangan bo'ladi. Boshqa kalorimetrl o'chagichda, yuqorida yuklama sifatida misdan ishlangan, asosida diafragmalar bo'lgin, berak konusdan foydalanilgan bo'lib, konusning ichki qizni qoraytirilgan bo'ladi. Yutuvchi yuklama, maxsus dielektrik tortib turuvchiga, yuqorida bo'shilqda osib qo'yilgan (vakuum  $10^{-4}$  mm simob ust) qurilmaiga ushlari kirish oynasi o'matilgan.

Yuklamadagi temperaturaning o'zgarishi, platinali termopera ko'priksxemasi yordamida o'chanadi. Qurilmaning o'chash hatoligi 10-20 % dan ortiq emas. Energiya va quvvatni o'chovchi original tuzlishiغا eye bo'lgan qurilma to'grisida ma'lumotlar [39,40,43] keltirilgan.

Bunday qurilmada, yutuvchi yuklama sifatida balometrik elementdan (ingichka, izolyasiya qilingan mis sim o'ramidan tashkil topgan, kumush bo'sh yuzaga tartibsiz joylashtirilgan va diametri bo'yicha kalibrovka qilingan elementdan iborat) foydalaniladi. Bu qurilmaning sezgirligi  $10^{-2}$  d<sup>2</sup>, o'zgarmas vaqt [16]  $10^{-1}$  sek. teng. Yanada o'ziga hos bir qator hususiyatlarga ega bo'lgan konstruksiyalı bolometr, VNINFTRI tomonidan ishlab chiqilgan. Bolometrik element slyudali yoki kvarsli yupqa asosga (qalinligi 20-200 mkm) nikeldan ishlangan yupqa, pylonka sifat spirala o'matilgan, bu spiralning qalinligi 0,1 mkm, kengligi 100 mkm bo'lib. Spiral o'ramining bir-biridan joylashish masofasi 50 mkm ga teng. Spiral maxsus dielektrik qoplama bilan qoplangan, bu qoplamaning qalinligi 1 mkm bo'lib, uning yuzasiga oltin yuritilib qoraytiriladi va buning natijasida yutish koefitsienti 98 % etkaziladi.

Qabul qiluvchi bolometr yuzasining diametri 9,5 mm, qarshiligi 1400 Om, sezgirligi 0,1 Om/MVt dan kam emas, o'zgarmas vaqt 1,8 sek teng bo'ladi.

Bolometr passiv termostatga o'rnatiladi. Bunday bolometrik priyomnikning diapazoni  $5 \cdot 10^{-5}$  dan  $1 \cdot 10^{-1}$  Vt, umumiy hatoligi 12 %dan ko'p emas bo'lib, yanada kamaytirsa bo'ladi. 4.2-jadvalda mostlar M3-8, MZ-AA, M4-3 larning optik diapozonda ishlaydigan priyomniklar bilan qo'llanilishi o'rganib chiqilgan va ularning o'chash jarayonidagi yo'l qo'ygan hatoliklari keltirilgan. Kalorimetrl o'chagichlarda, lazer energiyasi va quvvatini katta, o'rta va kichik darajasi uchun, oquvchi suyuqlikli kalorimetrlarning bizmatidan foydalansh maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday kalorimetrlarda ajralib chiqqan issiqlik energiyasi, suyuqlik oxini bilan tashqariga olib chiqib ketiladi.

## 4.2-jadval

Ko'prikiar M3-8 va M3-8A ning bolometrik priyomnik mакетининг параметри

Diapazonlar	Ko'prikiar M3-8 va M3-8A							Priyomnik			
	O'lcham oraligi, mvt		Hatolik, %					Bolometri qizish quvvati mvt	Nominal qarshilik Om	Sezgirliji om/mvt	Issiqlik or'kazuvchavlik kolli mvt/ <sup>o</sup> S
	Asosiy	qo'shimcha	Asosiy	qo'shimcha	qo'shimcha	qo'shimcha	qo'shimcha				
I	1-3-10	0.1-0.3	$\pm 1.5$	$\pm(10-4)$ $\pm(4-2.5)$	$\pm 1$	$\pm(10-4)$ $\pm(4-1.5)$	20	5	320	0,076	16,8
II	10-30-100	1-3	$\pm 1.5$	$\pm(4-2.5)$	$\pm 1$	$\pm 1.5$	150	20	330	0,077	17,2
III	100-300-1000	10-30	$\pm 1.5$	$\pm(4-2.5)$	$\pm 1$	$\pm 1.5$	1200	200	210	0,044	19,1


081

Izoh. Haroratni kompensasiyalovchi priyomnikli ko'prikining o'rnatish vaqtı  $\leq 15$  sek. O'lchash vaqtı 30 sek.

Bu esa, o‘z navbatida qirish effektini aniq qayd qilish uchun qolayli tug‘diradi. Yutilgan energiya quvvati, soyuqlikning temperaturini daqqa ni o‘zgarishini, kirish va chiqish vaqtidagi taqbi bilan aniqlanadi. Buning uchun, issiqqliki olib chiqib ketuvechi suyuqlikning issiqlik sig‘ini, oning zichligi, suyuqlikning sarfi va umumiy issiqlik o‘tkazish koefitsienti, yuzaning issiqlik o‘tkazish effektivligiga bog‘liq bo‘ladi (Vroyuzumiy nauchno-issledovatelskiy institut fiziko-texnicheskix i radiotexnicheskix izmerenij (VNMMFTR)) da OPK-1 – kalorimetrl, suyuqlik o‘lebagich ishlab chiqilgan bo‘lib, bu o‘lebagich yordamida uzlusiz va impuls-modulyasiyalangan lazer quvvatini 0,1dan 100 v t gacha bo‘lgan oraliqda o‘lehash mumkin, qurilmaning o‘lehash jarayonidagi hatoligi 5-10 % ni tashkil etadi, yorug‘lik spektrining 0,1-1,1 mkm oraliq‘ida ishlatunga mo‘jallangan [13, 14, 17].

Lazerlarning nanosekundli impulsli energiyasni o‘lehash uchun mahsus, ikkita kalorimetrl o‘lebagich qurilmasi ishlab chiqarilgan bo‘lib, energiyani o‘lehash diapazoni 0,001 dan 5 dj gacha, impuls davomiyligi  $2\cdot10^{-2}$  sek teng. Birinchi o‘lebagich mis ichi bo‘sh sferadan iborat bo‘lgan yuklamadan iborat, sharning ichki yuzasi diffuziyali qaytarguvchi yuza bilan qoplangan bo‘lib, nurlanish dastasi, qisqa fokusli linza yordamida shakllangan holda kiradi. Sfera ikki radial termoparalar batareyasiga osib o‘matiladi, termoparalar esa mis metallidan ishlangan maxsus o‘matgichga o‘matiladi. Bu o‘matgich termostatga o‘rnataladi. Lazerning impulsli nurlanishi, shar (sfera) yuzasiga tushadi. Kalorimetr yorug‘lik energiyasini 0,001 dan 0,3 dj gacha oraliqda o‘lehaydi, o‘lehash jarayonidagi hatolik  $\pm(4\% \cdot 2\cdot10^{-2})$  dj ga teng. O‘lechovning yuqori chegarasi, yuklamaning nurlanish ta’siriga nisbatan chidamliyligiga bog‘liq bo‘ladi. O‘lehash diapazoni 0,05 dan 5 dj gacha bo‘lgan oraliqqa mo‘jallangan suyuqlikli kalorimetr bo‘lib (IJK-1), qabul qiluvechi element mislik silindr shaklida ishlangan bo‘lib, maxsus eritma bilan to‘lg‘azilgan bo‘ladi, silindr ichiga spiral shakldagi o‘ram o‘rnatalgan. Kalorimetrning o‘lehash jarayonidagi hatolik miqdori  $\pm(7\% + 1\cdot10^{-2})$  dj. O‘rtacha va undan yuqori darajadagi impuls energiyasini o‘lehashda. [44] ishda keltirilgan suyuqlikli kalorimetrda, energiyani yutuvechi yuklama o‘mida qalinligi 6mm bo‘lgan kumush bilan orqa devori qoplangan yachevkadan foydalaniilgan. Yachevka maxsus eritma bilan to‘lg‘aziladi, bu suyuqlikning konsentrasiyasи 6mm uzunlikda, lazer nurlanishining 99,9 % yutadi. Yachevka oldi tomonidan kvars plastinka bilan yopilgan, hamma yuklama massiv latunli issiqlik ekraniga joylashtirilgan bo‘lib, temperaturaning o‘sisi kalibrovka qilingan

termopara yordamida o'lchanadi, termopara yacheyskaning orqa devoriga o'matiladi. Qurilma 0,01 dan 30 dj gacha bo'lgan energiyani va 200 M  $\text{vt/sm}^2$  quvvat zinchigini o'lchashga mo'ljallangan. Kalorimetrnning o'lchash jarayonida yo'l qo'ygan hatoligi  $\pm 2\%$  tashkil etadi. IMO-1 – kalorimetri 4.1- rasm (Xarkov davlat universiteti tomonidan) ishlab chiqarilgan [22, 24, 28].



4.1-rasm. Kalorimetr IMO-1 (oldidan ko'rinishi)

Qurilma o'lchov elementi va kalibrlovchi blokdan tuzilgan, o'lchov elementiga ikkita bir hil seksiyadan iborat bo'lgan, misdan ishlangan konusimon absolyut qora jism o'matilgan. Seksiyalar orasiga termoparalar (100 ta mis-konstantali) o'rmatilgan bo'lib, ular yordamida temperaturani konuslardagi o'rtacha o'sishi o'lchanadi. Har bir seksiya, isituvchi spiralga ega bo'lib, konus ichiga joylashtirilgan spirallar, nixrom sim o'ramidan iborat bo'lib, simning diametri, o'ram qadamiga teng qilib olingan, bu o'ramlar konus o'qi bo'ylab yo'nalgan bo'lib, optik nurlanish uchun shaffol emas. Termoparadan kelgan signal kuchaytirilib, chiquvchi tok sovutuvechi

elementlar orqali o'tkaziladi, issiqlik ekranı sovutilib, oldindiki temperaturni qiyomatiga tenglashtiriladi. Sovutish elementlariidan o'tgan tok  $\tau_{\text{qur}}$  mvt. yutilgan quvvat qiyomatiga proporsional bo'ladi. Qurilmaning  $\tau_{\text{qur}}$  darajasi  $\pm 0.5\%$  o'lehash oralig'i diapazonida 1-50 mvt. to'iqin  $\lambda$  teng  $6328\text{\AA}$  teng 0.1-rasm.

Issiqlik oqimini konveksiya natijasida kamayishini, yupqa  $\tau_{\text{qur}}$  ishlangan oyna bilan yopilgan qurilma yordamida aniqlanadi. Qurilmaning differensial sxemasi, issiqlikdan saqlaguvchi metallidan ishlangan ekran bilan tashqi muhitdan himoyalangan. O'lechovche indikator sifatida turli M95 yoki F116 turdag'i galvanometrdan foydalanilgan. Kalibrovka qilishi qismida, stabillashituvchi to'g'irlagich yordamida kalibrovka lozochi tok manbaidan foydalanilgan. O'lehash oralig'i energiyasi  $10^{-1}$  dan -  $10^{-3}$  dj bo'lib, quvvati  $10^4$ - $10^7$  v/s ga teng. Xarkov davlat universitetida, kalorimetrlarning quruq yuklamalı yangi turlari ishlab chiqarilgan bo'lib, ular o'rtacha va yuqori darajali chiqish quvvatiga va energiyaga ega bo'lgan lazerlar uchun mo'ljallangan. Qurilma KOD-10 o'lehash elementidan, kalibrovka va indikasiya blokidan hamda elektromexanik yopuvchi qurilmadan iborat. O'lechov elementining asosi, konus shaklidagi modellar I; 7 bo'lib, absolyut cora jism sifatida bo'ladi va optik energiya konus devorlari tomonidan yutiladi. Konusning ichki devori nikel metalli bilan yupqa qalinlikda qoplangan bo'lib, bu bilan uning energiyani infraqizil diapazonda yutish hususiyatini kuchaytiradi. Konusning qizish darajasi, ko'p miqdordagi ketma-ket ulangan termoparalar 2, 6 (700-800 dona) yordamida aniqlanadi. Termoparaning konus yuzasi bilan o'zaro kontakti juda yaxshi bo'lishi shart. Qurilma differensial sxema asosida, ikkita bir-biriga qaragan bir xil konuslardan yig'ilgan. Konuslar bo'ylab isituvchi elementlar joylashtirilgan bo'ladi. Qurilmani kalibrovka qilish vaqtida, yuklamani doimiy vaqt  $\tau_a$  va termoparaning EYUK aniqlanadi.

### **Qurilmaning asosiy texnik xarakteristikasi**

To'iqin uzunligi diapazoni .....	0,4-11 mkm
Impulslı energiyani o'lehash oralig'i .....	3,10;30;100;300 dj
Quvvatni o'lehash oralig'i .....	3,10;30;100;300 V/s
Kirish diametri .....	15mm
O'lehash jarayonidagi hatolik .....	$\pm 10\%$

## Asosiy hatoliklar

Quruq yuklamlari kalorimetrlarning o'lhash jarayonidagi hatoliklar manbaini ko'rib chiqamiz:

$\frac{\Delta \varepsilon}{\varepsilon}$

- yuklamaning yutish koefitsientini aniqlashdagi xatolik

$\frac{\Delta \mu}{\mu}$

- issiqlikni yo'qotishni ekvivalent emasligi natijasida kelib chiqgan xatolik

$\frac{\Delta T}{T}$

- kirish oynasining o'tkazish koefitsientini aniqlashdagi xatolik

$\frac{\Delta E_{el}}{E_{el}}; \frac{\Delta P_{el}}{P_{el}}$

- energiya va quvvatni aniqlashdagi va kalibrovka qilishdagi xatolik

$\frac{\Delta \varphi}{\varphi}$

- hisoblashdagi xatolik.

Qurilmani kadibrovka qilishdagi hatolik, impulsli energiya uchun aniqlik darajasi, kondensator sig'imiini va undagi kuchlanishni aniqlashga bog'liq bo'lib, quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\frac{\Delta E_{el}}{E_{el}} = \pm \sqrt{\left(\frac{\Delta C}{C}\right)^2 + 4\left(\frac{\Delta U}{U}\right)^2} \quad (4.10)$$

Katta sig'implarni o'lhash usullaridan biri (kalibrovka qilish uchun) ma'lum qarshilik orqali, sig'imini razryadlanish vaqtini aniqlash usuli hisoblanadi va maksimal o'lchov hatoligi  $\pm 2\%$  tashkil etadi. Kuchlanish esa, oson va aniq o'lchanadi  $\pm 0.5\%$  xatolik bilan. Bu esa energiyani o'lhashning umumiy hatoligini tashkil etadi.

$$\frac{\Delta E_{el}}{E_{el}} = \pm 2,2\% \quad (4.11)$$

Elektr quvvatini o'lhashdagi xatolik, quyidagicha aniqlanadi

$$\frac{\Delta P_{el}}{P_{el}} = \pm \sqrt{\left(\frac{\Delta r}{r}\right)^2 + 4\left(\frac{\Delta i}{i}\right)^2} \quad (4.12)$$

Qarshilikni o'chashda yo'l qo'yilgan hatolik  $\pm 0.1\%$  tokni o'chashdag'i hatolik esa  $\pm 0.5\%$  tashkil etadi, u holda

$$\frac{\Delta P_{el}}{P_{el}} = \pm 1\% \quad (4.13)$$

tashkil etadi.

Hisoblashni bajarishdag'i hatolik, indikatorning shkalasining uzunligiga, og'ish kattaligi haarda nolning dreyfiga bog'liq bo'ladi.

Masalan mikroampermetr M95 shkalasi 100 bo'limli bo'lsa, shkalaning  $1/3$  qismiga og'sa, nol holati dreyfi  $\pm 1\%$  atrofida bo'ladi. Bu hatolik ikki martta namoyon bo'ladi, kalibrovka va o'chash jarayonida.

Optik energiya va quvvatni o'chash jarayonidagi hatolikni aniqlash, quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\frac{\Delta E}{E} \pm \sqrt{\left(\frac{\Delta \varepsilon}{\varepsilon}\right)^2 + \left(\frac{\Delta \mu}{\mu}\right)^2 + \left(\frac{\Delta E}{E_{el}}\right)^2 + \left(\frac{\Delta T}{T}\right)^2 + 2\left(\frac{\Delta \Psi}{\Psi}\right)^2} \quad (4.14)$$

$$\frac{\Delta P}{P} \pm \sqrt{\left(\frac{\Delta \varepsilon}{\varepsilon}\right)^2 + \left(\frac{\Delta \mu}{\mu}\right)^2 + \left(\frac{\Delta P}{P_{el}}\right)^2 + \left(\frac{\Delta T}{T}\right)^2 + 2\left(\frac{\Delta \Psi}{\Psi}\right)^2} \quad (4.15)$$

O'chash jarayonidagi asosiy hatolik bo'lib, issiqlik yo'qotishning ekvivalent emasligidan kelib chiqadigan hatolik hisoblanadi. Bu hatolikni izometrik kalorimetr yordamida olib tashlab, o'chash jarayoni aniqligini oshirishi mumkin [23, 29, 30].

#### **4.5. Lazer nurlanishining energetik harakteristikalarini o'chovchi ponderomotorli o'chagichlar**

Ponderomotorli o'chagichlarda, nurlanishning mexanik ta'siridan foydalaniladi. D.Maksvell va P.N.Lebedev elektromagnit tebranihlarning jismga bosim ta'sirini ko'rsatishini, amaliyotda isbotlab berdilar. Bu bosim ta'siri juda kichik bo'lib, ularni juda sezgir datchiklar yordami bilan yuqori aniqlikda o'chash mumkin. YOrug'lik bosimini o'chash uchun, turli turdag'i datchiklardan (sig'imi, p'ezoelektrik va boshqa) foydalaniladi, ko'pincha aylanma tarozi ham bu maqsadda ishlataladi. Osma yoki tortib turuvchi simga, qabul qiluvchi element o'zak (sterjen) o'rnatiladi. Osma

simning bir uchiga og'irlikni muvozanatga keltiruvchi yuklama, ikkinchi tomonining o'tasiga indekator vazifasini bajaruvchi ko'zgu o'matiladi.

Yorug'lik nuri, qabul qiluvchi element yuzasiga tushib, elementda aylantiruvchi moment yuzaga keltiradi va natijada osma sim bir necha burchakka buriladi. Bu burchak, indekator ko'zgusiga tushgan yorug'lik nurlanishining og'ishi bilan o'lchanadi. Nazariy mexanikadan bizga ma'lum bo'lishicha, qattiq jisimni o'z o'qi atrosida aylanishida, unga ta'sir etuvechi hamma kuchlar momentlari summasi, jism inersiya momentining burchak tezlanishi ko'paytmasiga teng bo'ladi.

$$I \cdot \frac{d^2\alpha}{dt^2} = \sum_{i=1}^n M_i \quad (4.16)$$

Qurilmaning harakatlanuvchi qismiga, quyidagi momentlar ta'sir ko'rsatadi:

A) qabul qiluvchi elementga yorug'lik nurlanishining bosimi orqali, yuzaga kelgan aylantiruvchi moment –  $M$

B) osma simning aylanishi bilan bog'liq bo'lgan, qarshi ta'sir ko'rsatuvchi moment  $M_a = -W_a$ . Bu yerda  $W$  – osma simning qattiqligi

V) harakatni tormozlovchi (to'xtatuvchi) kuch momenti

$$M_x = -x \frac{d\alpha}{dt} \quad (4.17)$$

$x$  – tinchlanish koefitsienti

Bu ta'sir etuvechi momentlar qiymatini, formula (4.16) ga qo'yamiz va quyidagi ko'rinishiga kelamiz.

$$I \frac{d^2\alpha}{dt^2} + x \frac{d\alpha}{dt} + W\alpha = M \quad (4.18)$$

Uzluksiz optik quvvatning sistemaga ta'siri natijasida, qurilma qandaydir ma'lum  $\alpha_0$  burchagiga og'adi va yangi holatdagi tenglik o'rnatiladi. U holda, tenglama (4.18) quyidgi ko'rinishga keladi.

$$W\alpha_0 = M \quad (4.19)$$

Tenglik holatida

$$\frac{d^2\alpha}{dt^2} = \frac{d\alpha}{dt} = 0 \quad (4.20)$$

teng bo'ladi.

Uzluksiz optik nurlanish quvvati ta'siridagi og'ish burchagini, shunday aniqlaymiz.

$$\alpha_0 = \frac{M}{W} \quad (4.21)$$

Agar, qabul qiluvchi elementga tushayotgan optik yorug'lik impulsi davomiylik vaqt, sistemaning o'zining tebranish vaqtidan anchagina kam bo'lsa, u holda, sistema ballistik rejimda ishlaydi va impuls ta'sir etgan vaqt  $\tau$ , ichida, sistemaning o'z inersionligi tufayli, og'ishga imkonli bo'lmaydi. Shu vaqt uchun tenglama (4.18), quyidagi ko'rinishda yoziladi.

$$I \frac{d^2 \alpha}{dt^2} + \chi \frac{d\alpha}{dt} = M \quad (4.22)$$

tenglama (4.22) ni 0 dan  $\tau_u$  oralig'ida integrallab

$$I \frac{d\alpha}{dt} + \chi \alpha = \int_0^{\tau_u} M(t) \cdot dt \quad (4.23)$$

tenglamaning ikkinchi hadida,  $\alpha$  ning qiymati nulga teng bo'lgani uchun

$$\frac{d\alpha}{dt} = \frac{1}{I} \int_0^{\tau_u} M(t) \cdot dt \quad (4.24)$$

Impuls ta'siri vaqt tugagandan keyin, harakatlanuvchi sistema quyidagi qonun asosida harakatlanadi.

$$I \frac{d^2 \alpha}{dt^2} + \chi \frac{d\alpha}{dt} + W\alpha = 0 \quad (4.25)$$

Boshlang'ich shartlari:

$$\alpha_{t=0} = 0; \quad \frac{d\alpha}{dt}_{t=0} = \frac{1}{I} \int_0^{\tau_u} M(t) \cdot dt \quad (4.25)$$

(4.25) tenglamaning echimiga ko'ra, sistemaning maksimal burchakka og'ishi, aylantiruvchi moment bilan quyidagicha bog'langan:

$$\alpha_{max} = \frac{N}{\sqrt{IW}} \int_0^{\tau_u} M(t) \cdot dt \quad (4.27)$$

Bu yerda,

$$N = \begin{cases} \exp\left(-\frac{\beta}{\sqrt{1-\beta^2}} \operatorname{arctg} \frac{\sqrt{1-\beta^2}}{\beta}\right) & \text{agar } \beta < 1 \\ \exp\left(-\frac{\beta}{\sqrt{\beta^2-1}} \operatorname{arctg} \frac{\sqrt{\beta^2-1}}{\beta}\right) & \text{agar } \beta > 1 \end{cases} \quad (4.28)$$

$$\beta = \frac{X}{2\sqrt{IW}} - \text{sistemaning tenglanish darajasi}$$

Sistemaning aylantiruvchi momenti  $M$  nurlanishning quvvatiga proporsional bo'lsa,  $\int_0^{\tau_u} M(t) \cdot dt$ - og'ish burchagini kattaligi, impulsning energiyasiga proporsional bo'ladi. Shunday qilib, tenglamlalar (4.27) va (4.21) dan, og'ish burchagi  $\alpha_0$ , yorug'lik nurlanishi quvvati  $R_{sg}$ , maksimal og'ish burchagini  $\alpha_{max}$  kattaligiga, impulsli nurlanishning energiyasiga proporsional bo'ladi [ 27,44].

#### 4.6. Ponderomotor o'chagichdagi manfiy qayta bog'lanish

Ponderamotor o'chagichlar o'z tuzulishiga qarab, har xil turtki va tebranishlarga nisbatan sezgir bo'ladi. Ayniqsa bunday holat, yuqori quvvat va energiyani o'chovchi va o'chovchi elementi, juda ingichka simga tortib, osib qo'yilgan o'chagichlar uchun ta'luqli bo'ladi. Bunday ingichka, osma simlar, sistemaning tebranish vaqtini oshishiga sabab bo'ladi va o'chov ishlarini olib borishni qiyinlashtiradi. Qurilmani sezgirlik darajasini, har xil turtki va tebranishlarga ta'sirini kamaytirish uchun, uni tinchanish darajasini oshirish kerak. Sistemaning tebranish vaqtini kamaytirish uchun, unga qayta manfiy bog'lanishni kiritish kerak bo'ladi [32, 33, 35]. Bu esa o'z navbatida sistemaning tinchanish darajasini oshiradi va sistemaning katta bo'lнagan inersionligini saqlab qoladi. Qayta manfiy bog'lanish, sistemaga quyidagicha kiritiladi.

Qabul qiluvechi element moslamasi bilan, magnitaelektrik sistemaga mahkamlanadi. Burilish burchagining ish holatini aniqlash uchun, sistemada lampochkadan foydalilanadi. Sistemada, indikator ko'zgu va ikki fotorezistoridan hamda ko'prik sxemasidan foydalilanadi. Fotorezistorlar, indikator bilan dioganal holatda, ko'prik sxemasiga ularadi. Boshlanish vaqtida harakatlanuvchi sistema holati, shunday o'matiladiki, fotorezistorlarning yoritilganligi bir hil bo'lib, ko'prik balans holatga keltiriladi va ko'prikdan dioganali bo'ylab tok o'tmaydi.

Yorug'lik nurlanishi qabul qiluvechi elementga tushishi bilan, harakatlanuvchi sistema buriladi, fotorezistorlarning yoritilganligi holati o'zgaradi va ko'prik dioganali bo'ylab tok paydo bo'ladi. Shu tokning bir qismi, ramkaga uzatiladi va uni boshlang'ich holatga qaytishiga sabab bo'ladi. Bunday turdag'i sistema, galvanomaetrik moment kompensatori sifatida, o'zini namoyon qiladi. Bu sistemaning hususiyati va dinamik harakteristikasi [33] da to'liq o'r ganilgan. Sistemaga, manfiy qayta ularishni kiritilishi, tortib turuvchi similarning tarangligini kuchaytirish bilan ekvivalent hisoblanadi. Bu bilan sistemaga huddi "elektr mustakhamlilik" –  $W_{el}$  kiritilgandek bo'ladi. Bu mustakhamlilik, mexanik mustakhamlikka qo'shilib ketadi. Chiqish indikatorining og'ish kattaligi, sistemaning og'ish burchagiga proporsional bog'liqlikda bo'ladi. Shuning uchun formulalar (4.25), (4.27) nisbatlarni, kichik o'zgarishlar bilan sistema uchun, qayta manfiy bog'lanish kiritilgan sistemaga, qo'llash mumkin bo'ladi.

Uzlusiz quvvat uchun,

$$i_0 = \frac{2RrN_1K}{cW_e} \cdot P; \quad (4.29)$$

Impulsli energiya uchun,

$$i_{max} = \frac{2RrN_1K}{c\sqrt{I+W_e}} \cdot E, \quad (4.30)$$

bu yerda,  $i$  – chiqish indikatorining og'ish kattaligi;

$K$  – optik sistema indikator qiymatini o'zgartirish koefitsienti;  $W_e = W + W_{el}$

Formula (4.30) dagi koefitsient  $N$  o'miga, koefitsient  $N_1$  ni ishlatalishidan maqsad, harakatlanuvchi sistemaning inersionligini va chiquvchi indikator fotorezistorining inersionligini hisobga olish bo'lgan. Qayta ularishli qurilmaning kalibrovka qilish (yoki sozlash), aylantiruvchi momentlarni bir-biriga taqqoslash orqali, ya'ni optik quvvat ta'siri natijasida yoki impuls energiyasi natijasida va ramka orqali uzlusiz yoki impulsli

tokning oqishi natijasida, vujudga kelgan momentlarning ta'siriga qarab sozlanadi. Galvanometr ramkasining tok ta'siri, ramkaning tok ta'siri natijasida  $i_r$  og'ishi burchagi kattaligi va undan oqib o'tgan tokka teng [27]:

$$\alpha_0 = \frac{\Psi}{W} \cdot i_r, \quad (4.31)$$

bu yerda,  $\Psi$ - magnitelektrik sistemaning oqim ta'siri  
 $W$ - tortib turuvchi simlarning mustahkamligi

Sistema ramkasining tok o'tishi natijasidagi (zaryad o'tishi) maksimal og'ishi, shunday aniqlanadi:

$$\alpha_{max} = \frac{\Psi N}{\sqrt{IW}} \cdot q \quad (4.32)$$

Agar galvanometr ramkasidan tok  $i_r$  yoki zaryad  $q$  o'tayotgan bo'lsa, ponderomotor o'lchagichning chiqish indikatorining og'ish kattaligi, shu tartibda aniqlanadi:

O'zgarmas tok uchun,

$$i'_0 = \frac{\Psi K}{W_z} \cdot i_r; \quad (4.33)$$

zaryad uchun,

$$i'_{max} = \frac{\Psi N_1 K}{\sqrt{IW_z}} \cdot q. \quad (4.34)$$

Formulalar (4.29) va (4.33) bir-biriga taqqoslaymiz.

Agar  $i_0 = i'_0$  bo'lsa, u holda tok  $i_r$  va optik quvvat R, chiquvchi indikatorda bir xil kattalikdagi og'ishni ta'minlaydi.

U xolda,

$$P = \frac{c\psi}{2R \cdot r} \cdot i_r = a i_r, \quad (4.35)$$

(4.30) va (4.34) formulalarni taqqoslab, quyidagi hulosaga kelamiz va energiya E ni quyidagicha aniqlanaymiz:

$$E = \frac{c\psi}{2Rr} \cdot q = aq \quad (4.36)$$

SHunday qilib, o'lehash amalini bajarish uchun, kalibrlovchi ko'paytirgich-a va tok -  $i_r$  yoki zaryad -  $q$  ni bilish kerak, chunki bu birliklar, chiqish indikatori huddi quvvat -  $R$  yoki energiya -  $E$  ning ta'siri ostida, qancha harakatlansa (yoki burchak qiymatiga og'sa) ular ta'sirida ham shuncha miqdorga harakatlanadi. Magnitoelektrik oqim ta'siri  $\psi$  ni aniqlash uchun, vebermetrdan (M199 turdagisidan) foydalanamiz. Vebermetr, galvonometr ramkasiga ularadi va so'ngra ma'lum burchakka buraladi. Ramkaning harakati natijasida, EYUK vujudga keladi. Bu EYUK ning absolyut kattaligi, quyidagiga teng bo'ladi:

$$e = \psi \frac{da}{dt} \quad (4.37)$$

Vebermetrga kuchlanish impulsi keladi:

$$F = \int e \cdot dt = \psi a \quad (4.38)$$

$F$  – vebermetning ko'rsatgan qiymati  
Bundan

$$\psi = \frac{\Phi}{a} \quad (4.39)$$

Sxemadagi tok manbai va kuchlanishni, bo'lish koefitsientiga ega bo'lgan bo'livchidan, tok -  $i_r$  ning qiymati olinadi. Zaryad -  $q$  kondensatorda yig'iladi va ko'rsatilgan formula yordamida, hisoblanadi:

$$q = cu \quad (4.40)$$

bu yerda,  $s$  – kondensatorning sig'imi;  $u$  – kondensator zaryadlanishi mumkin bo'lgan kuchlanish qiymati [37, 39, 42].


#### 4.7. Lazer nurlanishining quvvati va energiyasini o'lechovchi ponderomotorli o'lehangichlarning tuzilishi

Lazerlar quvvati va energiyasini o'lechovchi ponderomotor o'lehangichlar, Xarkov davlat universitetining radio o'lehash kafedrasи tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bu apparat, o'lehash elementi joylashtirilgan qism va indikasiya blokidan iborat.

O'lehash qismi, harakatlanuvchi sistema, fotoelektrik kuchlanishli galvanometr O 117 dan iborat.

Qabul qiluvchi element, sapfirдан ishlangan diskadan iborat bo'lib, uning diametri 19 mm, qalinligi 0,4 mm. Harakatlanuvchi sistema, massiv mis korpus ichiga o'matiladi. Mis korpusning yorug'lik nurlanishi kirishi va

chiqishi uchun mo'ljallangan teshikchasiga, sapfirdan ishlangan oyna o'matiladi. Qabul qiluvchi elementning, qarama-qarshi tomonida joylashgan teshikcha orqali, mikrometrik vintning, burovchi vinti joylashtirilgan bo'lib, vint yordamida, yorug'lik oqimi ta'siri o'zgarishini va galvonometr ramkasini to'g'rilashni imkonli bo'ladi. Burilish burchagining qiyamatini hisoblash uchun, elka uzunligi va mikrometr vinti yordamida, aniqlanadigan masofadan foydalaniлади. Harakatlanuvchi sistemaning burilish burchagini o'lchashda, Ø117 kuchatirgichdan foydalaniлади.



4.2-rasm. O'lhash blokining sxemasasi

O'lhevchi blok, indikasiya bloki bilan kabel orqali bog'lanadi va qayta bog'lanish signali ramkaga keladi va fotoblok lampasini hamda fotorezistorni ta'minlaydi. Indikasiya blokida: ta'minlovchi, stabillovchi, tekislagich, fotoblok lampalari, hamda qayta bog'lanish sxemasiga kiruvchi  $R_k$  va  $R_D$  qarshiliklariga ega bo'lgan ko'priklari, kirish indikatori G va qurilmani nol holatini o'rnatuvchi elektr sxema ( $R_5-R_{16}$  qarshiliklardan iborat ko'priklari) va qarshilik  $R_N$  joylashgan bo'ladi 4.2-rasm.


### Qurilmaning asosiy texnik harakteristikaları

To'ljin uzunligi oraliq diapazoni .....	0,4-4 mkm
Quvvatni o'lhash kattaligi .....	3-10-30-100-300 vt
Energiyani o'lhash kattaligi .....	10-30-100-300 dj
Kirish oynasining diametri .....	15 mm
Uzlusiz quvvatni o'lhashdagi kattalikni aniqlash, vaqt .....	10 sek
Impulslvi energiyani o'lhashdagi kattalikni ko'rsatish vaqt .....	2 sek

[31] ishda, kichik siljishli, buraluvchi mayatnikli va elektr yordamida kalibravka qilinuvchi radiotexnik sxema ko'rsatib berilgan. Tebranuvchi sistema – buraluvchi mayatnik – mis yuzasiga, kumush yuritilgan plastina, volfram sim yordamida osib qo'yilgan. Sistemaning dinamik diapazoni 0,5-100 dj energiyani 1 minut davomida o'lchashga mo'ljallangan bo'lib, bu vaqtga sistemaning o'zining tebranishlari 15-26 sek. ham kiradi. Generatorning impulslarini kalibrlovchi qurilma sifatida, kutuvchi multitebratkichdan foydalaniлади. Multitebratgich, to'g'ri burchakli impulslar hosil qiladi, impulsarning davomiyligi vaqt 1 va 2 sekund bo'лади. Sistemani tinchlanishi uchun, o'sha kalibrlovechi generator impulslaridan foydalaniлади, generator ma'lum vaqida, tormozlovechi impulslar yuboradi. Sistemaning tinchlanishi uchun 4-6 tormozlovechi impulslar kifoya qiladi. Bunday va shu kabi ponderomotorli o'lchovchi qurilmalar yordamida, yorug'lik nurlanishining uzlusiz quvvatini o'lchash mumkin. Buning uchun lazer nurlanishi, chastota yordamida modulyasiya qilinadi. bu chastota, buraluvchi mayatnikning tebranish chastotasiga teng bo'лади [47, 48, 49].

#### 4.8. Fotoelektrik usul

Fotoelektrik usul yordamida, o'lchash ishlarini olib borishda, qabul qiluvchi element o'rniда, vakuumli fotoelementlardan va fotoko'paytirgichlardan foydalaniлади. Keyingi vaqtarda, yarim o'tkazuvchi foto priyomniklar ishlab chiqarildi, ular optik spektrning ko'rish va infraqizil diapazonida, laserlarning impulsli energiyasini va uzlusiz quvvatini o'lchash imkoniyatni beradi. 4.3-rasmida, o'lchagichning sodda konstruksiyasi keltirilgan [ 16,36,40, ].



4.3-rasm. Lazer nurlanishini o'lchaydigan fotoelektrik indikatorning sxemasi

Sig'im S, elektr manbaidan,  $\Delta U$  qiymatiga zaryadlanadi (kalit yopilganida). O'lhashishini boshlashdan oldin, elektr manbai uzb qo'yiladi. Fotokatod, impulsli nurlanish yordamida yoritilganidan keyin, fotoelementdan tok oqib o'tadi  $i(t)$  va sig'im S dan esa zaryad q oqib chiqadi. Bu zaryad, yorug'lik impulsi ta'siri davomida oqqan fototokning, integrali qiymatiga teng bo'ladi:

$$q = \int_0^{\tau} i(t) \cdot dt \quad (4.41)$$

bu yerda,  $\tau$  - yorug'lik nurlanishi impulsining davomiyligi. Zaryad  $q$  ni aniqlash uchun elektrostatik voltmetrdan foydalaniladi va sig'im S dagi impuls boshlanishi oldidan va impulsdan keyingi kuchlanishning farqi o'lchanadi:

$$q = C \Delta U = \int_0^{\tau} i(t) \cdot dt \quad (4.42)$$

Agarda tok  $i(t)$  ning qiymati, fotoelementga tushuvchi nur intensivligi  $I$  ga chiziqli bog'liq bo'lsa, u holda

$$i = RI \quad (4.43)$$

bu yerda. R – fotoelementning sezgirligi

Agar, nurlanish impuls energiyasini E ga teng deb qabul qilsak, u holda:

$$E = \int_0^{\tau} I \cdot dt = \frac{1}{R_0} \int_0^{\tau} i(t) \cdot dt = \frac{C}{R} \Delta U \quad (4.44)$$

Shunday qilib, kondensatordagi kuchlanishning, impuls ta'sir vaqtida o'zgarishi, impuls energiyasiga to'g'ri proporsional bo'ladi. Qabul qiluvchi element (priyomnik) harakteristikasining, to'g'ri chiziqli uchastkasida, o'lchov ishlarini o'tkazish uchun, fotokatod yuzasiga tushayotgan yorug'lik nurlanishi oqimini kamaytirish uchun, neytral filtrlardan foydalanamiz.

Qurilmaning sezgirligini oshirish maqsadida, qabul qiluvchi element sifatida fotoko'paytirgichlardan (fotoumnojitel'dan) foydalanish mumkin [37]. Fotosezgir element toki, kondensator yordamida integrallashtiriladi va detektor bilan o'chanadi. Sezgir fotoelementni, to'yinish holati darajasiga etmasligi va uning yuzasini shikastlanmasligi uchun, yorug'lik nurlanishi oqimini kuchsizlantirish maqsadida, neytral filtrlardan foydalaniadi. Bu filtrlar, avvalroq kalibrovka qilinadi. Chiqish signali qiymati 4v bo'lsa, bu sxemada impuls energiyasi  $1,2 \times 10^{-5}$  dj.bo'ladi. Qurilma yordamida energiya  $10^{-3}$ -1dj diapazonida o'chanadi. Shunga qaramasdan, bu qurilmaning ham o'ziga muvofiq kamchiliklari bor [30, 31, 44];

a) priborda ishlatalidigan, kalibrovka qilingan filtrlar kichik energiyali nurlanish uchun mo'ljallangan  $10^{-3}$ -1 dj.

b) har bir filtrni alohida kalibrovka qilib bo'lmaydi, chunki filtrlar gruppasida, kichik yorug'likni qaytish xususiyati kuzatiladi.

v) kalibrovka usulining kamchiligi, nurlanishning fazoviy bir hilda taqsimlanmaganligi va detektoring hamma uchastkasi hisobga olinmaganligidadir. Agar, kuchsizlantiruvchi filtr o'miga, nurlanishni diffuziyali-tarqatuvchi yuzadan foydalansila, yuqoridagi kamchiliklarni yo'qotish mumkin [40]. Yuzasi S ga teng bo'lgan detektoring, ochiq sirtiga tushayotgan yoyilgan yorug'lik nurlanishining intensivligi  $R_s$  quyidagicha aniqlanadi:

$$R_s = P_0 \frac{S}{2\pi R^2} \quad (4.45)$$

bu yerda  $R_s$  – lazer nurlanishining boshlang'ich quvvati; R – qabul qiluvchi elementdan, numri yoyuvchi yuzagacha bo'lgan masofa.

Agar, katta quvvatlari nurlanish bilan ishlanganda, bu masofani uzaytirish kerak bo'ladi va natijada qabul qiluvchi detektoring haraktristikasini to'g'ri chiziqli qismida, o'lehash ishlarini o'tkazish imkoniga ega bo'lamiz va fotokatodni, kuchli, quvvatlari nurlanishdan saqlab qolamiz. Shunday qilib, qurilma boshqalariga qaraganda quyidagi avzalliklarga ega bo'ladi:

- a) bunda nurlanishni qabul qiluvchi yuza, ideal diffuziyali qaytargich yordamida, detektor harakteristikasini chiziqli qismida, ishlash imkonini yaratiladi;
- b) u juda sodda bo'lib, energiyaning katta va kichik qiymatlari o'lehashda qo'llanilishi mumkin (6-10 dj);

c) qurilmada, nurlanish dastasining, bir tekis yuza bo'yicha taqsimlanganiga va detektoring yuzasidagi, issiq yoki sovuq nuqtalarning borligiga, o'lehash jarayonida ahamiyat berilmaydi.

O'lehash jarayoni [36-40] ishlarda ko'rsatib o'tilganidek, etarli darajada aniq va qulay emas, chunki o'lechovchi voltmetr ideal chiziqli haraktristikaga ega bo'limganligi va o'zining inersionligi natijasida, yuqori chastotadagi impulslar seriyasini o'lehash uchun, undan foydalaniib bo'lmaydi. [41] ishda ko'rsatib o'tilishicha, yuqorida aytib o'tilgan kamchiliklarsiz ishlaydigan qurilmada, nurlanishni qabul qiluvchi element sifatida F5 qurilmasidan foydalilanigan. Bu qurilmada, integral zanjirdagi kuchlanishning o'zgarishi, yorug'lik nurlanishi impulsi energiyasiga proporsional bo'ladi va maxsus elektron sxema yordamida, impulslar seriyasini proporsional ravishda, yorug'lik energiyasiga aylantirib beradi. So'ngra raqamli voltmetr yordamida, nafaqat lazer impulsi energiyasi, balki impulsning maksimal oniy quvvati qiymatini ham o'lehash mumkin bo'ladi. Raqamli voltmetr shkalasi, energiya birligi va quvvatiga nisbatan mos holatda (graudirovka qilingan) moslashtirilgan. Sxemaning sezgirlik darajasi, raqamli voltmetr shkalsiining kichik bir bo'lagi  $1 \text{ vt}$  va  $10^{-4} \text{ dj}$  ga teng qilib olingan.

Fotoelektr metodidan, tashqi foto effektli elementlardan, o'lehash ishlarida foydalilanilda, optik spektrning ko'z ko'ra oladigan spektr uchastkasida ishlatiladi. Bunday pribor va qurilmalar juda katta sezgirlikka va kichik inersionlikka ega bo'ladi,  $\tau = 10^{-9}$  sek. Ammo, bu qurilmalardan, uzlusiz rejimda ishlaydigan va impulslar seriyasini, katta chastotada qaytaradigan generator nurlanishini o'lehashda foydalaniib bo'lmaydi. Shulami hisobga olib, shunday yorug'lik energiyasini qabul qiluvchi elementlarni ishlab chiqarishda, ularning ishlash vaqtli, impulsarning davomiylik vaqt bilan tenglashtiriladi va sezgirligi to'lgan uzunligining keng diapazonida ishlash imkoniga ega bo'lgan, o'lechov apparatlarini yaratish kerak bo'ladi. Spektrning infraqizil xududi uchun, yanada perespektiv qabul qiluvchi element (priyomnik) sifatida, yarim o'tkazgichli materiallardagi, ichki fotoeffekt hususiyatlari elementlardan foydalinish, maqsadga muvofiq bo'ladi. [43, 44, 48].

Yarim o'tkazgichli priyomniklar kam inersionli ( $10^{-4}$ - $10^{-6}$  sek) bo'lib, ularning harakteristikalari uzoq vaqt nurlanish ta'siriga chidamli bo'ladi. Ammo, yarim o'tkazgichli priyomniklarning dinamik diapazonini, unchalik katta bo'limganligi, ularni lazer texnikasi parmetrlarini o'lehashdag'i effektivlikligi kam bo'lib, ulardan foydalinish uchun, maxsus nurlanishni kuchsizlantiruvchi moslamalardan foydalinish kerak bo'ladi.

Hozirga kelib, spektrning infraqizil spektrida foydalanish uchun, yangi texnologiyalar asosida, materiallar ishlab chiqarilgan. Bularga antimonid va arsenid indiy, selenli qo'rg'oshin, qo'rg'oshin sulfat, germaniy va boshqa sezgirligi to 10 nm va undan yuqori bo'lган (masalan rux bilan legirlangan germaniy) materiallar, lazerlar haarkteristikalarini o'lashda qo'llanilib kelinmoqda [ 47,49].

#### 4.9. Impulsdagi quvvatni o'lash

Impulslari yoki impulsi-modulyasiyalangan rejimda ishllovchi lazerlar, optik lokasiya va o'zaro bog'lanishda, nochiziq optika hodisalarini o'rGANISHDA va lazer nurlanishlarini moddalarga va boshqalarga ta'sirini o'rGANISHDA ishlatilganligi sababli, ularning nafaqat energiyasini yoki nurlanishining o'ttacha quvvatini o'lashda hunda impulsdagi quvvatni o'lash ham kerak bo'ladi. Impulsdagi quvvat to'g'risida avval ham so'z yuritilganligiga qaramasdan yana takror eslatib qo'yamiz.

Nurlanishning impulsli harakteristikasini aniqlashda, uchta parametrni bir-biridan farqini bilish kerak bo'ladi:

1) Nurlanishning oniy quvvati, ya'ni nurlanishning t vaqtida, generatorming chiqish ko'zgusidan,  $r$  – masofadagi quvvati. Bu kattalik, oqim ziehligi quvvatining integrali sifatida, Umov-Poyinting vektorining skalyar ko'paytmasini  $[\vec{E} \cdot \vec{H}]$  radiusi  $r$  bo'lган yarim shar, lazerning chiqish ko'zgusini o'rab turuvchi yuzasiga nisbatan o'tkazilgan, normal vektor birligi bilan aniqlanadi:

$$P(t) = \int_s ([\vec{E} \cdot \vec{H}] \cdot \vec{n}) \cdot ds \quad (4.46)$$

bu yerda  $\vec{E}$ ,  $\vec{H}$  - elektr va magnit maydonining kuchlanishi, bu maydon lazer nurlanishi tomonidan yuzaga kelgan, yuza o'chanli S bo'lган shar;  $\vec{n}$  - shar yuzasiga normal bo'lган birlik vektor.

Lazer nurlanishi, kichik burchak ostida yo'nalgan bo'ladi, shuning uchun sharda  $S_1$  yuzani aniqlaymiz va bu yuzadan tashqarida,  $\vec{E}$  va  $\vec{H}$  vektorlarining qiymati hisobga olmas darajada, kichik bo'ladi. U xolda,

$$P(t) = \int_{S_I} ([\vec{E} \cdot \vec{H}] \cdot \vec{n}) \cdot ds \quad (4.47)$$

2) Nurlanishning maksimal oniy (pik) quvvati, oddiy ekstremumni topish yo'li bilan aniqlanadi.

$$P(t) = P_{max} \text{ agar } \frac{dP(t)}{dt} = 0 \text{ va } \frac{d^2P(t)}{dt^2} < 0 \quad (4.48)$$

Agar  $R(t)$  ning qiymati aniqlangan bo'lsa, u holda  $R_{max}$  qiymatini topish qiyin bo'lmaydi;

3) Impulsdag'i nurlanish quvvati, real generator tomonidan chiqqan impulsli nurlanishning quvvati.

Impulsli radiotexnikada aniqlanishiga o'xshab, lazer nurlanishining impulsli davomiylik vaqtiga,  $R(t)$ ning, ikki qiymat o'rtaqidagi vaqt bilan, ya'ni  $P(t) = R_{max}$ (bir maksimumli impuls uchun) aniqlanadi.

$$\tau_{0.5} = t_2 - t_1, \text{ agar } P(t_1) = P(t_2) = \frac{P_{max}}{2} \quad (4.49)$$

Bir impulsli nurlanishning energiyasi

$$E = \int_{t=0}^s P(t) \cdot dt \quad (4.50)$$

Impulsning quvvati esa, quyidagicha aniqlanadi,

$$P_{imp} = \frac{E}{\tau_{0.5}} \quad (4.51)$$

Impulsi-modulyasiyalangan nurlanish uchun, uning o'rtacha quvvati  $P_{o'n}$  va impulsning qaytarilish davri  $T$  bo'lsa, impulsning quvvati quyidagicha aniqlanadi

$$P_{imp} = P_{o'n} \frac{T}{\tau_{0.5}} \quad (4.52)$$

bu yerda,  $\frac{T}{\tau_{0.5}}$ - impulslar ketma-ketligi zichligi.

Shuni ham aytib o'tish lozimki, lazerning ko'rsatilgan parametrlerini o'lchash texnikasi va usullari, ishlash rejimiga qarab va o'lchanadigan

parametrga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Bir impulsli va impuls-modulyasiyalangan, impulslarni o'lchaydigan qurilmalar, bir-biridan farq qiladi. Haqiqatan ham bir impulsli generator, generatsiyasi parametrini o'lchash uchun, o'lchov apparatlarini, o'lchanadigan signal bilan sinxronizatsiyalash kerak bo'ladi. Bunday ishlarni bajarishda, eslab qoluvchi ossilograflardan, bir impulsli ossilogrammani sur'atga olish va bu foto sur'atlarni qayta ishlash yoki yakka impulslarni o'lchash uchun, pik qiymatlarni o'lchovchi voltmetrlardan foydalilanadi. Ayniqsa, bir impulsli lazer impulsini modulyasiyalashtirilgan asilliyligi, generatsiya impulsining nanosekundli impulsdan, pikosekundli impulsiga o'tgandagi harakteristikasini o'lchash, texnik jixatdan yanada murakkablashadi.

Impulsi-modulyasiyalangan generatsiya nurlanishi uchun, tashqi sinxronizatsiya kerak bo'ladi, o'lchash ishlarni olib boruvchi apparatlar uchun impulsni o'lchash, asosan statik kattalikni aniqlashga qaratilgan bo'ladi, ossillograf ekrani yoki pik qiymatni o'lchovchi voltmetr shkalasi yordamida aniqlanadi yoki zamonaviy foto'zgartirgichlar yordamida o'lchanadi.

#### 4.10. O'lchash metodlari

Lazerlarning, impulsli harakteristikasini laboratoriyyada o'lchash uchun, alohida aniqlash usulidan foydalilanadi. Impuls formasi signalini, kichik inersion foto'o'zgartirgichlar yordamida, ossillograf orqali va impuls energiyasi ossilogrammasini qayta ishlash va energiyani o'lchash qurilmasini ko'rsatgan qiymati natijasiga qarab, aniqlanadi. Bu usulning qulayligi shundaki, u foto'o'zgartirgich va optik sxema elementlarini absolyut kalibrovka qilishni talab etmaydi. Faqat, ossilografda qabul qilingan signalni yoyish tezligini aniqlash va nurlanishning quvvatini, priborning qabul qiluvchi elementiga tushayotgan kattaligiga qarab, chiziqli og'ishi aniqlansagina kifoya bo'ladi. Nurlanishning u o'qi bo'ylab og'ishi, u holda shunday aniqlanadi:

$$y = \alpha P(t) \quad (4.53)$$

bu yerda,  $\alpha$  -doimiy koefitsient, u holda ossilogramma ostidagi yuza, quyidagicha aniqlanadi:

$$S = \int_0^{t_{\gg T_u}} y dt = \alpha E. \quad (4.54)$$

bu yerda,  $E$  – impuls energiyasi.

$$\alpha = \frac{S}{E} = \frac{\int y dt}{E}, \quad (4.55)$$

Shundan kelib chiqqan holda,

$$P(t) = y(t) \cdot \frac{E}{\int_{t=0}^{t \gg r_u} y(t) \cdot dt} \quad (4.56)$$


Shunday qilib, agar  $a = \text{const}$  bo'lsa, oniy quvvatni va maksimal oniy quvvatni o'hash uchun hamda impulsdagagi quvvatni o'hashda, impuls formasini va energiya qiymatini bilish, etarli bo'ldi.

Ikkinci usulida, fotoo'zgartgichning chiqish signalini, absolyut birlikdagi qiymti o'chanadi. Fotoo'zgartgichning o'zgartirish koeffitsienti va attenuator yordamida, kichik signalini qiymatini, pasaytirish darajasi aniqlanadi:

$$P(t) = \frac{A}{S} \cdot U(t - \Delta) \quad (4.57)$$

bu yerda  $U(t)$  - chiquvchi kuchlanish qiymati - v; S - fotoo'zgartgichning o'zgartirish koeffitsienti (shu to'lqin uchun)  $A = \frac{PRX}{P_{\text{chiq}}}$  attenuatorning signalni pasaytirish darajasi;  $\Delta$  - apparatning vaqt bo'yicha ushlab turishi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, yuqori quvvatli impulslar uchun, ish rejimida o'zgartgichning, o'zgartirish koeffitsientini o'hash shart emas. Bunday hollarda, nisbatan soddaligida sxemalardan foydalaniлади va maksimal oniy quvvat o'chanadi. Sxemaga, o'zgartgichni chiqishidagi quvvatning, eng choqqi kattaligini o'chovchi voltmetr joylashtiriladi. Attenuatorning kuchsizlantirish darajasi ham nisbiy o'hashlar yordamida aniqlanadi (kolorimetri va foto qabul qiluvchi elementlar va boshqalar yordamida).



4.5-rasm. Maksimal oniy quvvat qiymatini o'lchashga asoslangan, ikki pik qiymatni o'lchovchi voltmetrlar usul yordamida energiyani o'lchovchi qurilmaning blok-sxemusi

4.5-rasmdan ko'rinib turishicha, fotoozgargichdan chiqqan signal, ikkita yuqori quvvatni o'lchaydigan voltmetrغا uzatiladi, ularning biriga RS-zanjir orqali ( $RS \gg \tau_u$ ). U holda formula (4.57) foydalanim.

$$P_{max} = \frac{A}{S} U_1 \quad (4.58)$$

RS-zanjirdan chiqishdagagi kuchlanishning qiymati

$$U_2 = \frac{1}{RC} \int_{t=0}^{t=\tau_u} U(t) \cdot dt = \frac{1}{RC} \cdot \frac{S}{A} \int_{t=0}^{t=\tau_u} P(t) \cdot dt = \frac{1}{RC} \cdot \frac{S}{A} \cdot E \quad (4.59)$$


U holda,

$$P_{max} = \frac{E}{RC} \frac{U_1}{U_2} \quad (4.60)$$

Energiyani o'lchovchi qurilmadagi, ko'rsatilgan qiymatni yuqoridaagi formulaga qo'yib,  $R_{max}$  ning kerakdi qiymatini aniqlaymiz. Bu usulning avzalligi shundaki, kuchlanishlar nisbati  $\frac{U_1}{U_2}$  qiymatini aniqlash, absolut qiymatlarni aniqlashdandan ko'ra aniqroq bo'ladi [27, 53].

#### 4.11. O'lehash texnikasi

Yorug'lik impulsi quvvatini o'lechovchi qurilmaning umumiyy sxemasi 4.6-rasm da keltirilgan.



4.6-rasm. Impuls quvvatini o'lechovchi o'lechagichning umumiyy sxemasi.  
1-lazer; 2-attenyuator; 3-integrator; 4-fotoo'zgartgich ; 5-qayd qiluvchi  
sxema; 6- energiya o'lechagich.

Optik kvant generatorlarining, yuqori quvvatli impulslarini quvvati va energiyasini o'lehashda, nurlanishni qabul qiluvchi fotoo'zgartgichlarning ishchi yuzasini kuchli nurlanish ostida buzilishidan saqlash uchun, generator nurlanishini kuchsizlantiriladi. Shuning uchun lazer va fotoo'zgartgichlar o'rtafiga, attenuuator joylashtiriladi.

Attenyuatorlar sifatida, frenel qaytargichlaridan, (havo va dielektrikning bo'linish oralig'iда) foydalanish mumkin. Attenyuatorlarga bo'lgan umumiyy talabalar asosan, tushayotgan nurlanishni intensivligini pasaytirgichning holatini o'zgarmas bo'lishidir. Ko'pgina holatlarda, agar o'lechagichning dinamik diapazoni katta bo'limasa, nurlanishni kuchsizlantiruvechi attenuuatorini yo, asta-sekin pog'onuma-pog'ona, bir tekis pasaytirishi kerak bo'ladi. Ko'pgina fotoo'zgartgichlar, bir tekis bo'limagan harakteristik zonaga ega bo'ladi, shuning uchun ular yordamida, to'g'ridan-to'g'ri nurlanishning oniy quvvatini o'lehab bo'lmaydi  $P(t)$ . Shuning uchun, fotoo'zgartgichlardan to'g'ri foydalanish uchun, qo'yishmecha element, nurlanish yuzasi bo'yicha integrator kirdgazish kerak bo'ladi. Natijada, chiqishda nurlanish oqimining terg meyorli oqimi olinadi. Bu oqim, faqat kirish nurlanishining to'la quvvatiga bog'liq bo'ladi. Bunday integrator sifatida, difuziyali qaytaruvchi plastinkadan foydalaniladi. Lazer nurlanishi, fotoo'zgartgichdan uzoqroq masofada (nurlanishning ko'ndalang kesimi o'lehamidan ko'p marta katta masofada)

o'matiladi. Attenuator va integratorlar nurlanishning kuchini, kuchsizlantirishda qo'llaniladi, shuning uchun ham ularni bir elementda joylashtirish mumkin.

Fotoo'zgartgichlar tushuvchi nurlanishni, elektron signaliga aylantirib beradilar. Shuning uchun ham ularning o'zgartirish koefitsienti chiziqli stabil bo'lishi kerak, hamda impuls davomiyligi vaqtiga nishbatan inversionligi vaqtining qiymati, kichkina bo'lishi kerak.

4.3-jadval

Fotoelement	Katodning yuzasi, sm <sup>2</sup>	Sezgirligi mka/mm	Spektr diapazoni mm	$\tau_p$ sek.	Chiziqli tok, A	Manbaning kuchlanishi V
FEK-08	176	40-80	380-650	$5 \cdot 10^{-9}$	Do11 Do60	1000 5000
FEK-09	12,6	10-30	380-1300	$3 \cdot 10^{-10}$	Do7 Do16	1000 2000
FEK-13	1,43	40-80	380-650	$5 \cdot 10^{-11}$	Do1,5 Do4,0	1000 2000
FEK-15	16,43	10-30	380-1300	$5 \cdot 10^{-11}$	Do1,5 Do4,0	1000 2000

Fotoo'zgartgichlar, tashqi fotoeffekt hususiyatidan (fotoelement, fotokuchaytirgich) lazer impulsli xarakteristikasini o'chashda, keng qo'llanilib kelinmoqda. Keng ko'lamli koksial fotoelementlarni FEK [50] ishlab chiqarilishi, ularni effektiv amaliyotda qo'llanilishiga imkoniyat yaratdi. Bunday fotoelementlarning modifikasiyasi, quyidagi 4.3-jadvalda keltirilgan.

Sanoatda ko'plab ishlab chiqariladigan, foto ko'paytirgichlar modifikasiyasi: FEU-36, FEU-15B, FEU-28 va boshqalar. Lazer nurlanishining qisqa vaqtli, nanosekundli impulslarini vaqt jixatidan aniqlashga imkon beradi. Hozirgi zamонавиyo foto ko'paytirgichlarning yangi turlari, yorug'lik impulsining  $10^{-10}$ - $10^{-13}$  sek ga teng bo'lган, davomiylik vaqtiga juda qisqa impulsarni o'chashga imkoniyat yaratadi. Fotoelementlarning asosiy kamchiliklariga, ularning spektral diapazonini torligi va shu diapazonga o'zgartirish koefitsientining bog'liqligi hisoblanadi.

Bu o'rinda fotodiодлар va fotoqarshilikdагар ham keng qo'llaniladi, yarim o'tkazgichlarda, ichki fotoeffektdan foydalilanadi. Bunda, fotonlar ta'sirida, elektron-kovak juftligi hosil bo'ladi. Fotodiод va fotoqarshiliklarning ishchi spektral diapazoni, ishlab chiqarilgan moddaning hususiyatiga, ishlab

chiqarish texnologiyasi va ishchi temperaturasiga bog'liq bo'ladi. Hozirgi kunga kelib, optik foto'zgartgichlar sifatida shaffof, nochizq kristallardan foydalanish imkoniyati tug'ildi [58]. Bunday kristallar qatoriga, yuqori optik mustahkamlikka ega bo'lgan KDR-120 mvt/sm<sup>2</sup>, ADR-600 mvt/sm<sup>2</sup> ega bo'lgan kristallar kiradi. Bunday kristallarning ishchi spektrall diapazoni, fotopriyomniklarinikiga qaraganda keng bo'ladi.

Shunday qilib, lazerlarining to'ljin uzunligi, impulsning davomiylik vaqtini va nurlanishining quvvatiga qarab, turli foto'zgartgichlardan foydalaniladi. [4,5,11,16,40].

Amaliyotda keng qo'llanilayotgan va keng tarqalgan foto'zgartgichlar quyidagi 4.4-jadvalda keltirilgan:

4.4-jadval

Qurilma	Qo'llanilgan effekt	Spektral diapazon mkm	Inersionlik sek	Chiqish toki a	Nurga chidamliyligi
Fotoelement FEK	Tashqi foto effekt	0,3 – 1,2	$5 \cdot 10^{-11}$ $5 \cdot 10^{-11}$	3 1	Yuqori emas
Foto-qarshilik	Ichki foto effekt	2-7 Sovutilmaydi	$10^{-9} - 10^{-10}$	0,1	O'rtacha
Fotodiiod		20-30 Sovuilibadi 77-4,2'K			
Piropriemnik Tez xarakatlanuvchi bolometr	Issiqlik yordamida qizdirish	Juda keng	$10^{-6} - 10^{-7}$	Kichik	O'rtacha
-	Noiziq optik effekt	Keng	$10^{-6} - 10^{-8}$	Kichik	Yuqori

#### IV-bo'lim bo'yicha o'zlashtirish savollari:

- Optik kvant generatorining parametrlari?
- Lazer generatoring energiyasi va quvvatini o'lehash usullari?
- Lazer energiyasi va quvvatini o'lechovchi o'lebagichlar?
- Fotoelektrik usul nima?
- Impulsdagi quvvatni o'lehash?
- O'lehash usullari?
- O'lehash texnikasi?

## ADABIYOTLAR

1. Бутурин Б. И., Носов Ю. Р. Волоконно-оптические датчики: физические основы, вопросы расчета и применения. М.: Энергоатомиздат, 1990.- 256 с.
2. Волоконно-оптические датчики. Под ред. Э. Удда. М.: Техносфера. 2008. – 520 с.
3. Towards a Bright Future for Europe. Strategic research agenda in photonics. 2006
4. The Photonics Dictionary, Laurin Publishing Co Inc., USA, 2004. 6. Photonics: a UK strategy for success", July 2006 7. Фотоника. Словарь терминов. Изд. РАН, 2004
5. Лейкин А. Я., Соловьев В. С., «Измерительная техника», 1970, №9 1967.
6. Конюхов В. К-. Кулевский Л. А., Прохоров А. М. Энергетические и спектральные характеристики импульсной ксеноновой лампы ИФП-5000. Журнал прикладной спектроскопии, 1964, т. 1, № 1.
7. Королев Э.А., Хазов Л.Д. Расчет схем питания импульсных ламп для накачки твердотельных ОКГ. Журнал прикладной спектроскопии, 1967, т. 6,
- 8.Карасик В.Э., Сахаров А.А. Лазерная оптико-электронная лаборатория МГТУ им.Н.Э. Баумана. Лазер Информ, выпуск №3 (402), февраль 2009 г.
- 9.Лейкин А. Я., Соловьев В. С., «Измерительная техника», 1970, №9
- 10.Лебедев Л.Ф. Зарядное устройство с балластным дросселем для импульсных источников света. «Светотехника», 1969, №3
- 11.Вакуленко В. М., Иванов Л. П. Зарядная сеть эмкостного накопителя с удвоением напряжения. ПТЕ, 1970, № 5.
- 12.Вакуленко В. М. Эффективная схема питания импульсных ламп. Журнал прикладной спектроскопии, 1970, т. 13, №3.
- 13.Королев Э. А., Хазов Л. Д. Расчет схем питания импульсных ламп для накачки твердотельных ОКГ. Журнал прикладной спектроскопии, 1967, т. 6, № 4.
14. Лейкин А. Я., Соловьев В. С., Зимокосов Г. Н., Труды ВНИИФТРИ. М., Изд-во стандартов, 1967, № 90 (150).
15. Ландсберг Г. С., Оптика, М: « ФИЗМАТЛИТ», 2003, 848 стр

16. Месяс Г. А., Насибо в А. С., Кремнев В. В. Формирование наносекундных импульсов высокого напряжения. Изд-во «Энергия», 1970. 372стр
17. Фонг. Оптический вентиль импульсного действия с длиной волны 1,06 мкм. «Приборы для научных исследований», 1970, № 10.
18. Методы расчета оптических квантовых генераторов, под ред. Б. И. Степанова, т. 2, Изд-во «Наука и техника», Минск, 1968.
19. Дианов Э. М., Прохоро в А. М. ДАН СССР, 1970. т. 192, № 3. стр. 531.
20. Ананьев Ю. А. УФН, 1971. т. 103, № 4, стр. 705.
21. Белостоский Б. Р «Основы лазерной техники» Изд-во «Высшая школа», 1972.420стр.
22. Белостоский Б. Р. В сб. «Квантовая электроника». Изд-во «Советское радио», 1971, № 5, стр. 77.
23. Ritus.A.I.,Mapekova.A.A. Pisina v JETF, t.6,№1 lsru.927,1967.
24. Белостоский Б. Р. Тепловой режим твердотельных оптических квантовых генераторов непрерывного действия. Изд-во ЛДНТП, 1970. 350 стр
25. Ровинский Р.Э.Мощные технологические лазеры. 2005 год. - 103с.
26. Труды ВНИИФТРИ. М. Изд-во стандартов, 1967, вып 90 (150)
27. Блох.А.Г.Основы теплообмена излучением. М-Л.Госенергоиздат 1962.
28. Тарасов Л.В. Введение в квантовую оптику. Уч. пособие. 2-э изд. 2008 год.
29. Спрингер Справочник лазеров и оптики. 2007 год. 1342 стр. ст .Григорянс
30. Либенсон, Яковлев, Шандыбина. Взаимодействие лазерного излучения с веществом. Часть 1. Механизмы поглощения и диссирипции энергии в веществе. ИТМО, 2005 год. 85 стр.
31. В.П. Вейко, Э.А. Шахно Сборник задач по лазерным технологиям. 2007 год. 67 стр.
32. А. Г., Казарян М. А., Лябин Н. А. Лазеры на парах меди: конструкция, характеристики и применения. 2005. 312 стр.
33. В.П. Вейко. Технологические лазеры и лазерное излучение. 2007 г. 52стр
34. Б.Салех, М. Тейх. Оптика и фотоника принципы и применения Изд-во Интелект. Долгопрудный 2012 г.754 стр Перевод с анг. В.Л.Дербова.

35. Ровинский Р.Э.Мощные технологические лазеры. 2005 год. - 103стр.
36. Тарасов Л.В. Введение в квантовую оптику. Уч. пособие. 2-е изд. 2008.
37. Розеншер Э., Винтер Б. Оптоэлектроника. М.: Техносфера, 2004. - 592 с.
38. Ермаков О. Прикладная оптоэлектроника. М.: Техносфера, 2004. - 416 с.
39. Hoffman M., Voges E. Bulk silicon micromachining for MEMS in optical communication systems // Micromach. Micro eng. 2002. V. 12. P. 349.
40. Сидоров А. И., Никоноров Н.В Материалы и технологии интегральной оптики. Уч. пособ. СПб: Изд. СПб ГУ ИТМО, 2009, 107 с.
41. Фриман Р. Волоконно-оптические системы связи. М.:Техносфера, 2004.- 496 с.
42. Ораевский А. Н. Волны шепчущей галереи // Квант. эл. 2002. Т. 32, № 5. С. 377.
43. Клинов В. В. Наноплазмоника. М.: Физматлит, 2009, 480 с. 20. Сидоров А. И. Нанофотоника и плазмоника. Уч. пособ. СПб: ГЭТУ, 2009. - 80 с
- 44.Маликов, Р.Ф. Основы математического моделирования [Электронный ресурс]: учебное пособие / Р.Ф. Маликов. - Электрон. дан. - Москва: Горячая линия-Телеком, 2010. - 368 с. Режим доступа: <https://e.lanbook.com/book/5169>. - Загл. с экрана. <https://e.lanbook.com/reader/book/5169/#1>
- 45.Розанов, Н.Н. Диссипативные оптические солитоны. От микроко- и нано- и атто- [Электронный ресурс]: учебное пособие / Н.Н. Розанов. - Электрон. дан. - Москва: Физматлит, 2011. - 536 с. - Режим доступа: <https://e.lanbook.com/book/5289>.  
<https://e.lanbook.com/reader/book/5289/#1>

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
Shartli belgilar.....	4
<b>I. BO'LIM.</b> 1. Lazer texnikasi asoslari.....	6
1.1. Lazer texnikasining fizik asoslari.....	6
1.2. Invers muhit.....	6
1.3. Tebranishlar turlarini shakllanishi.....	9
1.4. O'z-o'zidan nurlanish.....	10
1.5. Majburiy nurlanish.....	11
1.6. Nurning yutilishi.....	12
1.7. Lazer generatorini ishlash tamoyillariq.....	13
1.7.1 Damlash (atomlarni qo'zg'algan holatga keltirish) sxemalari.....	17
1.8. Lazerlarning klassifikasiyasi.....	18
1.8.1. Rubin (yoqut) kristalli.....	18
1.8.2. Neodim ionlari bilan aktivlashtirilgan shisha.....	23
1.8.3. Yarim o'tkazgichli lazer.....	24
1.8.4. Gazli lazerlar.....	27
1.8.5. Suyuqlikli lazerlar.....	29
1.8.6. Eksimer lazerlari.....	36
1.9. Optik rezonatorda kinetik jarayonlarni boshqarish.....	41
1.10. Lazer nurlanishini kuchaytirish.....	42
1.11. Lazer nurlanishining hususiyati.....	45
<b>II BO'LIM.</b> 2. Lazerlarning optik sxemasining elementlari.....	49
2.1. Optik yoritish tizimlari.....	49
2.2. Aktiv elemental.....	54
2.3. Optik elementlar.....	56
2.3.1. Ko'zgu.....	56
2.4. Rezonansli yorug'lik qaytargich.....	59
2.5. Prizmalar.....	62
2.6. Diafragmalar.....	66
2.7. Rezonatorlar.....	66
2.8. Turg'un rezonatorlar.....	71
2.9. Turg'un bo'lмаган rezonatorlar.....	74
2.10. Lazer qurilmalarining rezonatorlari.....	76
2.11. Bo'ylama to'lqin turlarini seleksiya.....	78

2.12. Ko'ndalang to'lqin modalarini seleksiyasi.....	81
2.13. Optik - mehanik yorug'lik to'sqichlari (zatvorlari).....	83
2.14. Fototrop yorug'lik to'sqichlar.....	88
2.14.1. Fototrop yorug'lik to'sqichlarning tuzilishi.....	88
2.15. Elektrooptik nur to'sqichlarlar.....	89
2.16. Pokkels effektiga asoslangan elektrooptik elementlar.....	90
2.17. Kerr effektiga asoslangan elektrooptik elementlar.....	95
2.18. Polyarizatorlar (Qutblagichlar).....	99
2.19. Nur to'sqichlarning asosiy harakteristikalari va elementlarni yustirovkasiga (sozlashga) bo'lgan talablar.....	101
2.20. Optik ventillar.....	104
<b>III BO'LIM. 3-Optik rezonatorlarni boshqaruvi.....</b>	<b>109</b>
3.1.1. Nanosekundli impulslarni olish.....	109
3.1.2. Pikosekundli impulslarni olish.....	112
3.2. Lazer rezonatorlarini elektrooptik boshqaruv.....	116
3.2.1. Rezonatorning ishlash darajasi asilliyligini tezda bog'lash natijasida, nanosekundli impulslarni olish.....	116
3.2.2. Lazerlar rezonatoridagi energiyani chiqarishda, nanosekundli impulslarni shakillantirish.....	120
3.2.3. Modalar sinxronizatsiyasi natijasida, pikosekundlik impulslarning shakillanishi.....	121
3.2.4. Tashqi qayta bog'lanish yordamida, impulslar parametrlarini boshqarish.....	122
3.3. Elektrportlovchi plynokali nur qaytargichli optik sxemalar.....	123
3.4. Modalar seleksiyasi sxemasi.....	125
3.4.1. Fototrop nur to'sqichli sxemalarda modalar seleksiyasi.....	126
3.4.2. Elektrooptik boshqaruvli sxemalarda modalar selekssiyasi.....	129
3.4.3. Optik kvant kuchaytirgichlari.....	134
3.4.4. Yorug'lik nurini kuchaytirish uchun invers holatni hosil qilish.....	137
3.4.5. Bir tomonga yo'nalgan, yuguruvchi to'lqinlarning kuchaytirgichi.....	139
3.4.6. Ko'p o'tish yo'lakli optik kuchaytirgich.....	141
3.4.7. Regenerativ optik kuchaytirgich.....	144
3.4.8. Boshqariladigan rezonatorli kuchaytirgich.....	145
3.5. Ikkinchisi garmonikani olish uchun qo'llaniladigan optik sxemalar.....	147

3.5.1. Ikkinchi garmonika olishda silindrsimon optikadan foydalanish.....	149
3.5.2. Lazer rezonatorida ikkinchi garmonika generatsiyasini olish.....	151
3.6. Optik sxemalarni yustirovkasi.....	155
3.6.1. Lazerni yustirovka qilish (sozlash) usullari.....	160
<b>IV BO'LIM. 4-Optik kvant generatorlari</b>	
parametrlarini o'lchash bo'yicha nazariy uslubiy qism.....	167
4.1. Lazer nurlanishining xarakteristikalarini o'lchash.....	167
4.1.1. Lazerlarning fazoviy-vaqt xarakteristikaları.....	168
4.1.2. Lazerlarning energetik parametrlerini o'lchash.....	168
4.2. Lazerlarning energetik parametrlerini o'lchash usullari.....	172
4.3. Lazerlar energiyasi va quvvatini o'lchovchi kalorimetrlı qurilmalar.....	177
4.4. Optik quvvat va energiyani o'lchovchi kalorimetrarning tuzilishi.....	178
4.5. Lazer nurlanishining energetik harakteristikalarini o'lchovchi ponderomotorli o'lchagichlar.....	185
4.6. Ponderomotor o'lchagichdag'i manfiy qayta bog'lanish.....	188
4.7. Lazer nurlanishining quvvati va energiyasini o'lchovchi ponderomotorli o'lchagichlarning tuzilishi.....	191
4.8. Fotoelektrik usul.....	193
4.9. Impulsdagi quvvatni o'lchash.....	197
4.10. O'lchash metodlari.....	199
4.11. O'lchash texnikasi.....	202
<b>ADABIYOTLAR.....</b>	205

## QAYDLAR UCHUN

**M.A.TURSUNOV**

# **LAZERLAR TEXNIKASI**

**Darslik**

Muharrir:	— S.A. Dustnazarova
Musahhih:	— D.X. Usmanova
Dizayner:	— D.R. Fozilov
Kompyuterda sahifalovchi:	— M.Sh. Fozilov



Noshirlik faoliyatini boshlagani haqida vakolatli  
davlat organini xabardor qilgani to'g'risida  
**TASDIQNOMA № 3991**

2023-yil 16-avgustda bosishga ruxsat etildi  
Bichimi 60x84, 1/16, Times New Roman garniturası.  
Ofset bosma. Shartli bosma tobog'i 13,5 Adadi 100 nusxada.

Toshkent shahar, Uchtepa tumani, Maxorat-71



Matbaa faoliyatini boshlagani haqida vakolatli  
davlat organini xabardor qilgani to'g'risida  
**TASDIQNOMA № 0034**

"Shafoat nur fayz" MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahar, Olmazor tumani, Nodira-19  
Telefon +99899 993-83-36